TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

SAID AZIM SHIRVONIY

MIRZO ALIAKBAR SOBIR

MUHAMMAD HODIY

61

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

SAID AZIM SHIRVONIY

MIRZO ALIAKBAR SOBIR

MUHAMMAD HODIY

61

1619324

TDTU ABONT
ARM (KUTUBXONA)

"O'ZBEKISTON"
TOSHKENT — 2022

UO'K 821.512.162-1
KBK 84(5Ozar)-5
S 21

Tahrir hay'ati:

Xayriddin Sulton – hay'at raisi,
Ibrohim G'afurov, Sirojiddin Sayyid, Asadjon Xodjayev,
Behzod Yo'ldoshev, Minhojiddin Mirzo, Muhammad Ali,
Ahmadjon Melibоyev, Kengesboy Karimov, Isajon Sulton

Ishchi guruh:

Ikrom Bo'riboyev, G'ofur Eshmurodov, G'ayrat Bozorov,
G'ayrat Majid, Tohir Qahhor, Rustam Musurmon,
Risolat Haydarova, Umid Hayitov

To'plovchi va nashrga tayyorlovchi:

Karim Bahriyev

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 15-oktabr kuni Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo'lib o'tgan Turkiy davlatlar hamkorlik kengashining yettinchi sammitida tashkilotga a'zo davlatlar adabiyotining eng sara namunalaridan iborat "Turkiy adabiyot durdonalari" deb nomlangan 100 jildlik kitoblar turkumini har bir mamlakatning ona tilida nashr etish g'oyasini ilgari surgan edi.

Ushbu ezgu tashabbus asosida birinchi bo'lib O'zbekistonda mana shu muhtasham adabiy majmua yaratildi.

Mazkur keng ko'lamli, zalvorli badiiy silsilaga umumturkiy adabiyotning eng yetuk namunalari, O'zbekiston, Turkiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Ozarbayjon, Turkmaniston va Vengriya davlatlarining atoqli shoir, adib va mutafakkirlarining asarlari kiritildi.

Turkiy tilli davlatlar orasida ilk bor ro'yobga chiqarilgan ushbu yirik loyiha ona yurtimizda madaniyat va san'atga ko'rsatilayotgan ulkan g'amxo'rlikning, xalqimizning qardosh xalqlar va ularning so'z san'atiga nisbatan yuksak hurmat-ehtiromining ramzidir.

ISBN 978-9943-8725-8-5
©"O'zbekiston" nashriyoti, 2022

KULGI ZAMIRIDAGI FARYOD

Jadidlar — o‘z xalqlari uchun dunyo xalqlariga integratsiyalashish barobarida milliylikni saqlab qolish, jahon xalqlari kabi taraqqiyotga erishish, bedanani sayratib, choyxonada osh yeb o‘tirish barobarida kosmosga uchayotgan xalqlardan ham ilm o‘rganish, milliy qobiqda qolib ketmaslik, diniy va dunyoviylikni yaxlit anglash tarafdori sifatida o‘z zamonlarida ham, olamdan o‘tib ketganlaridan so‘ng ham, hanuzgacha ta’qibda bo‘ldilar.

Mutaassiblar ularni dunyoviy bilim istaganlari uchun kofirga chiqardilar, dunyoviylik tarafdorlari taqvolari uchun mutaassiblikda aybladilar, kosmopolitlar ularni millatchiga chiqardi, millatchilar esa bu millatparvarlarni millat taraqqiysi uchun dunyo bilan hamkorlik qilish talablari tufayli sotqinlikda aybladilar, “bosmachi” ham, “panturkist” ham, “vatan xoini” ham shular bo‘ldilar, otildilar, osildilar, unutildilar.

Holbuki, ular Turkiston, Kavkaz, Qrim, Oltoy, Tuva, Bulg‘oriston, Majoristongacha bir-birlarini tanirdilar, bir-birlariga madadkor edilar.

Mazkur jildda Ozarbayjon adabiyotining XX asr boshida qalam tebratgan uch buyuk jadid shoirning ijod namunalari havola etilmoqda.

* * *

Said Azim Shirvoniy Shamaxida taqvodor oilada dunyoga keldi. Otasini erta yo‘qotgani uchun uni bobosi voyaga yetkazdi. Avval o‘z yurtida, keyin Iroq va Misrda diniy ilmlarni egalladi.

Muhojirlikdan qaytganidan so‘ng dunyoviy fanlarga, ta’limga qiziqdi, o‘ris tilini ham o‘rgandi, nafaqat o‘zi yaxshi bilgan arabiy va forsiy adabiyotni, balkim Ovro‘po madaniyatini ham o‘rgandi hamda Shamaxida diniy va dunyoviy bilimlarni o‘rgatadigan maktab ham ochdi.

Shirvoniy hajv tig'i bilan o'z xalqining dunyoviy taraqqiyot yo'liga kirishiga to'sqinlik qiladigan jaholatga qarshi kurashdi.

Shu bilan birga uni o'ylantirgan eng katta balo — zulm va zo'ravonlik edi va u buni tarixdan misollar bilan anglatardi — ezgu va yovuz hukmdorlarni taqqoslardi. U mumtoz adabiyotga, jumladan, Nizomiyga murojaat qiladi, mumtoz sujetlarni va rivoyatlarni zamonaviy yo'singa cheviradi va o'z hikoyalarini yaratadi ("Shoh va dehqon", "Horun va shoirlar", "Shoh va bog'bon", "Iskandar va qariya", "Sa'diy va xasis", "Iskandarning vasiyati" va hokazo.).

Uning hajv tili uning o'quvchilariga, xususan uning ta'limini olgan, mazkur jildga kirgan Mirzo Aliakbar Sobirga ham o'tadi.

* * *

Ozarbayjon adabiyotida o'zining sharafli o'rniga ega bo'lgan Mirzo Aliakbar Sobir Tohirzoda Shirvoniy (1862–1911) XX asr boshida ijtimoiy satiraning darg'alaridan biri o'laroq, Yaqin va O'rta Sharqda ma'lum va mashhur edi, uning she'rlari Ozarbayjondan tashqari Tiflis, Peterburg, Ashtarxon (Astraxan), Samarqand, Istanbul gazetalarida chop etilardi.

Shoirning "Xo'p-xo'pnoma" devoni yigirmanchi va yigirma birinchi asrda ham o'z o'quvchilarining sevimli kitobi bo'lib qolmoqda. Undagi she'rlar asosan 1903–1911-yillarda dastlab gazeta, jurnallarda, majmualarda chop etilgandi.

1907-yilda Peterburgdagi "Ülfət" (Ulfat) gazetasi (1905–1907) Sobirning "Irşad" taxallusi ostida "Təhəssür" (Hasrat) she'rini chop etdi (8-mart 1907, №63). Keyin uning she'rlari Astraxandagi "Bürhani-tərəqqi" gazetasida (1906–1911) chiqa boshladi (21-yanvar, 1911, №131).

Shoir vafotidan so'ng bir yil o'tgach, Abbos Sahhat va Mahmudbek Mahmudboyev shoirning eng ulkan orzusini amalga oshirdilar — 1912-yilda "Hophopnamə" ("Xo'p-xo'pnoma") devoni ilk bor chop etildi. Asar 1922–1948-yillarda ham chop etilgan. Sobir ijodining to'la ilmiy-akademik nashri 1962–1965-yillarda shoir tavalludining 100 yilligi doirasida tayyorlandi. Shoirning "Şərqi-Rus" (1903–1905), "Həyat" (1905-1906), "Irşad" (1905-

1908), "Dəvət" (1906), "Təkamül" (1906–1907), "Tazə həyat" (1907–1908), "Yoldaş" (1907), "Məzhər" (1908–1911), "Tərəqqi" (1908–1909), "Ittifaq" (1908-1909), "Səda" (1909–1911), "Həqiqət" (1909–1910), "Günəş" (1910–1911), "Nicat" (1910–1912), "Hilal" (1910–1911), "Yeni həqiqət" (1911), "Məlumat "(1911), "Yeni irşad" (1911–1912) gazetalari, "Molla Nəsrəddin" (1906–1911), "Dəbistan" (1906–1908), "Rəhbər" (1906–1907), "Füyuzat" (1906–1907), "Həqaiq" (1907–1908), "Bəhlul" (1907), "Zənbur" (1909–1919), "Mirat" (1910), "Yeni füyuzat" (1910–1911), "Arı" (1910–1911), "Işıq" (1911–1912) jurnallarida chop etilgan she'r va hajviyalari qamrab olindi.

Sobir she'riyatining o'ziga xos jihatlaridan biri shuki, u taraqqiyot dushmanlari, johil kimsalarni ularning o'z tilidan fosh etadi, "ichkari"dan ochib beradi. Uning quyidagi she'riga e'tibor bering:

Millat qancha talosh bo'lsin, ne ishim bor?!
Dushmanlarga muhtoj bo'lsin, ne ishim bor?!
Qo'y, men to'q bo'lay, o'zgalar-la ishim yo'qdir,
Dunyo-yu jahon och bo'lsin, ne ishim bor?!

Sas berma, yotganlar bid'atda, qo'y yana yotsin,
Yotganiga rozi bo'lmasa, kimsa uyg'otsin,
Bitta-bitta botsa-da, haq dodimga yetsin,
Man omon bo'lay, jumla jahon botsa-da botsin...

Sobirga ko'ra, qoloqlikning sababi jaholatdir, ilmsizlikdir, demakki o'qimoq kerak, diniy va dunyoviy ilmlarni bilmoq lozim. Ammo mutaassib to'dalar yangi maktablarga, dunyoviy ilmlarni o'qishga qarshi chiqadilar.

Shoir boshqa bir she'rida o'qishni niyat qilgan o'g'lini bu yo'ldan qaytarishga intilgan ota tilidan johiliyatni fosh qiladi:

Bilmam ne ko'ribdur bizning o'g'lon o'qimoqdan?!
Ding bo'ldi qulog'im!
Jurnal, gazeta, har neni hayron o'qimoqdan
Qiynaldi ushog'im!
Basdir, o'qiding, oz qoldiki joning ado bo'ldi,
Bu ishdan qo'l tort!

Yozmoq, o'qimoq boshingga badtar balo bo'ldi,
Yozishdan qo'l tort!
Ming ilm o'qirsan, so'z bilarsan — hurmating bo'lmas
Bu dorul jahonda;
So'z bahrida gavhar bo'larsan — qimmating bo'lmas
Bul xasta zamonda.

Yo'q, yo'q, boqdim fikringga, sendan o'g'il chiqmas,
Joyingmi jahannam!
Milt-milt o'qimoqdan, inson, bir tanga pul chiqmas!

Sobir har nasadan mol-dunyoni ustun qo'yadigan toifani o'z tilidan fosh qiladi, u pul haqida yozadi:

Moyilman, barcha bilar, davlat-u puldoringga men
Ki, boqdim subh-u shom shavq ila diydoringga men,
Dinimni, mazhabimni sarf etdim uzoringga men,
To'ymasman, to'lsa jahon, dirham-u dinoringga men,
Mustahaqlar turar sandig'iga yaksar nigoron,
Mening va ummatning qoni, senga jonim qurbon!

Sobir ijtimoiy masalalarni shiddatli kechimda tasvirlaydi. Ijtimoiy muammolarning asosi adolatsizlikda ekanini ochib beradi. Adolatsizlik boy va qashshoqlar o'rtasidagi tafovutni kattalashtiradi va yurt taqdirini xafvli chegaraga olib keladi. Shoir boy va kambag'al hayoti haqida yozarkan, hatto bayram, hatto din peshvolari bu ijtimoiy adolatsizlikni keskinlashtirayotganini biladi.

Bayram qilar shavkatlilar shonlilar,
Davlatlilar, pullilar, milyonlilar,
To'qbo'yinlar, shishqorinlar, jonlilar
Qurbon qilur Xalilulloh ishqi deb,
Fisq-u fujur qilar Alloh ishqi deb.

Ikki qo'shni — birdir asli millati,
Har ikkisi bir payg'ambar ummati,
Biri qurbon qilar, pishirar etni,
Bayram qilar Xalilulloh ishqi deb,
Boshqasi ham boqar Alloh ishqi deb.

Ko'rarmisan yurtning Hoji Pirini,
Yeyolmaydir go'shtning o'ndan birini,
Qo'shnisi och, so'rar barmoq kirini,
Hoji yeydi Xalilulloh ishqi deb,
Yotar, turar, shishar Alloh ishqi deb...

Yil ketidan yil o'tadi. Mana, Navro'z keladi. Hamma quvonadi, ammo kambag'allar o'kinadi:

Ey pullilarning safosi, Navro'z!
Tojirlarning oshinosi, Navro'z!
Bir millatning bayramisan, nechun
Bo'lding bechoraning qazosi, Navro'z?!

Shoir yoshlardan umidlanadi, eng katta boylik — yoshlikdir, deydi, Zero:

Yoshsan, qashshoqlikdan shikoyat qilma,
Yoshlikdan-da buyuk bir sarvat bo'lmas!
Keksaning to'rt yoni to'la pul bo'lsa,
Belinda go'dakcha bir quvvat bo'lmas!

Mirzo Aliakbar Sobir turkiylarning birlashuvi, bir mamlakat, bir davlat bo'lishi bilan qudratli ekani borasida ham fikr yuritadi. Albatta, turkiy davlatlarning ko'pligi shonli bir reallikdir, ammo ular bir-biri bilan monand siyosat yuritmog'i, bir-birini dastaklamog'i dunyoning ular bilan hisoblashmog'iga olib kelishini biladi shoir va reallikdan ajablanadi:

Der edik bir zamonlar biz kamoli faxr-u himmat-la:
"Jahongirona bir turkiy davlat chiqarsak bu yurtdan!"
Bu kun-da iftixor etsak sazodir qayg'u, hasrat-la:
Karamkorona besh davlat yetishdi bir raiyatdan!

Millatni yuksaltiradigan vosita adabiyotdir, madaniyatdir, fikratdir, milliy zehniyatdir. Millat tafakkurini o'stirishda oydinlarning, ziyolilarning, millat olimlari, zohidlari va oriflarining alohida, hech kim egallab ololmaydigan o'rni bordir. Orif kimdir? Zohid kimdir? Oqil kimdir? — kabi savollar ustida shoir ko'p o'ylanadi:

Orif kimdir? — deya so'rdim, dedilar bul zamonada:
Orifning endi na dini va na ilm, na imoni bor.
Buni bildim, tanidim men. "Zohid kim" deb so'rdim.
Derlar:
Zohidning ilmi yo'qsa-da, xo'p tubsiz jig'ildoni bor.

Boshqa bir 1910-yilgi she'rida ham shu masalani ko'targan Sobir millatning turli soha insonlarining istaklarini taftish qiladi:

Eronli derki, mudom adl ila tot bo'lsin,
Usmonli derki, Alloh, millat ozod bo'lsin,
Zohid ne deydi? — Deydiki, qornim to'lsin,
Eronli ham, Usmonli ham barbod bo'lsin!

Savdogar chopar — bir tijorat qilsin,
Omi chopar — shunga bir xizmat qilsin,
Ish mullolarniki — el chopsin, topsin,
Yotsin, tursin, qush go'shtli ovqat qilsin.

Jurnal, gazeta chiqar ki, millat o'qisin,
Har bir asarindan olsin ibrat, o'qisin,
O'rischa o'qiganga bu ish malol kelar,
Derlar, buni qo'y, qora jamoat o'qisin.

Shoshgin zikr-u sajdaga bosh qo'ymoq uchun,
Zohid yugurar masjidga ajr yulmoq uchun,
Xalqi berganini oldi-da yedi,
Endi yugurar mavlodan ham olmoq uchun.

O'z erki qo'lida bo'lmagan millat haq-huquqlarini tiklamoq uchun, o'z taqdiriga, xalqiga, diniga o'zi ega chiqmoq uchun birlashishi kerak. Millatning fojiasi — ittifoqning, yakdillikning yo'qligi, sotqinlikning avj olishidir. Sobirni bu og'ir qayg'uga soladi:

Boshqa millatdin huquqin olmoq uchun har zamon
Inqilobiyun, salohiyun, rashodiyun chiqar!
Bizdan esa sotmoqqa nomusi orzuyi millatin
Sotqiniyun, xumoriyun, fasodiyun chiqar!

Milliy yakdillikning yo'qligi, elning tarqoqligi, orzularning turlichaligi xalqni farovonlik va erkinlikdan mosuvo yashashiga sababdir. Milliy o'zlik va o'z vataniga egalik tuyg'usi ko'pdan ziyolilarninggina orzusi bo'lib qolmoqda edi. Yurtning orifi zohidi bilan ayro edi:

Orif yugurar ki, millat ozod bo'lsin,
Zohid yugurar ki, masjid obod bo'lsin.
So'z bo'yinbog'i silliqlarga berildi:
Bir "madmuazel" bo'lsin ki, parizod bo'lsin!

Bu tafakkurdagi tarqoqlikning kasriga ijtimoiy-iqtisodiy tarqoqlik yuzaga keladi. Yuksak fikrga ega bo'lmagan el ilmiy-texnikaviy taraqqiyotdan ham ortda qoladi:

Tindirar asr bizni — tinmagaymiz,
To'kilgan el uchun o'ksinmagaymiz;
Ajnabiy sayrga havo sharida chiqar,
Biz haligacha avtomobil minmagaymiz;
Qushday ko'kda uchar ul yerlardagilar,
Bizni yerga ko'mdi minbardagilar!

Fikriy qoloqlik iqtisodiy qoloqlikni keltirib chiqarishi barobarida xurofotni ham keltirib chiqaradi, soxta tabiblar, kuf-sufchilar, jodugarlar-u firibgarlar ko'payadi. Shundoq bir "tabib" haqida Sobir "Azroilning iste'fosi" she'rida yozadi. Azroil Allohga murojaat qiladi: "Ey, robbil olam... Bir "tabib" bandang bu yil qullaringni qirdi tamom", — deydi. Azroil har jonni olish uchun qanchalar halak bo'ladi, xijolat qiladi, bu "tabib" esa "jonni olar bemalol ming-mingtalab".

Sen bergan jonlarni ming-mingin bu zolim oladi,
Ko'rdimki, quling deb, yohu, bu olamda kim qoladi?
Qo'y, olay jonin uning, el kutsin mahsharini,
Yo'qsa, billoh, bu qirar qullaringning barini.
Bu iltijoyimni qabul aylamas bo'lsang biroq,
Karam et, to amalimdan ketkazganing ham yaxshiroq.
Boshqa bir xizmatni ber, ayla meni minnatdor,
Azroil bo'lmoqni ber shu tabibingga zinhor".

O'sha mashhur "Tohassur" (Hasrat) she'rida Mirzo Aliakbar Sobir ittifoq istab, nifoqdan bo'shamayotgan xalq tufaylik hasratlarini bayon qiladi, zero:

Bo'lsaydi safo zumrayi irfon orasinda,
Qolsaydi vafodan asar a'yon orasinda,
Tursaydi sadoqat boy ila xon orasinda,
Qolmasdi azob zarracha inson orasinda!
Birlikka quvvat erur biz uchun Qur'on,
Amr aylar ekan birlikka Payg'ambari shon,
Topmaysan nega ikkita pok do'stni musulmon
Kavkazda bo'lgan bir necha milyon orasinda?!
Axir, bu ne tafriqi taxalluqdir, ey ummat?!
Qo'ldan ketmoqda, anglamaysizmi, bu millat?!
To kay bu muxolif, bu tafarruq, bu adovat
Bir din, bir islom-u bir imon orasinda?!

Yuqoridagi satrlar shoirning umr intihosida aytilgan hasrati, bizlarga yurtni obod va xalqni yakdil qilish vasiyatidir. Millat hamma millatni teng ko'rgan holda, hech bir boshqa millat oldida bosh egmasligi kerak:

Bir o'ris ko'rinsa, bo'ldik xor yoninda,
Qo'ymiz, qurbonliq biz.
Kesmas so'zimiz, bir puldir sardor yoninda,
Bandi nodonlik biz?!
Tangri bunga shohid —
Qo'y-u qurbonliq biz...

Millat pokligi va genofondining sofligi ham shoirni o'ylantiradi. Millatga zinoni odatiy ishga aylantirib, irsiyatni va ma'naviyatni buzish holatlarini ham tilga oladi. Go'yo ishq haqidagi go'zal xonimga bag'ishlangan she'rida buni hajv tig'iga oladi:

Ey gul, ne ajab silsilayi mushki taring bor,
Ohu nazaring bor.
Voy sarv, ne xush jon oluvchi g'amzalaring bor,
Ham ishvalaring bor.

Aldadi yoshlarimizni noz-u karashmang,
Feruzarang ko'zing.
Xiromon sochingda ne balo talxi shaaring bor,
Zahring, shakaring bor.
Etding sochingni "jingalak",
surding yuzga "rumyana" —
Javlon ayla, javlon!
Bir uy ne munosib senga, har uyda yering bor,
Har uyda ering bor.
...
Millat shundoy botdi,
Ummat bundoq yotdi,
Tur, so'yla, ey ahmoq,
Toshni kim uyg'otdi?
Ko'z och, xataring bor!

Shu tariqa amal va afkorlar ila vatan mahv bo'lishidan qo'rqadi shoir, zero "kin-u g'araz-u hirs bizga ziynati tandir... Faollik yo'q, shundoq ishimiz lofi dahandir". So'zning amal bilan quvvatlanmaganligi mllatga fojia keltiruvchi omildir.

Sobir ijtimoiy satirasining tig'i oddiy xalqning og'ir ahvoliga ko'z yumadigan, nafs botqog'iga botgan boylardir. Ularning tilidan shoir yozadi:

Faqir, o'zingni sen ham bir inson bilasanmi?!
Pulsiz kishi, insonlikni oson bilasanmi?!

Bu zamonda inson deb tan olinmoq uchun johu jalol kerak, davlat-u mol kerak, deydi shoir. Boylar, oligarxlar, hatto hukumatni ham qo'lga olganidan o'kinadi, boy tilidan yozadi:

Davlatlimiz, albatta, sharofat ham bizniki,
Amlak bizniki bo'lsa, maishat ham bizniki,
Devon bizdan, arbobi hukumat ham bizniki...

Boshqa bir she'rida Sobir uyg'onib kelayotgan qashshoqlar isyonini ko'radi va boylar tilidan qashshoqlarga o'z ahvoliga ko'nikishni tilaydi. Albatta, bu feodal toifa tilidagi da'vodir:

Qara, faqir ahvolingda boy va xon-la talasharsan,
Ko'rmayapsan, biz boylarning ne qadar jaloli, qashshoq?!

Qani majlis-u qimoring, qani ulfati mayxo'ring?
Qani nash'ai xumoring, ey qalin qaboqli qashshoq?!
Agar istasaydi Alloh, ki seni etardi maqbul,
Bizga berganiday, albat, senga ham berardi pul-mul,
Qo'y, uyal layoqatingdan, nolishlarga bo'lma mashg'ul!
Quruq, bo'sh qo'l bilan ummat topmagay kamolin,
qashshoq!

"Faxriya" she'rida Sobir ajdodlar bilan faxr qilish bilan birga, tarixda juda ko'p bor noahilligimiz, qardosh-qardoshni ko'ra olmasligimiz uchun chekkan jabrlarimizdan uzun hikoya qiladi:

Bir vaqti salib tafriqa bo'ldik ikki qismat,
Temur shohga bir poramiz etdi hamiyat,
Xon Yildirimga bir poramiz qildi itoat,
Qonlar sochilib, Anqarada qo'pdi qiyomat...
Ahsan bizga! Ham qilich, ham qalqonmiz biz!
O'z qavmimiz boshin gangitgan jonmiz biz!
....
Bir vaqt Shoh Ismoil va Sulton Salimga
Dushman o'laroq, ayladik islom dinimga,
Qo'ydik ikki yangi nomni bir dini qadimga,
Chiqdi bu shialik, bu sunniylik yo'limga...
Tushgancha bu holatga sazoyi asabmiz biz!
O'z dinimiz boshiga balo-yu g'azabmiz biz!

Shoir cho'llarni kezadi, vahshiy qurt, ilonlar ko'radi — qo'rqmaydi, ummonlarda to'lqin-u to'fon ko'radi — qo'rqmaydi, tog'larda olovli vulqon ko'radi — qo'rqmaydi, qabristonga kiradi, mor-u chayon ko'radi — qo'rqmaydi, ammo...

Yuz qo'yarman gohi zimistonlarga, —
Bir suruv arslon ko'rarman, qo'rqmasman.
Qabristonni etarman goh makon, —
Qabrda mor-u chayon ko'rarman, qo'rqmasman.

Oh, do'stim, vallohi, billohi, tallohi,
Qayda bir musulmon ko'rarman, qo'rqarman!..
Fikrini qon-qon ko'rarman, qo'rqarman,
Qo'rqarman, qo'rqarman, qo'rqarman!..

Shoirni millat ahlining, ahli musulmonning yakdil emasligi, vatan uchun safarbar emasligi qo'rqitadi. Chunki yurtning mansabdori xalqini ezadi, boyi kambag'alini eshikdan haydaydi:

Yo'qol eshikdan, yig'lama zor-zor, tilanchi!
Vaqillama boyqush kabi, idbor tilanchi!
... Davlatlilarmiz, maqsadimiz aysh-u safodir,
Mehmonlarimiz bus-butun arbobi sinodir,
Ko'kdir, yag'rindor, bo'yniyo'g'ondir, ajabodir,
Boydir, og'adir, og'zi duoli ulamodir,
Pishayotganlar ming xil lazzati halvodir,
Tikma ko'zingni qozonga, beor tilanchi!
Yo'qol eshikdan, yig'lama zor-zor, tilanchi!
.....
Bir bora faqir ekaning angla-da, zinhor
Davlatlilarning rizqiga bo'lma havaskor,
Yo'q bo'lsa yemakka non, o'lib ketgin,
joningni qutqor!
Etma bu qadar bizlarga ozor, tilanchi!
Yo'qol eshikdan, yig'lama zor-zor, tilanchi!

Albatta, bu qadar keskin hajv tig'ini millat uchun kuyunchaklik taqozo qilgandir. Sobirning asl muddaosi, orzusi milliy istiqloldir, unga ko'ra, to tirik ekansan, tokim fursating bor ekan, istiqlol uchun, istiqbol uchun biror ish qilishing kerak:

Shu onda bor ekan fursat, bir ish qil istiqbol uchun,
Etma sarf kayfiyating jamiyati asqol uchun,
Tushma xijolatga nafsing ko'rsatgan a'mol uchun,
O'z jur'ating ayla sarf endi istiqlol uchun!
Ketdi qo'ldan millating, fikring nedir amsol uchun?
Shu onda bor ekan fursat, bir ish qil istiqbol uchun!

Mirzo Aliakbar Sobir biladiki, bu dunyoda bir mullatgina bo'lamiz, mushkullarimiz hal bo'lmaydi, tilimiz to'g'ri so'z aytgani uchun dushmanimiz ko'payadi, xolos:

Dunyo bir muddat bo'ldi manzilimiz,
Unda hal bo'lmas ekan mushkulimiz,
Yashagandan dushmanimiz ko'paydi,
Nachora, to'g'ri so'z erdi tilimiz!..

Ammo Allohning huzurida yuzimizni yorug' qiladigani nomus va hayo bilan halol o'tgan umrimiz va aytgan rost so'zlarimizdir. Shoir "Bola va pul" she'rida ham buni tahlil qiladi. Bola ko'chadan hamyon to'la pul topib oladi: "Ona, kel, kel ki, davlatga yetdik, pulli bo'ldik, saodatga yetdik!" — deb quvonadi. Onasi bolasining ishini ko'rib,

Dedi: "O'g'lim, harom edimi qoning
Ki, bunga rozi bo'ldi vijdoning?
...
Xoin bo'lsak agar bu dunyoda,
Or-u nomusimiz uchar saboda;
Ko'zimiz hayoyi zalolatdan
Boqolmas bir kimsaga xijolatdan,
Garchi pul ko'p farahafzodir, o'g'il,
Lek nomus bebahodir, o'g'il!"

Millat uchun nomus bilan yashamoq sharaflidir. Sobirning bizga vasiyatidir bu.

Mirzo Aliakbar Sobir Ozarbayjonning ming yillik adabiyot tarixi dolg'ali osmonini bezagan, abadiy nur sochadigan noyob yulduzdir. Uning "Hophopnama"si boshidan oxirigacha zulmga, adolatsizlikka e'tiroz, inson haqlariga va shaxsiyatiga qarshi qilinadigan har qanday tajovuzga isyon va faryodnomadir. Bizning boshimizga "Xo'p!" deb har bosqinchi va har mansabdorga egilaverishimiz yetishini anglagan shoir "Xo'p-Xo'pnoma" satirik she'rlari va marshlarini yozgan. U johil va zolimni chetdan qoralamaydi, ko'pincha ilmsiz, dangasa, molparastning o'z tilidan yozadi.

Fitratiga ko'ra millat va xalq shoiri bo'lgan Sobir elning ijtimoiy va ruhiy dardlarini eng yuksak darajadagi daqiqlik va qalb ingrog'i bilan sezgan, faryodida kulgan va kulgusida faryod qilgan san'atkordir. Qudratli so'z egasi bo'lgan shoir o'z o'quvchisini ham bu dardlarning oloviga duchor qiladi va uni ham o'zi singari olovlantiradi.

Sobirning kulgini bu qadar dardga qorishtirgan, yuraklarni larzaga solgan she'riyati bugun ham dolzarbdir.

* * *

XX asr Ozarbayjon she'riyatida romantizm yo'nalishining eng latif va qudratli namoyandalaridan biri Muhammad Hodiydir.

Muhammad Hodiy (Abdussalimzoda Og'amuhammad Hoji Abdusalim o'g'li Hodiy Shirvoniy) 1879-yilda Shamaxida tug'ilgan. Otasiz, onasiz, mashaqqatli bolalik hayotini boshidan kechirgan. Avvaliga buvisi Toyiba xonimning qo'lida, uning vafotidan so'ng yaqin qarindoshi, Shamaxining taniqli oydini, Hashtarxanda chop etilgan "Burhoni taraqqiy" gazetasining muharriri Mustafo Lutfiyning himoyasida voyaga yetgan, undan arab tilini o'rgangan. Keyin madrasada olti yil diniy va dunyoviy bilimlarni o'rgangan. Ijod qila boshlagan.

Muhammad Hodiy XX asr boshlaridagi eng kuchli shoirlardan biri. Uning ijodida Sharq va G'arb madaniyatining, she'riyatining eng yuksak an'analari, yangiliklari mujassamlashgandir.

Hodiy 1879-yilda Shamaxida, savdogar oilasida tug'ilgan. Maktab tahsili davridayoq arab, fors, rus tillarini yaxshi o'rgangan. Shoir sifatida shakllanishida, ayniqsa, A.Homid, N.Kamol, T.Fikrat kabi turk shoirlarining ta'siri kattadir.

1905-yildan Bokuga kelgan, "Hayot", "Fuyuzot" kabi gazeta-jurnallarda asarlari bilan qatnashib, shoir sifatida tanila borgan. 1910-yilda Istanbulga ketgan, u yerda "Tanin" gazetasida ishlagan, she'rlari "Sarvati funun", "Rubob", "Shuhrat", "Mohtob", "Hilol" kabi nashrlarda davomli bosilgan.

Kurashchan va murosasiz shoir zamon haqidagi fikrlarini ochiq aytgani, bu ayrimlarga yoqmagani sababli 1913-yilda Istanbuldan Salonikka surgun etilgan. Uysiz, oilasiz, ishsiz shoir og'ir kunlarni

boshidan o'tkazgan. Birinchi jahon urushi boshlangach, Usmonli davlati harbiy qo'shinlari ichidagi ozariylardan tuzilgan maxsus "vahshiy diviziya" safida janglarga qatnashgan. Uch yil jangchilarning mullasi sifatida xizmat qilgan.

U 1918-yilda Bokuga qaytadi, ammo keyingi hayoti ham avvalgisidan yaxshi kechmaydi, ichkilikka berilishi esa uni tamoman yiqitadi. Ikki yildan so'ng Ganja kasalxonasida g'ariblarcha vafot etadi. Bu og'ir hayot ruhi uning she'rlarida ham shafqatsiz va mohirona aks ettirilgan.

Shoirning Bokuda quyidagi kitoblari bosilgan: "Firdavsi ilhomat" (1908), "Shukufai hikmat" (1914), "Ishqi muhtasham yoxud ona quchog'i" (1914), "Alvohi intiboh yoxud insonlarning tarixiy fojialari" (1918), "Tanlangan asarlar" (1956, 2 jildlik 1979), "El faryodi" (1980).

Albatta, uning aql-idroki yuksakni ko'zlardi, keng dunyoga talpinardi va u madrasadagi darslardan qoniqmasdi — "Qobiliyatim parisin yarador qildi ustodim" yoxud "Qalbim chirog'ini so'ndirdi kamshuur ustod" satrlarini eslaymiz.

Qolaversa, uning vatanparvarlik ishqi o'smirlikdan namoyon bo'lgandi. Shoir vatan ishqidan boshqasini tan olmas, o'zini unga butkul baxsh etgan edi:

Bilasizmi nedir meningcha noma'i amal?!
Ko'ngildagi amalim millat saodatidir...

Yoki:

Ey Vatan! Ey pariyi vijdonim!
...Seni sevmoq emasmi imonim?

Ilk yozuvi 1905-yilda "Hayot" gazetasining 24-iyundagi sonida "Haqiqatning bayoni" nomi bilan chiqadi. O'sha yillardagi she'riyatining asosiy mavzulari maktab, maorif masalalaridir. Bu yillar milliy, madaniy, inqilobiy uyg'onish yillari edi.

Hodiyning she'rlari jadid gazeta va jurnallarida chop etila boshlaydi. Uning mavzulari milliy tarix, axloq, madaniyat, din, til, e'tiqod, falsafa, tarix, ijtimoiy fikr, mumtoz Sharq va G'arb ilmi va amaliyoti edi.

1908-yilda Turkiya inqilobining shavqi va maroqi ortidan Hodiy 1910-yilda Istanubulga safar qildi, u yerdagi qator gazeta va boshqa nashrlarda emakdoshlik qildi. Achchiq siyosiy satira sifatida yozgan she'rlari, erkchilik harakatlaridagi faoliyati tufayli 1913-yilda bir muddat Salonikiga surgun qilindi va 1914-yilda xasta va umidsiz holda Bokuga qaytdi.

Osuda hayot uzoq davom etmadi — Birinchi jahon urushi boshlanganda Boku musulmon diviziyasi tarkibida Ovro'poga yo'l oldi, Karpati, Polsha, Galitsiya, Lamberg va Stanislavada bo'ldi. She'rlar, poemalar yozdi.

Keyin Rossiyada 1917-yil fevral va oktabr inqiloblari yuz berdi, 1918-yilda Boku kommunasi fitnasi bilan qirg'inlar amalga oshirildi. Bu hodisalarning barchasi Xodiyning shuurida aks etdi va ijodiga mavzu bo'ldi.

U Ozarbayjon uchun jumhuriyat orzusi bilan yashardi va buning barbodini ko'rgach, sog'lig'ini batamom yo'qotdi, ruhi isyon qildi.

Shoir 1920-yilda Ganjada vafot etdi va tuproqqa berildi.

Muhammad Hodiy inqilob mustamlakaga barham beradi va ijtimoiy ozodlik harakati rivojlanadi, degan umidda yashagan edi. Millatning realistik ishtiyoqi Sobir she'riyatida aks etsa, uning romantik ishtiyoqi Hodiy ijodida badiiy aks etardi.

Adolat zohir bo'lmas tenglik bo'lmasa ofoqqa,
Zuhuri adl uchun lozim huri toboni hurriyat.
Huquq isbotiga lozimdir — bo'lsin fikrlar ozod
Ki, hosil aylasin vijdonlar imtihoni hurriyat.
Gadoning boydan, boyning gadodan bo'lmasin farqi,
Hamma avlodi insondir, deyar har oni hurriyat.

Yoki:

Hurriyat ila millat kasb etar tole,
Hurriyat ila mulkin qiymati oliy.
Ovro'poli hurriyat ila topdi kamolni,
Albatta, asorat-la mahv bo'lar aholi,
Hurriyat-u sarbastlik imroni vatandir.

Hodiyga ko‘ra, taraqqiyot uchun shaxs erkin bo‘lmog‘i shart, unga so‘z va fikr erkinligi lozim, erkinlik esa milliy hurriyat sharoitidagina mumkindir, mustamlaka esa faqat vayronalikka olib boradi:

Ozodlik kerak shaxs, so‘z, fikrga illo,
Har kimsa etar hurriyat ila zavqqa tavallo,
To kim, inson qo‘yar qadamin bamisli dunyo,
Sarbastlik ila olinar mulki ham zero,
Gar qolsa mustamlaka, vatan vayrondir.

Hodiy qalamining tig‘i millat yaralarini kesmoq va davolamoqqa qaratilgandir:


Na iste’dodi ulviyat, na-da irfonimiz bordir,
Qadrsiz, xayrsiz yuz ming suruv nodonimiz bordir.
Emas inkori qobil, pok baytmiz insoniyatdan,
Juda ozdir bizda inson, juda ko‘p hayvonimiz bordir!
Bu iblisona ishlar kim, ko‘rursan, qilmas iztirob,
Avom bu kimsalar aytar: “bizning shaytonimiz bordir”.

Millatning dushmani jaholat, do‘sti ma’rifatdir — bu fikr Shirvoniy, Sobir va Hodiy ijodining o‘zagi bo‘lgan fikrdir.

Karim Bahriyev,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi,
shoir va tarjimon

SAID AZIM SHIRVONIY





G‘AZALLAR

* * *

Kecha ko‘rdim men seni, ey, sho‘xi davron, uyquda,
Aylar erding menga ming-ming lutf-u ehson uyquda.

Ko‘rmisham la’lini yo qonim to‘kilganmi, biroq,
E’tibor bo‘lmas, agarchi ko‘rsalar qon uyquda.

Zohiran chashmi baqoga yetsa-da har xasta dil,
Kim bilibdir og‘zining sirrini pinhon uyquda?..

Men-da bir la’ling totib, xandon kulib yursam netar,
Rasmidir, shodlik ko‘rar kim bo‘lsa giryon uyquda.

Bor umidim vaslidan, tole kular-ku menga ham,
Chun qaro zulfini ko‘z ko‘rdi parishon uyquda.

Ey, go‘zallik ka’basi, ko‘rgach jamoling jilvasin,
Koshki bo‘lsam, bosh urib,
qoshingda qurbon, uyquda.

Sayyiding vasling aro uyqusidan uyg‘onadur,
Chun ko‘rar ul ham gadodek o‘zni sulton uyquda.[1]

* * *

Bo‘lmasaydi g‘ami ishqing dili vayronimda,
Saqlamasdim uni izzat qilibon yonimda.

Qaro mengli qo‘limga tushsa, qonin icharman —
Nega ul manzil etar orazi jononimda?..

[1] G‘azallar shoirning 2013-yil Bokuda bosilgan ikki jildlik “Tanlangan asarlar”ining 1-jildidan (Seyid Əzim Şirvani, “Seçilmişəsərləri” I cild, Baki, “Şərq-Qərb”, 2013) tarjima qilindi.

Mushafi ruxsoringda goh ko‘rurmen kofir xat,
Qancha nuqson-u xalal bor mening iymonimda.

Aylamas lutfi-la xurram oshig‘in, yo Rabbim,
Bu ne raftor axir ul sarvi xiromonimda?

Tushdi ko‘nglimga xo‘blar fikri-yu ishqi, Sayyid,
Dardlashur qancha Yusuf kulbayi ahzonimda.

* * *

Na yaxshi oshig‘ ulkim, qayda bo‘lsa, yori bo‘lgay,
Visoli yor bilan mamnun kun-u ro‘zgori bo‘lgay.

Mudom chin ulfat-u do‘st birla may ichkay u yayrab,
Na kasri majlisi maydon, na intizori bo‘lgay.

Sharob olmoqqa gar naqd aqchasi yo‘q bo‘lsa hamki,
Sharobxonada sal izzat-u e’tibori bo‘lgay.

Qaro zulfi asir etdi, tag‘in zanjirdadir dil,
Qachon bu zor ko‘ngilning erk-u ixtiyori bo‘lgay?

Iloyo, gul hamisha bo‘lsin u bulbulga hamdam,
Mudom u xastadilning gulshani, bahori bo‘lgay.

Meningdek bo‘lmagay mahrum gul-u guluzorindan,
Na g‘amlardan tilingan qalb, na tikanzori bo‘lgay.

Behisht maylini etmas Sayyiding garchandki, ey gul,
Yoninda sen kabi bir yori guluzori bo‘lgay.

* * *

Jon na lozimdir, agar manzuri jonon bo‘lmasa?
Bizga bas jonon xayoli, qayg‘umas, jon bo‘lmasa.

Xalqni targ'ib aylagay zillatga-yu illatga nafs,
Hech kishi isyonga mayl etmasdi, shayton bo'lmasa.

Ey ko'ngil, sen ahli shaytondan hazar et har qachon,
Kufr aro fir'avn qolurmu hirs-u Homon bo'lmasa.

Bu jahonda ahli dil bo'lmas parishon hech zamon,
Gar sabodan sochlaring har dam parishon bo'lmasa.

Surayi "Val-layl" zulfingdur, yuzung "Vash-shams"dur,
G'am emas, olamda bundan boshqa Qur'on bo'lmasa.

Sayyido, iymon ketur ruxsori yorga, bil yaqin,
Har amal qilsang qabul bo'lmaydi, iymon bo'lmasa.

* * *

Ne zamon tushsa yo'ling dilbara, ey bodi sabo,
Yetir arzim u guli ahmara, ey bodi sabo!

Guli ja'far kabi sarg'ardi yuzim furqatida,
De bu holim u guli ja'fara, ey bodi sabo!

Ichibon zahri g'amin dil naqadar bo'ldi ma'yus,
O'zing aytgil u labi shakkara, ey bodi sabo!

Bu dilim misli katondek shilinur oy nurida[1] —
Ne qilibmen u mahi anvara, ey bodi sabo?

Bu qadim Javzo kabi ikki yarim bo'ldi, netay,
Xabarim ber buti mohpaykara, ey bodi sabo!

[1] Katon daraxtining po'stloqlari oy nuriga tob berolmay shilinib ketarkan ("G'iyos ul lug'at", 2 j. 161 b.-tarj.).

Bu qaro kunki mening boshima hijronda kelur,
Buni haq aylamasin kofara, ey bodi sabo!

Loladek dog‘i dilim, siynayi so‘zonimi ko‘r,
Xabar et sunbul-u susanbara, ey bodi sabo!

Bu Muhammad o‘yida bo‘ldi halok Sayyidi ham,
Borib ayt ravzayi payg‘ambara, ey bodi sabo!

* * *

Ul gul karam etgay menga ag‘yor yoninda,
Chun qilgay o‘zin sevgili har xor yoninda.

Maqsudi shu: men ranjisamu ul raqib ham
Sal yig‘sa esin yori dilozor yoninda.

So‘rdimki, raqib ila o‘tirmoq nadir, ey sho‘x,
Kulgach, dedi: gul o‘rni mudom xor yoninda.

Shodman, ko‘zining fikri mudom yor ko‘ngilga,
Bo‘lganda tabib yaxshi-ku bemor yoninda.

Har kim yuzining teriga qiymat berolmas,
Bilgaylar atir qadrini attor yoninda.

Ruxsoriga o‘xshar emish ul yangi chechak,
Gul xorga do‘nar ul yuzi gulnor yoninda.

Gar o‘lsa sanam zulfi g‘amindan bu Sayyid,
Dafn aylangiz ul sohibi zunnor yoninda.

* * *

Gul g‘unchalik paytida bo‘lgay xora oshino,
Gar ochsa niqobin, bo‘lur ag‘yora oshino.

Begonalarga oshino bo'lgay edi ko'ngil,
Kosh bo'lmasaydim ul guli bexora oshino.

Bordir-da axir ko'nglida bir gulga ishq, havas,
Bulbul sababsiz bo'lmadi gulzora oshino.

Tarqatdi siyoh zulfini yerlarga u nigor,
Etdi zamon ichra kunimni qora, oshino.

Ko'rdim: raqib, olchoqqa ham etmoqda iltifot,
Balkim, raqib ham endi bo'lgay yora oshino.

Jannat harom o'lsun manga gar shikva aylasam,
O'z istagi-la yoqsa meni nora oshino.

Hayhot, raqib pandini olib, Sayyido, mening
Mahzun yuragimni etdi yuz pora oshino.

* * *

Na qadar gar bor esa charxi jafojo'da balo,
Baridan ko'proq erur ul buti badxo'da balo.

Na balolar soladir boshima, yo Rabki, ko'ring,
Na qadar bor emish ul nargisi joduda balo.

Xat-u, xol-u, sari zulfindan o'lur qon bu ko'ngil,
Bu qadar chiqdi qachon lashkari hinduda balo?

Ko'milib ko'z yoshiga qorachig'ing o'rtanadir,
Bu hayot: har cho'qayotgan chekadir suda balo.

Havas etma, e ko'ngil, zulf ila abro'siga, qo'y,
Chini zulfinda xato bor, xati abro'da balo.

Topajakdir meni har yerda esam-da shu balo!
Yo'q esam men, qolajakdir g'am-u qayg'uda balo.

Ko‘rishing yorni balo, ko‘rmaganing boshqa balo,
Sayido, o‘l-da qutul: u-da balo, bu-da balo!

* * *

Bermagum ko‘nglimni hech bir dilbara bundan keyin,
Bo‘lmagum oshiq o‘sha siyminbara bundan keyin.

Oldi iymonimni qo‘ldan, ayladi dinsiz meni,
Bo‘lmagayman oshino ul kofara bundan keyin.

Ul go‘zalning yuzlari o‘xshar falakning oyiga,
Boqmagayman endi mohi anvara bundan keyin.

Boda dilbarning labi la’lini doim eslatar,
Quy demasman bodani hech sog‘ara bundan keyin.

Anbarin zulfini endi tilga olmasman hecham,
Kimsa rag‘bat aylamas ul anbara bundan keyin.

Sarvi qadding ko‘chasin jannat debon yurgay edim,
Kezmagayman unda endi, bir qara, bundan keyin.

Etmagayman vasfi zulfin, mayli, shoir demasin
Ul pari Sayyidi g‘amparvara bundan keyin.

* * *

So‘rayin, ayt, ne emish, hurmati chog‘irga sabab?
Ki harom etdi bu jon javharini shohi arab.

Bil, emas mastlik o‘sha hurmati chog‘irga sabab,
Ko‘p axir mast qilajak narsa, o‘zing angla so‘rab.

Bor umidim, suvi kavsar menga ham bo‘lsa nasib,
Na qadar dehqon axir chekkay azob suvni tarab.

Mevasi o‘xshamasaydi labiga dildorning,
Bog‘bon ekmas edi xurmosini yerga tirab.

Yuragim qon, mayi gulgun bo‘ladir ko‘zdagi yosh,
Labi unnobini har dam atadim men mayi nob .

Ud-u, sandal na kerak, xush bo‘yi zulfing yetadir,
Badanim — yongan o‘tin, men esa hammoli hatab.[1]

Sayido, gul shoxiga qo‘ymas edim hech qadamim,
Desalar, bor o‘sha mast bulbulida rasmi adab.

* * *

G‘amza o‘qin ko‘p otarsan bizga, ey sen, no‘shlab,
Besabab qon to‘kmoq istarsan, nadir, aytgin, sabab?

Voizo, mayxo‘rlara doim g‘azabdir odating,
Qo‘rq u kundankim, senga piri mug‘on aylar g‘azab.

Ishq aro bedardlar aylar taajjub holima,
Yo‘qsa, bu yurtda biror dard ahli yo‘qmi, voajab!

So‘zlaring, ey toshyurak, sindirdi ko‘nglim shishasin,
Bo‘lmas ermish mastlar bazminda hech hurmat, adab.

Dahr aro bir gul yetishtirmish u gulchin, oqibat
Yetdi maqsudiga ag‘yor, biz-chi, qoldik yo‘l qarab.

Gohi gar dil istasa bo‘sa yuzingdan, vajhi bor,
O‘z faqiringdirki, quti loyamut aylar talab.

[1] **Hatab** — yongan o‘tin *(tarj.)*.

Mutribo, avji "Hijoz" ayla, ibodatda ko'ngil,
To Muhammad ishqi-la Sayyid bu kun etsin tarab.

* * *

Chiqur jonimki, bir onga ketur jononimi, yo Rab!
Ko'rib ruxsorini, taslim etay bu jonimi, yo Rab!

Yuzing ko'rganda, nazr aylab, qilay jonimni qurbonlik,
Ketir yorim, qabul ayla mening qurbonimi, yo Rab!

Tani zorimdan olgin, ey Xudo, bu joni noshodim,
Mubaddal qil visoli yora bu hijronimi, yo Rab!

Yonib tandir misol, tinmay to'kildi ko'zlarim yoshi,
Jahon g'arq bo'lmasin, tindir o'zing to'fonimi, yo Rab!

To'kilsa qonimu ozod etilsam hajr-u zindondan,
Rahm sol ko'ngliga bedodgar sultonimi, yo Rab!

Umidim borki, ko'rgaydi fig'onim, rahm etib dilbar,
Yetur ul be mehr oyga mening afg'onimi, yo Rab!

Yuzin xattin o'qib, paydo bo'libdir fitnakor ul oy,
Xatodin saqlagin bu Sayyidi nolonimi, yo Rab!

* * *

Bo'ldi sunbullar xijil zulfi parishoning ko'rib,
G'unchalar qon yutdilar la'li durafshoning ko'rib.

Mehring unga tushganidan tushdi zindonga Yusuf,
Olami zarrotdagi chohi zanaxdoning ko'rib.

Bog'bon har kunda bir sarvin qo'porgay bog'idan,
Toki, ey ruhi ravon, sarvi xiromoning ko'rib.

Ko‘z yoshim oqqay ravon chavgon to‘pidek har tomon,
Qo‘lda chavgon, minganing Raxsh uzra javloning ko‘rib.

Qo‘y, o‘lim, so‘nggi nafasda kelma na’shim ustiga,
G‘ayrilar shodlanmasin bu hol-u ehsoning ko‘rib.

Rustam o‘qi tilgan Ishkobus, bu o‘q malham, dedi,
Sen-da boq, ey qoshi yoy, ko‘ksimda paykoning ko‘rib.

Rashk aro bir g‘unchadek yuz bor yaqosin chok etar
Sayyidi xuninjigar choki giriboning ko‘rib.

* * *

U ohu ko‘zli, derlarki, bu kun shikora ketmishdir,
Olib sabr-u qarorimni tag‘in oshkora ketmishdir.

O‘zi mushkin bir ohudir, netar oqloqda u, e voh,
Olib ketmay itin, bilmam, yana ne kora ketmishdir?

Zamon o‘tmas, tuyulgay har daqiqa menga bir oydek,
Bu kun u oy shahardan chetga, bir kanora ketmishdir.

U shohimning firoqi menga ruh berganda, bo‘ldim mot,
Vazir aqlim tushib dardga, u-chi, savora ketmishdir.

Ko‘zimga tor bo‘lib qoldi bu oftob-u bu keng olam,
Qaro zulfin yoyib, aylab kunimni qora ketmishdir.

Kamon qoshlim bu kun ketmish raqib, g‘ayri bilan ovga,
Otib hijron o‘qin, qalbni etib-da yora ketmishdir.

Bo‘libdir g‘oyib ul oyning jamoli jannati bul kun,
Solib Sayyidini oshkor jahannam, nora ketmishdir.

* * *

Bir nomaki bu, yori dilorom yuboribdir,
Jonimga surur, ko‘nglima orom yuboribdir.

Kofurga sehr birla qo‘shib mushk yozuvini,
Tong uzra chekib naqshini yo shom yuboribdir.

Bu noma bilan jonga berib shodligu taskin,
Nokomu zor ko‘ngilga u bir kom yuboribdir.

O‘z oshig‘i, xastadili ham beqaroriga
Ul noma bilan bir necha payg‘om yuboribdir.

Bilmish kunim furqatda qorong‘u ekanini,
Dard-u g‘am-u firoqqa saranjom yuboribdir.

Etmish visolga Sayyidi zorini umidvor,
Ul nom bilan ishq to‘la bir jom yuboribdir.

* * *

Bu kelgan kim ekan, yuz valvala Shirvonga solibdir!
Na go‘zal g‘ulg‘ulalar olami insonga solibdir!

Qizarib orazi oli guli tardek mayi nobdan,
Ochibon so‘ngra yuzin, oshig‘ini qonga solibdir.

Kim ekan bu yuzi xurshidi duraxshon-u ham qattol,
Labi la’li xunini ko‘hi Badaxshonga solibdir.

Bu azizkim, necha Yusuf asir-u zori bo‘lmishdir,
Biroq u qaysisini chohi zanaxdonga solibdir?

Yuzin davrin o‘rab xatti siyohi xuddi lashkardek,
Chumolidek yoyibon, mulki Sulaymonga solibdir.

Uni Mahmud desammi, bilmadim, yoxud Ayoz deymu,
Muhabbat jazbasini xotiri sultonga solibdir.

Uning sha'mi jamolin ko'rmamish Sayyidi sargashta,
Ajab, lekin o'zin u ham o'tu so'zonga solibdir.

* * *

Masholloh, bu go'zal kim o'zi, Shirvona kelibdir!
Labini yuz yillik o'lik ko'ribon, jona kelibdir!

Yana ollohga shukur, o'lkani buzgandi raqiblar,
Tuzatay deb uni bir oshig'i devona kelibdir.

Yo'q erur la'li labingdagi safo sirri bu mayda,
Faraz etmam, bu tomonga tosha paymona kelibdir.

Varaqi orazi oling ko'rib, ul lola ruhingni,
Bog' aro bulbuli shaydo yana afg'ona kelibdir.

Demagayman otini men, qara har baytima, angla,
Kim edi Sayyid o'zi, boq, mana, Shirvona kelibdir.

* * *

Ey ko'ngil, masjid yo'lin tark et, rahi mayxona tut,
Tutma qo'lda zohidiy tasbehni, qo'y, paymona tut.

Zohidu masjid tamannosini qo'y, fikr et, ko'ngil,
Zohidin bir cho'g'z bil ham masjidin vayrona tut.

Ul pari zulfinda ko'rsang bu g'arib ko'nglimni, bil,
Bo'yni bog'lanmish uning zanjir-la, bir devona, tut.

Ul mahi nomehribon zulfingga ursam der taroq,
Oyna keltir, ey quyosh, sen; ey qamar, sen shona tut.

Jon berib jononga, yon sha'mi jamolindan uning,
Gar kamol istarsan, ey dil, shevayi parvona tut.

Xo'blar ishqinda ko'r endi mening rasvoligim,
Qissayi Farhod ila Majnunni bir afsona tut.

Kirma sen masjidlara nomard u zohidlar kabi,
Sayyido, mayxonada paymonani mardona tut.

* * *

Ko'ngil bo'libdi firoqingda beqaror, ey do'st,
Nechun meni aylading beoru dilfigor, ey do'st!

Umid qo'lim uzilib visoling etagindan,
Emasdim sendan bu tarz umidvor, ey do'st!

Binoyi toqatimni g'am seli xarob etdi,
Bu qadar ko'zlarimni etma ashkbor, ey do'st!

Visolda necha kun yaxshi o'tgandi ayyomim,
Hasad qilibdi bizga charxi kajraftor, ey do'st!

Na sen firoqqa sabab bo'ldingu na men bois,
Bu dardga soldi bizni davri ro'zigor, ey do'st!

Seni vafoli debon ishqingga ko'ngil berdim,
Pariliqolarga bo'lmasmish e'tibor, ey do'st!

Ular ne lutf edi, ey guluzor, bu ne jafo?
Tarahhum et, meni o'ldirma xor-u zor, ey do'st!

Qasam ollohgakim, sirringni saqlarman sening,
Bayon qilgil manga ko'nglingda har na bor, ey do'st!

Fidoying-ku bu Sayyiding, g'uloming-ku axir,
Buncha zillatga aylama uni duchor, ey do'st!

* * *

Ey xasta ko'ngil, azmi sari ko'yi nigor et.
Ul ko'yda jon naqdini sen jononga nisor et.

Mohi ruhi jonon xat ila bo'ldi siyohgun,
Kun o'tdi, ko'ngil, kel, yana fikri shabi tor et.

Paymonani sindirmaguncha bu zamon toshi,
May shishalari, do'stlar ila bazmi qaror et.

Jahd et-da qutul vasvasayi aql-u fikrdan,
Majnun kabi sayr etgali sahroga guzor et.

Masjidda gumon, hiylali so'zlarga qorishma,
Mardona qadah tut, bu riyodan o'zing or et.

Manzuring agar olam aro kasbi ziyodir,
Ul oy etagin tut-da, o'pib, sharhi bahor et.

Ey Sayyid, agar hasht behisht ersa muroding,
Olamda o'n ikki yo'lin tut — hasht-u chahor et.

* * *

Angla, dil, bu ishqda ramzi ruhi jononi durust,
Tingla oni, so'ylagan ma'niyi Qur'oni durust.

Sunbuli zulfingni, ey gul, yoyganingda ishva-la,
Qolmagay shahr ahli ichra din-u iymoni durust.

Qildi husning vasfini bulbul yonib gulshan aro,
Qolmamish bog'da biror g'uncha giriboni durust.

G'unchaning ko'ngli butun, ahdinda yo'q, ammo vafo,
Ko'ngli bulbulning siniq, lek ishq-u noloni durust.

Hech to'la ko'rsatmagaydir nozli oy o'z paykarin,
Oyki, yuz bor jilva qilganda-da, nuqsoni durust.

Bir kecha o'z husnini ko'rsatdi u mohpaykarim,
Endi bir yoni shikasta hamda bir yoni durust.

Demangiz, Sayyid shikast yetkazdi bu paymonaga,
Ko'rdingizmi hech biror yor ahd-u paymoni durust.

* * *

Yor aylasa ushshoqi dilafgora adovat,
Mumkin emas, oshiq-da etar yora adovat.

Qonimni agar ichsa o'shal dilbari xunxor,
Kofir bo'layin qilsam u xunxora adovat.

Hajringda mani aylama xor, ey guli bexor,
Gulshanda qachon gul etadir xora adovat?

Salmoning o'zim, Ahmadi Muxtori zamon, hey,
Salmon tilamas Ahmadi Muxtora adovat.

Qilguncha adovat senga bir karra, go'zal yor,
Yuz karra qilay Haydari karrora adovat.

1619324

Bulbul gina aylar senga, ey navguli ra'no,
Lek hech eta olmas bog'-u gulzora adovat.

Yondirdi kecha shomi shabistonda qanotin,
Parvona qachon etmish edi nora adovat.

Ko'nglimga to'la mehring, adovatga o'rin yo'q,
Hech aylama sen Sayyidi beyora adovat.

* * *

Ag'yorki, ochiq izhor etar yora muhabbat,
Boq, ko'rsatayin men-da shu ag'yora muhabbat.

Do'st tutsam agar yor deya ag'yorni, shu aybmi,
Gul xotiri deb ko'rguzaman xora muhabbat.

Zulfi siyahin rangi biroz o'xshashi bois
Ko'nglimda mudom rishtayi zunnora muhabbat.

Mayl etsam agar sha'mi ruhi yora, na nuqsi,
Odat shuki, parvona etar nora muhabbat.

Qurbon dil-u jonim o'sha oyparcha ko'yinda,
Mo'minlar etar sayyoh-u sayyora muhabbat.

Xat keldi ruhi yora, fuzun bo'ldi malolim,
Oxirda kunim ayladi, ko'r, qora muhabbat.

Sayyid, u qaro soch menga sirtmoq bo'la qoldi,
Mansur kabi osdi meni ham dora muhabbat.

* * *

Ber xabar, ey dil, bo'larmi tunda jonon xilvatda,
Biz kabi jonsizga balkim berar u jon xilvatda.

Ko‘zlarin oqu qarosi birga, hamog‘ush emish,
Huddi Bilqisga etur sharhin Sulaymon xilvatda.

Dog‘larin ko‘ksimda qandog‘ men nihon aylay ekan,
Bo‘lmas ermish, podishohim,
hech charog‘on xilvatda.

Xat kelibdir, dema ul siyminbadan ruxsoriga,
Bilmadim, kelganmikin kofirga iymon xilvatda.

Vodiyi vahdatga kel-da, ey dili devona, boq,
Kim bo‘libdir bu sifat birla biyobon xilvatda.

Chiqdi bo‘stondan u gul sal-pal yaqosi yirtilib,
Bil, Zulayho birla bo‘lmish mohi Kanon xilvatda.

Gohi payg‘omi jafo bor, goh baloyi hajr-u g‘am,
Sayyido, yordan kelur har kunda ehson xilvatda.

* * *

Bu g‘urbat yurtda netgaysan, ko‘ngil, sen azmi Shirvon et,
Tomosho qil borib yorni va sayri ko‘yi jonon et.

Nechun bo‘lding giriftori qafas, ey sen, muqaddas qush,
Tuzoqlardan chiqib uch-da, bu kun sayri guliston et.

Taalluq olamindan qo‘lni tort, tajrid qil hosil,
Masihodek maqoming xonayi xurshidi raxshon et.

Ko‘ngil ber bir nigorga, forig‘ o‘l dunyoyi uqbodan,
Tuzatmak-chun makonni bu parishonlikni vayron et.

Ko‘p ermish sho‘xi zebolar bu Shirvonda, qo‘y, ey Sayyid,
Kel, endi shavqi jon birlan bu Ismoilni qurbon et.

* * *

Bu ko‘ngil vasfin etibdir ro‘yi jononni xato,
O‘qimish maktabida bola “Guliston”ni xato.

Topilur gulda deya zulfi siyohindagi bo‘y,
Qiladir behuda dil sayr bu bo‘stonni xato.

Yuzining sahfasini kotibi qudrat bezamish,
Ne bilay, yo o‘qidimmi xati rayhonni xato?

Tishining durri topilgaymi javohirlar aro,
Qiyos etmoq unga har gavhari g‘altonni xato.

Yuzidan bog‘da niqobin olar erkan o‘sha gul,
Shoshibon bulbul etar navhayi nolonni xato.

Qoshini “nuni qalam”, zulfini “val-layl”i dedi,
Dedilarkim, o‘qiding oyat-u Qur’onni xato.

“Qobi qavsayn” o‘qidim men qoshi yosin, Sayyido,
Voh, u kundanki, mufassir dedi ma’noni xato.

* * *

Gar bulutdek keldi ul ruxsori mohi yora xat,
Bor hayotim ayladi ul zulflaridek qora xat.

Otashin ruxsora xatting keldi, ko‘nglim olgali,
Rasmidir, ahli azoyim ham solurlar nora xat.

U go‘zalning gul makonin vasfi inshosi uchun
Yozdi qudrat kotibi rayhon ila gulzora xat.

Keldi xat ruxsoriga, lek bosdi oshiqni yara,
Bilmadim, bu qandayin sir, qalbni etmish yora xat.

Kiprigim aylab qalam, gulgun yoshim birlan yozay
Shomi hijroningda, ey gul, har eshik, devora xat.

Xatni olgach, qatliomga ochdi yo'l ul gul, magar
Husn sultoni yozibdir qatl uchun sardora xat.

Qora bo'lsin ro'zigori xatti yorning men kabi,
Tiyra qildi kunlarimni, Sayyido, ul qora xat.

* * *

Kimki og'zin g'unchayi xandon gumon aylar, xato.
La'l dudog'in chashmayi hayvon gumon aylar, xato.

Qaysi kundan voqifi asrori g'ayb o'lmish hakim,
Og'zini bir nuqtayi pinhon gumon aylar, xato.

Qayda ko'rmish yo eshitmish bu zamon bog'bonikim,
Kokilin gar sunbul-u rayhon gumon aylar, xato.

Zarra husni ul Yusufni qildi mashhuri jahon,
El sani gar Yusufi Kanon gumon aylar, xato.

Har kasalga bor tabibning dorusi, ammo agar
Dardi ishqni qobili darmon gumon aylar, xato.

Tolibi dunyo bo'lib, dunyoda qolmas hech kishi,
Bu diyorni mulki jovidon gumon aylar, xato.

Bu shahar shayxin so'ziga kimsa monemas, biroq
Sayyidin gar qobili urfon gumon aylar, xato.

* * *

Tushdi, taqdirim ekan, menga shu fu'lu shu mizoj,
Ey Masihonafasim, aylagil bemora iloj.

Ravshan et xonamizi bir kecha tashrifing ila,
Ey jamoli falaki husno, charog'i vahhoj.

Suvi kavsar labi shirininga nisbat emish,
Bir dudog'ing xushta'mu, bir dudog'ing sho'ru-ujoj.

Bir musulmon qo'lini tutganing bormi jahonda?
Etmagin, yo ilohim, shunga kofirni-da muhtoj.

Sham-ku yondirmas edi parvonani valekin sen
Yondirib ishq ahlini, zolimlara berding rivoj.

Lashkari zang-u habash bosmish jahonning tegrasin,
Endi mushkul Ka'baga borsa qofilayi hujjoj.

Dona xoli bor o'zi, unga etma ta'ma aslo,
Sayyido, yor ko'yidan etmasin jannatin ixroj.

* * *

Vafo rasmin tutib kel, ey pari, jabr-u jafodan kech,
Agar insonsan, insof qil, bu vaz'i noravodan kech.

Ko'zim yoshidan, ey sarvi ravon, ranjida bo'lmishsan,
Yorug' yulduz bo'lib kel-da, bu tun bor mojarodan kech.

Ko'rib zulfi parishoning, dedim, bu mushki Chinmidir,
Chinu yolg'on senga ma'lum, o'zing, ey gul, xatodan kech.

Eshitsam bir og'iz so'z deb tamanno aylading ko'pdan,
Ne chiqsin yo'qdan, ey ko'ngil, uyal, bu muddaodan kech.

Firib, nayrangli so'z, ishdan uzoq tur masjid-u ko'yda,
Kel, Ollohni desang, zohid, o'zing ham bu riyodan kech.

Axir mayxonasiz oshiq uchun hech bir safo bo‘lmas,
Agar bu Ka’badan ketsang, borarkan, u Safodan kech.

Jahon mulkinda yo‘qdir, Sayyido, ehsoni beminnat,
Siniq ko‘nglim, sabr ayla, iloj-u mo‘miyodan kech.

* * *

Sensiz fazoyi jannati ma’voda yo‘q farah,
Atringsiz u nozli guli ra’noda yo‘q farah.

Ishq xastasiga et labini chora, ey hakim,
Ma’juni la’li nobi musaffoda yo‘q farah.

Derlar mufarrah aylagay insonni za’faron,
Sarg‘ardi rangim, yorga bu ma’noda yo‘q farah.

Ko‘p bo‘lsa bo‘sa yaxshidir, hech qursa ikkita,
Lek barcha bilar, bo‘sayi tanhoda yo‘q farah.

Maydan murod bo‘sayi sog‘ardir bu ma’voda,
Mashru’ sanalmagan mayi sahboda yo‘q farah.

Me’rojing ila bo‘ldi farahli falak ahli,
Sensiz, habibim, arshi mualloda yo‘q farah.

Nodon topar hamisha farah vasli yordan,
Sayyid, jahonda xotiri donoda yo‘q farah.

* * *

Debdilar xalq, bor emish bodayi humroda farah,
Ko‘rmadim yorsiz valek jomi g‘amafzoda farah.

Ne qilay yorsiz gul-u bo‘ston, guliston sayrini,
Yo‘qsa yor, bo‘lmaydi jannatdek u ma’voda farah.

Shabi me’roji visoling chog‘i zor etdi raqib,
Ko‘rmadim sayr aylabon charxi mualloda farah.

Menga shodlik kelgay u xummor ko‘zingdan, ey gulim,
Ko‘rmadim yuz bor boqib, nargisi shahloda farah.

Dog‘i hajring ketsa erdi, ko‘p quvongaydi ko‘ngil,
Bola bayramga chiqib, topgay har asnoda farah.

Shodlanurman yor otin o‘qib, eshitsam hamki men,
Bor erur sen yozganing insho, muammoda farah.

Sayyido, etgil farah, hech chekmagil dunyo g‘amin,
Chunki besh kunlik bo‘lur bulbuli shaydoda farah.

* * *

Ul lolaki, sho‘x, ishva-yu nozi ko‘p emish, ko‘p.
Ushshoqa uning so‘zi gudozi ko‘p emish, ko‘p.

Mehrobi qoshi o‘rtasida, sajdada ko‘ngil,
Yorning, bilaman, roz-u niyozi ko‘p emish, ko‘p.

Bir Ka’ba emasmish bu Safo ahliga qibla,
Haq sevganining mulki hijozi ko‘p emish, ko‘p.

Vaqt yetdi, qilay har qadaming toshiga sajda,
Ishqning bu maqom ichra namozi ko‘p emish, ko‘p.

Yorning, bilamanki, menga ehsoni ko‘p ozdir,
Lek jabr-u jafosin biza ozi ko‘p emish, ko‘p.

Bu saltanati ishqda topilmas o‘sha Mahmud,
Har yerda jahonning u Ayozi ko‘p emish, ko‘p.

Sayyid, yo‘q erur dahr aro bir orifi haqbin,
Lek oshig‘u ishqning-da majozi ko‘p emish, ko‘p.

* * *

Ul sanamning, zohido, zulfi chaliposiga boq,
Och basirat ko‘zini, nargisi shahlosiga boq.

Oyati xamr o‘qur, ammo na’fini inkor etur,
So‘zi-yu qilgan ishin maqsad va ma’nosiga boq.

Ketdimi jannatga murda yo do‘zaxga, senga ne,
Tik ko‘zing merosi hamda kulcha, halvosiga boq.

Istadi jannatni zohid shunchalar hiyla bilan,
Ablah u, fikrin uqib, har xosiyu mosiga boq.

Yor, qaro zulfingni jondan sevdi devona ko‘ngil,
Ko‘r uning sho‘r baxtini ham ishqda savdosiga boq.

O‘ylama Sayyidni, voiz, ahli do‘zaxdan deya,
Sen netarsan daftarin, dilda tamannosiga boq.

* * *

Ey zohidi xudbin, bilamanki, hunaring yo‘q,
Maydoni muhabbat tarafa bir kelaring yo‘q.

Mehrobda kuning o‘tgay-u, el dardiga yotsan,
G‘amdosh bo‘layin degani dard-u kadaring yo‘q.

Bo‘lmish bu ko‘ngil muxbiri ishq , na xabarim bor,
Zohid, xabarim yo‘q, bu xabardan xabaring yo‘q.

Sen ayla pari, hur xayoli birla ibodat,
Bazmingda bu chog‘ naqd u buti siymibaring yo‘q.

Ey zohidi xok, kibr-u havo etma oshiqqa,
Ko‘ksingda yoniq qalbingu ohi saharing yo‘q.

Na vasl-u na xushog‘ushu na senda bo‘sa bor,
Ey sarvi malohat, biz uchun bir samaring yo‘q.

Ey dil, etasan jannati ko‘yini tamanno,
Uchmoqqa axir ko‘kka sening bol-u paring yo‘q.

Basdir senga ruxsori zari, g‘aznayi ashki,
Sayyid, na g‘aming borki, sening siym-u zaring yo‘q.

* * *

Harki oshiqning seningdek oyjamoli yo‘q erur,
Borki nuqson ishqida, aslo kamoli yo‘q erur.

Xatti ro‘ying-la tutilgay ul jamoling xurshidi,
Dilda mehring, zarra ham oning zavoli yo‘q erur.

Ey mening baxt yulduzim,
derlar, yuzingda porlagan
O‘sha oy nogoh tutilsa, bir uvoli yo‘q erur.

Ul pari yuz bor visolga va’da aylaydi valek
Biz tarafga kelmagin bir ehtimoli yo‘q erur.

Sayyido, qayt bu makondan, tort ayog‘ingni tamom,
Eski bu mayxonaning ma’no-maoli yo‘q erur.

* * *

Bahor keldi, quvondi el, biroq men g'amli, yorim yo'q,
Boshimda nash'ayi may, qo'lda jomi xushguvorim yo'q.

Sen, ey bulbul, fig'on aylab, gulingga so'yla dardingni,
Tutilmishdir mening, ey voh, tilimkim, guluzorim yo'q.

Xazon fasling o'tib, gulga yetishding, navbahoring bor,
Mening fasli xazonim bu, axir dilda bahorim yo'q.

Ochildi g'uncha, bulbul vasli guldan yetdi diydorga,
Yoqamni chok etib, o'lmas esam, anglangki, orim yo'q.

Na naqdim bor sharobga, na garovga jomu dastorim,
Bulardan badtari — mayxonalarda e'tiborim yo'q.

Nechun targ'ib etarsanki meni jannatga, ey voiz,
Mening bog'i behishim yor erur, jannatda korim yo'q.

O'zing tut, yoqmagin ohlar o'tinda novakin, Sayyid,
Mening ul qoshi yoydan bundan o'zga yodigorim yo'q.

* * *

Kimning bu bahor fasli meningdek nigori yo'q,
Ul bulbuli falakzadadirkim, bahori yo'q.

Kim ko'rsa yorin ag'yora yor bo'lganini gar,
O'ldirmasa o'z-o'zini, anglangki, ori yo'q.

Ko'p kimsa umidini uzib, bo'ldi qarorsiz,
Ammoki uning men kabi bir beqarori yo'q.

Gar yo'qsa daraxtning mevasi, soyasi nedir,
Oshiqqa u gulning-da bo'sayi sharori yo'q.

Sayyid, sharobingni ol-u, sen chorla bahorni,
Qolmish esa kimlar bebahor, e'tibori yo'q.

* * *

Aylanay joningdan, ey, nozli nigorim, beri boq!
Mehribon, sho‘x, g‘amzali,
ey g‘amgusorim, beri boq!

Ishvalar birlan tag‘in ko‘nglimni toroj aylama,
Ketdi dildan sabr-u orom-u qarorim, beri boq!

Xam erur qaddim, egikdir, qoshlaring qurbonidir,
Zulfi purtobingga qurbon joni zorim, beri boq!

Bu jafo ko‘rgan ko‘ngil har dam fidodir zulfinga,
Ko‘zlaringga sadqa bu jismi figorim, beri boq!

Jon nisor etmoqqa tayyor Sayyiding, ey sevgilim,
Lutf etib, aytsang agar:
“Shaydoyi yorim, beri boq!”

* * *

Ishq erur olamda etgan shuncha balolar ijod,
Ishq erur dunyoga solgan shunchalar fisq-u fasod.

Ishq erur murshidi komil, unga bu olam murid,
Ishqqa shogird bor jahon ahli, topurlar kom, murod.

Ishq erur Mansurni osgan dorga rasvolar qilib,
Ishq aro Layli g‘amindan Qays axir bo‘lganmi shod?

Tog‘da Farhod toshga naqsh aylar ekan Shirin yuzin,
Yuz fig‘on aylab azobdan, solmaganmi navha, dod?

Sayyido, hech ishq haqinda befahmcha so‘ylama,
Bilmagay inson nedir ul bezambon tosh-u jamod.

* * *

Bir chang kabi zulfingga qo‘narkan, bo‘laman shod,
Shodman — bo‘laman xokka do‘nib, ertaga shamshod.

Shodmanki, meni ishqda ko‘rib qayg‘uli ul sho‘x,
Guldek ochilur, xotiri holimdan o‘lur shod.

O‘lmoq menga oson vale bo‘lgay unga mushkul,
Jabrin etajak kimga axir mensiz u noshod?

Olamda o‘zim Layli-yu asrori haqiqqat,
Majnunni o‘zim mast etibon, ayladim irshod.

Jazb aylamasaydi uni sho‘ri labi Shirin,
Tog‘larda tesha urmas edi boshiga Farhod.

Soqiy, meni maxmuri xarob ayla shu maydan,
Xummoru fig‘onim-la etay ko‘nglimi obod.

Sayyid, eshitilmish bugun olamga fig‘oning,
Faryodki, hecham yetmadi u gulga bu faryod.

* * *

Qochdi mendan u o‘jar, sho‘x, nozli sarvi sarbaland,
Tutgali ohi dilimdan bunyod aylay bir kamand.

Hajrida ozib-to‘zib, ingichka bo‘ldim ipdayin,
Chiqmagay hatto nafas nayday kesilsam band-u band.

Ey dilim, bedardga izhor etma dardi ishqni hech,
Yuz desang, fahm aylamaydir, chunki ermas dardman.

Otashin ruxsoring uzra xoli hindularmidir,
Yoki da’fi zaxm etay deb o‘tga soldingmi sipand.[1]

[1] **Sipand** — isiriq.

Giryayi beixtiyorim qotdi oshimga zahar,
Lekin ahvolimni so‘rmas so‘zi shakkar, la’li qand.

Unga tutdim bir qadah, piri mug‘on pandin tutib,
Ey ko‘ngil, devonalar tutgaymi hech olamda pand?

Bilmadim, masjiddan, ey Sayyid, ne ko‘rding oqibat,
Qo‘l chekib ketdim, borib, mayxonani etdim pisand.

* * *

Ko‘ngil yuz pora qayg‘udan, davo jononadan kelmas,
Jafokim oshinolardan kelar, begonadan kelmas.

Muhabbat o‘tida har kim yonar, lek qadri farqlikdir,
U faryodlarki bulbuldan kelar, parvonadan kelmas.

Safoyi maykada ushshoqqa bo‘lmas Ka’badan hosil,
Safo olamda dard ahliga har bir xonadan kelmas.

Labi yor birladir paymonaning zavqi ravonbaxshi,
Va illo zavqi xotir boda-yu paymonadan kelmas.

Uning g‘avg‘oyi husnindan buzildi, barcha xor bo‘ldi,
Na monekim, biror taskin o‘shal bir donadan kelmas.

Bu na dilbasta bo‘lmoqdir parilar zulfi xoliga,
Bu ishlarkim, ko‘ngil,
sendan kelar, devonadan kelmas.

G‘arib-u xonavayron, rindu beparvo erur Sayyid,
Qo‘lindan tushmagay boda,
borib mayxonadan kelmas.

* * *

Mening yorim kabi shamshodqad-u ham gulbadan bo‘lmas,
Uning ruxsoriga o‘xshash gul-u bir nastaran bo‘lmas.

Tushib gul soyasi, majruh bo‘lur nozik qading, ey gul,
Bo‘lay qurboning, ey jonim, seningday siymitan bo‘lmas.

Bu daryoda tishingdek durri shahvorni topolmaslar,
Labi la’ling kabi qonrang aqiq, durri Yaman bo‘lmas.

Bilur har nuktayi mavhumni dono, oqil-u fozil,
Biroq bir nuqtayi og‘zing sirin bilgan nadan bo‘lmas?

Muhammad otli har inson bo‘lolmas ahli baytdankim,
Har oshiq xastadildir, lek Uvaysiyi Qaran bo‘lmas.

Meni ul yor ko‘yinda qip yalong‘och holda ko‘mgaysiz,
Axir rasvoyi oshiqda, shahidda ham kafan bo‘lmas.

Ko‘p inson no‘xtasiz hayvon erur, bu ham haqiqatdir,
Har odamda nuri oshiqlig‘u vajhi hasan bo‘lmas.

Go‘zal Yusuf kabi gulchehraning qayg‘usidan, Sayyid,
Nechun senga bu Shirvon g‘am uyi — baytul hazan bo‘lmas.

* * *

Tun yarmida, soqiy, tugadi sharobimiz,
Botmishdi, afsuski, bizim ofitobimiz.

Hikmat kitobin qo‘y-da, may quy kitobiyga,
Ketmish yo‘qolib qancha oldin kitobimiz.

Derlar behisht ahliga jannatda yo‘q azob,
Bas, ko‘yi yorda nega ortdi azobimiz?

U gul javob bermas savolimga, netarman,
Pinhon ne so‘ylayinki, bo‘lmasa javobimiz.

Zohid so‘zi-la aylamadik savobga mayl,
Bas bizga jazo kunlari bu savobimiz.

Bulbul uyalib, boshini suqdi qanotga,
Kam ermas ul g‘unchayi tardan hijobimiz.

Sayyid, hamisha tolibi mayxona edik,
Shunday yaralgan balki borliq, turobimiz.

* * *

Senda, ey gul, buncha husn-u, bu vajohat qolmagay,
Ko‘ngli parcha-parcha oshiqda jarohat qolmagay.

Bermagay zavq ahli ishqqa so‘zlaring, shirin dahan,
Suhbatingda u zamon zarra malohat qolmagay.

Subhi ruxsoringni, ey oy, qoplagay zulmatli xat,
Tunga o‘xshashroq bo‘lar subhing, sabohat qolmagay.

Gul yuzing bosgay ajinlar, u chiroy barham topar,
Oh, o‘shal naqshi diloroda tarovat qolmagay.

Lablaring mo‘jiza aylab, jon berolmas murdaga,
Ul Masihiy pok nafasda ham fasohat qolmagay.

Ko‘zlaring yodi-la dardmand bo‘ldi ko‘nglim, inchunun,
Ikki bemor bo‘lgan uyda zarra rohat qolmagay.

Qandu shakkarni labingga nechalar etmish qiyos,
Sayyido, qand qolsa hamki, ul qabohat qolmagay.

* * *

Navbahor ayyomidir, men zor qoldim yorsiz,
Bu faslda bo‘lmasin bulbul hecham gulzorsiz.

Ey guli a’lo, dedim, kel yonima sen beraqib,
Kuldi, deb, ey oshiqi shaydo, gul o‘lmas xorsiz.

Ketsa zulmat tun, kelar kunduz yorug‘, ammo mening
Oq kunim bo‘lgay qaro ul fitnachi, makkorsiz.

Kim etur bemorga xizmat, oqibat bemor bo‘lur,
Lek bu ko‘nglim xastadir ul nargisi bemorsiz.

Shum falak, ag‘yorga boq, ul oyga bo‘ldi hamsafar,
Men zavolga yuz tutibmen kavkabi sayyorsiz.

Nuktayi pinhonni so‘r la’li labi dildordan,
Ey ko‘ngil, bo‘lmaski yorning og‘zi hech asrorsiz.

Zulfi-la doim to‘sar yuz-ko‘zlarin ul sohira,
Sayyido, bu o‘rtada afsungar o‘lmas morsiz.

* * *

Bo‘ldi ko‘m-ko‘k bog‘-u rog‘,
men bo‘lmadim xurram hanuz,
Gul ochildi, sayradi bulbul, ko‘ngilda g‘am hanuz.

Bo‘ldi olam shod-u bulbul vasli guldan yayradi,
Menda-chi, bir gul firoqindan g‘ami olam hanuz.

Tog‘qazar oshiq bo‘libdir teshayi g‘amdan halok,
Boq, kiyib qora, tutarman unga men motam hanuz.

Ofitobim la'lini bir kecha ko'rmish uyquda,
Shavqidan durlar sochar bu diydayi purnam hanuz.

Mehri ul oyning tushibdir o'sha kun bu ko'nglima,
Lek yaralganmasdi u chog' tiynati Odam hanuz.

Ey, Masihodan labing jonbaxsh-u la'ling dilrabo,
Ko'rmadi sendek jahon ruhi ravon Maryam hanuz.

Bir kecha ko'rdim tushimda men uning osiy qoshin,
Qaddim ul mehrob shavqindan qolibdir ham hanuz.

Mahrami xol surma hamdamdir ul oyga, Sayyido,
Shunchalar baxtim qaroki, bo'lmadim mahram hanuz.

* * *

Tanlading ul oyni, ayt, mohi samoning farqini,
E'tibor topgaysan aytsang oq-qaroning farqini.

Na hunardirki, tanir ko'nglim sani shul el aro,
Bilmagay kim axir shoh-u gadoning farqini.

Ey, labing oshiqqa gulqand, men ko'zing bemoriman,
Lek jasad so'rgaymi hech dard-u davoning farqini.

Baski, dil oshiq bo'libdir, ey shakarguftor, senga,
So'rma undan hech qachon dashnom, duoning farqini.

Bu dili devonani zanjirga bog'la, haqlisan,
Atri zulfing so'rmagay mushki Xitoning farqini.

Ne sanam, butsan, ayo, Ka'bayi arbobi safo,
Hojilar bilmasmi Marvo-yu safoning farqini.

Dema Sayyidni vafo tarkin etib, qilmish jafo,
Ulki yosh yor, anglamas zulm-u vafoning farqini.

* * *

O‘girgay yuz ko‘ngil jondan, labi dildordan kechmas,
Kechar mayxo‘r bu olamdan, mayi gulnordan kechmas.

Nigori ozariydan dil na ozor kelsa ham kechmas,
Barahman butni hech qo‘ymas, samandar nordan kechmas.

U ko‘p bor xotiri ag‘yor uchun mendan kechib ketdi,
Tag‘in u men sababli xotiri ag‘yordan kechmas.

Kechar piri mug‘on har bir gunohni, koni rahmatdir,
Kim etsa jomi may tarkin u hech hushyordan kechmas.

Sharobi “albalou vilvila”dan mast bo‘lib oshiq,
Kechar Mansur kabi jondan, balo-yu dordan kechmas.

Ko‘zing gar ichsa qonim, nozini chekmoq munosibdir,
Kasal boqquvchi inson xotiri bemordan kechmas.

U tori zulfi g‘irt kofirki, Sayyid etmagay iymon,
Qo‘lin tortgay u tasbehdan, biroq zunnordan kechmas.

* * *

Tig‘ tegsa ham yuzingga, bilki, hech zarar bo‘lmas,
Ko‘zguda bor sayqali, ammo hech kadar bo‘lmas.

Kel bazmi Zulayhoga sen, ey Yusufi soniy,
Bu husnu latofat-la, aytsinlar, bashar bo‘lmas.

Bag‘riga olib kecha-kunduz o‘shal zeboni,
Belin quchoqlagan u sochday baxtiyor bo‘lmas.

Bu tunda u qop-qora sochlardan so‘z ochma sen,
Bu ko‘p uzun bir qissa, aytsang,
muxtasar bo‘lmas.

Yo‘q og‘zin ochib, menga axir so‘zlasa erdi,
Pinhona alam, nola cheksam, beasar bo‘lmas.

Bu sevgi niholin ko‘ngil bog‘iga men ekdim,
Undan balo ungay faqat, g‘ayri samar bo‘lmas.

Ot g‘amza o‘qin Sayyidinga, qoshi hilolim,
U tegsa temirtanga ming bor, bir asar bo‘lmas.

* * *

Olami ishq ichra jononni degan jon istamas,
Jon-u dildan ayri oshiq vasli jonon istamas.

Zulmati zulfinda dil xurshidga qilmas e’tibor,
Bo‘lsa kim la’liga moyil, obi hayvon istamas.

Mulki dunyo oqibat barbod bo‘lur, ey ahli hush,
Zarra aqli bor odam mulki Sulaymon istamas.

Go‘shayi vahdatda haq gulzorini topgan kishi
Xordan aylar hazar, sayri guliston istamas.

Kim yuzingning sha’midan ko‘zin yoritgan bo‘lsa gar,
Tongga mayl etmas, ziyoi mehri raxshon istamas.

Istamas oshiq, ajin, xat bossa dilbarning yuzin,
Ishqda komil bo‘lsa kim, u oyda nuqson istamas.

Olma ko‘ksimdan o‘qingni, etma bag‘rimni xarob,
Zotan odil shoh-da o‘z mulkinda vayron istamas.

Ey tabib, qo‘y dorularni, sen meni injitma ko‘p,
Oshiqi sodiq hecham dardiga darmon istamas.

Ayt, nechun ruxsoriga zulfin parishon yoydi yor,
Bul qaro kunlarni yo zor-u parishon istamas.

Sayyido, sen ayla doim shohi mardon vasfini,
Shohimardon ko‘zlarin mahsharda giryon istamas.

* * *

Qaysi oshiqda seningdek sho‘xi jonon bo‘lmagay,
Bizga ma’lumki, uning jisminda ham jon bo‘lmagay.

Qay shaharda sen kabi g‘oratgar inson bor esa,
Men guvohman, u shaharda ahdu iymon bo‘lmagay.

Qancha kufri borki, zohid boqmagay yor zulfiga,
Shunchalar badbaxtki u, aslo musulmon bo‘lmagay.

Gul yuzingga xo‘p munosib naqsh etilmish qora xat,
Bunga mos har ne kitobda ma’ni har on bo‘lmagay.

Qomating ko‘rganda rashkimdan, hasaddan o‘laman,
Shul sabab vaslinga balkim menda imkon bo‘lmagay.

Yoshurun yor birla ag‘yor g‘iybat aylarmish meni,
Tangri shohid, buncha pastkash so‘z-u bo‘hton bo‘lmagay.

Sahfayi xotirga to‘ldi nur yuzing naqshi, go‘zal,
Shukrilillah, menga endi boshqa hijron bo‘lmagay.

Sayyiding ko‘nglin beribdir zulfi parishoningga, yor,
Jam eru xotiri, minba’d hech parishon bo‘lmagay.

* * *

Ey Xizr, ul zulfi zulmat ichra sayr oson emas,
Yor dudog‘i misli har ne chashmayi hayvon emas.

Husnu noz o‘tkinchidir, chin yor kerak hol ahlidan,
Ko‘p erur yor, bari ham lek yori zabondon emas.

Ahli ishq ko‘nglini ov qilmoqni istar yor, biroq
Bo‘lsa ham Hudhudda toj, bir qush u, Sulaymon emas.

Qon etibdir ahli ushshoq qalbini qotil dahan,
Ofitobim lablari la’ldir valę u qon emas.

Xalq etar oshiq uchun xoliq o‘zin yuz jannatin,
Burma yuz shaydoki, bu ajri shabi hijron emas.

Zohido, etma mening ko‘nglimga iymon talqinin,
Kofiri ishq, nomusulmondir, u hech inson emas.

Bu hayotda senga mendek oshig‘i zor ko‘p erur,
Hech kim ammo menga sendek sevgili jonon emas.

Ochmasang bag‘ring, yo‘qolmas zulmat-u, otmaydi tong,
Senga men qurbon erurman, subh-u kun qurbon emas.

Husn sultoni o‘zingsan men uchun, ey sevgilim,
Senga Sayyid misli hech kim bandayi farmon emas.

* * *

Fitna solgan kunga bir madaniy sharrdir voiz,
Saqlasin Olloh, demam, bir bashardir voiz.

Onasi mehrobga otganmish-ku qo‘ndog‘ini,
Chiqmasin jahling, emish majhul padardir voiz.

Tarqatar shahr ichra do‘zaxning xabarin bot-bot,
Ko‘rgan odam aytadir, ahli saqardir voiz.

“Ratbu yobis”dan ochib so‘z, tortishar tinmasdan,
Vaysaqi ham suhbati bo‘sh, besamardir voiz.

Aqlu hushsizdir o‘zi, g‘aflat mayindan mastdir,
Ahli hushga der sharobni ham zarardir, voiz.

Naql etar u bizga doim ko‘p uzoq ishlardan,
Sayyido, bor xabarim, ahli xabardir voiz.

* * *

Bu husn-u bu latofat-la, aniqdirki, bashar bo‘lmas,
Bu ruxsoru bu yuz birlan falak uzra qamar bo‘lmas.

Misr novvotini ko‘p bor yedim men, ey labi shakkar,
Biroq shirin dudog‘ingdek bu dunyoda shakar bo‘lmas.

Qading sarvi xiromonu bor unda olma ham, zebo,
Vale ne ham deyin, aslo sarvda bir samar bo‘lmas.

Falakdan yerga ingansanmi sen, ey oyati rahmat,
Latofatda tiniq yuzing misol gulbargi tar bo‘lmas.

Agar, ey qoshi yoy, kiprik o‘qin otsang, balo qo‘pgay,
Axir kim ham o‘shal tiyri balolarga sipar bo‘lgay.

Sara, sof otingu ikki sochingdir anbari soro,
Sochingdek ikki olamda balo-yu dardisar bo‘lmas.

Qaro soching aro qancha balolar bor, ayon menga,
Agar dardi dilim yuz tun desam ham muxtasar bo‘lmas.

Kel, ey Sayyid, jo‘shib ko‘nglib, bu bo‘stonga sochur durlar,
Shu ash’ori latifingdek latif durri guhar bo‘lmas.

* * *

Qani u gavhar, o‘sha bodayi sahboga badal,
Har o‘likka jon ato etgan u Isoga badal?

Nega olam bo‘lagin shuncha murakkab etasan,
Bo‘la olmas mayi gulfomi musaffoga badal.

Sevinarmi bu ko‘ngil sensiz-u, yaxshi yo‘q esa,
Bu jahon suvratini ayladi ma’noga badal.

Ko‘rasan Ibrohim, ey zoti haqin isbotini,
Bo‘lajakmi kun-u oy sog‘ari minoga badal?

Bo‘la olmas senga menday har odam ham, go‘zalim,
Na bo‘lur qarg‘a axir bulbuli shaydoga badal.

Hama yerda ruhi yor jilvalanib, nur sochadir,
Ne bir ayb, masjid agar bo‘lsa kalisoga badal.

Sayyido, tut jon ila piri mug‘onning etagin,
Kim ekan u, bo‘ladir hazrati mavloga badal.

* * *

Ey sabo, holimni bil etmoq uchun jononga arz,
Bulbuli bedil g‘amini aylagil bo‘stonga arz.

Ey sabo, zulfi xayoli-la parishon bo‘ldi dil,
Ayla bu ahvolni ul zulfi parishon jonga arz.

Choki-chok bag‘rimni ko‘rsatdim tarog‘iga uning,
Oh, etolsaydim bu tun ul sochlari pinhonga arz.

Jannati ko‘yinda bir Odam edim, sen bu zamon
Zillatim ko‘rgan-da, qil rahmi ko‘p Rahmonga arz.

Qoldi bu bejon ko‘ngil chohi balo ichra asir,
Ayla bu holni, sabo, ul Rustami dostonga arz.

Qo‘y meni o‘z holima, ey shum raqib, arz aylayin,
Aybi yo‘q, holin gado gar etsa ul sultonga arz.

Kelmadi hech kimsadan dardingga darmon, Sayyido,
Hech qachon holingdan etma nokas-u nodonga arz.

* * *

Keldi bahor, lek kelmadi ul guluzorimiz,
Yo Rab, do‘nibdirmi xazonga navbahorimiz.

Solmish nifoqlar o‘rtaga bog‘boni makonning,
Ul gul yoninda qolmadi bir e’tiborimiz.

Gul-gul deya sochildi har yon qonli ko‘z yoshlar,
Boq, lolazorga aylanibdir yo‘g‘u borimiz.

Qanday bo‘lar holimiz mahsharda, bilolmasman,
Bo‘lgaymi yorug‘ ajri shabi intizorimiz.

Ishq dashtida bir tuya karvoni erurmiz biz,
Nokas qo‘lindadir jilov, tinmaydi zorimiz.

Derlarki, berma ul mohi bemehrga ixtiyor,
Ammoki yot qo‘llarda qoldi ixtiyorimiz.

Hijron cho‘zilib, zulfi yordek har yon chuvaldi,
Sayyid, tuzoqqa tushdi dili beqarorimiz.

* * *

Bog‘i olam ichra menga bir guli ra’no kerak,
Bir qadi sarvu yuzi lolayi hamro kerak.

Ism erur Ahmad va Mahmud ham Abulqosim, Ahad,
Bizga bu otlar berilgan zoti pok, a'lo kerak.

Ey ko'ngil, do'st jilvagohi erdi sajdagohimiz,
Bizga na dayru na masjid, na-da kaliso kerak.

Surati zohirga harchand rag'batimiz bor erur,
Har ne suhbat yo o'qishdan bizga chin ma'no kerak.

Bulbul istar gulni, parvona sevar shamni, biroq
Bizga gul yo sham emas, yolg'iz o'shal barno kerak.

Har odamda har xayolot, senga, Sayyid, yoshurun,
Bizga ul pinhon muhabbat, sirri suvaydo kerak.

* * *

Tilagim bir gul-u, na bog'-u, na bo'ston gulidir,
Sevaman bulbuli shaydo kabi, rizvon gulidir.

Qiyos etma meni ishqda o'zinga, bulbuli zor,
U sening istaganing fasli guliston gulidir.

Bari ul ravzayi rizvonda topilmas bu chechak,
Guli xushbo'y shu erur, chunki bu G'ozyon gulidir.

Bu guli xilqati xoliqda latofat ko'p erur,
Demakim bu guli xushbo'y o'zi Solyon gulidir.

E Xudo, kim ichar oxirda bu gul sharbatini,
Dardi sar da'figa olamda bu darmon gulidir.

U Muhammad yuzida ter emasu har biri gul,
Bu guli toza o'shandoq, shahi davron gulidir.

Yo Muhammad, bu chechak tomchisi pok, sizdan emish,
Ruhi zeboyi dilrosi uning jon gulidir.

Salovot ayla ko‘rib suvrati pokin, Sayyido,
Ruhi hamrosi buning xoliqi subhon gulidir.

* * *

Bu kun bazminda ham jomi sharobimiz yo‘qdir,
Qaro tortmish kunimiz, ofitobimiz yo‘qdir.

Hadisi husnu muhabbat erur har darsimiz,
Jamoli yordan o‘zga bir kitobimiz yo‘qdir.

Ajabmi nomayi a’molimiz qolsa oppoq,
Na sobit bir gunohu ham savobimiz yo‘qdir.

Mudom she’rlar o‘qib, maylar ichib, yorni sevdik,
Ziyod bundan fe’lu holi xarobimiz yo‘qdir.

Ali mehri ko‘ngilda nuqtayi ishq, g‘ayri so‘z yo‘q,
Buni o‘zgartirishga inqilobimiz yo‘qdir.

Hisoblay olmagay Sayyid, qiyomatdan ne g‘am,
Savollarga munosib bir javobimiz yo‘qdir.

* * *

Gado bo‘lmoqligimni yori purg‘azab istar,
Shukr ming bor, aziz aylab, manga azob istar.

Kelibdir sarvi qomat-la qilay deb ishvalar,
Ayon, u g‘alva-yu har jumlani xarob istar.

Uning kiprik o‘qi ko‘z yoshlarimdan qon ichgay,
Ki qatliom uchun bir tiyg‘i tund, tezob istar.

Sabo zulfin silab, yuziga tarqatganinda,
Qarang, aysh-u tarabni sochlarin tarab istar.

Dedimki, ey habibam, buncha meni yig‘latma,
Dedi, oshiq yorin ko‘z yoshiga qarab istar.

Qaro zulfi-yu oq yuzi go‘zallik yaratdi,
Qaro, oq ne demasdan, aqli pok adab istar.

Qani, Sayyid, dil-u jon naqdi-yu dinu iymon,
Tag‘in siyminbadan sendan na bir talab istar.

* * *

Na baxtdir bu, har oshiqning seningdek gulyanog‘i bor,
Na kulfatki, uning ko‘ksinda dog‘lar uzra dog‘i bor.

Ko‘ngilni tiyra dog‘lardan tozalab, ravshan aylarman,
Shukur, shomi g‘ariblikda dilimning shabchirog‘i bor.

O‘zin sunbul qiyos aylar u yor zulfiga har oqshom,
Pari ishqinda oshiqning parishon, g‘amli chog‘i bor.

To qo‘ymaskan dudog‘ini dudog‘imga o‘shal dilbar,
Ishonmasman, deyolmasman u oyning ham dudog‘i bor.

U gulzorda, tikanzorda tilingan dildan oqmish qon,
Na xush, ul guluzorimning, u gulning gultarog‘i bor.

Yetib, Sayyid, axir boshing qo‘yibsan xum ayog‘iga,
Boshingda sho‘ri g‘avg‘o-yu qo‘lingda ishq ayog‘i bor.

* * *

Savdolara tushdim, dedim, Ollohi karimdir,
Zulm ichra adashdim, dedim, Ollohi karimdir.

Band bo'ldi ko'ngil tori sari zulfi nigorga,
Bu doma ilashdim, dedim, Ollohi karimdir.

Yondirdi meni sha'sha'yi nuri jamoli,
Bu o'tga qalashdim, dedim, Ollohi karimdir.

Gog' yoqdi meni hajri yuzi, gohi visoli,
Shull o't-la bulashdim, dedim, Ollohi karimdir.

Xom erdi ko'ngil, tushdi g'ami butayi[1] ishqa,
Ul butada pishdim, dedim, Ollohi karimdir.

Sayyid, kezarak kun kabi majmuyi jahonni,
Daryolarin oshdim, dedim, Ollohi karimdir.

* * *

Yuzin hadisin aytayin oy bulut, havo qadar,
Biroq voiz etarmu sharh ma'nosini ravo qadar?

Safoyu Ka'baning ko'yin toparmikin u shayxim,
Yugursa yuz sana chiqib u Marvoyu Safo qadar?

Dedim, visoling istabon duolar ayladim mudom,
Dedi, yetibdir u duoying bu muddaolar qadar.

O'tibdir u kuning kecha, o'tar bugungi kun bugun,
Vale tafovuti-da bor bu yerdan ul samo qadar.

Oz ayla Sayyidingga jabr-u jafoni, malaksiymo,
Oshiq o'lib, yiiqilmasaydi jafodan jafo qadar.

[1] **Buta** — zargarning oltin va kumush eritiladigan idishi *(tarj.)*.

* * *

Ey, malaksiymo, jamoling rashki jannat bog‘idir,
Qomating tubo, labing go‘yoki gul yaprog‘idir.

Ne ajab, ko‘z yoshlarimdan tors yorilsa jism-u jon,
Har yoriq tez suvga to‘lgay, soyki, suv o‘ynog‘i bor.

Lashkari g‘am mulki ko‘nglim buzdi, vayron ayladi,
Podishohim, bir tarahhum qil, muruvvat chog‘idir.

Voizo, ko‘p urma lof bizga qiyomatdan bu kun,
Ishqli dilga ro‘zi mahshar yordan ayrilmog‘idir.

Har sevikli, sho‘x, jafopesha menga aylar sitam,
Bu balokash, xor vujudim yaxshilar toptog‘idir.[1]

Lolalar boshin egib, xoki mozorimdan chiqar,
Bil, ular hajringda chekkan hasratimning dog‘idir.

Lutf etib bir kun, netar, so‘rsang parishon holimi,
Sayyidi sargashta zulfing zulmatin tutsog‘idir.[2]

* * *

Ul qaro ko‘z ishq aro mahbub-u sultonim erur,
Isfahonning surmasidek ko‘zga posbonim erur.

Na pari g‘avg‘osi boshda, na-da savdoyi junun,
Majnun etgan ul meni zulfi parishonim erur.

Orazi oling qaro xatting sabab o‘zgardimi?
Ey pari, oydek yuzingni qoplagan qonim erur.

[1] **Toptog‘** — toptalgan *(tarj.)*.

[2] **Tutsog‘** — tutqun *(tarj.)*.

Ul sho‘x otgan o‘qni jismimdan sug‘urib oldilar,
Angladim, o‘q qoldi tanda, chiqqan ul jonim erur.

Bil, ko‘ngil, ul qoshi yoyning ofat-u nuqsoni yo‘q,
Lek ochiq aytolmadim, ishqim — bu nuqsonim erur.

Xizr agar ko‘rsaydi xatting, oy yuzing, og‘zing agar,
Derdi, bag‘riga bosib, shu obi hayvonim erur.

Sayyid, ul sham hasratinda kechalar to tong qadar
Yongan ahvolimni dey, bu ko‘ngli so‘zonim erur.

* * *

Ey gul, senga ne, mayxo‘r-u bechora desinlar,
Badnom, go‘zal-u bir sho‘xi devlona desinlar.

Xilvat ne kerak g‘ayri ila, ey Yusufi soniy,
Mayli, uyati yo‘q, etagi pora desinlar.

Xurshid mayi ortinda kezar tongga qadar, deb,
Ey oy, senga loyiqki, bu sayyora desinlar.

Har ko‘ngli qora, noqis ila aylama bazming,
Hayfo, seni olamda yuzi qora desinlar.

Sayyid kabi etma havasi bodayi gulgun,
Vahmim shuki, ey oy, seni mayxora desinlar.

* * *

Dahrin menga sensiz bu bahori na kerakdir?
Gulzori chaman, savti hazori na kerakdir?

Oshufta ko‘ngil tori sari zulfini istar,
Sensiz bu makonu kengu tori na kerakdir.

Zulfingda sarin atru ising bor, etadir mast,
Attorning o'shal mushki totori na kerakdir.

Dersanki, u oy har kecha bag'rimda, xayolan,
Qo'y, tushdagi vasli-yu bozori na kerakdir.

Ey zohidi xudbin, bo'laqol aybinga iqror,
Xalqning senga bosh egish-u iqrori na kerakdir.

Bebodayi gulgun bizi mast ayladi, soqiy,
Minba'd mayining ranj-u xumori na krakdir.

Qo'shni tovug'i g'oz ko'rinur qo'shniga, Sayyid,
O'z yoringa bor,o'zga nigori na kerakdir.

* * *

Farhod men erurman, qara, shirinsuxanim bor,
Bir orazi gulgun, labi shakkar, chamanim bor.

Ray o'lkasi, podshoh Nosiriddin qo'lida yo'q –
Bir gavhari noyobki, bu Shirvonda manim bor.

Bahrayna do'nur yor g'amindan iki ko'zim,
Qonli sadaf ichra necha durri Adanim bor.

Dorussalamim bo'ldi mening zulfi qaro yor,
Shom ichra, sharif o'lkada zebo vatanim bor.

Basdir menga xoki qadami, xirqayi chokim,
Yo'q g'amki, na kofur-u, na sidr-u, kafanim bor.

Ko'nglimda ne bor — shohididir husni kalomim,
Ollohga shukur, bu kabi xulqi hasanim bor.

Sayyid, na kerakdir menga ul la'li Badaxshon,
Yuz la'lga munosib bu aqiqi Yamanim bor.

* * *

Uradi tez yuragim, balki nozli yor kelur,
Uchar ko‘zim, magar ul sarvi guluzor kelur.

Sabo ketirdi tag‘in mujdayi gulistoniy,
Gulu chechak ochilur, fasli navbahor kelur.

Uning qadam sasiga muntazir mudom ko‘ngil,
Tasavvvurimda go‘yo yangi shahriyor kelur.

Qadahni to‘ldir, soqiy, uzat-chi dam-badam,
Xamir, may yo‘q esa, boshimga dard, xumor kelur.

Qilich tig‘i ila daf et g‘ayurni ham yo‘qot,
Agar oyinayi ko‘nglinga bir g‘ubor kelur.

Tag‘in u yor ko‘yi ichra ko‘rinsa zulfizar,
Hushing yo‘qotma, agar nofayi totor kelur.

Yetar, e, Sayyido, chekkan g‘aming u sho‘x sabab,
Ochilsa yuz guli tar, ko‘zlaringga xor kelur.

* * *

Dedim, e gul, asir etding meni nevchun, bu ne taqdir?
Dedi, devona bo‘lgan har kishiga ham kerak zanjir.

Dedim, ayt, ne bu ruxsor-u bu zulfi fitnakor, bu noz?
Dedi, bu suvrati Chindir, etibdirlar meni tasvir.

Dedim, ul orazi zebo nadir, zulfi siyohing ne?
Dedikim, mushafi ruxsorima tushmish o‘shal tafsir.

U g‘amzang o‘qlari, jonon, ne maqsadda to‘kar qonim?
Ne deyman shu avomga, hech etolmasman unga ta’sir.

Ne yozgan bo‘lsa-da Sayyid, barinda dard-u darz bordir,
Uni ko‘ngli butun inson etolmaydir hecham tahrir.

* * *

Dahan-u la'li labi chashmayi hayvon dedilar,
Ishonarlik so'z emas bu, lof-u bo'hton dedilar.

Dedilar sochlarini mushki Xito, nofayi Chin,
Haqini bilmadilar, harfi parishon dedilar.

Ko'ribon qonxo'r o'shal ko'zlarini ahli nazar,
Bu sitam ahlini oxir tutadir qon dedilar.

Yoqibon do'zax o'tin, bu dedilar oshig' uchun,
O'sha o'tning otini otashi hijron dedilar.

So'radim ahli tabibdan bu firoq malhamini,
Dahani la'li labi, Sayyido, darmon dedilar.

* * *

Anbar sochilur, qoyilayi ud kelibdir,
Go'yoki tag'in chang-u daf-u ud kelibdir.

Xurshid yana ko'klarga chiqur burji hamaldan,
Baytush sharafa axtari mas'ud kelibdir.

Ayyomi bahor bo'ldi-yu ochildi chechaklar,
Dunyoga tag'in jannati mav'ud kelibdir.

Butxonayi Shirvonga tag'in bir buti zebo,
Yo suvrati inson-la u ma'bud kelibdir.

Ul qoshi hilolim yetishibdir-ku kamolga,
Bildirgali nedir ziyon-u sud kelibdir.

Sayyid, bu taraf kelmish o'shal gavhari noyob,
Gavhar sochibon dilbari behud kelibdir.

* * *

Shukr ayla, ko‘ngil, suhbati jononga yo‘ling bor,
Ey to‘tiyi shaydo, shakaristonga yo‘ling bor.

Hozircha u sho‘x ko‘chasidan mahrum emassan,
Ey bulbuli sho‘rida, gulistonga yo‘ling bor.

Ey sabzayi xat, senki labi yorga yetishding,
Sensan u Xizr, chashmayi hayvonga yo‘ling bor.

Ko‘nglim kabi yuz pora bo‘libsan-ku, taroq, sen,
Ul silsilayi zulfi parishonga yo‘ling bor.

Zulmingni nechun to‘xtata qo‘yding biza, ey sho‘x,
Qahr et, haliyam bundayin ehsonga yo‘ling bor.

Sayyid, shikoyat etma falakdan, shu-da tole,
Yur, ey chumoli, bazmi Sulaymonga yo‘ling bor.

* * *

U iki zulfida ruxsorayi jonon ko‘rinur,
Yana xurshid bu zamon doxili Mezon ko‘rinur.

Kishi ishqdan yiroq o‘lsa, na bilur mushkilimiz,
G‘amu dard chekmasa kim, g‘am yuki oson ko‘rinur.

Bu firoq mavsumi zulmat kabi sensiz, go‘zalim,
Qarasam gar chamana, xori mug‘ilon[1] ko‘rinur.

Dahaning toru latif bo‘lsa-da, ko‘zdan yoshurun,
Vale jumboq shuki, yuz nuktayi pinhon ko‘rinur.

[1] **Mug‘ilon** — akatsiya.

Ko‘rinur zulfi arosinda yuzi oy kabi oq,
Shukr Ollohga, tag‘in kufr aro iymon ko‘rinur.

Na qilay, la’li labingsiz icha olmam-ku sharob,
Go‘zalim, sensiz u may ham ko‘zima qon ko‘rinur.

Yuzini qoplamish ul zulfi siyohi yana, boq,
Ajabo, bitta malakka iki shayton ko‘rinur.

Dahaning sirrini so‘rdim, dedi, yo‘qdan ne deyin,
Esi yo‘q nuqtacha, boq, Sayyidi nodon ko‘rinur.

* * *

Na zaxmi g‘amzasidir bu, na tiyri gulsitonimdir,
Qizil qonimga g‘arq qilgan shu chashmi xunfishonimdir.

Sabab ermas ko‘zim yoshi, sababmas bu ochilgan gul,
Chamanda sayragan qushga sabab ohu fig‘onimdir.

Qo‘limda bodayi gulgun, yonimda guldayin yor yo‘q,
Bahor fasli erur bu, lek mening fasli bahorim yo‘q.

U sho‘xning oy yuzi uzra qaro, kaj zulfini ko‘rgach,
Dedim, bu kun qamar Aqrabdadir, davri qironimdir.

Dedim, nedur bu olamda sabab shuncha gap-u so‘zga,
Dedi, g‘avg‘o solib turgan yalonim ham talonimdir.

Diyori yor taraf bu kun safarga otlanib chiqdim,
Bu yangi she’rlarim do‘stlar uchun bir armug‘onimdir.

Menam, Sayyid, muqaddas oshiyonning bir qushidirman,
U jannat ham qadimdan, bil,
mening bir oshiyonimdir.

* * *

Har dam may ichib, ul buti tannozki mast bo‘lur,
Dardi tag‘ofil ila ko‘ngillar shikast bo‘lur.

Gar may bu bo‘lsa-yu, u qorako‘z soqiy esa,
Zohid-da sotib sallasini, mayparast bo‘lur.

Gar chehrasiga bo‘lmasa oshig‘u shaydo kun,
Har kun tushib oyog‘ining ostiga, past bo‘lur.

Bu qora zulfu kokili mushkinki, senda bor,
Gar Jabroil ko‘rsa, asiru poyibast bo‘lur.

Sayyid kabi jahonda xummordan qutilmagay,
Har kimki masti bodayi jomi alast bo‘lsa.

* * *

Demak, holi dili zorim u gulruxsorga mushkildir,
Maboda injisa ko‘ngli, bu dardga chora mushkildir.

Desam, yor o‘ldirar dardim, yashirsam — o‘ldirar dardim,
Bu dardga chora topmoq, ey dili yuz pora, mushkildir.

Quyoshning chashmasi sensan, jamoling parda birlan to‘sdi
Yuzing nuri toshar, husningga bir nazzora mushkildir.

Umidi Ka’bayi diydor ila ovoralar bo‘ldim,
Agar yetmas esa dil davlati diydora, mushkildir,

Ko‘yingga ko‘z yoshim borsam deru yo‘l bermagay yog‘iy,
Bu qo‘rqinch yo‘lda yurmoq menga ham tobora mushkildir.

Firoqing otashidan, ey raqiba, zarra qo‘rqum yo‘q,
Emas parvonaga o‘tlarda yonmoq, nora mushkildir.

G‘ami dildorni pinhon saqlagil ko‘ngilda, ey Sayyid,
Ki mahram aylamak begonani asrora mushkildir.

* * *

Ko‘rsatur masjidni zohid, der, bu iymon yo‘lidir,
Mayli, lekin bil, ko‘ngil, mayxona urfon yo‘lidir.

Ahli haqning Ka’baga dildan yo‘li, u botiniy,
Boshqa yo‘l tutsang agar, jini biyobon yo‘lidir.

Qo‘rqaman gar Ka’baga yo‘l solsa johil kimsalar,
Asli u rohi muxolifdirki, shayton yo‘lidir.

Ey ko‘ngil, tut etagin hamda Alining tut alin,
Bor xotirjam, chunki u Buzar va Salmon yo‘lidir.
o‘shal manzilni

Dema, mayxona yo‘lin rohi zalolat, voizo,
O‘g‘ling o‘lsin! Och ko‘zing, bu Shohimardon yo‘lidir.

Ko‘yi jononga yetishmoqmi murod, ey Sayyido,
Tarki jon etmoq o‘shal manzilning oson yo‘lidir.

* * *

Ko‘ngil ovlar uchun, ey gul, xat-u xoling bor,
Lek bu go‘zaldirki, go‘zal holing bor.

Tag‘in kimlar yurokin qon qilursan, ey oy,
Jon olmoqqa tag‘in chiq, chehrayi oling bor.

Yor og‘ziga, ko‘ngil, sen ko‘p qaraysan, balkim
U zolim nuktayi mavhumda maqoling bor.

O‘z-u, hol ahlini, zohid, bilirsanmi, ayt,
Agar bilmas esang, hayhot, ne ahvoling bor?

Uch, ey ko‘ngil qushim, chiqding qafasdan sen ham,
Uchib bor ko‘yi jannatga, par-u boling bor.

Ochurman mushafin, yuz bor "alif-lom" chiqur,
Bu qomat, zulfda, ey ko'ngil, go'zal foling bor.

U hurvash vaslini istarsan, ey Sayyid, ayt,
Bo'lurga jannata vosil ne a'moling bor?

* * *

Mayl agar qatlimga zolim dilbari Navshod[1] etar,
Qutqarar g'amdan meni, ko'ngilni ham ko'p shod etar.

Qancha yildir, zulfi zanjiriga aylabdir asir,
O'ldirar na sarvi ozod, na meni ozod etar.

Gar u Shirin lablarin etsa shakarbor, keltirib —
Bunga bor ahli jahonni, barchasin Farhod etar.

Gar ajal g'amzangga shogird bo'lsa, ey sho'x, fitnakor,
Qisqa vaqtda jon olurga usta-yu ustod etar.

Ofarin kiprik o'qingga, qon to'kib ko'ksimdan u,
Chiqsa deb joni hazinim menga xo'p imdod etar.

Tarqalib bo'ldi jahonga shuhrati zulming sening,
Boq, butun xalq har makonda bir-biriga dod etar.

Bu mayi gulranga dilni berma ko'p, ey mug'bacha,
Qancha ichsang, bu sharob aylab xarob, barbod etar.

Sayyido, yoring eshitmish nolayi zoring, demish:
Bu ne itdirki, kelib, ko'yimda dod-faryod etar?!.

[1] **Navshod** — Turkistondagi qadimiy shahar, odamlarining go'zalligi bilan mashhur bo'lgan; afsuski, matnda kichik harf bilan navshod (növşad, 88-b.) deya yozilgan *(tarj.)*.

* * *

Xat keldi yuzi dilbara, ey dil, hijobi bor,
Zulfi siyohidek qaro yuzi, azobi bor.

Husniga g'azal bitdi oshiq nayqalami-la,
Yozmoqqa biroq g'amzasini yuz kitobi bor.

Kelmish xati, ustinda tikan tarqatadir bo'y,
Gulbargi tari lablarida bir gulobi bor.

Sharmanda bo'lib, titradi ul chehrayi oyna
Ham larzada simob kabi, bir iztirobi bor.

Loflar urasan yor labining yodi bilan sen,
Boq, boda harom bo'ldi, uning ne hisobi bor.

Ranjitdi rosa gulni fig'oni bila bulbul,
Anglab buni, sindirdi, qarang, na rubobi bor.

G'aflatda kechar umri azizing, qara, bulbul,
Gullar ochilur, ketmoq uchun ko'p shitobi bor.

Har damki o'lur ko'rsa raqib birla nigorin,
O'ldirsa u shoh Sayyidini, xo'p savobi bor.

* * *

Xayol etma, ko'zimdan shu yuzimga ashki tar kelgay,
Karaxt bo'lgancha, ko'z yoshim emas, xuni jigar kelgay.

Ko'zimdan oqqan, ey yoshim, tin endi, yo'lni berkitma,
O'tib ketmoqqa bir yo'l ber, u buti siymibar kelgay.

Umid uzmam visolindan, firoq ayyomi o'tkinchi,
Kut, ey ko'nglim, bu shom ketgay, tag'in oppoq sahar kelgay.

Visolga va'da aylab ul yuborsa mujda, yo'q foyda,
Axir jonim chiqib ketgay agarda bir xabar kelgay.

Nechun ham kelmamish, do'stlar, jahonga bir vafoli yor?
Nahotki, bir-birindan u go'zal sho'xlar batar kelgay?

Chiqib jahlim, dedim, bir kun ketar Sayyid ko'changdan, yor,
Kulib der, mendadir ko'ngli, ketar-kelgay, ketar-kelgay.

* * *

Ahli ishqning, zohido, jismindagi jon boshqadir,
Olami ma'noda, bil, jon boshqa, jonon boshqadir.

Bazm aro oshiqqa yor bo'lmoq-ku harchand yaxshidir,
Lekin ey shaydo ko'ngil, yori zabondon[1] boshqadir.

Kufr-u iymonni na bilsin zulfiga band bo'lmagan,
Mulki iymon boshqadir, ul kofiriston boshqadir.

Ey, u dildorning dudog'indan uzoq Xizri faqir,
La'li dilbar boshqadir, ul obi hayvoni boshqadir.

Isfahoniy surmadan avlo, nigor, xoki poying,
Surma boshqa, to'tiyo ham bilki, chandon boshqadir.

Nayshakardan Hind aro to'ti topar zavq-u safo,
Bilmas u, yorning labinda shakkariston boshqadir.

Sayyido, vasf aylamishlar ahli Xullaxni,[2] na xush,
Mulki Xullax boshqa, xoki poki Shirvon boshqadir.

[1] **Zabondon** — til bilgich; qush tilini biluvchi.

[2] **Xullax** — go'zallari bilan dong taratgan shahar.

* * *

Ko‘rinsa ro‘zi mahsharda agar u sarviqomat ham,
Qiyomatning fazosinda qo‘par yangi qiyomat ham.

Ko‘ngilda ne yaram bor, qonli ko‘z yoshim ayon etgay,
Baliq zaxmini anglatgay suv uzra qon, alomat ham.

Agar ul oyni ko‘rsaydi Zulayho bu latofatda,
Yusufga lol bo‘lib takror, chekar erdi nadomat ham.

Magar kelmish qiyomga ul buyuk mahshar, netarman men,
Netar u fitnayi davron, sho‘x-u sohibmalomat ham?

Bo‘lur xotin sabablik fitnayi oxirzamon paydo,
O‘zin bu fitnadan tortgan bo‘lur sog‘-u salomat ham.

Jafo tiyg‘in ko‘tarmish yor, netarman to‘ksa qonimni,
Kamoli lutfi bu balkim vayo rahm-u karomat ham.

Xotinlarning xayoli har zamon ko‘nglimni tinch qo‘ymas,
Ko‘ngil to‘ymas, netar Sayyid, na sir bu istiqomat ham?..

* * *

Yor menga g‘azab qilsa, dili zorim uchundir,
Qahri u tabibning dili bemorim uchundir.

Shodmanki, meni esga olar g‘ayri-yu g‘addor,
Yod etmasa yor, balki-da ozorim uchundir.

Rasvoyi jahon qildi meni ko‘nglimu ishqim,
Gar tarki vatan etsam, u dildorim uchundir.

Har kecha fig‘onim chiqadir ko‘kka, ko‘rar oy,
Bu nolalarim yulduzi sayyorim uchundir.

Sen ham ketibon, yig'la o'z ahvolinga, Sayyid,
Faryod-u fig'onim mening o'z yorim uchundir.

* * *

Ul quyosh yuzli nigor ishq ahlining jononidir,
Kun kabi ravshanki, u dilxastalarning jonidir.

Zulmati zulfinda la'lin dil nihon orzu etar,
Nuqtayi og'zi Xizrning chashmayi hayvonidir.

Sirrim olamga ayon, pinhon etay qanday uni,
Oshikora ko'nglim olgan handayi pinhonidir.

Ey tabib, sen menga doru berma, darmon aylama,
Yor ko'yin tuproqlari ko'nglim, ko'zim darmonidir.

Kimligin ma'shuqaning bil, zohir etmoq shart emas,
El bilar, olam bilar, u ahli ishq sultonidir.

Yor o'qi ko'ksimga sanchilmish, jigar qonim ichar —
Chunki jonon jon uyimning eng aziz mehmonidir.

Bir xabar kelmish nigordan, jonni olmoq istar u,
O'yladim, Haqning yuborgan menga bu farmonidir.

Bo'lma yorning, Sayyido, jabr-u jafosindan xafa,
Ul go'zalning har jafosi lutf ila ehsonidir.

* * *

Bulbulining eski dardin yangi gul, gulzor bilar,
Yonsa parvona, g'amin ul tungi sham, g'addor bilar.

Komil oshiq dardini hech yorga oshkor so'ylamas,
Ul-ku etgan ahli dardni dardga giriftor, bilar.

Roziman, parvonadek kuysin qanotim, chun meni
O‘tda yonmoqqa sazovor deb o‘shal dildor bilar.

Ne shikoyat aylayin dardi dilimdan yorga, u,
Men bilarman, ko‘nglim ichra aslida kim bor — bilar.

Shukr etib yongayman o‘tda, nolimasman zarracha,
Ul dilorom jannatimni do‘zax-u bir nor bilar.

Ul bodom ko‘zlik, labi shakkar agar rahm etsa, bas,
Yetganin dardiga darmon ul dili bemor bilar.

Sayyido, qonxo‘r guruhga so‘ylama, hech berma qo‘l,
Bu jahonda, deydilar, gul qadrini attor bilar.

* * *

Qayda qoldi men u oy-la ishrat etgan kechalar,
Bitmagan to tongotar ul suhbat etgan kechalar.

Ketayotgan chog‘da dilbar noz etib, bir chimrilib,
Etagin sal-pal qoqib-da, minnat etgan kechalar.

Gar esimga tushsa, ohim ko‘kka o‘rlar har zamon,
Voh, qani oyparcha birlan xilvat etgan kechalar.

Qayda ul oyoqyalangu boshyalang yo‘llar kezib,
Ko‘chasin qilsam tavof deb, niyat etgan kechalar.

Qayda yor eshikining tutqichiga yuz surganim,
Chang-g‘uborin bir o‘pay deb jur’at etgan kechalar.

Bir tag‘in qaytib kelarmi, yo Xudo, hayyul ahad,
Sarviqomat dilbarimni ulfat etgan kechalar.

Dard desa hamdard degandim, jonajon u dam qani,
Barcha achchiq s o‘zlarin men sharbat etgan kechalar.

O‘tdi ne og‘uli kunlar, qoldi bir shirin xayol,
O‘z-o‘zinggga qoldi, Sayyid, lazzat etgan kechalar.

* * *

Shu odatki go‘zallarda hamisha noz bo‘lur,
Seningdek noz qiluvchi yor valekin oz bo‘lur.

U sarviqadni ashkim-la sarafroz ayladim,
Bu ag‘yorning quvonchiga sabab, pardoz bo‘lur.

Bu dunyoda qay oshiq ersa visoldan judo,
U oshiq eng halol, pokiynazar, pokboz bo‘lur.

Haqiqiy oshiq asli ko‘rmagay yor vaslini,
Visol bazmi muhabbatda faqat majoz bo‘lur.

Ko‘ngil qayg‘ulidir, bir g‘unchadek qondir mudom,
Agar kim yor dahanin so‘rsa, ahli roz bo‘lur.

Tolibi faqr-u fano istamas davlat hecham,
Erishsa kim bu kimyoga, u beniyoz bo‘lur.

Kabutardir dili oshiq, qarorsiz har zamon,
Ko‘zingdek barcha yerda burgut-u shahboz bo‘lur.

Quyosh chiqqay, oqargay tong, qaro bu tun tugar,
Hasad yulduz ko‘zin bog‘lar, saboh-da boz bo‘lur.

Shikoyat etma hech, Sayyid, u yorning hajridan,
Kelar bir kunki, lutfi Xudo chorasoz bo‘lur.

* * *

Bu keksa ko‘ngil yangi bir ahli nazar istar,
Avvalgi o‘tibdir, buni undan batar istar.

Yetgaymi ko‘zim yoshlari ko‘ngil yupatarga?
Ma’lumki, daraxt eksa qay inson, samar istar.

Ey gul, bu dil la’li labingni istasa, haqli,
Bu xasta ko‘zim quvvat uchun gulshakar istar.

Sen ikki yonimdan o‘qin yog‘diraver, zolim,
Uchmoqqa ko‘nglim sen tarafga bol-u par istar.

Boshdan kechibon ishqda javlon ura bil sen ham,
Maydoni muhabbat bu, jur’atu jigar istar.

Xummor ko‘zing xohlar esa, qonimni ichsin, qo‘y,
Qurbon bo‘layin, mayli, bu jonni agar istar.

Bir kimsa yo‘qdir senga bog‘liq bo‘lmagan bo‘lsin,
Ey xoliqi tengsiz, seni har bir bashar istar.

* * *

Qayda ul oyga hamog‘ush bo‘lganim ul kechalar,
Vaslidan mastona behush bo‘lganim ul kechalar.

Qop-qaro sochin yoyib ustimga, ko‘mganda meni,
Ka’ba tomidek siyohpo‘sh bo‘lganim ul kechalar.

Vaqti-vaqti-la o‘qib yor birla duoyi qadah,
Lolaruh birla qadahno‘sh bo‘lganim ul kechalar.

Yodga tushsa u, tushar jon-u dilimga shu’la, o‘t,
Ishq o‘tinda o‘t-la to‘sh-to‘sh bo‘lganim ul kechalar.

Vahdat ummoniga yorning sel kabi yetgan zamon,
Kimsasiz qolganda xomush bo'lganim ul kechalar.

Yorning ul shirin kalomi yangraganda, Sayyido,
Unga tutgancha quloq, xush bo'lganim ul kechalar.

* * *

Mening ko'nglimni rom etgan o'shal ko'ngli musaffodir,
Boshimda, bilmagayman, lek ne g'avg'o-yu ne savdodir.

Dedim, ne bu yuzi mashafvashimda ul siyoh xatting?
Dedi ul, surayi "Vashshams" uchun, bilki, bu ma'nodir.

Bu to'rt mixli tabiatga qo'lin siltab yashar orif,
Chiqar ko'klarga, u hamxonayi damsoz Masihodir.

Buroqi himmating birlan Xudoning arshiga yuksal,
U to'rtinchi falak, ey qush, maqomi hazrat Isodir.

Yorug' olamda Ollohi ahad nurini ko'rgay kim,
Demas u hech, bu masjiddir, bu dayr-u, bu kalisodir.

Tajalliyot uningdir ham jamolu ko'z uningdir, bil,
Jahonda goh o'zi Yusuf, o'zi goho Zulayhodir.

Rumuzi she'rdan olamda ne ham derdim men, ey Sayyid,
Dilim o'tlig' chamandir ham tilim bulbuli go'yodir.

* * *

Yodga tushsang, ko'nglim-u, oh, chashmi xunbor yig'lagay,
Yor firoqin chekkan, albat, zor-u nochor yig'lagay.

Bulbuli bedilni tashlab ketdi gul, silkib etak,
Tundan u to tong qadar faryod urib, zor yig'lagay.

Shod ekan vasling bilan, ko‘nglimga g‘am etdi hujum,
Bo‘ldi ming kunga tag‘in dardga giriftor, yig‘lagay.

Boshda dard, zulmat kecha, g‘urbat dami ham yor g‘ami,
Dosh berolmay bunchalar zahmatga bemor yig‘lagay.

Men netay, shomdan sahar paytigacha ingrar ko‘ngil,
Menga hamdam xona-yu ham bog‘u devor yig‘lagay.

Otashi hijronda yillar yondimu bitdim, biroq
Boq mening ahvolima, do‘zaxda o‘t, nor yig‘lagay.

Ayriliq dardinda Sayyid etdi afg‘on shunchalar,
Ul g‘arib holin ko‘rib, charxi sitamkor yig‘lagay.

* * *

Ey oy, senga bu ohi damodam na uchundir?
Oinayi dilda kadar-u g‘am na uchundir?

Botding yana baxtim kabi, bilmam, na qaroga?
Qurbon bo‘layin, nolayi motam na uchundir?

Tashrifi latofat-la o‘zing Isoyi zamonsan,
Isoga, nigorim, g‘ami Maryam na uchundir?

Olamga kelish ketmak uchundir, bu na g‘amdir,
Fikr ayla o‘zing, xilqati olam na uchundir?

Sayyid, agar ul shamda sening yonmasa ko‘ngling,
Bas, pardayi chashmingdagi u nam na uchundir?

* * *

Gahi ko‘zing, gahi qoshing, yo g‘amzang qasdi jon aylar,
Solar bir fitna, jonim, qo‘rqaman, oxirda qon aylar.

Olar goh jon ko'zing, jonon, o'qi fitnang erur pinhon,
Gahi g'amzang to'kar qon —
chashmi mastingdan nihon aylar.

Go'zallar qasdi jon aylar tuyib qo'nglim fig'onini,
Qaroqchi, yo'lto'sarlar qasdi karvon har zamon aylar.

Ko'ngil shavqi yuzing-la halqayi zulfingda sokindir,
U bulbuldek butog'i gulda har vaqt oshiyon aylar.

Gar, ey sarvi ravonim,
bog' aro nogoh xirom etsang,
Qo'porib sarvini bog'bon, otib suvga, ravon aylar.

Agar u gul sog'inchi birla men jon bersam, ey Sayyid,
Mozorimdan unib gul, unda bulbullar fig'on aylar.

* * *

Yana Sayyid u go'zalni o'ziga yor biladir,
Na qadar jabr etajak jonga, sazovor biladir.

Na qadar jabr-u sitamdan etadir yori gunoh,
Yana oshiq o'zin ishqinda gunohkor biladir.

Shu erur qoida gulzori jahon ichraki, gul,
Quvibon bulbulini, hamdamini xor biladir.

Birini Turi tajalloda yoqar barqi jamol,
Birini izzat ila qobili diydor biladir.

O'zi-yu dilbara loqayd ko'rinur, na chora bu,
Gahi zulm aylagan ul o'zgani nochor biladir.

* * *

Sencha g'am dafini dildan ul mayi gulgun etar,
Bo'lsa g'am har kimsada, may ham tag'in afzun etar.

Angladim tajribadan, ishq birla kim bemor esa,
Chorasin na mayfurushu na-da Aflotun etar.

Sen o'zingni tortma maydan, bil, u bir gavhar erur,
Ash'asin Xotam qilar,[1] qashshoqni ham Qorun etar.

Ulki bir shisha sharob olgay bu dunyoni berib,
Men aminman, o'z-o'zin bu hol-la u mamnun etar.

Sayyido, sen suhbati zohidga hech mayl aylama,
Tushkun aylar shubhasizki, xotiring mahzun etar.

* * *

Mendayin badbaxtga avval ahli hush do'st, yor bo'lur,
Bilmadim, ne sir erur, so'ng yuz burib, ag'yor bo'lur.

Qaysi oyyuzga ko'ngil bersam, adashgayman mudom,
Soxta chiqqay u mahak ham, ul buti ayyor bo'lur.

Chunki yuz bor va'da qildi, bir visolga yetmadim,
Qismatimda intizorlik, har zamon ozor bo'lur.

Shunchalar jabrini ko'rdi benavo ko'ngil, netay,
Bevafoga, boq, tag'in u qayta ummidvor bo'lur.

Sayyido, oh urma, o'tgay bu shabi hijron, chida,
Shundayin bir kun kelur, tole senga dildor bo'lur.

[1] Mumsikni ham ehsonparvar qiladi, ma'nosida *(tarj.)*.

* * *

Ne baxt, kimning seningdek yori sarviqomati bor,
Qading qurboniman, har kunda yuz qiyomati bor.

Ne vaqtdirki, ko'ngil boshimga soladir baloni,
Shukur, holan-da jonning holati salomati bor.

Tavahhum etma, ey sho'x, e'tirozim yo'q, tig'ing ur,
Agar qonimni to'ksang ham, bu jonning hurmati bor.

Firoqing davrida goho kulib, goh yig'lagayman,
Bu ishq dunyosining bir boshqa, shunday holati bor.

Tinib qolmish u Farhod teshasin tovshi, ne dersan,
Balo chekmoqda men birlan uning ne nisbati bor?

Ayon qilgay o'zi har dam zaboni hol holimni,
Bayonga, ayt, kesilgan bo'lsa til, ne hojati bor?

Hamisha kasrati g'am kasrat ichra, e Sayyid,
Na yaxshi, olam aro kasrat ichra vahdati bor.

* * *

Keldi fikring ko'nglima, yo Rabki, bu jon bexabar,
Jon chiqib ketsaydi tandan, xushki, jonon bexabar.

Yondirar har tun qanot parvona shamga intilib,
Bu nihon yong'indan ul shami shabiston bexabar.

Voqif o'lsaydim agar, tushmasdi ruxsora u xat,
Bosdi gulzorni tikanlar, ahli nodon bexabar.

G'ofil o'ldim, ey munajjim, ochmading taqvimni sen,
Gardi xat qo'ndi, tutildi mohi tobon bexabar.

Bo‘lma g‘ofil holati ushshoqdan, ey murcha xat,
Hech chumoli holidan bo‘lmas Sulaymon bexabar.

Ko‘z tutarman unga har kun, kecha-kunduz, ishqilib,
Bo‘lmasaydi nogahon olamda to‘fon bexabar.

Yor visoli birla Sayyid misli men ham shod edim,
Etdi barbod hammasin oxirda hijron bexabar.

* * *

Eshitirman, yuragimdan o‘kirik zor keladir,
Ko‘payib dardi tag‘in nolayi bemor keladir.

Uni ko‘rsam, suyunib xo‘p, o‘lishimni bilar u,
Shod etay o‘lgudayin yorni, deya yor keladir.

G‘ami hijronga chidaysan, deding, ey nosihi g‘o‘r,
Senga oson esa bu ish, menga dushvor keladir.

Ta’rif et ahli go‘zalni, desalar, ilk tilima
Baridan avval o‘shal la’li shakarbor keladir.

Asari bodani ko‘rkim, yiqilib, mast bo‘laman,
Na zamon yodima ul ko‘zlari xummor keladir.

Keladir bo‘sa uchun, oshiqi shaydoda ne ayb,
Uyati yo‘qmi, gadoydek yana badtar keladir.

Seni ko‘rsam u raqib-la, o‘lishim, bilki, aniq,
Keza ko‘rma raqibu ag‘yor ila, or keladir.

Nari ketsa, sochi torin qani deb axtaraman,
Ko‘zima keng bu jahon, Sayyido,
tang-tor keladir.

* * *

Qasdi jon aylar, u fatton ko‘zlaring bedor erur,
Bir kabutar qasdiga go‘yo iki sayyod erur.

O‘ldirar, gohi tiriltar bizni ishvang o‘qlari,
Shunchalar mohirki, ham jonbaxshu ham jallod erur.

Ko‘z yoshimning sellari olamda to‘fon qo‘zg‘otur,
Ko‘r, g‘amingdan har ko‘zim bir Dajlayi Bog‘dod erur.

Boshdan o‘zga ne beray men senga, ey zolim sanam,
Jabr-u zulming xo‘p farahbaxsh-u dilim noshod erur.

Ey mohi nomehribon, vasling tamannosini qo‘y,
Davri hajringda ko‘ngil motamzada, barbod erur.

Qildi hijron qasdi jon, jonona bilmas holatim,
Ne bo‘lur lutf aylasang, bu dam-dami imdod erur.

Sevgilimdan ayrilib, ey Sayyido, bo‘ldim g‘arib,
Hamdamim afg‘onu do‘stim nolayi faryod erur.

* * *

Ofitobi zarfishon yo bodayi yoqut erur,
Ruhi Ruhillohi a’zam, ruh uchun yo qut erur.

Labmi yo xat, ey Xizr, yo chashmayi obi hayot,
Xolmi ul davri ruhingda, sirli yo xutut erur.

Ikki zulfing bosh egik, chohi zanaxdonda asir,
Chohi Bobilda magar Horut ila Morut erur.

Ey qamar, har kun tutilmas ul quyosh, rashk etma ko‘p,
Lek bugun husning ko‘rib, hayron-u lol — mabhut erur.

Bodayi gulrang tomib, oluda bo‘lmish ko‘ylagi,
Balki iz ko‘ylakda qoldirgan u qora tut erur.

Boqma u ko‘zlarga ko‘p, jodu bilan xor aylagay,
Ey ko‘zim nuri, bular ham yo sanam, yo but erur.

Bulbuli gulzori pok erding azaldan, Sayyido,
Hayfkim, endi maqoming olami nosut erur.

* * *

Ishq ahliki, xoli labi jonorini o‘parlar,
Ul Ka’ba aro bermoq uchun jonni, o‘parlar.

O‘psam yuzidan, ey yuzi mushaf, ne gunohim,
Bir sunnati mashhur shuki, Qur’onni o‘parlar.

Chanqoq yuragim yoralari, chaqsa-da chaqmoq,
Bag‘riga bosib, novaki paykonni o‘parlar.

Sindirdi o‘shal eski qadahni, sababi shu,
May tomsa labindan, ko‘ngil olg‘onni o‘parlar.

Qanday yumayin ko‘zni, axir mardumi olam
Uyquda bari ul labi xandonni o‘parlar.

Maktab bolalar ham guli ro‘yin havasindan
Surtib varag‘in ko‘zga, “Guliston”ni o‘parlar.

G‘amzang o‘qi qonimni ko‘chang toshiga to‘ksa,
Bir necha maloik kelib, ul qonni o‘parlar.

Sayyid, meni shum fikr-u xayol uxlatadir-da,
Pinhona borib, zulfi parishonni o‘parlar.

* * *

Har go‘zalda, kun kelur, husn-u malohat qolmagay,
Qiymati yuz minglik olmos bo‘lsa, qiymat qolmagay.

Lola yuz ochgach, ko‘ringay dog‘i pinhoni ayon,
Sunbuli zulfinda lek tob-u tarovat qolmagay.

Lek qolur oshiq, nigori husnidan bo‘lgay judo,
Kelsa kuz, bulbulda o‘tli ishq, fasohat qolmagay.

Qismat ersa, xalq aro ma’shuq bo‘lur be’etibor,
Filhaqiqat, hokimi sobiqda hurmat qolmagay.

Unchalar jabr etma oshiqlarga, aynib ketmasin,
Shoh raiyatsiz esa, albatta, shavkat qolmagay.

Bu qadu ruxsor ila sayri guliston aylasang,
Gul yaqosin chok etar, shamshodda toqat qolmagay.

Sayyido, ul otashin dilbar kelib rahm etmasa,
Kunma-kun ko‘ngli sovur, eski harorat qolmagay.

* * *

Ey gul, senga holi dili shaydoni kim aytgay?
Ishqingda ezilgan zor-u rasvoni kim aytgay?

Ko‘rdimki, qaro sochlari ruxsoriga tushmish,
Yondirdi mani otashi so‘zoni, kim aytgay?

Xatttingki ayon mushafi husningda, ne ma’ni?
So‘zni o‘qiturlar biza, ma’noni kim aytgay?

Sirri dahani yorni, ko‘ngil, axtar, o‘zing top,
So‘z bormi o‘zi ochsa muammoni, kim aytgay?

La'ling g'ami o'ldirdi mani, kimsa ishonmas,
Joni qotili olamda Masihoni kim aytgay?

Bemor meni etmish ko'zingu ikki dudog'ing,
Dardim-ku ayon, voh, qani darmoni, kim aytgay?

Bilmaydi bu el sham alamin, unga bu aybmi?
Sayyid, saning ul dardinga oshnoni kim aytgay?

* * *

Sevgan odam yorni ko'rib, ko'ngli shod bo'lar,
Jabri falak boshga tushib, nomurod bo'lar.

Shaydoda mehr ozayar deydi monelar,
Ma'n qilinur ersa, muhabbat ziyod bo'lar.

Qancha to'siq chiqsa, ko'ngil kuchayar tag'in,
Daryo kabi mavji oshar, tundbod bo'lar.

Pand-nasihat birla oshiq ishqi so'nmagay,
U yana oh urganida girdibod bo'lar.

Bir xaridor bor bu muhabbat bozorida,
Yo'qsa oshiq, husn matosi ham kasod bo'lar.

Topdi Yusuf ishqi Zulayho bilan sharaf,
Husni sabab unga kinu har fasod bo'lar.

Ishq aro, ey Sayyido, topding-ku yaxshi ot,
To zamona bor ekan, ul el aro yod bo'lar.

* * *

Yuz sarvi xiromon aro ko'nglim seni istar,
Yuz bog'i guliston aro ko'nglim seni istar.

Yuz Zuhravashu mohiliqo, mehri diloro,
Yuz ming mohi tobon aro ko'nglim seni istar.

Bu zulmati zulfingda labing obi baqomiz,
Yuz chashmayi hayvon aro ko'nglim seni istar.

Jonon to'la olamda-yu ko'nglim sanga moyil,
Bu olami jonon aro ko'nglim seni istar.

Ey do'st, huru g'ilmon, parilar bizga kerakmas,
Yuzlab huru g'ilmon aro ko'nglim seni istar.

Sayyid ko'ribon har guli a'loga lol o'lmas,
Yuz g'unchayi xandon aro ko'nglim seni istar.

* * *

Dudog'in ochsa u gul, har yera shakkar to'kilur,
So'zini aylasa takror, boli mukarrar to'kilur.

Sochini yoysa agar, xushbo'yi olamni tutar,
Hama vaqt chehrasiga zulfi muanbar to'kilur.

Yuzining aksi agar tushsa, biling, oyinaga,
Hama vaqt oyinadan lolayi ahmar to'kilur.

Gar uning oraziga o'g'richa bir bor qarasam,
Karam-u g'amzasidan ustima xanjar to'kilur.

Bu kecha sho'x go'zalim ichdi sharob to'ygunicha,
Labu mastona ko'zindan mayi Xullar[1] to'kilur.

Kecha sen qaysi gulu gavhar ila bog'da eding —
Qara, Sayyid, g'azalingdan duru gavhar to'kilur.

[1] Sof sharobi bilan mashhur bo'lgan shahar.

* * *

G‘unchaning bag‘rin azaldan bu falak qon aylamish,
So‘ngra ko‘nglini ochib, olamda xandon aylamish.

Saltanat taxtiga bir zina erur zindon, biling,
Shu sabab davron Yusufni bandi zindon aylamish.

Ranj agar chekmas kishi, kirgaymu hech qo‘liga ganj,
Rasmi, ranj chekkanga har mushkulni oson aylamish.

Sabri Ayyub ham kerakdir oshig‘i dilso‘xtaga,
Oqibat lutfi Xudo dardiga darmon aylagay.

Yo‘qsa bir vayronga obodlik qachon, qaydan bo‘lar?
Tangri izni birla obodlikni inson aylagay.

Bir visolingga yetishsam, aytar erdim dardimi,
Menga bu jabr-u jafo, zahmatni hijron aylamish.

Sayyido, hech qo‘rqma dunyoda, Xudovandi ahad
Izzat aylabdir seni, karvonga sarbon aylamish.

* * *

Dersanki, manga huri-yu g‘ilmon bo‘lajakdir,
Qismat sanga ul Kavsari rizvon bo‘lajakdir.

Basdir manga bu soqiy ila bodayi gulgun,
Manzilgahimiz sahni guliston bo‘lajakdir.

Dunyoda kerak yori parivash, g‘ami beg‘ash,
Uqboda ne deb kimsa parishon bo‘lajakdir.

Bu naqdni qo‘yib, nasya berurlar, ne qilay men,
Kim naqdini olmasa, u nodon bo‘lajakdir.

Soqiy manga sunmishdi sharobi mayi Kavsar,
Voiz ko'ribon, hasrat ila qon bo'lajakdir.

Boy berma bu fursatni, sen ey, oqili hushyor,
Umring o'tajak, dahr o'zi vayron bo'lajakdir.

Maddoh so'zi-yu nasyaga aldanmadi Sayyid,
Bor naqd hunarim, loflara qalqon bo'lajakdir.

* * *

Bu jahonda ishq-muhabbat qadrini hushyor bilar,
Pokligu ozodalik xursandligin bedor bilar.

Aqli ko'r qaydan bilar porloq quyoshning qadrini,
Fayzu bahra nurini ko'ngil ko'zi bor yor bilar.

Birgina oshiq bilar husnu kamolning qadrini,
Chunki zar qadrini zargar, zarshunos dildor bilar.

Aybi yo'q, hol ahli gar sirri dahanni bilmasa,
U nihon sirni faqat bir mahrami asror bilar.

Ahli ishq boshiga hijron ne qaro kun solganin
Zulfi savdosi-la kun-tun chekkan ohu zor bilar.

Kimsa bilmas holi zorin, bir ko'zing anglar faqat,
Ne balolar ko'rmagay bemor, buni bemor bilar.

Ne balolar chekkanimni senga, Sayyid, aytmayin,
Dardi hijron ofatin unga giriftor, xor bilar

* * *

Tuproqda tajallo qiladir xoliqi Jabbor,
O'z suratini xoki siyohdan qilib izhor.

Chun topdi bashar qadrini tuproqda o‘shal kun,
Bu xokki tajalloyi haqa bo‘ldi sazovor.

Odamni yaralsin deya istarmi malak, voh,
Ko‘rganda bashar husnini, u bo‘ldi giriftor.

Xorut ila Morutga axir ne deya olgum,
Jibrili amin tushsa bu savdoga, bo‘lur xor.

Ne chora topay ishq aro men, bir uyi kuygan,
Yuz Zuhraga dil mushtari-yu volayi diydor.

Ko‘rdim necha ko‘z, barchasida sehr ila jodu,
Bemor qila ketdi meni bir ko‘zlari bemor.

Yo‘qlikda o‘shal nafsi malak, quvvayi nuriy,
Rahm ayla, Odam men axir, ey xoliqi G‘affor.

Gar aylamasayding ruhi dilbarda tajallo,
Sayyid bu qadar bo‘lmas edi yorga talabgor.

* * *

Mavjud-u falak, har yaratiq , ahli nazardir,
Bir o‘xshashi yo‘q suratu bir shakli digardir.

Ul qoshlri bir tig‘dir-u, kipriklari nashtar,
Nashtarga yuqib qolgan o‘shal qoni jigardir.

Jom birla hijob misli duchor tiyg‘iga boshim,
Boshimga balo bo‘ldi boshim, voh, bu ne sardir!

Bir qo‘lda tutib tiyg‘ini, bir qo‘lda tutib tosh,
Davoga kelur, qarshisida jon ne sipardir.

Faryodu fig‘onim, ana, ko‘klarga to‘libdir,
Bu, charxi jafokor, sen uchun joyi hazardir.

Gar kessa jafo qaychisi-la umrim ipin u,
Billoh, demagayman, ne jafo bu, ne xatardir.

Yuz pora taroq bo'ldi ko'ngil rashku hasaddan,
Soching taragan fitnagaru sho'badagardir.

Ey gul, dur-u gavharga tikan tenglasha olmas,
Chehrang bu gulistoni safoda gul tardir.

Koshkiydi qayish bo'lsam o'shal xipcha belingga,
Voh-voh, na go'zal xipcha belu, voh, ne kamardir!

O'psam deya zulfingni esar yel kabi Sayyid,
Ko'zdan to'kilur yoshlari, u xuni jigardir.

* * *

Qaro ko'z, to'xta, ayt lutfan, bu noz-u bu ado nevchun?
Ne ayb, ne yuz qarolik ayladimki, bu jazo nevchun?

Yarashgaydir senga ol to'n, nechun kiyding qarosin, ayt,
Sevikling yo o'lib qolganmidir, bu hol, azo nevchun?

Yanog'ing lolaga o'xshar, dudog'ingdir aqiq monand,
Tanang-ku oqdanam oqdir, biroq isming Qaro nevchun?

Qaro ismi faqat menga munosib, chun qaro baxtim,
Biroq ey oqbadan dilbar, qaro ismi sango nevchun?

Vale har kim senga oshiq esa, bo'lgay qarobaxtlik,
O'zingdirsan husn shohi, qaro ismi, shaho, nevchun?

Yaroli ko'ngil, ey Sayyid, qaro zulfga yetishsam, bas,
Qaro lozim tag'in, deysanmi, unda bu davo nevchun?

* * *

Mozoriga u bir shisha mayi gulob olib borgay,
Do‘zax o‘tin o‘chirmoqqa yoniq selob olib borgay.

Qoshing shavqi bilan obid xato qilsa, sen ayb etma,
U o‘ylarki, dil-u aqlin u yon mehrob olib borgay.

Yo‘lim ko‘yingga tushganda, oyoq changi bilan qaytsam,
Suray deb ko‘zga tuprog‘ingni ahbob olib borgay.

Firoq shomida yig‘larman, ko‘z o‘ngim to‘smasa kiprik,
Alam dunyosiga ashkim to‘lib, serob olib borgay.

Soching sharhi qaro tunlar etur Sayyidni ham bedor,
Uzaygan sori afsona, ko‘zini xob olib borgay.

* * *

Husn aro Yusuf biror jonon bilan tortishmagay,
Qul, azizim, hech qachon sulton bilan tortishmagay.

Sajda et yorga, ko‘ngil, qo‘l silta zohid lafziga,
Aqli bor inson avom, shayton bilan tortishmagay.

Ahli donish u go‘zal og‘zini bir nuqta demish,
Bunda so‘z ko‘p, bilguchi nodon bilan tortishmagay.

Yorni ko‘rgan kunda unga jon fido qilmoq uchun
Xasta ko‘ngil u zamon hech jon bilan tortishmagay.

Sunbul ahvoliga bir boq, ko‘p parishon holati,
U qaro yuz bu parishon xon bilan tortishmagay.

G‘uncha og‘zin sirrini ochmoqqa hujjatlar kerak,
Gar dalili yo‘qsa, u burhon bilan tortishmagay.

She'ru sirdan bexabarsan, qilma bahs Sayyid bilan,
Oyatin bilmas kishi Qur'on bilan tortishmagay.

* * *

Ko'ring, maydan ne fitna bo'ldi hodis,
Ki, zohid so'yladi ummulhabois.[1]

Qarang, komil jaholatni demishlar,
Bo'lur may fitnayi urfonga bois.

Shafoatdan bo'lay uqboda mahrum,
Shular din ilmiga gar ersa voris.

Araq-la bodadir ul ikki gavhar,
Uchinchi narsa yo'q dunyoda xolis.

Ne eksang bul jahonda sen-da, zohid,
O'rarsan o'shani uqboda ma'yus.

Fasod ahli sani derlar mufassir,
Inod ahli o'zin derlar muhaddis.

Dahan shavqi-la, ko'r, yo'q etdi borin,
Bo'lur har nukta deb Sayyid mubohis.

* * *

Bu ko'nglim zavq olar doim o'shal g'unchadahan bois,
Bu jon lazzat topar doim o'shal og'usuxan bois.

Ko'ying shavqi bilan har dam ishim ohu-fig'on, ey gul,
Mudom bulbul fig'oniga bo'lur yodi chaman bois.

[1] Yolg'onni, nayrangning onasini so'yladi.

Kumushdek ko‘z yoshim unsiz sochilgay har zamon yo‘lda,
Dudog‘i la’l o‘shal dilbar, buti siyminbadan bois.

Dilim zulfing aro mahkum qaro kunga, u sabr aylar,
Ki har kim ham makon tutgay o‘shal hubbilvatan bois.

Dilim naydir, navo qilgay, mayi ushshoqqa mavj bergay,
Taralgaydir “Husayniy”lar o‘shal vajhi hasan bois.

Ko‘ngil, nodiyda, nodirdir har oshiqqa visol, diydor,
Labi la’li Yaman bois vayo Vaysi Qaran bois.

Sen, ey Sayyid, go‘zalning vasfini kuylashni fan qilgil,
Bu she’r dunyosining g‘avg‘osiga, bilsang, u fan bois.

* * *

Aylar sharob la’li labingda mudom bahs,
Kundek bu ravshan bo‘ldi, aylar harom bahs.

Derlar seni nopuxta-yu siymi xomdir,
Sarroflar yoninda na lozim bu xom bahs.

Ahli kalomga sirri kaloming ochilmadi,
Bir nukta uzra etdilar molokalom[1] bahs.

Har dam qilib vujudi adamdan hikoyalar,
Ramzi dahaning-la etar xos, avom bahs.

Zulfu ruhing hikoyati bitmagay hech,
Gar oq, qaroni qilsalar subh-u shom bahs.

Men ko‘yi yor derman, Ka’ba deydi zohid,
Farz bo‘lmadiki, etasan bemaqom bahs.

[1] **Molokalom** — ifodasi, tasviri mumkin bo‘lmagan holu hodisa *(tarj.)*.

Sayyid, u oy haqinda bahslashmagin ko‘p,
Noqis qolur zamonda, bo‘lmas tamom bahs.

* * *

Ko‘nglim ezilib, siynayi yuz chokka qaraydir,
Suvga cho‘kayotgan xasu xoshokka qaraydir.

Dildan otilur ohi jigar otashi har dam,
Chiqqancha tutun birla u afloka qaraydir.

Dil aksi ruhin otash ila xokda ko‘rarmish,
Goho qarar otashga-yu goh xokka qaraydir.

Balki etadir tark meni u quvvayi idrok,
Sultoni xayolim yana idrokka qaraydir.

G‘addorni Xudo urgay, unga tufla, uzoq ket,
Pokiza ko‘ngil gavharu dur, pokka qaraydir.

Ko‘nglimni tuzog‘iga tushirmish oxuday yor,
Bismil deyibon so‘ysa, g‘arib yakka qaraydir.

Sayyid ko‘zining shuncha jafosin ko‘ra keldi,
Hayhotki, tag‘in g‘amzayi bebokka qaraydir.

* * *

Ey ko‘ngil, la’li labi jononga aylarsan havas,
So‘z nihon qolsin, nihonan jonga aylarsan havas.

Goh so‘zing mayxonadir, gohi xayoling may tutar,
Jannat istarsan, yana g‘ilmonga aylarsan havas.

Yo‘q ishing yor og‘zining sirrini so‘rmoqdan bo‘lak,
Sen mudom har nuktayi pinhonga aylarsan havas.

Ey dili majruh, tuzalmas mushk ila zaxmi ko‘ngil,
Bas, nechun ul zulfi mushkafshonga aylarsan havas.

Gohi yorning tiyg‘ini, goh o‘qlarin orzu qilib,
Har on undan kelguchi ehsonga aylarsan havas.

Ey nigorimning xayoli, doimo ko‘nglimdasan —
Sen nechun bu manzili vayronga aylarsan havas.

Sayyido, yor zulfini ol, bog‘lagil zunnor qilib,
Ishq aro gar rutbayi San’onni aylarsan havas.

* * *

Bo‘ldi sensiz bu chaman men ko‘ngli shaydoga qafas,
Bir chamanmas, bor jahon men xoru rasvoga qafas.

Oshiq istar pok, yorug‘ dunyoni, zindonni emas,
Bargi gul har bulbulu ham ishqu savdoga qafas.

Yig‘ladi bulbul firoq ayyomida mendan batar,
Ne uchun aylanmadi bir mavjli daryoga qafas.

Shu chaman, bulbul va gulda bor erur zoti sharif,
Ne ajabkim, bo‘lmagay u jumla dunyoga qafas.

Sayyido, bu surati olam agar ersa fano,
Barcha so‘z bo‘lmas edi olamda ma’noga qafas.

* * *

Seni, ey gul, vafodor deb yurardim, bevafosanmish,
Kechir, bilmapman-a, begonalarga oshinosanmish.

Seni oyinayi maqsud deb o‘ylab, yuzma-yuz turdim,
Ko‘rindi aksi surat, voh, jinu shaytonnamosanmish.

Seni Yusuf debon berdim ko‘ngil mulkinda sultonlik,
Azizim, ey ko‘zim nuri, gado o‘g‘li gadosanmish.

Seni ushshoq uchun avval dedim, Haq rahmati shuldir,
Sen, ey mohro‘y valu ko‘kdan yog‘ilgan bir balosanmish.

Qay anbar zulfga band bo‘lmas, u, Sayyid, bevafo chiqdi,
Shikoyat etma hech kimdan, o‘zing baxti qarosanmish.

* * *

Faqr-u fanoni bilmas edim, kimiyo emish,
Sangi sitam shikasta dilga mo‘miyo emish.

Mulki fano-yu faqirda sulton emish faqir,
Qudratining avjida sulton-da gado emish.

Og‘u deganing menday miskinga emish sharob,
Begona deb bilganim menga oshino emish.

Boshga uning soyasi tusharkan, baxtga yetdim,
Men zog‘ga o‘xshatgan u qush ayni xumo emish.

Chin so‘z shudirki, mushki Chindan u ziyodadir,
Mushki Xito u zulf aro bir xato emish.

Sochiga do‘st deb taroq yuz pora edi ko‘ngil,
Yanglishibsan, zulfiga mahram u sabo emish.

Og‘ir ahvolga tusharkan Sayyid, “Yo, Ali!” der,
Mushkulkusho jahonda so‘z ichra shaho ekan.

* * *

Necha mohro‘y go‘zal Shirvonda ko‘nglimdan qaror olmish,
Tanimdan tob, ko‘zimdan xob, qo‘limdan ixtiyor olmish.

U qotilvash sanamlarkim, dil ovlar ishvasi har dam,
Temir tirnoqli burgutday urib changal, shikor olmish.

Biri jonimni olmoqqa ketarmish xanjarin qayrab,
Biri qonimni to‘kmoqqa tig‘i qotilshior olmish.

Biri zohir nigoh birlan olur jonimni pinhona,
Birining g‘amzayi pinhoni ko‘nglim oshikor olmish.

Na din qo‘ymish, na iymon manda, na odatu na mazhab,
Bu kofirvash go‘zallarkim, qo‘limdan har na bor, olmish.

Xususan, ul nigori sarviqomat, yori mohsiymo,
Taratsin xushbo‘yin deb zulfidan mushki totor olmish.

U sho‘xning sahfayi ro‘yinda ko‘rgan xattini Sayyid,
Xayol etgayki, Rum yurtin sipohi Zangibor[1] olmish.

* * *

Sochini zulmati davron dedilar, to‘g‘ri emish,
Labini chashmayi hayvon dedilar, to‘g‘ri emish.

Bori borim yo‘qolibdir dahaning fikri bilan,
Dahaning nuqtayi pinhon dedilar, to‘g‘ri emish.

Kim agar kelsa, ko‘ngildan etadir tasdig‘ini,
Ko‘yini ravzayi rizvon dedilar, to‘g‘ri emish.

[1] **Zangibor** — Habashiston *(tarj.)*.

Yonibon, o‘rtanibon hajrida, bildimki, firoq
Do‘zaxi otashi so‘zon dedilar, to‘g‘ri emish.

Qoshi nun-u qalam-u qaddi alif, sochlari lom,
Yuzii surayi Qur’on dedilar, to‘g‘ri emish.

Yeru ko‘k, arshu malak nuriga sajdalar etar,
Senikim, olama sulton dedilar, to‘g‘ri emish.

Sanamo, sanda tajallo etadir hazrati haq,
Surating surati rahmon dedilar, to‘g‘ri emish.

Senga oshiq esa kim esa ham u malakdan-da aziz,
Esa munkir, uni shayton dedilar, to‘g‘ri emish.

Qara, Sayyid g‘azali totli, shakarbor-u latif,
Labi la’lin shakariston dedilar, to‘g‘ri emish.

* * *

Tutashdim o‘tlara, oldim dili devonadan otash,
Tushibdir olami imkona bu koshonadan otash.

Dedim, rahm et, mahi tobon, yetar,
ko‘nglimni qaytib ber,
Dedi, yaxshi emas oqshomda bermoq xonadan otash.

Agar qalb yonmasa erdi, dili jononni yoqmasdi,
Ajab holat, tushibdir shamga ul parvonadan otash.

Shu murchday zarrayi xoling butun oshiqlaring yoqdi,
Tushibdir xirmani ahli dila bir donadan otash.

Sovuq qish-ku, bu majlisda sovuq gaplarni qo‘y, soqiy,
Isit bu davr-u davronni, uzat paymonadan otash.

Gahi hajring, gahi vasling solur o‘t bu yoniq qalbga,
Shukur, kam bo‘lmadi bul go‘shayi vayronadan otash.

Muroding xotiri jononni yondirmoqmi, faryod et,
E, Sayyid, xoli bo‘lmas sufrayi mastonadan otash.

* * *

Shuncha chekdim iztirob, lek bo‘lmadi ishq dardi daf,
Kiprigingning o‘qlariga ko‘ksim o‘lsaydi hadaf!

Shu umid birlan yasharman, g‘amzang o‘qin tinmay ot,
Ko‘zlaring atrofida kiprik tizilmish safma-saf.

Yozdi “Val-layli izo” ul sahfayi ruxsora xat,
Oqqa lekin bu qarosi bo‘ldi ortiqcha sharaf.

Oshiqi zor ikki ko‘zin ne sababdan yuvmamish?
Ul yuzi mushaf boqolmas rashki bois bul taraf.

Yor xaridor bo‘lsa netgay ko‘z yoshimning durriga,
Ikki dengiz durlariga ikki ko‘zimdir sadaf.

Na’raga lozim rubob, yo‘q dafni ko‘p urmoqda naf,
Chunki ko‘ngildan g‘amim daf aylamas faryodi daf.

Ul Yusufni qo‘ydilar bozorga, voh, ma’no qani?
Jonni, Sayyid, asramoq ne? U sopoldi, yo alaf.

* * *

Ism o‘zi bir ism erur, ammo musammo turlicha,
Gavhari shahvori birdir, ammo daryo turlicha.

Har xil odam har kalomga turlicha ma’no berar,
So‘z o‘zi bir so‘z erur, ammoki ma’no turlicha.

Yosh-u keksa olami rang birla borliqda oqar,
Shu sababli bunda, ey do‘st, ismu asmo turlicha.

Bahri vahdat mavj urib, har yon sochilgay qatralar,
Bo‘ldilar ul qatralardan durri a’lo turlicha.

Vahdata aylar nazar kim, har ne vohiddir, ayon,
Garchi suratda erur firavnu Muso turlicha.

Nur olovdir, ayni chog‘da har olov ham nur erur,
Do‘zaxu jannat erur suratda, jono, turlicha.

Husn-u ishq-u oshiq-u ma’shuqi birdir, ey ko‘ngil,
Sayyido, hargiz emas olamda ashyo turlicha.

* * *

Bir oyni sevib, ko‘kka tamannodan uyaldik,
Bu dushmani vahshiy-la madorodan uyaldik.

Ul lolaruh bo‘lmas biza na do‘stu na dushman,
Ag‘yor bila bu behuda g‘avg‘odan uyaldik.

Bulbul, sanga bo‘lsin yana gulzori muhabbat,
Bu bog‘da tag‘in biz guli ra’nodan uyaldik.

Devona bo‘lib, cho‘l-u biyobonga tushibmiz,
Zanjirli o‘shal zulfi chalipodan uyaldik.

Boshdan yera otdik havasi bodayi nobni,
Sindirdik ayoqni, mayi humrodan uyaldik.

Biz qissayi Shirin ila Farhodni unutdik,
Afsonayi Majnun ila Laylodan uyaldik.

Qo‘l silta vafosizga, dedik, qilmadi Sayyid,
Biz qo‘l chekib, ul oshiqi rasvodan uyaldik.

* * *

Toki og‘zing sirriga pinhon talabgor aylading,
Yo‘q bo‘libdir borimiz, dardga giriftor aylading.

Shoh tomirga barmog‘in qo‘ygay tabib har bir soat,
Chunki, ey oy, hasrating-la bizni bemor aylading.

Bor edik u lahzada, lek yo‘q edi yer-u samo,
Men siringning sadqasi, yo‘qdan axir bor aylading.

Ul amonat gavharing chiqmish bozorga ul kuni,
Siltadik qo‘l jonga ham — bizni xaridor aylading.

Bizda-ku yo‘q haq-huquq, lek ne karamdir, bilmadim,
Xilqati ijodga bizni sen sazovor aylading.

Yo‘qdir, ey oromijon, sensiz vujudda bir asar,
Ish o‘zing, qilgan o‘zing, bizni gunohkor aylading.

Ichdik ul xumxonayi ahbob-la jomingdan sharob,
Sayyiding sarmast ekan, olamda hushyor aylading.

* * *

Na xushdir, bir zamon bir dilrabo ishqinda zor bo‘lmoq,
Umidi vasl ila hijronida xor, beqaror bo‘lmoq.

Diyori hajrida selobi dard-u g‘am hujumindan
Zaliłu zor-u sargashta, haqir-u xokisor bo‘lmoq.

Eshitmak kunda yuz ming ta’nalar har do‘st-u dushmandan,
Nazarlardan qolib, ko‘z yoshidek bee’tibor bo‘lmoq.

Uzoqdan yorini ko‘rgach, ketib ko‘ngli, qochib rangi,
Qolib tildan, bo‘lib devor, tamom beixtiyor bo‘lmoq.

Yetib nogoh visolga, charxi zolimni unutgancha,
Quchib, iskab, dudog'indan o'pib, bir baxtiyor bo'lmoq.

Toshib shavqi, oshib zavqi, bajargach ne-ne ishlarni,
Adab nogoh tushib esga, bu holdan sharmisor bo'lmoq.

Qaroyuzlarcha uzr istab qarosochu qaroko'zdan,
Gunohimni kechirgil , deb tag'in yuz intizor bo'lmoq.

Yetib Sayyid kabi vasla, tag'in ag'yori zulmindan,
Tushib dardi firoqqa, vaslidan ummidvor bo'lmoq.

* * *

Bu karvonni, sen, ey sorbon, yo'naltir ko'yi yorimga,
Karam et, ko'ngli dog'larni olib bor lolazorimga.

Kel, ey daryo shamoli, kel, muruvvatning zamonidir,
Yelib ketsin shu kemam ham, yetib borsin kanorimga.

Xudoyimga qasam, sen ey Xudosiz, kemani tezlat,
Umiding bo'lsa joningdan, meni yetkur nigorimga!

Xazarliklar diyoriga Xizrdan keldi bir farmon,
Xizrning yo'li bo'l sen ham,
meni yetkur diyorimga!

Falak, sen ham ul oy birlan yorug' etgil maqomimni,
Sharaf burjinda porlat yulduzim, yo'l ber qarorimga.

Sharob ichgay emish ag'yor bilan u lolaruh dilbar,
Shu bois dog' tushar dog' uzra dili dog'idorimga.

Yetay, Sayyid, o'shal sarviravon poyi g'uboriga,
Suray bir to'tiyodek diydayi ummidvorimga.

* * *

Ne uchun hol ahlini solgay baloga bu falak,
Ming balo bergay yana har mubtaloga bu falak.

Ikki inson bir-biriga mehribon, do‘st bo‘lsa gar,
Ajratib, solgay balolarni aroga bu falak.

Gardishi kom ahlini nokom etar, bil, har zamon,
Bermagay baxt shohga, bermas taxt gadoga bu falak.

Ne uchun qilmish judo Yusufni Yoqubdan, axir
Sotdi bozori Misrda kam bahoga bu falak.

Bu hasadchi oshig‘in aylar judo ma’shuqidan,
Ahli ishq taqdirini bog‘lar judoga bu falak.

Ajratib shaydoyi bulbulni gulindan ko‘p zamon,
Majbur etdi ming fig‘on-u ming navoga bu falak.

Kunda, Sayyid, jabr etar charx senga, hayron bo‘lmagin,
Ustadir asli azal jabr-u jafoga bu falak.

* * *

Durdi may bordirki, bizda dardi olam bo‘lmagay,
Davlati piri mug‘ondan mehnati g‘am bo‘lmagay.

Biz faqirlik imtihoni chog‘i zavqni angladik,
Bizga bu olam safosi shohdanam kam bo‘lmagay.

Go‘shayi mayxonada bas bizga bir singan sopol,
Minnati Jamshidu fikri sog‘ari Jam bo‘lmagay.

Bir niholi orzumizga tomchi-tomchi suv yetar,
Yolvorib yomg‘irli ko‘zlar toki purnam bo‘lmagay.

Ishq o‘tinda yonsa dil, xok bo‘lsa tan, sham, senga ne,
Hech tutun chiqmaydi bizdan, oh damodam bo‘lmagay.

Bug‘doyi xoling ko‘rib, jannatga kim qo‘l siltamas,
Yo‘qsa, bu olamda oning oti Odam bo‘lmagay.

Ul pari yuz bermasa bizga, buning bir vajhi bor,
Sayyido, ne oshig‘ ulkim, yuzi purg‘am bo‘lmagay.

* * *

Fayzing agar bo‘lsa-da xalqqa ofitobdek,
Davron uloqtirgay seni bir mohitobdek.

Bimas rumuzi suhbatu sirdosh dardini,
Nodonga ahli dil ochilsa gar kitobdek.

Keltirma malol ahli ma’rifatga vaysab,
Har borganing maskanga safo ber sharobdek.

Yo‘q aybi ehson olajak bo‘lsang agar sen,
Chun olganing sochgaysan u bulut — sahobdek.

To‘lug‘ ekan havoyi muhabbat-la bag‘ir,
Qoldik tasodif sellarinda bir hubobdek.

O‘tgandi quyosh yuzli bilan qancha kunim,
Hijronda kelur endi xayolimga xobdek.

Boshing yetar samoga sharofat-la, Sayyid,
Ishqi-la poyimol o‘la bilsang turobdek.

* * *

Bir zamonlar ul yuzi oy birla hamxona edik,
Shami ruxsoriga yonsam deya parvona edik.

Boshda may g‘avg‘osi-yu qo‘llarda jom,
mast tebranib,
Majlisi ishratda hamkosayi jonona edik.

Ishqu rashkda oqil-u dono edik garchand vale
Zulfining har halqasinda bitta devona edik.

Ul buti siyminbadanning husni bizda aks etar,
Zulfiga biz bir taroq, yuziga oyina edik.

Goh ichardik boshimizni xumga tiqqancha to‘yib,
Har zamon paymona do‘sti, masti mayxona edik.

Endi bizni bilmaganday, ters qarab o‘tgaysan-a,
Ey gulim, biz kim, nahotki shuncha begona edik?

Ul buti Laylivashu Majnun kabi shaydosi biz,
Shuhrati ishq ichra Sayyid misli afsona edik.

* * *

Jon tozalanur la’li durafshonini ko‘rgach,
Dil xurram o‘lur sarvi xiromonini ko‘rgach.

Tog‘larga chiqib, pastga egur boshini sunbul
Ul lolaruhu zulfi parishonini ko‘rgach.

Pista dahani ochila qoldi hasadindan,
Ul sarviqadu g‘unchayi xandonini ko‘rgach.

Yoqubki nechun o‘lmadi, bilmam, farahindan
Jon naqdi o‘shal Yusufi Kanonini ko‘rgach.

Jononni ko‘rib, lahzada jon tushdi oyoqqa,
Yolvordi gado yer o‘pa sultonini ko‘rgach.

Shu qop-qora yerdan boshimiz ko‘kka ko‘tardik,
Ul oyga qarab, har kuni ehsonini ko‘rgach.

Sayyid, o‘sha on men-da baqo suyini ichdim,
Ul zolimaning qatlima farmonini ko‘rgach.

* * *

Aylading yorimni yor ag‘yora, ey falak,
Gulni bot ko‘rding munosib xora, ey falak.

Yog‘dirib ruxsori yorimga nuringni mo‘l,
Shul zamon etding kunimni qora, ey falak.

Har yarim tun porlagay ishqli yulduzlaring,
Aylagaysan oyga bir nazzora, ey falak.

Ul aziz yorimni yo‘llab safarga, tag‘in
Sobit oyni aylading sayyora, ey falak.

Yor firoqi birla ko‘nglimni yoqding, seni
Ohim o‘ti-la yoqay ming bora, ey falak!

Bedavolar dardiga aylading chorasin,
Yo‘qmi hijron dardiga bir chora, ey falak.

Gar shikoyat etsa Sayyid, ne dersan axir,
Aylading yorimni yor ag‘yora, ey falak!

* * *

Shodmanki, ko‘ngil bo‘ldi u zulf-u xola moyil,
Chun baxtiqarolikka bo‘lib rozi-yu qobil.

Kel, chop shu vujudimni, axir o‘rtada g‘ov u —
Undan qutulay, so‘ngra bo‘lay vasliga noil.

Hajringda tag‘in qancha azoblar beradirsan,
Bo‘lgay ne zamon xasta ko‘ngil vaslinga vosil?

Ramzi dahaning neligini tortishadir xalq,
Har ahli ko‘ngil tilida yuz bahs-u masoil.

Bo‘lmish yo‘lining changi bashar ko‘ziga surma,
Oldim ko‘chasin itlaridan fazl-u fazoil.

Og‘zing siridan so‘ylayarak na’fi vujud kim —
Topmish esa, ko‘rsin o‘sha isbot-u daloil.

G‘urbatda asir etdi u Sayyidi hazinni,
Bir sarvi ravon, ruhi ravonki, hama qoyil.

* * *

Bo‘libdir holi zorimdan u mahvash, dilrabo g‘ofil,
Inonmam, bo‘lmagaydir bandasindan hech Xudo g‘ofil.

Bo‘larmi qobili ta’mir viloyatkim xarob, vayron,
Agarki xalqi holidan esa ul podisho g‘ofil.

Otingdan aylanay, kel, ko‘r, ravodirmi, inonmam hech,
Ki, ummatning hayotindan bo‘lurmu anbiyo g‘ofil?

Seningdek birbuti zolimga men bo‘lmas edim bandi
Kamandi zulmiga solmish meni, hayhot, qazo g‘ofil.

Tag‘ofil odati xo‘bon erur, hech injima, Sayyid,
G‘amingdan bo‘lsa ham doim u yori bevafo g‘ofil.

* * *

Garchi sarv o‘xshar ayolga, lek xotin, oyi emas,
O‘xshaganda ham, seningdek daydi — har joyi emas.

Aylagan ko‘ksimni chok tiyri balolarmi, nahot,
Ayt, nahot kiprik o‘qing yoyinki, qosh yoyi emas?

Qoshlarin ko‘rgach, qilichga egri boqqaysan nechun,
Zohido, boshing uchun bu romozon oyi emas.

Kimdir ul ko‘ksingda faryod aylagan o‘tda yonib,
Zulfi-la ketmish ko‘ngil, bu dilki shaydoyi emas.

Voy, desam yormi eshitdi, kim o‘shal voydod degan,
Sayyidim o‘lgan, uning bu motami, voyi emas.

Bodani, lim-lim qadahni sen qo‘limdan olma, shayx,
Qismatimdir bu mening, qo‘y, bu otang payi emas.

Ko‘ksim ochgach, bor yaram jarroh sanarkan, ming, dedi,
Bu xato, mingdan birin u ko‘rdi, parvoyi emas.

Ko‘rkaboyni ko‘rsa zohid, hech nazar solmas, demam,
Sayyido, chun ahli oshiqning ko‘rki u, boyi emas.

* * *

Zulfiga bo‘lding asir, bilgaymi yoring, ey ko‘ngil,
Oy yuzin ko‘rmay qorordi ro‘zigoring, ey ko‘ngil.

Yuz jafo chekding vale bir bor shikoyat etmading,
Ne xijilsan, berahm-ku sho‘x nigoring, ey ko‘ngil.

Ne umid birlan tag‘in dilbar senga bermish firib,
Nega ham buncha quvonding, yo‘q qaroring, ey ko‘ngil.

Yo‘qsa ag‘yor birla ko‘rdingmi tag‘in oyparchani,
O‘xshamas har kungiga bu ohu zoring, ey ko‘ngil.

Gar u ohuko‘z tushar olamda bir kun dominga,
Yerda charx ohusi bo‘lgaydir shikoring, ey ko‘ngil.

Oldi aql-u hushni yorning shavqi sirri dahani,
Ketdi qo‘ldan yo‘q yera, voh, har ne boring, ey ko‘ngil.

Zulfi makkorga seni hech band etib qo‘ymas edim,
Menda bo‘lsaydi agarda ixtiyoring, ey ko‘ngil.

Ul paridan uz ko‘ngil deb aytdilar, sen uzmading,
Endi Sayyiddek fig‘ondir kasbu koring, ey ko‘ngil.

* * *

O‘z so‘ziga bu shahar voizi etsaydi amal,
Bu qadar bermas edi din birla dunyoga xalal.

Qilmadim zohid so‘ziga hech amal, mahshar kuni,
Bor umidim, menga yordamchi bo‘lur ushbu amal.

Bir qadah birlan tomog‘in ho‘llar u zohidi xushk,
Mayli, men kofir bo‘lay maydan qo‘lin tortsa shu kal.

O‘g‘ling o‘lsin, shunchalar masjidga bording, o‘yla, bas,
Bir sinab ko‘rmoq uchun mayxonaga kelgil bu gal.

Xum ayog‘iga qo‘yib boshingni, olgil qo‘lga jom,
Senga kashf bo‘lgay u dam nuktayi asrori azal.

Ko‘zga surgay Isfahonning surmasidek shavqidan,
Sayyido, yetsa agar Zuiyga[1] zora bu g‘azal.

[1] **Zuiy** — Mirza Mahmud Zuiy, “baytus-safo” adabiy majlisi a’zosi, shoirning zamondoshi.

* * *

Yetdi vasli yor ila bayramga ham hamma, ko‘ngil,
Yetmading sen davlati diydor ila koma, ko‘ngil.

Dona-dona yosh to‘kib, vaslin tamanno aylama,
Tushmagaydir ul xumodek qush bizim doma, ko‘ngil.

Xalqqa bayram bo‘ldi-yu mohi muharramdir manga,
Ayriliqda kunduzim aylandi-ku shoma, ko‘ngil.

Kiprigim aylab qalam, et qonli ko‘z yoshim siyoh,
Ayni payti, dilbarimga yoz tag‘in noma, ko‘ngil.

Keldi bayram, oh, gulandomim mening yo‘q, kelmadi,
Hech havas ham qolmadi bodayi gulfoma, ko‘ngil.

Hech yetib bo‘lmas bu kun siyminbadan ul dilbara,
Tushma bejo ish qilib, bu ta’mayi xoma, ko‘ngil.

Sayyido, ul berahm oyyuzli hajrinda bu kun
Na sharobga rag‘bat etgay, na boqar joma, ko‘ngil.

* * *

Ayriliqda suratim qoldi xolos, ey guljamol,
Gar savol bersang, javob bermoqqa ham yo‘qdir majol.

Gar o‘lar vaqt zikr etolmay qolsam ismingni agar,
Kelmasin tavhid so‘zin aytmoqqa til, ey guli ol!

Yut nafasni, borlig‘ingni keltirib, ko‘zguga tut,
To ayon bo‘lsin o‘zinga suratu holat va hol.

Bol demak-la hech zamon bo‘lgaymidir og‘zing shirin,
Ne uchun zikri labing-la menda bor lazzat va bol?

Ey sanam, oppoq saqog‘ingda qaro xolingmidir,
Yo turubdir chashmayi Zam-zamda u qutlug‘ Bilol?

Shevayi ma’shuqalikni bilmas u bir boladek,
Ona sherday qon to‘kishni bilgay u ammo halol.

Tarhi qoshing shuncha ko‘rklik chizdimi charx kotibi,
Charxga har oy boshi tushgay yo qoshingdan bir jalol.

Sayyido, bas, shu omonat yukni ot-da, mayni ich,
Hammol ermassan axir sen, bir shamolsan, bir shamol...

* * *

Bu gulshanda sochib xushbo‘y ochilsa yuz hazor u gul,
Gulim, sensiz ko‘zimga sanchilur lek misli xor u gul.

Tasavvur ham qilolmassan seningsiz bog‘da kezmoqni,
Chamanda tarqatib xushbo‘y, ochilsa har bahor u gul.

Yurak-bag‘ri to‘lib qonga, g‘arib bulbul fig‘on aylar,
Bo‘libdir o‘z ishindan oqibat yuz sharmisor u gul.

Agar rad etmasaydi bulbuli zorning qarorini,
O‘zi ham oqibat bo‘lmasdi buncha beqaror u gul.

Chamanni asrayin deb kiprigindan g‘ov qilar oshiq,
Agar bulbulga ko‘rsatsaydi bir bor e’tibor u gul.

Rivoj berdi zulmga mustaqil shoh ekan bunda,
Otildi taxtidan besh kun ham o‘tmasdan kanor u gul.

Bu shunday guluzor tuprog‘ikim, yashnash, o‘sish bordir,
Ko‘ringan har qarich yerda ko‘ringay oshikor u gul.

Yuzu zulfin xayol aylab, oshar shaydosining zavqi,
Bo‘libdir endi Sayyidga rafiq shom-u nahor u gul.

* * *

Na bugun bog‘da nigorim, na mayim bordir mening,
Sayri gulzor istamas ko‘ngil, nayim bordir mening?

Men xarob bo‘ldim, yetaklang ul xarobot piriga,
Endi na soqiyga maylim, na rayim bordim mening.

Menga, soqiy, ul dudoqning ma’juni maydek davo,
Chekkani har kun azobin kunbayim bordir mening.

Jon seningu tan sening, buyruq sening, ijro sening,
Bari sensan, o‘rtada qanday joyim bordir mening?

Tortmangiz masjidga Sayyidni, g‘ami hech ortmasin,
Boshlangiz mayxonaga, o‘zga qayim bordir mening.

* * *

Na yaxshi, bir zamon u shoh bilan men hamzabon bo‘lsam,
Tutilsam har so‘zimda bir, tag‘in lol, notovon bo‘lsam.

Ko‘zim sendan ne bor o‘zga, ko‘rishni istamas aslo
Va istar, qancha yot ko‘z bor, ul og‘zingdek nihon bo‘lsam.

Sanam, yuz ochmog‘in — yuz zarb, yaramni timdalar zarbing,
Ayonmaski, bu zarblardan yarimjonu omon bo‘lsam.

Yo Rabbim, sen nasib ayla u kunni menga, Sayyiddek,
U dilbar g‘amzasin zolim o‘qiga bir nishon bo‘lsam.

* * *

Yo‘q iloji, men netay, ko‘nglimda ko‘pdir hasratim,
Hech yetolmas vasliga, hajriga yo‘qdir toqatim.

Ko‘p sog‘indim, yor jamolin qayta bir ko‘rsam edi,
Ichda qolmasmi sog‘inchim, qancha qolmish muddatim.

Chora topsaydim agar, balki yetardim poyinga,
Bir-bir aytsam senga derman bor alam, dard, mehnatim.

Xastayi ishqman, meni, do‘stlar, bu g‘am aylar halok,
Vaslining dorushshifosiga mening bor hojatim.

Menki vasling tashnasi, sen qaydasan, obi baqo,
Bo‘lmasa shahdi ziloling, bo‘lmagay kayfiyatim.

Bilmadim nedir azim mahshar, uni so‘ylar faqih,
Ko‘rmasam qay kun yuzingni, bil, u kun qiyomatim.

Sen bilan do‘zaxda ham jannatdayin rohatdaman,
Ko‘p uqubatli bo‘lar sen bo‘lmasang gar jannatim.

Qurbon aylab, yaxshisi, qutqar azoblardan meni,
Bundan ortiq yo‘q firoqing ichra istiqomatim.

Ayla bir ishvang bilan Sayyidni mashhuri jahon,
Ko‘kka yetsin ishq aro g‘avg‘o-yu shonu shuhratim.

* * *

Chiqib, ey moh,
shahardan men shu bag‘rim qon bo‘lib keldim,
Bu holki, oydagi dog‘ni topib, nuqson bo‘lib keldim.

Parishon zulfi zanjirin xayoli band-u band etmish,
Chekib har halqasin jabrin, parishon jon bo‘lib keldim.

Bulutlardan to‘kilmoqda bu yomg‘irlar deb o‘ylarsan,
Bu menman, ey guli ra’no, ko‘zi giryon bo‘lib keldim.

Nechun ham bermadim senga visol payti bu jonimni —
Deya kelmoqdaman, to‘g‘ri, biroq pushmon bo‘lib keldim.

Bu g‘am chog‘i so‘rarga hol biror kimsa topilmaydir,
O‘zim bedil, g‘arib, xor, besaru somon bo‘lib keldim.

Chumoli kezibdek kezib sahro, rosa ovoralar bo‘ldim,
Og‘o, bek kim — bilib, bunga Sulaymon,
xon bo‘lib keldim.

Shukr, Sayyid, bu gal ketmoqdaman maqsadga yetgancha,
Mudom har yil bu dargohga salim, shodon bo‘lib keldim.

* * *

Kim agar etgay meni ul mahliqodan mahrum,
Ko‘rayin, bo‘lsin o‘sha lutfi Xudodan mahrum.

B u ko‘ngilning g‘unchasi qanday qilib ham yashnar,
Gulshani ayshim bodi sabodan mahrum.

Ul jamolin otashi-la yondiribdir bizni,
Qildi orzumiz gulin nash-u namodan mahrum.

Tutmagan olam aro piri mug‘on etagin
Vodiyi qayg‘uda qolgay rahnamodan mahrum.

Sindi dardingdan ko‘ngil, nola-yu faryod etmas,
Sinsa chinni ham axirbo‘lgay sadodan mahrum.

Ko‘yiga yuz bor kelibman jonni berayin deb,
Ey Xalil, qaytarma bizni bu Minodan mahrum.

Qadrini gar bilmasang Ka’bayi husnin, Sayyid,
Aylasin olamda haq seni safodan mahrum.

* * *

Kirib hammom aro dildorni ko‘rdim,
Tajalliydan ayon, diydorni ko‘rdim.

Badan suv ichra, bosh suvdan yuqori,
Suv ichra shu’la sochgan norni ko‘rdim.

Tarab kokillarin, har yonga yoydi,
Parishon nofayi totorni ko‘rdim.

Nihon bo‘ldi paridek xilvatinda,
U xilvatda ayon asrorni ko‘rdim.

Ko‘zim tushgach u bodom qo‘shmag‘izga,
Bodom birlan to‘la omborni ko‘rdim.

Chuchundi sharbati shakkardan og‘zim,
Libossiz, hech ko‘rinmas yorni ko‘rdim.

U zulfin, Sayyido, qildi hamoyil,
Sening bo‘yningda men zunnorni ko‘rdim.

* * *

Yor ila fursat topib, bir damki guftor aylaram,
Zavq ila ismin uning yuz bora takror aylaram.

Qo‘y, raqib menga jafosin orttiraversin mudom,
Arz etay deb, shu bahona vasli dildor aylaram.

Podishohim, sen meni ham xizmatinga et qabul,
Men gadoyi ko‘ying o‘lmoqdan nahot or aylaram.

G‘ayr ila ko‘rmoqni o‘ylab, o‘lguday qayg‘u bosar,
Har zamonki, ko‘yi yorga azmi diydor aylaram.

So‘rdim og‘zin sirrini tun, u shakarlab aytdiki,
Sayyido, yo‘qdan faqat har neni men bor aylaram.

* * *

Yetkazing shaydoman nigora, desam,
U qaro ko‘zlari xumora, desam.

Zulfidek qop-qora bo‘libdi kunim,
Arzni ul zulfi mushkbora desam.

Yetkazing yorga, muhtoji bo‘libman,
Boy berilgan u ixtiyora, desam.

Etagingni qo‘lim qo‘yib yubormas,
Tilagim ber, deya u yora desam.

Ko‘z yoshim bir dengiz, cho‘kib ketarsan,
Zarra, sen to‘xta, deb g‘ubora desam.

Etdi hajring umrni bir zahar-u,
Etdi vasling bol, ey dildora, desam.

Qoshing, ey zulfi qora, qatlim aylar,
Ul iki boshli zulfiqora desam.

Ont ichib, bo‘ldi Sayyiding oshig‘ing,
Mushafi husninga dubora desam.

* * *

To u oyning xatti xoliga nigoh aylamisham,
Kunlarim ishq olaminda sim-siyoh aylamisham.

Boqqanimda oynaga, husning tajallisin ko‘rib,
Titragay jismim simobday, ohu voh aylamisham.

Yor dudog‘indan o‘parkan ko‘z yoshim-la entikib,
Suv qo‘shib bodayi gulgunga gunoh aylamisham.

Unchayam nodon emasman, bilmasam xayru sharin,
Mayga sarflay olmagan vaqtni taboh aylamisham.

Men netarman oyu kunni, may, araq, bo‘lsa, yetar,
Birni aylarkan quyosh, u birni moh aylamisham.

Dilbarim ostonasin har kun o‘parkan kun kabi,
Har zamon aylab duo, orzuyi shoh aylamisham.

Bu jahonning dardlarindan, Sayyido, olisdasan,
Menki mayxonani yillardir panoh aylamisham.

* * *

Endi yorga hasratim aytib, shu dostonni yozay,
Notovon dil zorlanib, chekkan u afg‘onni yozay.

U baland bir oshiyonda, misli burgut charx urar,
Oshiyonsiz, bandi bo‘lgan ko‘ngli vayronni yozay.

Shu siyohga ko‘zlarimning qorasin bir-bir qo‘shib,
Intizor dil dardiyu chashmi xunafshonni yozay.

Sharhi furqatni yozaymi toshbag‘irga yoki shu
G‘ussayi insonni ham charxu davronni yozay.

Yaxshisi, u lolaruxning la’l labinda titragan,
Ko‘zlarimdan qatra-qatra tomgan u qonni yozay.

Mubtalo ko‘ngil, yetar, sen ham gupillab urma ko‘p,
Ul pariga holati jismim ila jonni yozay.

Chiqsa jon, shu noma birlan ketgay u ham, Sayyido,
Lek nihon jondan bitib, oshkora har onni yozay.

* * *

Ka'bayi ushshoq o'zing, sendan safo ko'rgan edim,
Ahli ishqni ko'chaboshingda fido ko'rgan edim.

Ka'bayi ko'ying edi ahli safoga sajdagoh,
Qoshlaring mehrobini qiblanamo ko'rgan edim.

Kimga sen qahr ila dashnom ham o'git bergan esang,
Oqibatda senga ko'p xayru duo ko'rgan edim.

Ey jahonning husni, sensiz men qorong'uda edim,
Bu falakda bir seni xurshidliqo ko'rgan edim.

Dil kushim bo'lmishda band Chiniy tuzog'ingga sening,
Xush bo'ying-la mast bo'lib, mushki Xito ko'rgan edim.

Partavi shamsi azalga bo'lmadi mazhar yuzing,
Senda zohir, porlagan nuri Xudo ko'rgan edim.

To azaldan husni yor topgan edi senda zuhur,
Sayyiding ishqini ul husna ravo ko'rgan edim.

* * *

Har zamonkim, halqayi zulfi kajing yod ayladim,
Bir ilondek to'lg'onib, yuz ohu faryod ayladim.

Qo'zg'olib rashkim, tomosho qilki, qonimdan kechib,
G'ayri qonin to'kkali u sho'xni mu'tod ayladim.

Ey ko'ngil, fursat topib, bo'l yorga qurbonkim, senga
Gar qo'limdan kelsa, billoh, men-da imdod ayladim.

Maqsadim bir kecha afg'onim yetirmoqdir senga,
Muncha jabringdan sening, ey oy, tag'in dod ayladim.

Menga qilgan har jafongni eslagancha birma-bir,
Shomi hajringda ko'ngilni shu tariyq shod ayladim.

Sayyido, baxti qaroni gar Bilolimdir desang,
Ey oting qurboniman, otimni barbod aylading.

* * *

Shunchalar hijron tuni sen nola-afg'on aylading,
To falakning ko'zlarin holimga giryon aylading.

Surati zeboni ko'rgach, men o'zimdan ketdim-u,
Suratimdan surat o'ldi — oni hayron ayladim.

Senga jonim qurbon o'lsaydi, deya o'ylar edim,
Shukrilillah, oqibatda senga qurbon ayladim.

Ayriliqda chekkanim g'am asrabon qolmish meni,
Ko'r, na oson chora topdim, dardga darmon ayladim.

Oshig'ing menman, desam, qonimni to'kding qahr etib,
Shulmi oshiqlik, nechun men o'z-o'zim qon ayladim?

Bo'ldi qatlimdan pushaymon, lek pushaymonman, axir —
Nola birlan men u oyni ham pushaymon ayladim.

Sayyido, ul oy g'amindan yig'ladimki shunchalar,
Oqibatda Nuh kabi olamda to'fon ayladim.

* * *

To sahar shomi firog'ing kavkabistondir ko'zim,
Ey mehrsiz, ashki gulgun ichra pinhondir ko'zim.

Goh ko'zing yodi-la ko'nglim dard ila bemordir,
Goh labi la'ling xayolindan to'la qondir ko'zim.

Goh ko‘zim ahvoliga ko‘nglim qilur faryodlar,
Goh dilim dardin chekib, so‘zon-u giryondir ko‘zim.

Yosh to‘la ul ko‘zlaring atrofida kiprik emas,
Ul parining o‘qlari-la to‘la paykondir ko‘zing.

Yordan ayri, bilmas ammo shomi hijron holini,
Sayyidi bechora ahvoliga hayrondir ko‘zing.

* * *

Qaro soching emish yuzinga bir niqob dedim,
Bu kun, e oy, tag‘in tutildi ofitob dedim.

Dahani bitta nuqtadir, nadir uning siri,
Vujudga keldi — yo‘q-ku — vasfi bir kitob dedim.

U xatti ruxsoriga mos bo‘libdi zulfi ham,
Habash qo‘shini rahbari emish g‘urob[1] dedim.

Dedim, sharob labi la’ling ko‘rib xijil emish,
Ne mastlik ulki, men ko‘rib sharobni ob dedim.

Ravomi bo‘lsa qon ko‘ngil, e yuzi xurshidim,
Latif dudoqlaring qiyosda bir la’li nob dedim.

Ruhi a’zam esa-da, zarrayi beshon erur,
Masiho boqmasa, u xonimon xarob dedim.

Havas-la ayladim bayon yuzi gulistonin,
Sakiz behisht eshiklarini bobma-bob dedim.

Xayoli vasling ila qiynamish dili zorni,
Havoyi bir muhabbat ila g‘arq xubob dedim.

[1] **G‘urob** — qarg‘a.

Raqibni yor bilan ko'rish o'limga teng menga,
Kelu qonim to'kib-da, ayla bir savob.

Lab uzra xolini ko'rib, go'zalga, Sayyido,
Qo'nibdi baxtli pashsha qandga ayni tob, dedim.

* * *

G'azalni sayratib, sadoyi bir rubob dedim,
Nazirayi shuaroyi falakjanob dedim.

Ularki, har biri jahon kezuvchi bir quyosh,
Bu zarra ham quyosh yo'ldoshi, zarra bob dedim.

Nazirayi g'azali Jurmiyga qo'l uribon,
Qusuru ming ayb aylabon, shu bir javob dedim.

Surayyo so'zlari qamashtirar ko'zimni, lek
Javob u axtari tobonga behisob dedim.

Muniriy she'r ko'kida porlagan hilol edi,
Ne aybi, gar uni qiyosda ofitob dedim.

Yurakda dog'i gizli, bir javob u Dilxuna,
Xijolat otashida dil bo'lib kabob dedim.

Ko'ngilda bir nihoniy ishtiyoq u Mushtoqa,
Ko'rarga bir birovni kun kelar shitob dedim.

Umidvoram u Jurmiy jurmimizni afv etgay,
Xatoni afv etish-da, Sayyido, savob dedim.

* * *

Kun kelsa, fido jonimi jonona etardim,
Ko'nglimni yuzin shamiga parvona etardim.

Ey zohidi zavqsiz, seniki mana shu masjid,
Bo‘lsaydi mening, men uni mayxona etardim.

Minbar joyiga qo‘yar edim ko‘p xumi boda,
Xumlar yonini maskani paymona etardim.

Bir ipga tizardim necha yuz donayi angur,
Har ne gazagin loyiqi xummora etardim.

Maydan kelar u naf, nega darsning nafi yo‘qdir,
Nafsiz bari madrasani vayrona etardim.

Tushsaydi nihon gar qo‘lima bachchayi zohid,
Harholda bilursan, u zamon man na etardim.

Sayyiddek etib vasfi parilar xatu xolin,
Ishqinda butun olami devona etardim.

* * *

Naylaram gulzorniki, sen guluzorimsan mening,
Sunbulim, sarvim, gulim, bog‘im, bahorimsan mening.

Yaxshilarga to‘lsa olam, hech birin men istamam,
Yaxshilarning yaxshisi, zebo nigorimsan mening.

Gohi jonimni olursan, goh berursan menga jon,
Ey buti tannoz, o‘zing ko‘zi xumorimsan mening.

Hasratingdan chiqsa jonim, kelma na’shim ustiga,
O‘zgalar to bo‘lmasin ogohki, yorimsan mening.

Yo‘llaringning chang-g‘ubori boshga tojim, ey sanam,
Taxti izzat sohibi sen, tojidorimsan mening.

Sayyidi sargashtadek miskin gadoman, sen biroq
Sarvarim, shohim, panohim, har ne borimsan mening.

* * *

Zamoni ehtirosimdir, bu kun mayli sharob etdim,
Shukr Ollohga, men ham shu umrda bir savob etdim.

Pushaymonman, biroz muddat kirib so'ziga voizning,
Qochib men do'st-u ulfatdan, bahor umrim sarob etdim.

Shukr yuz bor, bu jon mulkin etibman may bilan obod,
Yiqitdim xonayi taqvomni olamda xarob etdim.

Labing shavqi-la, ey oy, ositonang toshlarin har kun,
To'kib qonlig' ko'zim yoshin, kumush, oltin, simob etding.

Shahid bo'lding, ko'ngil, oxir o'shal xunxor tig'indan,
Bihamdillahki, Sayyiddek, seni ham komyob etding.

* * *

Agarchi sensiz erur ahli ishqqa boda harom,
Labing xayoli bila vojib o'ldi ichki mudom.

Hamisha dilda labing shavqi-yu ko'zing xayolidir,
Ki, rindi mayxo'ra lozim mudom shakar-u bodom.

Safoyi ko'yida ehromni bog'lagan u oshiq,
Chunonchi haqli, e sho'x, etmasa Ka'bada maqom.

Hadisi ravza bayon aylading hamisha, voiz,
Jamoli yorima bir boq, so'zing miyoni kalom.

O'zini bir kecha o'xshatdi oy orazi yora ki,
O'shal sabab yuziga tushdi dog', bo'lib beorom.

Ko'rdimu zulfi siyohi aro guluzorini,
Dedim bu bog'i Eramdir, yo bog'i gulshani Shom.

Axiri jannati ko‘yiga yetdi u parining,
Bitirdi Sayyid o‘zini, valikrom-u vassalom.

* * *

Ey gul, senga avvalda xaridor men o‘ldim,
Oxir nazaringda hamadan xor men o‘ldim.

Oldim seni jon naqdiga, ey Yusufi soniy,
Ishqingda Zulayhoyi dilafgor men o‘ldim.

Ishqing meni afsonasifat qildi jahonga,
Ey qoshi hilolim, senga to yor men o‘ldim.

Berdim, sanamo, oyinayi husningа sayqal,
Olamda senga ravnaqi bozor men o‘ldim.

Bir Ka’ba eding, ammo tavof etguchi zot yo‘q,
Kelguchi tavof etgali ming bor men o‘ldim.

Ko‘yinga tag‘in bosh uribon keldi g‘aribing,
Ey nuri Xudo, tolibi diydor men o‘ldim.

Har bulhavas ag‘yorga nasib bo‘ldi visoling,
Sayyid kabi hijronga giriftor men o‘ldim.

* * *

Yana may sun, yana bir yangi gunoh istayiram,
Qorako‘z, nomayi a’moli siyoh istayiram.

Nadir ul yuzda hijobing? Ne buzuq ham ne tuzuk?
Shu buzuq ko‘nglima buzg‘uchi nigoh istayiram.

Bakas-u darbadar-u pushti panohim yo‘q erur,
O‘zuma lutfi xudovandi pagoh istayiram.

Eshigingning itiga hamdam-u do‘st bo‘lsam edi,
Mashalloh, na go‘zal rutbayi joh istayiram.

Niyatim xoki dari yora gadolikdi manim,
Shu gadozodaga boq, rutbayi shoh istayiram.

Ko‘payar mehrim-u ishqim xabaring kelsa agar,
Doim ul bog‘da shifo, mehrigiyo istayiram.

Chaqiring Qays ila Farhodni-da, Sayyid, ko‘rayin,
Bu muhabbat so‘g‘ishi, jang-u sipoh istayiram!

* * *

Bog‘ ichra kelib, yorni u ag‘yor bila ko‘rdim,
Qon bo‘ldi ko‘ngil,
gulni o‘shal xor bila ko‘rdim.

Ishq ichra menga ravnaqi bozor buzildi,
Yusufni tag‘in g‘ayri xaridor bila ko‘rdim.

Vayrona ko‘ngil qaytadan obod bo‘la olmas,
Chun ganji nihonimni bugun mor bila ko‘rdim.

Kiprik o‘qiga bo‘ldi ko‘ngil qayta nishona,
Yo Rab, karamin ul yuragi zor bila ko‘rdim.

Ul oyga yaqin bo‘lgan edi go‘shanishinlar,
Sobit nechasin yulduzi sayyor bila ko‘rdim.

Eh, bo‘lsa edi, koshki, shu fursatda ko‘zim ko‘r,
Begona, raqibni yana ul yor bila ko‘rdim.

Bir g‘uncha kabi to‘ldi ko‘ngil qonga, e Sayyid,
Ul yangi chechakni qari g‘addor bila ko‘rdim.

* * *

Qoshiga aylaram nazar, fikri hilola tushmisham,
Iydi visolin istaram, mayli jamola tushmisham.

Kavkabi toleim yo'lin yulduzi nahs to'sar emish,
Ey to'linoy, bu yoqqa boq, ko'r, na uvola tushmisham.

Kelmadi ofitobimiz, bo'ldi-ku vaqt yarim sahar,
Ko'rki, falak bugun tag'in men ne zavola tushmisham.

Nuqta dahanda yo'q og'iz — kecha degan edim vale,
Nuktashunoslar ichra men qiylu maqola tushmisham.

Kecha axir boshqa zamon, boshqa hayot edi, bugun
Hol so'raguvchi kimsa yo'q, endi na hola tushmisham.

Oshig'i sir, dahan bo'lib, halqayi mimga do'nmisham,
Zulfiga ishtiyoq ila surati dola tushmisham.

Sirri dahan nedur o'zi, so'ylasa yor, bilar edim,
Tuydim, adam vujud o'lur, fikri mahola tushmisham.

Jon berib olmoq istaram yor dahanindan o'pichin,
Bu yo'g'u boridan kechib, ko'r, na xayola tushmisham.

Mulki jahonda, Sayyido, xotami oshiqon o'zim,
Nuqtayi avval o'zim-u sahfada hola tushmisham.

* * *

Laylini sevib, ishqida g'avg'olara tushdim,
Majnun bo'libon vahshati sahrolara tushdim.

Sarmoyani savdoyi sar-u zulfiga tikdim,
Bir naf ko'ra olmay, necha savdolara tushdim.

Ul yoshu yetim dardidaman, hushni olibdir,
Ey keksa ko'ngil, ko'r, g'ami kubrolara tushdim.

Boq, har tarafing bir buti makkora bilan band,
Har yerda ajab tuhmati bejolara tushdim.

Sanonni olib bir buti tarso talabinda,
Har dam havasi dayr-u kalisolara tushdim.

Shoyad topayin deb o'sha sof durri yatimni,
G'avvos bo'libon ishqida daryolara tushdim.

Bir bor qo'lini o'pmoq uchun piri mug'onning
Soqiyning ayog'idan o'pib, polara tushdim.

Billur qadahin oynasi ko'rsatdi yuzin aksin,
Betob bo'libon o'zga tamannolara tushdim.

Doim meni nodon deya pand berdi xaloyiq,
Sayyid, shukur etki, dili donolara tushdi.

* * *

Vaslinda edim, zahmati hijronni bilardim,
Jannatda ekan, do'zax-u niyronni bilardim.

G'ofil bo'libon zulfinga dil bermadim, ey gul,
Albatta, o'shal holi parishonni bilardim.

Harchandki, xumor, nozli ko'zing xastasi bo'ldim,
Dardimga topilmas o'sha darmonni bilardim.

Vaslingda agarchi necha kun shod edim, ey oy,
Yov ham ginali gardishi davronni bilardim.

Ul kunki, qadam shavq ila bu gulshana qo‘ydim,
Lek zahri tikan bo‘lguchi jononni bilardim.

Mushkuldi bilish oqibatu foyda-zararni,
Lek boshidanoq zahmati poyonni bilardim.

Qay kunki sening tor dahaning tilga tushibdir,
Men undagi ul nuktayi pinhonni bilardim.

Zulfing yod etib, surayi “Vallayl”i o‘qirdim —
Men har kecha, bu ma’niyi “Qur’on”ni bilardim.

Eslab yuz-u xoling yana “Vashshams”ni o‘qirdim,
Kayfiyati xurshidi duraxshonni bilardim.

“Ixlos”ni o‘qir, boshqalarin bilmas edim-da,
Bu suradagi jilvayi iymonni bilardim.

Sayyid, bu g‘azal matla’sini yozganim onda,
Zimninda tuyulguchi u osmonni bilardim.

* * *

To o‘zimga yor qo‘yinda gizli manzil etmisham,
Asli yengil ishni ham ishqim-la mushkil etmisham.

Qatra qonni men o‘g‘irlab oldim ul yor tig‘idan,
Joylabon ko‘ksimga qonni, ismini dil etmisham.

Dardi ishqing-la sovurdim yelga umrim xirmanin,
Besamar parvonadan men, ko‘r, na hosil etmisham.

Kecha men ham may ichishdan tavba qilgan-ku edim,
Soqiyo, afv et, bu ishni gizli, g‘ofil etmisham.

Ul qaro zulfin xayoli birla qolgach, zohido,
Tasbih aytmoqqa o'zimni ancha moyil etmisham.

Mast bo'lib turgan zamonim, may haromdir, dabman-a,
Ko'p xato hukmu qarash bu, ishni botil etmisham.

Bu jahonda, Sayyido, hech unga-bunga yo'q xushim,
Chunki vahdat dengiziga o'zni vosil etmisham.

* * *

Ey ko'ngil, sarvi sumanda sen eding yo men edim?
Yor ila sayri chamanda sen èding yo men edim?

Ko'rgach ul sho'x, shahsuvorni noz-u ishva onlari,
Qilmagan ta'zimni kanda sen eding yo men edim?

Zulfi torin harki oshiq bo'yniga zanjir qilur,
Bo'lmagan toriga banda sen eding yo men edim?

Goh ishing o'ngdan kelar, lek chappa ketgay gohida,
La'li zavqi-la Yamanda sen eding yo men edim?

Husni ruxsoriga shavq-la tashlagan ko'z kim edi,
Davlati vajhi hasanda sen eding yo men edim?

Oy yuzing qop-qora zulmat qoplagan tunlarda-yu,
Yuzqaro kunlar vatanda sen eding yo men edim?

Sayyido, bu bahr aro she'r gavharin istar ko'ngil,
Tolibi durri Adanda sen eding yo men edim?

* * *

Sen tufayli ne zamonki, yuz malomat ichraman,
Ancha yoshsan, bexabarsan, qancha zahmat ichraman.

Charxi davvor birla yerdan ko‘kka bor farqiyatim,
Hech ularmas dard ichinda, men bir ofat ichraman.

So‘rdim, ey oy, qayda bosgan izlaring, chang-u g‘ubor?
Aytdi, ko‘ngil rozi, ravshan, charxa minnat ichraman.

Ko‘zlarimning ich-ichiga joylasaydim suvratin,
Yuz-ko‘zin men ham ko‘ray deb jahd-u g‘ayrat ichraman.

Ul jamolin ko‘zgusini etdi oxir qop-qaro,
Termulib oh chekkanimdan ko‘p xijolat ichraman.

Yor bo‘lib yor o‘zgalarga shod, safolar ichradir,
Men quruq bo‘htonlar-u mish-mish va tuhmat ichraman.

Aytdilarki, Sayyido, bir kun seni yor o‘ldirar,
Bu xayrli ishga shayman, orzu, hasrat ichraman.

* * *

G‘ami hijron tuzog‘inda asir-u jonshikor bo‘ldim,
O‘zim qo‘rqib yurardim, lek netay, oxir duchor bo‘ldim.

Falak oxir meni ul guluzordan ajratib qo‘ydi,
Bahorim ham xazon bo‘ldi,
o‘zim xor ichra xor bo‘ldim.

Falak taxti menga g‘amxonayi tang-tor bo‘lib qoldi,
Firoqinda Yusufning men-da xoku xokisor bo‘ldim.

Sitamdan ko‘z yoshim daryoyi Nil misli to‘lib oqdi,
O‘shal paytdanki ul oydan uzoqlashdim, kanor bo‘ldim.

G‘ayur qondoshlari mendan Yusufni ham ayurdilar,
Firoqinda azob tortib, g‘arib-u intizor bo‘ldim.

Xudoyim, men bilib-bilmay tag'in qanday gunoh qildim,
Yonib hijron o'tinda, mubtaloyi bandi nor bo'ldim.

Meni, Sayyid, shu charx o'tlarda gar yondirsa ham haqli,
Axir men bevafolardan umidvor, beqaror bo'ldim.

* * *

Qo'liga olsa qayda sho'xi guluzor qalam,
Mudom go'zalga deydi, tushmasam kanor, qalam.

Qalam o'zi Xo'tan ohusidir yo ehtimol,
Havoyi zulfi bila bo'ldi mushkbor qalam.

Qalamqoshim qo'lini men-da bir o'par edim,
Meni-da eta olsa bunda barqaror qalam.

Dahani birla gul qalam boshini pokladi,
Obi hayotga yetishibdi u Xizrvor qalam.

Til ochdi ikki yoqda gulbadan vasfi uchun,
Fazilat-u hunarni etdi oshikor qalam.

Kesardi jabr-u ig'vo tiyg'i-la boshim mening,
Agar xayolga olsa koshki u nigor qalam.

Qoshin chimirmog'iga bor sabab, e Sayyido,
Azalda xalq etibdi bo'yla bo'yla birubor qalam.

* * *

Lablaring aylab havas, jonimga jon aylolmadim,
O'zni ishq daryosida durri nihon aylolmadim.

Ne o'zimga naf berur, bilmam, jahon bozorida,
Qaysi nafli, qaysi nafsiz, men ayon aylolmadim.

La'l dudog'ingda mening sirri nihonim bor edi,
Yer bo'lib bormoqdaman, sirni bayon aylolmadim.

To'kdi qonimni labing, sal tishlagandim, oqdi qon,
O'yladingki, ey sanam, qonimga qon aylolmadim.

Qo'rqaman faryod etishga, itlari tinch yotsa bas,
Kechalar zolim ko'yinda dod, fig'on aylolmadim.

Yetdi fahmim, sirri bor, yo'qdir dahandan hech asar,
Chun yaqinlar ahlidanman, hech gumon aylolmadim.

Qay faslda sen uchun men, ey guli ra'no, degin,
Ko'zlarim yoshin bulutdek ashkfashon aylolmadim.

Qaysi bir ul sarv erurkim, qomatin yodi bilan,
Ko'z yoshim-la ag'darib, suvga ravon aylolmadim.

Sayyido, ishqi xudovandi ahad bizga yetar,
Bag'ritoshga mayl etib, gashti jahon aylolmadim.

* * *

O'zimda bo'lsa ixtiyor, jahonga men kelmas edim,
Ketirdilar, so'ralsa, bu tomonga men kelmas edim.

Bu ishq tuzog'iga meni solibdi u donayi xol,
Agar ko'ngilni bermasam shu donga, men kelmas edim.

Ko'rinmasaydi har makon aro yuzing nuri agar,
Qo'yib baland samoni, past makonga men kelmas edim.

Biror asar dahani sirrini ocha olsa edi,
Ayonni tark qilib,
tag'in gumonga men kelmas edim.

Chekar ekan g‘am-u alam, etar edim qadni kamon,
Ko‘zing o‘qin ko‘rib turib, nishonga men kelmas edim.

Bahona-la yetar emish visolga har ishqli yurak,
Bilsam edim, bahonasiz bu yonga men kelmas edim.

Zotim azal bo‘lganida pok-u asil, oltini sof,
Butada[1] yongani — bu imtihonga men kelmas edim.

Bu zavq-la sen meni ma’yus etasan, ey sho‘x bog‘bon,
Gulim topilsa edi, gulsitonga men kelmas edim.

Ko‘ngilda bo‘lmasaydi zaxmi pinhoni, Sayyido, gar,
Umidi malham etibon, fig‘onga men kelmas edim.

* * *

Azaldan may ichib, mayxonayi bazmi alast bo‘ldim,
Ichib vahdat sharobindan,
mudom maxmur-u mast bo‘ldim.

Tinimsiz charxi girdobdan yog‘ildi boshima toshlar,
Sog‘ erkan, tez buzildim,
sog‘ari maydek shikast bo‘ldim.

Tajalloyi jamolin masjid-u mayxonada ko‘rdim,
Gahi masjidda obid, gah dayrda butparast bo‘ldim.

Ayog‘ oldim qo‘limga shod, qadahni bosh uza tutdim,
Ki, men, soqiy, ayog‘ing sadqasi, bepoyu dast bo‘ldim.

Makon tutgan edim men qofi uzlat uzra anqodek,
Havoyi donayi xoling-la doma poyibast bo‘ldim.

[1] **Buta** — oltin qaynatiladigan zargar idishi *(tarj.)*.

Adam ma'murasinda rohat erkan ayni vahdat-la,
Tushib ayni zavolga, olami kasratda xast bo'ldim.

Quyoshning nuriday tushdim u dilbar ko'yiga, Sayyid,
Eng oliy rutbaga yetdim,
xayol etmangki, past bo'ldim.

* * *

Bu kecha bir oy bila avji Surayyoda edim,
Vasli me'roji bila arshi mualloda edim.

Endi visol shomida nega ham, oh, uyqu bosar,
Holati rasvoda yo bul kecha ro'yoda edim.

La'l labi gulning, mana, jomga yetishtirdi labim,
Men labi jomni o'pib, o'zga tamannoda edim.

Jomini sunar soqiy, jilvada kavsariy sharob,
Hamdamim huri pari jannati ma'voda edim.

Yor siynasini latofat-la bu tun ochgan edi,
Bo'lgan edim g'arqi nur, siynayi Sinoda edim.

Bu kecha naqshindan ulush tashibon naqqoshiga,
Sayri falak etibon, o'zga tamannoda edim.

Halqayi zulfinda yuzin nurini shod ko'ribon,
U yorug' oyni qo'riqlab, shabi yaldoda edim.

Yor dahanin ochmog'a men ko'p urindim besamar,
Lek havasim-la yana kashfi muammoda edim.

Yor dahanin sirri ne, deya mudom unga qarab,
Sayyido, jonim ila oshig'i shaydoda edim.

* * *

Ko'rdimki, kelur bunga nigorim, safar etdim,
Boshimni solib savdolara, tarki sar etdim.

Osuda bo'lar bir necha kun nozli nigorim,
Bag'rimga bosib quchdimu mahzun nazar etdim.

Chetlarga ketib jannati ko'yindan u hurning,
Manzilni o'zim tanladim — o'tli saqar etdim.

Ko'p mushkil edi kechmagim ul jannati ko'ydan,
Jonimni tutib tishda, ko'r, ey dil, jigar etdim.

To bo'lmagay u yot ko'ziga surmayi ravshan,
Xoki sari ko'yina to'kib ashki tar etdim.

Yolg'iz kechalar zam-zamayi yor ila, ey dil,
Makkora falak go'shini batangu kar etdim.

Injitdi fig'onim kechalar ahli diyorni,
So'ng bir necha kun azmi diyori digar etdim.

Berdim dil-u jon naqdini, oldim g'ami ishqni,
Hech aytma, bu savdodaki, Sayyid, zarar etdim.

* * *

Ey, nuri samovot-u zamin, garchi nihonsan,
Ammo nazari orifi donoda ayonsan.

Botin ko'zining yo'q seni ko'rmoqda qusuri,
Zohir ko'zi ko'rmas seni, bir gizli makonsan.

Zoting etibon jumlayi ashyoda tajallo,
Muso ko'zida, Turi haqiqatda bayonsan.

Bir Odamu Isoda emas, ruh — nafasing bu,
Borliqda to‘la, u badan-u undagi jonsan.

Uzsang nazaringni, shaho, bir lahza jahondan,
Nobud bo‘lur olam, sen axir ruhi ravonsan.

Goh bodi sabodek berasan gulshana ravnaq,
Bo‘stonni gahi so‘ldirasan, bodi xazonsan.

Sen doimi bizzotsanu olam bari g‘ayri,
Xalloqi samovot-u zamin, davr-u zamonsan.

Bir ming bir oting, hari bir oshig‘a hamdam,
Topmas seni hech kim,
yana benomu nishonsan.

Ey Sayyidi pir, ayla mayi vahdata rag‘bat,
Doim bu hayotda bo‘lasan, yosh-u omonsan.

* * *

Ayon ko‘z birla boqqanga nihonsan,
Nihon ko‘z-la boqar zotga ayonsan.

Desam pinhon o‘zing — har yon ayonsan,
Ayonsan gar desam, yo‘q bir jahonsan.

Munavvar aylading bor koinotni,
Magar sen ofitobi osimonsan?

O‘zing ham yo‘lsanu ham yo‘lto‘sarsan,
O‘zing ham o‘g‘ri-yu ham posibonsan.

Oting oltin erur, nafli, nigorim,
Gahi oshiqqa foyda, goh ziyonsan.

Sening birlan xazonim ham bahorim,
Valekin na bahorsan, na xazonsan.

Beribsan yelga shami tori zulfing,
Etibsan yelni ham anbarfishon san.

Bo'libsan Sayyiding lutfinda zohir,
Nihoniy ganjliging ayon — qayonsan?

* * *

Qani bir kaski, yetirsa menga jonon xabarin?
Eshitar, bulbula ayt bog'-u guliston xabarin.

E sabo, es, senga bu ruhi ravonim sadaqa,
Bu g'aribinga ketur sarvi xiromon xabarin.

Qora g'am zulmatida kezdi Skandar necha yil,
Yetur, ey Xizr,
menga chashmayi hayvon xabarin.

E kabutar, uch-u, elt nomayi faryodi dilim,
Yana men zorga ketur ul mohi tobon xabarin.

Qani bir siyrati payg'ambar-u, bir Isonafas,
Ki, yetursin tani beruhimiza jon xabarin.

G'ami hajringda shirin jonni achitdi alaming,
Ne uchun bermadi hech kim u go'zal xon xabarin?

Etaman jonni nazr, Sayyido, ul elchigakim,
Yeturur menga parining siru pinhon xabarin.[1]

[1] G'azal Sulton Changiyning bir g'azaliga javoban yozilgan.

* * *

Chidamay hijra, ko‘ngil,
har necha faryod etding,
Axir ul oyni mening qatlima jallod etding.

Sochi mushkiga ko‘ngil berdim, u qonim to‘kdi,
Bu xato undan edi, lek menga isnod etding.

Shirin ishva bilan avvali rom aylading,
Oxir olamda meni ishqida Farhod etding.

Yo‘q edi oshig‘i shaydo yuragin qon etmoq,
Buni ham yaxshilar aro o‘zing ijod etding.

Sayyidi so‘xtani otashi noz ila yoqib,
Shami parvonani yondirgali ustod etding.

* * *

Netayin, majlis aro bo‘lsa-da ag‘yor bo‘laversin,
O‘sha guldan menga bir fursati diydor bo‘laversin.

Hayajonim juda yuksak, yora vido chog‘idaman,
Etibon rashk, demadim senga Xudo yor bo‘laversin.

Ko‘ray, ey ruhi ravon, g‘ayrati ma’shuqaligingni,
Dema aslo menga har g‘ayri xaridor bo‘laversin.

Bir ayog‘ birla qo‘linga ola bilding yuragimni,
Ko‘rayin, soqiyi gulchehra, qo‘ling bor bo‘laversin.

Toki sarmast, karam aylar bari ishq ahliga dildor,
Kunu tun unga ichir,
uyquda hushyor bo‘laversin.

Yuragim qancha to‘lib, so‘ylash uchun qolmadi quvvat,
Yo‘q axir kimsaki, mendan-da xabardor bo‘laversin.

Nega zulfin bu qadar zanjirin istarsan, e, Sayyid,
Yuraging istasa, bundan-da giriftor bo‘laversin.

* * *

Voizni nechun so‘ylatar, ey maychi, sharobing,
Bir bilsa edi lazzatini bodayi nobing.

Mayxo‘r kishilar holiga daxl aylamasayding,
Zohid, seni jannatlik etardi bu savobing.

Sharbat ichishar bazm aro, shirinlik erur kom,
Vasl olami tomon yeturdi bu shakarobing.

Ey jon, keladir jannat isi xush nafasingdan,
Keltirdimi Odam Ota bu yerga turobing.

Ul oy kelaman deb va’dasin bergani kunda
Ey ko‘z, kecha boshlanmadi, kelmish nega xobing?

Husning erur ul sabzayi xatdan-da latifroq,
Ey mohi parichehra, nedandir bu hijobing?

Gar piri mug‘on tutsa qo‘lingdan, bu-da haqqing,
Zohid ne degay, Sayyido, u sening janobing.

* * *

Yetar, ey dil, havasi zulfi girehgir etding,
Axir ul zulfni mening bo‘numa zanjir etding.

Ko‘ribon yorni, yiqildim ayog‘im chalishib,
Bu jafolarni menga sen nega taqdir etding?

E falak, ufqni yaratgan, go'zalim ruxsorin
Quyosh-u oy yuzi bilan barobar, bir etding.

Va'da berding visol ayyomi to'karga qonim,
Bo'layin va'danga qurbon, nega taxir[1] etding?

Voizo, mehri ruhining sababi nor deding,
Nega behisht oyatin bo'yla tafsir etding?

U sanam zulfi kufriga ko'ngil bog'landi,
Nega, zohid, el aro bir meni kofir etding?

Seni ul ko'zlari xunxor ko'zidan chetlatmish,
Yana, ey Sayyidi bechora, ne taqsir[2] etding?

* * *

Qatl etay deb ko'kragimga otdi yuz tir ko'zlaring,
Ey go'zal zolim, o'zing ayt, buncha botir ko'zlaring?

Mast edi, kipriklaring yozmoqqa shay qonim bilan,
Berdi fatvo qatlima, tez soldi zanjir ko'zlaring.

Ov haromdir-ku haramda, ey Safoning qiblasi,
Chiqdilar ohuni ovlashga iki sher ko'zlaring.

Qoshlaring qatlim etarga qayta payvast bo'ldilar,
Egrilar birlan tag'in etmishdi tadbir ko'zlaring.

Ishq elinda zolimu yangi Xulokusan o'zing,
Shuncha qon ichmak bilan ham to'ymagaydir ko'zlaring.

[1] **Taxir** — kechiktirish.

[2] **Taqsir** — bu o'rinda qusur ma'nosida *(tarj.)*.

Qop-qaro soching aro chaqnab boqar u turki mast,
Mulki ko'ngilni bosar yag'mochi, shabgir ko'zlaring.

Ey pari, soching tuzog'iga ilintirding tag'in,
Sayyidin etmish asir ovlashga mohir ko'zlaring.

* * *

Yo Rab, biravi arzimi jononga yetursin,
Dardi dilim ul xusravi xo'bonga yetursin.

Xurshidga degin zarrayi sargashta malolin,
Parvona so'zin sha'mi shabistonga yetursin.

Jam'iyati dil parcha-yu parkandu parishon,
Bu holni o'shal sochi parishonga yetursin.

Ko'nglim qushi qayg'uli, giriftori qafasdir,
Bu holni o'shal gulga, gulistonga yetursin.

Aytsin o'sha shohimga salomimni, duomni,
Xoki qadamin diydayi giryonga yetursin.

Har shom-u sahar odati shul Sayyidi zorning,
Olloh seni bir-da shu Shirvonga yetursin.

* * *

Ko'zim sendan bo'lak jononga gar boqsa, u ko'r bo'lsin,
Tag'in vaslingdanam mahrum bo'lib ham baxti sho'r bo'lsin.

Iloyo, qonga to'lsin g'ayri yodin aylasa ko'nglim,
Ko'zim chiqsin, agar boqsam seningsiz, hatto hur bo'lsin.

Ko'zing yodi-la ko'nglimda, ajabmas, yo'q esa ayshim,
Axir qanday qilib bemor bor uyda bir surur bo'lsin.

G‘ururing xush yoqib, mendan yiroqlashma, kel, ey anbar,
Na nuqsondir, Sulaymonga agar hambazmi mur bo‘lsin.

Bu Sayyidninng ko‘zi nursiz bo‘lib qoldi firoqingda,
Yuzingdan ko‘p uzoq ko‘zda, na mumkindirki, nur bo‘lsin.

* * *

Gar tanamdan jon olishga kelsa farmoning sening,
Shodlanib men aylagayman jonni qurboning sening.

Ey Xalilim, garchi qonimni to‘karsan, yo‘q g‘amim,
G‘am bosar ko‘nglimni, botsa qonga domoning sening.

Jon beray deb, shohim ey, keldim-ku Mino ko‘yiga,
Jomga qonimni oqiz, bo‘lsin bu ehsoning sening.

Bir gulistondir sari ko‘ying, ochilmish gullari,
Bo‘ldi gulrang qon bilan gulbargi xandoning sening.

Mo‘llik ichra men topoldim durri ganji vahdating,
Bo‘lmisham harchandki zulfingdek parishoning sening.

Raddidan isbotga kel, ey dilki, tuproqqa buyur,
Qatra-qatra harfi “illalloh” ol qoning sening.

Sayyido, gar jonni sen jononga etmassan fido,
Rozi bo‘lmas ishqda sendan hech u jononing sening.

* * *

O‘sha kun kelsin-u majlisga u dilbar kelsin,
Chiqibon burjidan ul mohi munavvar kelsin.

Yana soqiy qo‘liga bodayi gulgun olsin,
Shisha jarangi-la quya-quya sog‘ar kelsin.

Bazmi ishratda agar bo‘lsa nigoro, na xush,
Mast bo‘lib raqs aylasin, holati digar kelsin,

Soqiyo, shisha labin ochginu mayni bol et,
Jonima og‘uli may nash’asi shakkar kelur.

Kelu qonimni to‘kib, oqiza qolgin ravon,
To qoshing tiyg‘iga qonim bila javhar kelsin.

Meni ul xurshid mohiliqodan ayirding,
Ko‘rayin, kunduzingam shomga barobar kelsin.

E ko‘ngil, garchi firoq ichra holing yomondir,
Shukur ayla, demasin, bundanam badtar kelsin.

Mayi gulgundan-u sen tavba etibsan, Sayyid,
Ko‘ramiz, erta bahor-u guli ahmar kelsin.

* * *

Kimki istar, o‘zni sarvar, shohi ayyom aylasin,
O‘psinu mayxona gardin, suhbati jom aylasin.

Obi kavsarda mening har ne nasibim bor esa,
Iltijom, Rabbim uni bir boda gulfom aylasin.

Keldi yor, lek barcha el o‘z dardi birlan band edi,
Qolmamish bir kimsakim, holim saranjom aylasin.

Munchalar ham qisqasan, ey vasli dilbar, kechasi,
Haq mening umrimni kessin, senga in’om aylasin.

Orazi dildorga tushmish zulfi xattin jilvasi,
Kofir istarmi, ajab, kofirni islom aylasin?

Bo‘lsa bu nokomligim ul sho‘x parining komi gar,
Bu dali ko‘nglimni haq dunyoda nokom aylasin.

Sayyid ul zulfu jamoldan ko‘p hikoyat so‘ylagay,
Chunki istar, shu bahona kunni oqshom aylasin.

* * *

G‘azab qilganda jonon gah, gahi bir nozi ham bo‘lsin,
Mening bazmimda goho ul buti tannozi ham bo‘lsin.

Degay xalq, hech zamon bir gul bilan harchandki yoz bo‘lmas,
O‘shal gulni chaqirgil, bazmimizning yozi ham bo‘lsin.

Ko‘ngilning bulbulin soldi qafasga chashmi ohusi,
Aql yetmas, jahonning shundayin shahbozi ham bo‘lsin.

Kamon qoshlim, o‘qing uz, ming azob-la o‘ldir oshiqni,
Shahidlar ichra tokim bitta sarafrozi ham bo‘lsin.

Duomiz mustajob bo‘lmishki, kelmishdir nigorim ham,
Bu mayxona eshikin shundayin hamrozi ham bo‘lsin.

Xudoyim, har zamon mayni serob ayla deyolmasman,
Na ko‘p bo‘lsa, shukur derkan, degaymiz ozi ham bo‘lsin.

G‘amin chekmam, bil, ey Sayyid, menam dari muxolifning,
Yetar, kelsin u xushlahja nigorim, sozi ham bo‘lsin.

* * *

Jam ekan, ruxsoringa zulfing parishon aylading,
Mendan, ey gul, ul jamolullohni pinhon aylading.

Boqqa kirsam, ul qizil yuzdan hijobni oldingu
G'unchaning bag'rin hasaddan dam-badam qon aylading.

Yuz ochib gulshanda, ey gul, ne deding bulbulga sen,
Bulbulu gulzorni ishqingda pushaymon aylading.

Bo'ynima solding u mushkin zulfung-u zunnorini,
Ey buti tarso, meni ishqingda Sanon aylading ayon,

Bo'ldi har bir zarradan ishqing tajallisi ayon,
Ey quyosh, Muso kabi olamni hayron aylasin.

Ganji maxfiydan ayon bo'lmish duri shohonalar,
Qatrani, ey bahri ehson, durri osmon aylading.

Gohi ishva, gohi g'amza, goh g'azab ham gohi noz —
Sayyidinga har kuni har turli ehson aylagay.

* * *

Istarsan umr, ey dili shaydo, farah o'lsun,
Ich dilbar ila, kayfingiz a'lo, farah o'lsun!

O'p la'li dudog'indanu ich bodayi gulgun,
Majnuni mufarrahdi, sanga to farah o'lsun!

Pinhona muammo edimi g'unchadahan, so'r,
Shoyadki yechilsin bu muammo, farah o'lsun!

Ich — ikki amrning birisi oshsin amalga:
Yo g'ussa ketirsin senga may yo farah o'lsun!

Qalbing farahi qatlima gar sal esa bog'liq,
O'ldir meni, ey dilbari zebo, farah o'lsun!

Giryon seni ko'rganda, bo'lur gul kabi xandon,
Ul gulga faqat, Sayyidi rasvo, farah o'lsun!

* * *

Ey hamdami xush so‘z, menga g‘amxor bo‘libsan,
Yo sen-da raqibday biriga zor bo‘libsan.

Har kungi gaping boshqa edi, g‘ofili makkor,
Yo sen-da haqiqatga giriftor bo‘libsan.

Ne vaqtki, u oy manzili-yu bazmi-da yotdir —
Nevchun, e falak, davrada bekor bo‘libsan?

Jabr aylamagay boshqaga yor, sen-da, ko‘ngil, bil,
Netdingki, bu ehsonga sazovor bo‘libsan.

Bulbul kabi afg‘on chekibon yig‘la, e Sayyid,
Ul gul yonida bo‘ylaki sen xor bo‘libsan.

* * *

Sevin, ming bor shukr qil, dil, xabar keldi u yordan,
Xalos bo‘ldik alamlardan va dardi intizordan.

Xazon faslin g‘amin chekkan edi ovora bulbul,
Xabar berdi sabo tongda o‘shal gul, navbahordan.

Kel, ey jonim fidoyingdir, balolar tushdi boshga,
Tugandi sabrim, endi ne kutarsan beqarordan?

Quvon sen ey, ko‘zim yoshi, o‘tarmish yor bu yo‘ldan,
Chiqib xosu g‘ariblar-la xabar ol rahguzordan.

Jahonda bo‘lmadi bir kun visoli yorga yetsam –
Mador yetgaymi bizlarga bu charxi kajmadordan?

Bilolmasmanki, oshiqlar ne qilmishdir falakka,
Bu charxi ginavor doim ayirgay yorni yordan.

Ko‘ngil istar kabi aylanmasa aylanmasin charx,
Emasman noligan inson hayot-u ro‘zigordan.

Shukr tangrimgaki, ul oy visolga va’da bermish,
Na xush, sharmandamasman men dili ummedvordan.

Qulog‘imda shu so‘z, Sayyid, qolibdir yor ketarkan:
“Uzilmishdir qo‘lim, vohasrato, ul sho‘x nigordan”.

* * *

Dilbasta bo‘lmasaydim agar ul zulfi yora,
Shu kunga qolmas erdim, bo‘libon baxtiqora.

Har yerda bizga avval etardi lutf-u nozin,
Lek endi u raqib-la ko‘rinur oshikora.

Istaydi charx u oydan judo etmoqni meni,
Bilmamki, ne qilibman bu falak kajmadora.

Ag‘yorga iltijolar etadirman bu zamon,
Qoldim g‘amingda, ko‘rgil, na g‘arib ro‘zigora.

Ey dard-u g‘am, qo‘yinglar meni ham o‘z holima,
Bir chorasin topay-da bu dili beqarora.

Hajrinda lola yuzning to‘kilib qonli yoshim,
Aylantirur jahonni bu zamon lolazora.

Ko‘rdimki, ulfatimdan or etar guluzorim,
Tortdim o‘zimni, Sayyid, o‘sha guldan kanora.

* * *

Ko‘ray deb bir yuzing, yuz dard-u g‘amga mubtalodirman,
Sening ishqing bilan doim giriftori balodirman.

Seni o‘ylab, o‘shal kundan ne borki, ayladim tark men,
Yaqin bo‘ldi, amr berdi, amiri mosivodirman.

Xizr men-la tiriklikni topib, umrin baqo etdi,
Bu zulmatlik jahon ichra u daryoyi baqodirman.

U quvvatmanki, haq yodi bilan keldim bu dunyoga,
Tasavvur etma, men aslo na foniy, na fanodirman.

Na yog‘dumanki, yer-ko‘kda uchib-porlab, kibrlansam,
Misoli soyadirman, bir g‘aribi xoki podirman.

Meni ko‘rganda, har yerda nazar ahli surar ko‘zga,
Qarobaxtlik esam-da, xasta ko‘zga to‘tiyodirman.[1]

* * *

Tun oqshom bir makonda bir nigori soda ko‘rdim men,
Jon olg‘ich g‘amzalar o‘qin o‘shal jonoda ko‘rdi men.

Yig‘ilgandi u bazmi jonfizoga hur-u g‘ilmonlar,
Behisht bog‘i emish u yer, ani dunyoda ko‘rdi men.

Otilgan g‘amza o‘qindan, ajab, ko‘plar yiqilgandi,
Butun bazm ahlini hushsiz, g‘arib, g‘amboda ko‘rdi men.

Yiqildim, hushdan ayrildim, tutildi til, Muso misli —
Tajalli nurini hayron Turi Sinoda ko‘rdi men.

Musulmonzoda erdim, qaytibon bir butparast bo‘ldim,
Muhammad nurini chun ul buti zeboda ko‘rdim men.

U bazmi hur edi, Sayyid, ko‘rolmay endi yig‘larman,
Netay, bu hol xayoliydi, uni ro‘yoda ko‘rdim men.

[1] G‘azalning maqta’si topilmagan.

* * *

Zolim o‘sha oy zulfi-da iymon olar endi,
Ohu qarashi, qora ko‘zi jon olar endi.

Ruxsoring uza yangidir u sabzayi xatting,
Chumoli kabi mulki Sulaymon olar endi.

Zulfingni yig‘ib ol, yuzing iymonga etar qasd,
Kofirlari olganni musulmon olar endi.

Ko‘nglimni etar kokiliday jingalagu tang,
Jamiyatim ul zulfi parishon olar endi.

Yuz saqlamagin naqdi dil-u jonni, e Sayyid,
Bir vajla o‘shal navguli xandon olar endi.

* * *

Bir qaro sochlik go‘zalga, eh, giriftor sen o‘zing!
Ey malaksiymo, meningdek oshig‘i zor sen o‘zing.

Toshbag‘ir dilbarga berding shu ipak ko‘nglingni sen,
Yo magar ko‘nglingdan,
ey mohpora, bezor sen o‘zing.

Chekding u jonon jafosin, ko‘rding u hijron g‘amin,
Shukrililloh, holima, ey gul,
xabardor sen o‘zing.

Ko‘rding u oyinayi vajhinda aksi suratin,
Toqatu hushing ketib, bir naqshi devor sen o‘zing.

Shavqi la’lindan uning, ey xusravi shirinzabon,
Sayyidi shirinsuxandek sohibash’or sen o‘zing.

* * *

Ey ko‘ngil, shukr et, kelur ul oy bizim sori bugun,
Jonga baxsh aylaydi jon mahbubi dildori bugun.

Ul mehrsiz oy chiqib ketsin, dilim, to‘xtatmagin,
Sobit o‘lsun lek u yulduz, daydi, sayyori bugun.

Bu kecha, ey mahliqo, xonamni manzil aylagin,
Bitsin u hijron g‘ami-yu achchiq ozor bugun.

Chiqdi ko‘kka oy, quyosh-u sobit-u sayyora ham,
Mushtariy bor, o‘sha oyning yurdi bozori bugun.

Eh, tag‘in dunyoga sig‘mas shodligindan Sayyiding,
Xush boqibdirmi va yokim unga ham yori bugun.

* * *

Yuz-u xattingmi shifo bu dili yuz pora uchun?
Dedi, mushkni kim etar dori axir yora uchun.

O‘shp oydan ayirib, tashladilar g‘am loyiga,
Yana qosid ne etarkin bu kuni qora uchun.

Nuhi nojiy kesibon tubo og‘ochin keturur,
Senga, ey sho‘x, berajak yo‘ngani kahvora[1] uchun.

Qasam ichdi menga voiz, dedi tavba mayidan,
Kuzaturman, qadahi qo‘lda shu kuffora uchun.

E, go‘zal, yo‘lda ko‘rinsang, qo‘l ochar Sayyidi zor,
Bu zamon istar u yuz, ko‘z senga nazzora uchun.

[1] **Kahvora** — beshik; asli gahvora *(tarj.)*.

* * *

Men o‘ylar edimki, menga sen yor bo‘ladirsan,
Olamda menga yori vafodor bo‘ladirsan.

Men bo‘yla xayol etgan edim, ey guli ra’no,
Ko‘nglimni kemirgan g‘ama g‘amxor bo‘ladirsan.

Avvalda menga mehr-u muhabbat etib izhor,
Oxirda o‘zing yot kabi bezor bo‘ladirsan.

Bo‘lmishdi menga shami jamoling kabi ravshan,
Ag‘yor bila kun-tun menga ag‘yor bo‘ladirsan.

Dil bermas edim men senga, ey yori dilozor,
Bilsaydim agar bo‘yla dilozor bo‘ladirsan.

Sarmasti mayi husn-u jafosan bugun, ey gul,
Husnung ketadir ertaga, hushyor bo‘ladirsan.

Mag‘rurasan, ey gul, xabaring yo‘qdir o‘zingdan,
Ayyomi xazon kelsa, xabardor bo‘ladirsan.

Bir kun kelajakdirki, sen ey, Yusufi soniy,
Ushshoqi qarobaxtga xaridor bo‘ladirsan.

Sayyid, seni ag‘yor yonida etdi u gul xor,
Bilgil, hali bundun-da yomon xor bo‘ladirsan.

* * *

Bir-da ko‘rsam ko‘z ochib gar ul guli ra’no yuzin,
Bir ko‘ray dersam agar, chiqsin ko‘zim, dunyo yuzin!

Ishqda Sanon bo‘lsa, zunnorni havas qilmaydi kim,
Ko‘rsa zohid gar seningdek bir buti tarso yuzin.

Xolu xatting aksi ko‘zda, chun jamoling shavqidan
Qancha hindu suvni bosmish Rum uchun daryo yuzin.

Tog‘ yorib, qutqardi shirin jonini ul tog‘yorar,
Ko‘rdi, tutmish ko‘z yoshimning sho‘r seli sahro yuzin.

Mayli, bo‘lsin ko‘r ko‘zim ko‘rmoq tamanno aylasam —
Mehri ruxsorin qo‘yib, mehri jahonoro yuzin.

Yuz surarlar muncha ham ishq ahli xoki poyinga,
Yuz burib, ey mohi ruh, ko‘rsatma istig‘no yuzin.

Ortibon nuri ko‘zim, boshim falakdan yuksalar,
Bir-da ko‘rsam, Sayyid, ul mohi malaksiymo yuzin.

* * *

Ey labi jonbaxsh suyuklim, bitta jononim o‘zing,
Bitta jonim senga qurbon, aslida jonim o‘zing.

Men netay sarvi uzunni, puch, uzun vasfin uning;
To‘g‘risi, ey to‘g‘ri qad, sarvi xiromonim o‘zing.

Naylayin sarvu gulu gulshanni, ey lolauzor,
Men uchun sarvu gulu sunbul-u rayhonim o‘zing.

Bir chumolingman sening, ey sabzi xatti mushkinim,
Ey, mening taxti hukumatda Sulaymonim o‘zing.

Boru yo‘g‘imdir fido ul gul dahanning sirriga,
Dahr aro eng sevganim, munisi pinhonim o‘zing.

Kokiling ul oyati “Vallayl”iyu “Vashshams” yuzing,
Ey, mening darsxonayi ushshoqda Qur’onim o‘zing.

Tun dedingki menga, ey shoh, Sayyid asli bir gado,
Balki shunday ham deding, olamda sultonim o‘zing.

* * *

Bir dam manga boq, ey ko‘zi xumor, o‘luram man,
Qoshingdan uzoq qolsam, e gul, zor o‘luram man.

Zanjirda turib, jon bera olmas sanga hech kim,
Ul silsilayi zulfa giriftor o‘luram man.

Mast bo‘lmaganim dam yo‘q edi dahrda bir kun,
Afsus, o‘limim so‘ngida hushyor o‘luram man.

Qo‘rqim shuki, ko‘rsam sani, lazzat oladirman,
Shodmanki, tag‘in hasrati diydor o‘luram man.

Boshimda manim g‘ussa-yu g‘am, mehnati olam,
O‘ylanma hecham, bekasu beyor o‘luram man.

Yo‘q toqatim ag‘yor ila ko‘rsam sani, ey sho‘x,
O‘lmakda bu kun bir g‘arazim bor: o‘luram man.

Zaxmi sitaming bermadi Sayyidga biror naf,
Yuz afsusu yuz hayfki, gunohkor o‘luram man.

* * *

Sham o‘zi ravshan o‘lur yongani parvona uchun,
O‘ziga yonsa u; parvonaga parvo na uchun!

Beraman xolinga, ey gul, mana shu dunyani men,
Chiqib erdi Odam u jannatdan ul dona uchun.

Dedilar, zulfi uchun shonani xalq etdi Xudo,
Yo qaro zulfni yaratmish u taroq — shona uchun.

Na qadar husnini Qur’onida vasf etdi Xudo,
Bilishimcha, yaratilmish u-da mayxona uchun.

Piri mayxona Alidir, o‘sha porloq nuri haq,
Oshinoni tani, sayr aylama begona uchun.

Gili Odamda jamolingdan asar yo‘q esa gar,
Qabul o‘lmasdi uning tiynati paymona uchun.

Alining vasfini, Sayyid, yozaver, boshqasi puch,
Bu umr oltini, sarf etmagil afsona uchun.

* * *

Keldi farmon mushafi ruxsori ma’nosi uchun,
Oyati “Nur”ga boqing sharhi tajallosi uchun.

Rashk etur bir-biridan ikki ko‘zim qorachig‘i,
Bir qora xolingni, ey sho‘x,
bir tomoshosi uchun.

Ul buyuk zebo sanam ishqiga tushmishdir Masih,
Tortilibdir chormixa zulfi chaliposi uchun.

Nechalar sirri dahanni bilmoq istabdir, biroq
Bo‘ldi yo‘q bari shu bir nuqta muammosi uchun.

Zohido, diningni sen shaytonga bermog‘ing nadir,
Shayxi Sanon bermish o‘z dildori tarsosi uchun.

Berdi ko‘nglimni o‘shal oyning qaro zulfiga jon,
Chora deb bilmish shuni u dardi savdosi uchun.

Sochlari Zahhok iloni, hatti Faridun erur,
Kel, Faridun, dardlarimning da’fi davosi uchun.

Bor edi Sayyidda asli bir bo‘lak iymon, ajab,
Aylamish baxsh oni ham shahrin kalisosi uchun.

* * *

Bulbulni yuzing ochding-u shaydo eta qolding,
Bulbul ko'zida gulni-da rasvo eta qolding.

Og'ushinga talpindimu ikki qo'lim ochib,
Kofir, meni bir shakli chalipo eta qolding.

U terli yuzingdan ko'tarib sirli hijobing,
Kun uzra ayon iqdi Surayyo eta qolding.

O'lgan yuragim bir nafasing birla tiriltding,
Mo'jizayi takrori Masiho eta qolding.

Yoyding qora zulfingni yuzinga bu kun, ey oy,
Xurshidga hijobing shabi yaldo eta qolding.

Sen birla Yusuf farqi yeru ko'k-la barobar,
Ishqingda yusuflarni Zulayho eta qolding.

Hajringda, gulim, qonga to'la ikki ko'zimni
Xunob ila mayga to'la shisho eta qolding.

Qaddingni alif va qora zulfingni dedim lom,
Sayyid, bu alif-lomni ne ma'no eta qolding?

* * *

Ko'rib yuzin nurini ko'yi yora keldim men,
Umidi vasli ila bu diyora keldim men.

Visoli yuz burib, axiri keldi hijroni,
Boshimni urgani bu tosh devora keldim men.

Bekorga umrim o'tdi, beboda, befayz,
O'zim-da bilmadim, evoh, na kora keldim men.

Na ohu zor edi bu bir chechak firoqinda,
Qaroqchi, qonto'kar g'aminda zora keldim men.

Hikoyat aylabon yo'limni to'smangiz, sochlar,
Shikoyat etgali shu shahriyora keldim men.

Munajjim etdi nazar bir falakka, fol ochdi,
Uning tasavvuricha, baxtiqora keldim men.

Yetibdi qatralar u bahri vahdata, Sayyid,
U daryoda dur edimu kanora keldim men.

* * *

Ey, la'li labing shirayi shakkar kabi shirin,
Achchiq so'zingam qandi mukarrar kabi shirin.

Xusravda agar bor esa yuz shakkaru shirin,
Ermas biri Shirin ila Shakkar kabi shirin.

Navvoti Misrni bilaman, vasf etavermang,
Aslo bo'la olmas labi dilbar kabi shirin.

Rashkdan asalingning ta'mi ham bo'ldi-ku achchiq,
Bol ham bo'la olmas labi kavsar kabi shirin.

Bodomni mijozin hukamo ham dedi achchiq,
Kim ko'rdi biror ne o'sha ko'zlar kabi shirin?

Sayyid, gahi dashnom berur ul nozli nigorim,
Achchiq so'zi har dam menga shakar kabi shirin.

* * *

Men o'ldim, boshga ul dildor kelsin,
Egib boshin, u sunbul zor kelsin.

Ochib so‘z, aylasin yo‘qdan takallum,
Tanimga bir nafas to bor kelsin.

Agarchi ixtiyori birla kelmas,
Zo‘r aylang, sarkashi nochor kelsin.

Eting ahvolimi jononga ravshan,
Bu zulmatga u mohruxsor kelsin.

Ki shoyad daf qilar dardisarimni,
Ayoq qo‘lda, mayi gulnor kelsin.

Nafas tashhisi uchun dahanimga
Tutib oyinayi diydor kelsin.

Janozam ustiga kelsin imomim,
Namozga Ja’fari Tayyor kelsin.

Dilimning ta’miri yer birla yakson,
Chaqir, ta’mirga ul me’mor kelsin.

Agarchi kelmasa sevgili gulim,
Yonar o‘tlarda, deng, bu xor, kelsin.

Netar, bori Xudo, bu xonaqohga
Chiqib ul shohidi bozor kelsin.

Ko‘rib ag‘yor-la yorin, o‘lmasa gar,
Iloho, Sayyida bir or kelsin.

* * *

Istagim — ko‘rmoq seni hech kimga imkon bo‘lmasin,
Mendan o‘zga husninga hech kim nigohbon bo‘lmasin.

Tushmasin to yerga ul eski og‘ochning ko‘lkasi,
Kecha shami, kunduzi oftob ravshan bo‘lmasin.

Istagim shu, yor bilan men xosi xilvat aylasam,
O‘sha xilvat voqifi to bir dil-u jon bo‘lmasin,

Jonu dil begonadir vasli nigorim bazmida,
Oshinoning bazmida begona mehmon bo‘lmasin.

Ul tikan, ey gulbadan, har dam sening yoningdadir,
Rashkidan bir g‘unchadek ko‘nglim nechun qon bo‘lmasin.

Istagim — jonim olib, bo‘ynimga solsin zulfini,
Yo Rab, ul gulruh bu savdodan pushaymon bo‘lmasin.

Ul buti tarsoda har kim ko‘rdi vahdat nurini,
Hech axir mumkinmidir u ishqda Sanon bo‘lmasin.

Zulfi ruxsori xayoli kun va tun ko‘nglimdadir,
Nega oshiq dilda fikri kufr-u iymon bo‘lmasin.

O‘zga olamdir haqiqatda bu vahdat olami,
Kasrat ila oshiq ahvoli parishon bo‘lmasin.

Ey Xudovandi ahad, o‘z birliging haqqi, mening
Xotirim Sayyid kabi yer birla yakson bo‘lmasin.

* * *

Baski, berar jafolari har dam safo menga,
Shodmanki, doim aylar u gulruh jafo menga.

Baski, jafolarni chekib, o‘rgandi bu ko‘ngil,
Endi kelar jafo, agar etsa vafo menga.

Ul oshinoki, ulfatim demaydi bir kelib,
Begona ta’na aylaru ham oshino menga.

Derlarki, vasli yorda bir boshqacha hol bo‘lar,
Bir bor nasib etarmi u holni Xudo menga.

Men tashnaga sen, ey Xizr, jomingni tutmagin,
Ichsam uni, bo'lgay zahar obi baqo menga.

G'am yurtiga podshoh men-u,
dard menga bir sipoh,
Ishq ichra kel holim so'rab, de marhabo menga.

Goh jabr-u goh xato-yu goh ozor-u gohi noz,
Sayyid, u sho'x har dam etar bir ne ato menga.

* * *

Mayxona taraf, soqi, ayoq bos, guzar ayla,
Tez kel, bir ayoq sun-da, dimog'imni tar ayla!

Harchandki ayog'imda turolmam, qo'lim ushla,
To'ldir qadahing, meni bundan-da batar ayla!

Mastlikda o'lurman, jasadim ko'mgani eltgin,
Rindoni xarobotga bu ishdan xabar ayla.

Yonding bu firoq o'tida, ko'ngil, ne zamondir,
Yuz da'fa dedim senga bu ishqingdan xazar ayla.

Ey dil, agar ul g'amzachi qonxo'rni sevibsan —
Joning sovutin tiri baloga sipar ayla.

Yuz pora ko'ngil, qo'rqma hecham tiri balodan,
Mardona bu maydonga qadam qo'y, nazar ayla.

Ey nolalarim, keldi yetib qatlim uchun yor —
Kim aytdi senga, bor, dili yora asar ayla?

Sayyid, bu visol kechasi ul zulfi qaroga
Dardingu uzun shikoyating muxtasar ayla.

* * *

Ey, ko‘zing ayni Xudo, “nuni qalam” qosh senga,
Berdi o‘z suratini naqshida naqqosh senga.

Sensan u podishohi masnadi oliynishon,
Rusuli sobiqa yo‘l ochmoqqa farrosh senga.

Sajdayi Odamga zohirda taklif etdilar,
Egdi ul olami botinda malak bosh senga.

Har ne xush xilqatlara bo‘ldi vujuding bois,
Bandafarmondir butun har qari, har yosh senga.

Ustidan toshni olib, ko‘rdi ko‘nglim holating,
Boqsa yumshoq, ne ajab, harki bag‘ritosh senga.

Ey sanam, me’roj tuni qay taraf ketgan eding,
Ketganingda Jabrail bo‘lmadi yo‘ldosh senga.

Arzi holim bildirar o‘tli dil qarshingda, boq,
Ko‘zlarimdan sochilur qonli oqqan yosh senga.

Bir chechakday Sayyiding xoki poyingni o‘par,
Ayni payt ehson etolsaydi jonin kosh senga.

* * *

Voiz, dema aqlingni yo‘qotar shu piyola,
Billohki, piyola yetirur mardni kamola.

Sen o‘zga gunoh aylama, ich bodayi gulgun,
Undan ne gunoh kelsa, menga ayla havola.

Men mujtahidi asr-u, jahon ahli muqallid,
Ruxsat deya shul mayga yozildi bu risola.

Xatdirmi go‘zal chehrasini yo bezagan xol,
Yo sepdi bahor oy yuziga mushk ila lola.

Nozik bu gul, ammo qani bu gulda latofat,
Ey, “salli alo oli Muhammad”[1] bu jamola.

Ahd etgan edim ko‘nglimi zulfingdan uzarkan,
Qurbon bo‘layin u ko‘zing ostindagi xola.

Sayyid, dahani yor ne o‘zi — aylama hech bahs,
Yo‘qdan ne degaysan, tushasan-ku qora hola.

* * *

Menga mehmon edi ul sarvi xiromon bu kecha,
Manzilim bo‘lmish edi rashki guliston bu kecha.

Hamdamim bir hur edi, jomimda Kavsar edi may,
Manzil o‘lmishdi menga ravzayi rizvon bu kecha.

Zulmati zulfida ko‘rdim yor dahanini tag‘in,
Xizra qo‘l bermish edi chashmayi hayvon bu kecha.

Ul yarim tunda o‘shal qoshi hilol hambazm edi,
Ravshan etdi bu bazmni mohi tobon bu kecha.

Sirri og‘zin o‘yi birlan borlig‘im yo‘q bo‘ldimi?
Bazm aro bor erdi ko‘p nuktayi pinhon bu kecha.

Dovudiy tovshi bilan ko‘nglimni olgandi u sho‘x,
Boqdi lutfi-la chumoliga Sulaymon bu kecha.

Ul sharobning qatrasi yuz la’li Badaxshonga teng,
Baridan ortiq valekin la’li jonon bu kecha.

[1] Hazrati Muhammad va oilasiga salom bo‘lsin.

Ka'bayi husn ila, Sayyid, hamdam o'ldim lahzaga,
Koshki bo'lsaydim o'shal on unga qurbon bu kecha.

* * *

Aytdim, ey sarvi ravon gul misli xandon kezmagil,
Aylabon bag'rimni sen bir loladek qon, kezmagil.

Hech bo'lolmasman xotirjam ikki ko'z but bo'lsa ham,
Ey ko'zim nuri, ko'zimdan bo'yla pinhon kezmagil.

Axrimanning zulmi yetmas har yera, ammo bugun
Ey pari, bo'lsa agar yoring Sulaymon, kezmagil.

Chiqma, yorim, tashqari ag'yor bilan sen kechalar,
Qo'rqaman, tekkay, e oy, husningga nuqson, kezmagil.

El degay har neni, og'zin hech zamon bo'lmas yopib,
Ul tikan birlan, gulim, sen endi har yon kezmagil.

Fosh bo'libdir nuktayu sirri dahan, g'ayri siri,
Yaxshisi, sen g'ayrilar-la endi, jonon, kezmagil.

Borma jam'iyati ag'yor, boshqa irqlar bazmiga,
Sayyidingni zor etib, holi parishon kezmagil.

* * *

Men dedim dilbarga, kel, jabr-u jafodan tavba qil,
Ko'rki, ta'siri nafas keldi vafodan, tavba qil.

Zulfi mushkiningni men Chin nofasi deb so'yladim,
Tavba qildim bu so'zimga, bu xatodan tavba qil.

Bo'yrada o'ltirganing, yo'qsilliging aldoq, riyo,
O'g'ling o'lsin, zohido, qo'y, bu riyodan tavba qil.

Ul Xizrni kimsasizlik tangdil etmish, payqadim,
Sen-da ul hazrat kabi obi baqodan tavba qil.

Bordimu ko'rdim, u jonon xilvatin yo'qdir yo'li,
Mendayin hamdamligu bodi sabodan tavba qil.

May ichish va tavba aylash — ikki shisha boshidir,
Ne chiqar bu ikki boshdan, bedavodan tavba qil.

Har ishindan tavba etmoq elda odat, Sayyido,
Bir umrga o'z so'zin etmas adodan tavba qil.

* * *

Ey bodi sabo, ko'yi habibga guzar ayla,
Holi dili zorimni u shohga xabar ayla.

G'urbatda parishoniman u zulfi qaroning,
Dardimni uzun so'ylama, qo'y, muxtasar ayla.

Oxir meni dilbardan ayirding etibon zor,
Ey charxi jafochi, meni oz darbadar ayla.

Yuksaldi falak qubbasiga har sahar ohim,
Qonxo'r shu o'qing otma,
gulim, qo'y, hazar ayla.

Ishq ahli u beburd ko'yida yig'lashadurlar,
Zolim yo'lin, ey ko'z, to'kibon yosh, buzar ayla.

Hijron zahari menga yetar, va'dachi, makkor,
Bor, g'ayri razil komini sen purshakar ayla.

Sabr ayla, deding, vasla iloj bo'lmadi, Sayyid,
Daf etmoq uchun hajrini fikri digar ayla.

* * *

Bu shahar zulmatidan dilbari mohpora ketar,
Sochiday hajrida umrimni etibon qora ketar.

Eshitib ketganini to‘xtadi go‘yo yuragim,
O‘sha kundan yuragim har kuni bir pora ketar.

U kamon qosh, ne bo‘lar, tiri nigohi-la meni
Otib o‘ldirsa savob-da, meni qutqora ketar.

Oqing, ey qonli yoshim, g‘ov bo‘libon yo‘lni to‘sing,
Ki uning bir tarafi dilbari xunxora ketar.

Men u oy hajrida erkan, e falak, qo‘rqki, u kun
Bodi ohim-la mening sobit-u sayyora ketar.

Chekibon zanjiri zulfiga dili shaydosini,
Etib u Sayyidi bechoraga bir chora, ketar.

* * *

Na bo‘lur bazmima ul guluzor bir-da kelar,
Ochilib gul-chechagi, u bahor bir-da kelar.

Tiladim dardga shifo, tuzalib qolsa bu jon,
Yana dardim bor axir, u nigor bir-da kelar.

O‘qu tig‘, nayza, kamand tutibon qo‘lda u sho‘x,
Ana shu to‘rt yov ila beqaror bir-da kelar.

Ichibon ruhi ravon may-u, maxmur bo‘libon,
O‘zi mastu ko‘zi mastu xumor bir-da kelar.

Bu bahor bu bog‘ aro na bo‘lur, kulsa chaman,
Unutib qayg‘uni, bulbuli zor bir-da kelar.

U nihon g‘amza bilan oladir jonni ochiq,
Netar, u ganji nihon oshikor bir-da kelar.

To‘kilib qonli yoshing, quridi, Sayyid, axir
Bu ariqning suvi, ummidi bor, bir-da kelar.

* * *

Jafo-ku kori deya ul nigori, qo‘yma, ketar,
Qo‘lidan tut sanami guluzori, qo‘yma, ketar.

Na bo‘lur ovchi-yu ov bir-biriga bo‘lmasa rom,
Tushir, ovchi, bu kamandga shikori, qo‘yma, ketar.

Magar u yor bo‘laman, boz kelaman, der yo‘liga,
Chini yo‘qdir so‘zining bunga sori qo‘yma, ketar.

U faqih deydi, hecham borma o‘sha yor ko‘yiga,
Dedim, eh, yo‘q bu ko‘ngil ixtiyori, qo‘yma, ketar.

Yopish u yor sochiga, tolasi jon rishtasidir,
Ko‘ngil, ul senga hayoting diyori, qo‘yma, ketar.

Ketar ul navbahor-u soqi-yu may, yor... e, dilim,
Ko‘zing och, borini ko‘r, shu-da bori, qo‘yma, ketar.

Dahani sirrini, Sayyid, senga oshkor etayin,
Eshitib ol, shu so‘zim oshikori, qo‘yma, ketar.

* * *

Hech ketolmasman yonindan, u demish, parvona bu,
Zulfin olsam qo‘lga, kuldi, so‘ng dedi, devona bu.

Halqayi zulfida ko‘rgin qop-qaro holingni, dil,
Bittasi domi balodir, bittasi sirdona bu.

Voizo, yorimga boq, gar bo‘lsa aqling noqusur,
Vasfi behisht aylama, ishq ahli der, afsona bu.

Bo‘lmasa sidqu irodat, kirma masjidga hecham,
Ko‘zla odobni, ko‘zim, ko‘r, go‘shayi mayxona bu.

Pardasi ermas bu “Ushshoq”-u, “Nihovand”-u, “Hijoz”,
G‘ulg‘uli osmonga chiqqan na’rayi mastona bu.

Zanchalishlarning emas, tut Shohimardonning yo‘lin,
Ol qadahni, ahli may bu, mashrabi mardona bu.

Sayyido, ayvoni yor bu, ko‘zga surt tuprog‘ini,
Jon yetar maqmadga endi, manzili jonona bu.

* * *

Kimki bir mayxonani bu dahr aro bunyod etar,
Haq uni shod aylagay, olamni ham dilshod etar.

Bu jahonni g‘am seli aylar ekan vayron, xarob,
Rahmat ul odamgaki, mayxonani obod etar.

Piri mug‘on bandasimen, u shikoyatlar qilib,
O‘zligimdan bir qadah birlan meni ozod etar.

Zohido, shu may agar ummifasod bo‘lsa agar,
Nega shu tokni o‘shal kun haq o‘zi ijod etar?

Sayyido, ayt, barcha xalq masjid tarafga ketsalar,
Bas, nechun piri mug‘on ham maykada bunyod etar?

* * *

Noz birla yuzindan olar u oy niqobini,
Tuproqlara otar u falak ofitobini.

Bilmamki, nashasin na bilar haq degan mayning,
Zohid tatimagan-ku muhabbat sharobini.

Ko'zlar bu qadar giryalar aylar, tozalanib,
Istar o'qimoqni jamoling pok kitobini.

Ul yosh sanamimning hayosi kuchliki shuncha,
Mast bo'lsa-da yuz bor, sharob ochmas hijobini.

Yulduz sanab o'tdik-ku firoq shomida doim,
Dildan quvar ummid u qiyomat hisobini.

Ma'lumki, firoq so'ngida bor vasli nigoro,
Shoyadki, ko'ngil torta bilar hajr tobini.

Chin ohusi yuzing ko'ribon tori zulfing,
Hurkib qocharoq cho'lga otar mushki nobini.

Voiz, shabi hijronda azob chekkanim anglab,
So'ng xalqqa tushuntir u jahannam azobini.

Jon o'sha qotilga fido, Sayyid, ki ajrda
Yozmish malak ul mingta shahidning savobini.

* * *

To tushdi dillara g'aming-u ishq hikoyati,
Devona dedi meni xalqu yurt, viloyati.

Devona, telba deya chiqdi ko'kka dovrug'im,
Bekor qilindi Layli-Majnun-u, rivoyati.

Muhabbat avvalinda, bil, zabun bo'lar oshiq,
Chidamli bo'l, visolu shavq uning nihoyati.

Meni ezib, yo‘qotar erdi g‘ussa, ey soqiy,
Agarda bo‘lmasa piri mug‘on inoyati.

U menga mendanam ziyoda shikvalar etar,
Yetarmu unga bu g‘arib ko‘ngil shikoyati.

Qaro soching tushib yuzingga, ayladi qaro,
Jahonda ahli ishqqa shu ekan-da oyati.

Yoshurun erdi zulfing arosinda , oqibat
Ko‘rinur kufr aro, Sayyid, nuri hidoyati.

* * *

Xush ul zamonki, qopingda gadoligim bor edi,
Bu e’tibor ila bir podisholigim bor edi.

Na qadar bo‘g‘di g‘ubori havodis birla falak,
Sharobi nob misoli dilkusholigim bor edi.

Egilib qoldi qadim, eh, u zamon ko‘kda edim,
Amalimga berilib, bexudoligim bor edi.

Nega tegramda yelarsan, nari ket begona baxt,
E, qachon sen bila mening oshinoligim bor edi?

Riyodan kechdim-u, oldim qadahim, ey zohido,
Meni ham el ko‘zida porsoligim bor edi.

Imom ortindaman endi, o‘sha kunlarki vale
Sharob ahliga mening peshvoligim bor edi.

U qaro zulfmi, e Sayyid, qaro qilgan toleim,
Yo azaldan beri baxtiqaroligi bor edi?

* * *

Sensiz, ey ruhi ravon, tanda tovonim yo‘q edi,
Bu tani zorimda kuch, jismimda jonim yo‘q edi.

Ne qilib, o‘lmay turib vaslingga yetdim, ey nigor,
So‘xtajon bo‘lganligimga hech gumonim yo‘q edi.

Bo‘lmadi kimsa g‘amimdan hech qachon ogoh, netay,
Garchi dardim ko‘p edi, ohu fig‘onim yo‘q edi.

To sahar zulfi siyohu sirri dahan yodi-la,
O‘tmagan tun yo‘q edi, so‘zi nihonim yo‘q edi.

Sochlaring shavqi bilan ul Sayyidi sargashtadek
Darbadar kezgay edim, ko‘yu makonim yo‘q edi.

* * *

Bo‘lmasaydi menda, yo Rab, bu muhabbat, koshki,
Yoki hargiz bo‘lmasaydi dardi furqat, koshki.

Bo‘lmasaydim ul pari ishqinda rasvoyi jahon,
Chekmasaydim do‘stu dushmandan malomat, koshki.

Ko‘rsatib avval vafo, oxir bo‘lurlar bevafo,
Bo‘lmasaydi yaxshidarda ushbu odat, koshki.

Yo Xudo bersaydi senga bir rahm, ey beqaror,
Yoki bo‘lsaydi firoqqa dilda toqat, koshki.

Injimish ohu fig‘onimdan, kamaydi jabr-u g‘am —
Etmasaydim jabr-u zulmindan shikoyat koshki.

Sayyido, ko‘rguncha yorni bazm aro ag‘yor bilan,
Chekkanim avlo edi hajrinda hasrat, koshki.

* * *

Yana bir noma bilan esladi u yor meni,
Nedan iqbol bu isha ko‘rdi sazovor meni?

Meni ul mohiliqo yodiga olmas, bilaman,
U-bu deb yor haqida aldagay ag‘yor meni.

Shabi hijron meni u oy tugatib bo‘lgan edi,
Bu kabi tutdi tirik va’dayi diydor meni.

Seni ko‘rsam quvonib, nogoh o‘lib ketmay axir,
Kelishingdan ilariayla xabardor meni.

To‘kibon dur so‘zini, barchani xushhol etibon,
O‘zi men ham yo‘q edim, ayladi u bor meni.

U falak gulshani-yu ikki jahon bulbuli men,
O‘sha gul ishqida charx ayladi, ko‘r, xor meni.

Boshidan sallani, Sayyid, olibon, mayni uzat,
O‘sha maxmur dediki, ezdi bu dastor meni.

* * *

Rahm etmadi ahvolima yorim, shumi qismat?
Bir boqmadi u nozli nigorim, shumi qismat?

Mavsumi bahor keldi, umr bo‘yla xazondir,
Yo Rab, ne bo‘lur, qayda bahorim, shumi qismat?

Kunduzlar ishim nola chekish, tunlari yig‘lash,
Ishqinda uning bitdi madorim, shumi qismat?

Shoh otda borarkan, yiqilib iltijo etdim,
Lutf etmadi ul shohi suvorim, shumi qismat?

Yor g'ayri, g'ayur majlisining bo'ldi chirog'i,
Hajrinda yo'qotdim budu borim, shumi qismat?

Sayyid, u qaro ko'zli qarorimni olibdir,
Sahroda qolib, bitdi qarorim, shumi qismat?

* * *

Oh, o'shal kunlarki, bazmimda nigorim bor edi,
Zavqi diydor birla ko'nglimda qarorim bor edi.

O'tdi u kunlarki, u oy chehrasi, zulfi sabab
Sunbulim, mushkim, gulim, bog'im, bahorim bor edi.

Rashk etib davri falak mendan ayirdi oqibat,
Dardu g'am da'figakim bir g'amgusorim bor edi.

E Xudoyim, bir-da men ko'rsam edi u kunlarim,
Yor visoli borida xush ro'zigorim bor edi.

Sayyido, bir bor ko'rib o'lsam uni, qolmas g'amim,
Bir zamonlar chun visoli guluzorim bor edi.

* * *

Past falak ajratdi oxir guluzorimdan meni,
Dashti g'urbat sori quvdi ko'yi yorimdan meni.

Tevayi sargashtadek sahroda kezsam, ne ajab,
Shu falak zulm aylabon, uzmish qarorimdan meni.

Hajrida sarg'aydim ortiq, ming shukr, sarrofi ishq
Endi bilgay komil oltinni ayorimdan meni.

Qoldi men ketsam-da, ey nomehribon, ko'yingda dil,
Rahm etib, goh so'r dili beixtiyorimdan meni.

Shahri Tiflisning chalipo bog‘lagan tarsolari
Qo‘rqaman, oxir ayirgay yori zorimdan meni.

Sayyido, men ul muhabbat ahlidanman charx aro,
Chun tanir ahli nazar xoki mozorimdan meni.

* * *

Bir agar kirsa u zohid o‘sha mayxona sari,
Yana qaytmas u hecham masjidi vayrona sari.

Netayin, aylamisham bodayi nob ila vuzu,
Yuboring joynamozimni yana butxona sari.

Meni, zohid, o‘ta mayxo‘r deyishing to‘g‘rimi, ayt?
U ne boqmoqki haqorat-la bu devona sari?

Soqiyo, bodayi gulgunga havas qilmas edim,
Yuzin aksi rom etib, tushmasa paymona sari.

Ko‘ribon bodafurushni, chekilar Sayyidingiz,
Axir ul telbamiki, boqsa shu Qur’ona sari?

* * *

Mening hambazmim o‘tgan kun o‘shal sho‘xi sumanbardi,
Uning oydek jamolindan ko‘zim oydin, munavvardi.

Boshimda nash’ayi boda, qoshimda ishvagar dilbar,
O‘rim soch bir qo‘limda, bir qo‘limda mayli sog‘ardi.

Kecham u hur jamolindan bo‘lib kunduz kabi ravshan,
Makonim jannatu ichgan mayim ham obi kavsardi.

Na xohish aylasam ul bazm aro bari edi tayyor,
Na orzu aylasam yordan, bari undan muyassardi.

U tundan avvalam ko‘rgan edim ko‘p tun behishtosor,
Va lekin boshqa bir jannat edi bu tun, muanbardi.

Hisob etsin malak o‘tgan kechamni barcha umrimga —
Uning har lahzasi yuz ming kunu tunga barobardi.

Vafo yurtin sen, ey shohi, qidirma endi Sayyidni,
Ming afsus, u o‘lib ketdi, g‘aribing senga chokardi.

* * *

Bu kun, ey do‘st, chaqirib yurma u sahroga meni,
O‘sha oy yo‘qsa, olib borma tomoshoga meni.

Bo‘lib oshufta parilarga, o‘zim rindu xarob,
N e dey Odamga, olib keldi bu dunyoga meni.

Yuzin aksin ko‘ribon jomda, ko‘ngil lol qoladir,
Solar u yuz rang ila o‘zga tamannoga meni.

U xating bo‘lmasa gar G‘oziyi Bayzoviy[1] kelib,
Talaba aylar edi tafsiri ma’noga meni.

Ketibon sarvi qading soyasi boshdan, xafaman,
Duch etibsan-ku tag‘in ko‘lkayi ra’noga meni.

Qora sochinga o‘raldim qorayib, o‘xshatadir —
Boqibon ahli nazar Ka’bayi ulyoga meni.

Or etar ulfatim-u mendan u gul, chunki, nutay,
Adashib o‘xshatadir Sayyidi rasvoga meni.

[1] **G‘oziyi Bayzoviy** — XIII asrda yashagan fiqh olimi; Qur’onga arabcha sharh yozgan mashhur tafsirchi *(tarj.)*.

* * *

Qochdi husning jilvasindan u quyosh-u anvari,
Ravnaqi husningdir, ey mohim, jahonning zevari.

Oyati "vassayf" qoshingdir, shul tufayli dahr aro
Zulfiqori Haydariy ne — xalqqa uldir aytari.

Bu parilardir jahonning holini hol aylagan,
Xoli xatting, lablaringmu Jamning ul angushtari.

Olam ahlin soldi g'avg'oga shakar, xandon labing,
Qomating oldida hechmas sho'ru g'avg'o, mahshari.

Go'shayi mayxonada basdir biza singan sopol,
Bu falakning bo'lsa bo'lsin ul quyoshdan sog'ari.

Orazing javhar, uning yoninda kun aylar araz,
Bilmas Aflotun-da nedir orazu bu javhari.

Ey Yusuf, kel, bunchalar Sayyidga sen jabr aylamma,
Bo'lmasin ranjida sendan bu jahon payg'ambari.

* * *

Esib epkin, yechar bir-bir qabosin ne-ne gullarni,
Libosindan chiqargay tashga xammom ne go'zallarni.

Alishmasman seni, belbog', o'shal zohid choponiga,
Axir shomdan sahar to sen qucharsan inja bellarni.

Eshit, ey eski tos, oshiq uchun oltindan ortiqsan,
Tegarkan senga, ko'rgansan u nozik, taftli qo'llarni.

Senga, ey xilvatiy, olqish, bor erkan senda avlo ish,
Ki ko'rdik senda ruhlarga fayz bergan amallarni.

Bu bir maskanki, jannatga alishmasman uni zinhor,
Ko‘ribman chunki men unda necha huriy jamollarni.

Agar bo‘lsayding, ey Sayyid,
senam hammomdagi bir tosh,
Olarding esga sen ham ko‘p go‘zal quchgan mahallarni.

* * *

Bu jahonning oxiri ermas fanodan boshqa,
Kimsa dunyoda emas boqiy Xudodan boshqa.

Olami foniyga qo‘l berma, samar yo‘q unda,
Etmagin hech bir talab mulki baqodan boshqa.

Xor bo‘lursan, bevafo oylarga ko‘ngling berma,
Bevafodan ne kelur jabr-u jafodan boshqa.

Senga u shakkar dudoq dashnom berar gohida,
Unga, ayt, ne aylading xayr-u duodan boshqa.

Axtarib ko‘r, kimga ham izhor etarsan dardni,
Hamdam o‘lmas g‘amliga bodi sabodan boshqa.

Har ne zulm etganda ham dildor, chidar oshig‘i,
Yo‘q axir bu bobda bir chora rizodan boshqa.

Oshig‘ ersang partavi shamsi azal husniga,
Ko‘rmagaysan bunda hech ne nur-ziyodan boshqa.

Tur xudovandi ahad ishqinda sen sidq ila,
Hech ne yo‘q bu Ka’abada zavqu safodan boshqa.

Kimda imkon bo‘lsa, u oshiq erur holicha,
Unda bo‘lmas hech talab mehr-u vafodan boshqa.

Surati vojibni orzu aylasang hol aro,
Kelgan imdodga emas Sheri xudodan boshqa.

E'timod et, ul valiyullohga ergash sen-da,
Bo'lmagay ro'zi jazo lutf-u atodan boshqa.

Mumkinu vojib yo'lin, Sayyidi zor, o'ylama,
Ko'rmadim hech ne axir senda xatodan boshqa.

* * *

Ey, sen yuzi samoning xurshid-u nuri tobi,
Bargi labi latifing gulqandi ofitobi.

Yor xatti etdi uni sharmanda ahli dilga,
Ul ohuning mushkimi, yopmish yuzin hijobi.

Shavqi jamoling, e gul, yoshimni to'kdi ko'zdan,
Tomsaydi tomchi-tomchi og'zimga yor gulobi.

Yoqut labingdan sening bir bo'sa istar oshiq,
Miskinga sadaqa ber, ortar tag'in savobi.

Haq zotining isbotin so'ylar xoli zaboning,
Har bargi savsan o'lmish bir ma'rifat kitobi.

Derlar, azob bo'lmagay jannatda , bizga shu bas,
Ul hur ko'yinda dilning ortar mudom azobi...[1]

* * *

El degaylar, rosa uch yuz yilki Odam yig'ladi,
Insof etmay bosh bobomiz asli ko'p kam yig'ladi.

[1] G'azalning davomi topilmagan.

Gar hayotim yetsa to mahshar qadar yig‘lar edim,
Bo‘pti ne uch yuz yil,.. evoh, ul mukarram yig‘ladi.

Yig‘lagan chog‘imda, ko‘r, Kavsar yuzinda yuz malol,
Qora kiyib Ka’ba ham, ul obi zam-zam yig‘ladi.

Avjiga chiqdi fig‘onim, tushdi goh past pardaga,
Jo‘r bo‘lib menga qo‘shiqchi, cholg‘usi ham yig‘ladi.

Jannatiy ko‘yindan ul oyning qolibman ayrilib,
Qayg‘urib jin-u pari holimga , hamdam yig‘ladi.

Ul sarvni xurram aylab ko‘z yoshi birlan ko‘ngil,
Bo‘lmayin, ammo o‘zi bir lahza xurram, yig‘ladi.

Angladim, men yig‘laganda u nigorim ham kelur,
Bir bo‘lib Sayyid-la u ham balki mulzam, yig‘ladi.

* * *

Agar bo‘lsaydi u gulda Yusufning husni gulzori,
Bo‘lurdi naqdi jon birlan jahon ahli xaridori.

O‘shal oltinfurush oyni ko‘rishga men edim mushtoq,
Bosibdi mushtariy, obdan qizib ketmishdi bozori.

Kelur hatto falak har kun Yusufning ul bozoriga,
Tong otguncha yig‘ilgay yulduz ahlin barcha diynori.

Ko‘ngil, sen naqdi ishq narhin borib,
sarrof o‘landan so‘r,
Aniq bo‘lgay mahak tosh-la kumushning qadru miqdori.

Na bilsin bebasarlar qiymatin ash’ori jonbaxshning,
Uni sarrof bilur, Sayyid, so‘zingdir durri shahvori.

* * *

Ko‘zimga qismat o‘ldi tun holing nazorasi,
O‘chganmikin yo charxda toleim sitorasi?..

Yuz kun solur oraga tafriqa toshin falak,
Soz bo‘lsa bir kun oxir ikki oshiq orasi.

Ul qoshi hilolimni charx ayirdi, men netay,
Yondirsa charxni arzigay ohim sharorasi.

Tun kecha xatti xolga shuncha boqqanim uchun,
Ey zulfi qora, ketdi ko‘zlarimning qorasi.

Ketmoq qoshingdan bu ko‘ngil xayolidir mudom,
Bitmas to mahshar o‘sha shamshiringni yorasi.

Bemori ishqqa doru bermog‘ing puch ish, tabib,
O‘lmakdan o‘zga yo‘q uning birorta chorasi.

Ul qoshi yoy o‘qini olma aslo siynadan,
Olsang, xalal beradi elga qon favvorasi.

Og‘zing xayoli birla bo‘ldi yo‘q bu vujudim,
Yo‘q endi hech g‘amim, shudir so‘z oshkorasi.

Bir zaxmi jonolar-la etdi Sayyidin halok,
Jon berdi ikki zaxmi bot — qayonga borasi?

* * *

Yonimda hech yomonlab, ayblamang ul mohi tobonni,
Ko‘ngil sevgan go‘zalda ko‘rmagay hech ayb-u nuqsonni.

Ko‘ngilni zulfi yorga berganimdan ko‘p xotirjamman,
Malomat aylamang siz ham meningdek bir parishonni.

Go‘zal yorim, o‘zing aytgin, yuzingda qora xollarmi,
Sipohi rus bosibdir yo u oliy mulki Usmonni?

Bosibdir Qoratog‘ning askari u Rumni ham birdan,
Vayoki lashkari xatti tutibdir ro‘yi jononni.

Xuboblarmi ko‘zim yoshinda mavj urgan bo‘lib oppoq,
Qora dengizda vopurlar ochibdurmi yo yelkanni.

Ko‘zimga yor o‘qi tekkach, yurak qonimni ichkizdim,
Faqat sodiq kishi shunday aziz tutgay u mehmonni.

Bu mulkda har bir ishratni g‘animat bilgin, ey Sayyid,
Topolmassan o‘shal jannatda ham bu zavqi Shirvonni.

* * *

Ko‘rsa yosh to‘kkay ko‘zim, ey, sen chaman ko‘rki, yoshi!
Sochilur gulshanga ham shunday bulutning ko‘z yoshi.

Bu falak naqqoshi charxga berdimi bir yangi oy,
Ko‘kka yokim soldi aksin mohi tobonning qoshi?

Soyayi qadding, gulim, tushganda sarv og‘ochiga,
Fikr etib, ko‘klarga yetmish ul sarvning tik boshi.

Bu biyobonda qolibman yolg‘iz-u xor-u zabun,
Bormidi Majnunda yo‘ldosh, bormidi suvi-oshi?

Kecha-kunduz mast o‘zi, zohid ishi pinhon riyo,
Ichkini ma’n etsa ul, netgay jahonning avboshi?

Borsa zohidi riyokor Ka’baga, etmas tavof,
Bo‘lsa hamki sangi mayxona agar har bir toshi.

Sayyido, ash’orda Behud senga qanday tenglashar,
Qancha puxta bo‘lsa ham, qolgaymi tobut, tan loshi.

* * *

Bu ko'ngilni ovlamoqqa ovchi ul ko'z, qosh erur,
Tarqalib sirri nihonim, bor jahonga fosh erur.

Sochlarin yoygach go'zal, qoldi ko'rinmay ko'zlari,
Qora o'g'ri ham qaroqchilarga do'st, yo'ldosh erur.

Ne balolar solmadi boshimga bu qon yoshdi ko'z,
Bu ne to'fon, bu ne girdob, bu ne tur ko'z yosh erur?

Ofarin naqshinga, ko'rgay haqbin oshiqlar uni,
Ulgu olgan ul naqshdan oshiqi naqqosh erur.

Eshiking boshiga yetgach ul raqibning odimi,
Bo'ldi vayrona uyim, boshimdagi u tosh erur.

Asragandim toza gavharni sadaf ko'ksimda, hayf —
Barchasin etgan xarob shu qismati avbosh erur.

Bu jahon devonasin bir-bir sanab chiqdik kecha,
Bo'ldi ma'lum, Sayyiding devonalarga bosh erur.

* * *

Yuz ochib, zulmatni yor zulfi dutodan quvdi-ku,
Ne balolarni tag'in yeru samodan quvdi-ku.

Quvdi ko'nglimdan u gul g'ayri sanamlar shavqini,
Butki bor, haq noibi baytul Xudodan quvdi-ku.

Xatti mushkini kelib tutmish go'zal ruxsorini,
Rum diyorin ahli Shom zavq-u safodan quvdi-ku.

Subhidam sarmast chiqib to ayladi tarki niqob,
Ko'm-ko'k osmon ichra oppoq nur-ziyoni quvdi-ku.

Naynavo birla meni ul sho‘x arab qildi asir,
Bu siniq ko‘nglimni nay ham ul navodan quvdi-ku.

Ishq ila olamga Majnunbir sado solgan edi,
Endi mendagi junun oni sadodan quvdi-ku.

Sayyid, ul sho‘x, gulbadan aylab vafosizlik mudom,
Bor umidim rad etib, rohi rijodan quvdi-ku.

* * *

Bo‘lsaydi shu bazm aro, yo Rab, mening-da yorim,
Qo‘lda piyola bilan kelsaydi may suzorim.

Ichsa qadahu qadah bobdayi gulgun u gul,
Gullar ochilib, olam bo‘lsaydi navbahorim.

Kezmas edim bog‘-u rog‘, ezmasdi dardi firog‘,
Bo‘lsaydi bu shahr aro bir yori guluzorim.

Yot elda qolmas edim bo‘lsaydi menda, ey dil,
Ag‘yorni yor ila bir ko‘rmoqqa gar qarorim.

Ul sho‘x muhabbatidan mahrum yaralmish o‘zim,
Men rozi bo‘lgay edim bo‘lganda ixtiyorim.

Sanchmasdi g‘am xorini ko‘nglimga u raqibim,
U guluzor qoshida bo‘lsaydi e’tiborim.

Bo‘lmasmidi vafosiz, Sayyid, u gul shu qadar,
Bo‘lsaydi bevafolik mening-da gar shiorim.

* * *

Gul emasdir chorlagan sahni gulistona meni,
Gul kerakmas, sen chaqir yoningga jonona meni.

Menga bir o‘tlig‘ do‘zax bo‘lgay o‘shal manzil-makon,
Eltsalar sensiz agar behishtu rizvona meni.

Zulfi xatting ishtiyoqi, ey go‘zal, ko‘nglimdadir,
Rom etolmy bog‘ xijil sunbul-u rayhona meni.

Bu dili zorim egallab olgan ishqing otashi,
Aylamish sha’mi yuzing tun-kecha parvona meni.

Mushafu vajhi hasan bobinda men qildim xato,
Tavba aylab ko‘z suray, topshir u Qur’ona meni.

Nuri sargashta bo‘libman Xizru xattdan ayrilib,
Qushlar, ey, elting o‘shal mulki Sulaymona meni.

Sayyido, moyil bo‘libman halqa-halqa zulfiga,
Ne bilayki, u etarmish bo‘yla devona meni.

* * *

Bilmamki, bu na fitnayi davri qamar o‘ldi,
Soqiy, qani u xurshidi may, boq, sahar o‘ldi.

Ag‘yor ila ul g‘unchadahan ichdi mayi nob,
Arbobi vafo hasrat ila xunjigar o‘ldi.

Men dardi dilim arz etayotsam, dedi ul sho‘x:
“Voy-voy, bu-da keldi, biza dardisar o‘ldi!”

Berdim ko‘ngil ummid ila bir boshqa nigorga,
Badbaxtligima boqki, bu undan batar o‘ldi.

Ko‘z yoshim ila sug‘orib erdim bu ko‘chatni,
Ag‘yorga solib soya, menga besamar o‘ldi.

Zolimga yaqin bittasiga arzi hol etdim,
Hech tinglamadi, dil uyi zeru zabar o‘ldi.

Sanchildi tani zorima yor o‘qlari, Sayyid,
Uchmoqqa uning ko‘yiga bu bolu par o‘ldi.

* * *

E, ko‘ngil, u gul uchun nola-yu zor etma tag‘in,
Sen o‘zingni bu raqib oldida xor etma tag‘in.

Sog‘inib, hasrat ila qonga to‘libsan, e, dilim,
Havasi bo‘sayi la’li labi yor etma tag‘in.

Yetar endi, shu qadar bandi junun bo‘lding axir,
Havasi silsilayi zulfi nigor etma tag‘in.

Tez o‘tib ketdi umr, keksa yurak o‘tli hamon,
Sun o‘zing soqiyi charx mayni, xumor etma tag‘in.

Yetar-e, nozli go‘zallar yukini ko‘p tashidik,
Bizin bir kelsa-ketarlargà duchor etma tag‘in.

O‘sha ko‘ydan kim agar o‘tsa, u zot o‘ldirilar,
U taraf borsang, o‘sha ko‘yga guzar etma tag‘in.

Tanu aqling kiyimi, Sayyid, emas ayni mato,
Tani har oqil-u farzonani, or etma tag‘in.

* * *

Har oshig‘i dilso‘xta o‘zin maylida qoldi,
Majnuni siyohbaxt yuragi Laylida qoldi.

Majnun bila ishq maktabida birga o‘qirdim,
Men xatmi kalom etdim, u “Vallayl”ida qoldi.

Vasliga yetar yor etagin tutsa gar oshiq,
Tutdim etagin, fikr-u o‘yim xolida qoldi.

Menmas, nechalar vasli-yu rizvonga yetishdi,
Hajrinda g‘arib chohga tushib, vaylida qoldi.

To‘fonga do‘nib yoshli ko‘zim, yutdi jahonni,
Vayrona ko‘ngil ham u to‘fon selida qoldi.

Sardori junun Qays ila Farhod dedilar, lek,
Sayyid, bari men o‘tgan u yo‘l so‘lida qoldi.

* * *

Qani men ko‘rgan o‘shal dilbari zebo, kim edi?
Yuzi gul, qomati gul, so‘zlari a’lo kim edi?

Uni ko‘rgach, yiqilib qolgan edim hushsizu lol,
Sen axir hushyor eding, ofati dunyo kim edi?

Ko‘ngil unda, yo‘q edi tanda na jon, sabr-u qaror,
Meni shuncha talagan shohidi yag‘mo kim edi?

O‘sha jannat nurini bilmasam, odammi bo‘lay?
Labi Kavsar, yuzi gul, qomati tubo kim edi?

Ey azizlar, kecha biz masti mayi vahdat edik,
U biza soqiy o‘lan yori diloro kim edi?

To‘ladir nuri muhabbat-la yana siyna bugun,
Qani ayt, vodiyi Sinoda tajallo kim edi?

Bu na shodlik, na safodir, na sururu na g‘urur,
U pari, nozli nigori farahafzo kim edi?

Kim edi majlisi urfonni buzib, notiq o‘lan?
Bu zamon soqiyi sungan mayi g‘avg‘o kim edi?

Kiribon tilga, tiriltirdi jahonni o‘sha zot,
O‘zi qanday ruh edi ul, bu Masiho kim edi?

O‘sha qibtiy na bilir hazrati Xizru sirini,
Na bilir o‘sha fir’avn Turu Muso kim edi?

Sen agar voqif esang vohidu vahdat siridan,
Biladirsan u zamon Odamu Havvo kim edi.

Ko‘rayin haqni deya yo‘lda hamon ikki ko‘zing,
O‘sha haq ko‘lkasi, oyinayi ulyo kim edi.

U axir voqif emas qurratul ayn anglamiga,
Ko‘ra olmaski, jamoli haqa bino kim edi.

Ko‘zing och, g‘ofil, azaldan bu g‘uboru bu hayot...
Siz axir kimga qaramsiz, siza mavlo kim edi?

Necha kun olami nosutga kelib, bo‘ldi muqim,
Faqat el bilmadi, hayf, Sayyidi rasvo kim edi.

* * *

Tirikman to, o‘shal mayxonadan uzmam qadam, soqiy,
To‘lat mayga qadahlarni, uzat, ayla karam, soqiy!

Na ofat bu, bu kun men ham muhitda xor-u zor bo‘ldim,
Meni piri mug‘on asrardi doim muxtaram, soqiy.

Quyoshdan billuriy, porloq qadah ayla, sharob toshsin!
Ki bizdan rozi bo‘lsin xotiri Jamshidu Jam, soqiy.

Qoshing mehrobi toqiga boqib, yillar xayol surdim,
Alifdek qomatim zulfing misoli bo‘ldi xam, soqiy.

Fikr aylab dahan sirrin, yo‘qolmish jumlayi borim,
Vujudim bo‘ldi, ko‘r, bir nuqta ishqinda adam, soqiy.

Behishtni berdi Odam donaga, men donayi xolga,
Bo‘lay, qo‘y, xoliga qurbon o‘zim ham, ham dadam, soqiy.

Bo‘g‘ilmish g‘unchadek hajringda g‘amdan xotiri Sayyid,
Shu shishang og‘zin och,
xotirdan ayla da’fi g‘am, soqiy.

* * *

Qo‘y, qarorimni olib, xor, beqaror etma meni,
Xotirim aylab zabun, beg‘amgusor etma meni.

Ixtiyorimni qo‘limdan oldi ul yog‘iy ko‘zing,
Kel, fido jonim senga, beixtiyor etma meni.

Intizorlik dardida o‘ldirmasang, yaxshi bo‘lur,
Mayli, qonim to‘kkinu hech intizor etma meni.

Jon-u dilning rohati, soqiy, faqat mastlikdadir,
Kelki, qurboning bo‘lay, hushyor-u zor etma meni.

Har zamon jallodi charx qatliga tig‘ qayrab turur,
Hech qachon mayxonadan, soqiy, kanor etma meni.

Ey, husn yurtinda podshoh, bir gadoman bunda men,
Bundayin zillatga duch, ey tojdor, etma meni.

Garchi Sayyidman, biroq aslan g‘ulomingman sening,
G‘ussa-yu g‘amga duchor, ey shahsuvor, etma meni.

* * *

Meni tark aylagan avval o‘shal buti chaman bo‘ldi,
Na kiysam ustima, g‘amdan to‘qilgan bir kafan bo‘ldi.

Nechun, ruhi ravonim, ayt, bo‘libsan menga beparvo,
Bilurman, senga o‘rgatguvchi ustoz yosuman bo‘ldi.

Uni rahbar dedim avval, qaroqchi, past bo‘lib chiqdi,
Yusufdek yor ko‘ringan kas bugunda Axriman bo‘ldi.

Jo‘shib mavji balo, Bahrayn bo‘libdir ikki ko‘z,
To‘kilsa yerga, har bir qatrasi durri Adan bo‘ldi.

Ko'ngil oxir sari zulfing aro maqbul makon tutdi,
Kelib iymonga u ham moyili hubbi vatan bo'ldi.

U oy ruxsorining yarmin qaro xat qoplamish nogoh,
Quyosh kirdi hamalga, kecha-kunduz nurli, shan bo'ldi.

Yo'qolgan u Yusuf hajrinda o'rtangan bu Sayyid ham,
Yoqub yoniga borib, sokini baytulhazan bo'ldi.

* * *

Xol-u xating bo'lmish dili vayrona o'g'risi,
Ikki qaroqchi bo'ldi shu bir xona o'g'risi.

Sham'i jamolga yondi ko'ngil, o'pdi la'lini,
Maqsudiga yetishdi bu parvona o'g'risi.

Pok etadir pardozchi yorim yuzini terdan,
Yaxshiki, eslar uni ul durdona o'g'risi.

Ul kecha yor zulfiga tekkandi taroq tig'i,
Yuz pora ko'nglim bo'ldi o'shal shona o'g'risi.

La'li labing xayoliga tushdi dili hazin,
Ayni qaroqchi g'aznayi shohona o'g'risi.

Oldi ko'ngil quchoqqa yor sochini bu kecha,
Zanjiri aqling bo'ldi bu devona o'g'risi.

Xoli xayoli bizni aqldan etdi ayri,
Xirmanida Sayyid-da bo'ldi dona o'g'risi.

* * *

Lablaring o'pdim, ko'ngil bo'ldi mayi nob o'g'risi,
Bo'ldi bu sarrofni ko'r, bir la'li serob o'g'risi.

Ey pari, bog‘bon erur soching jamoling bog‘ida,
Til tilar la’li labing, bu bola unnob o‘g‘risi.

To sahar bedor erurman, band xayolim sehri-la —
Bo‘ldi ul menday g‘arib bemordan xob o‘g‘risi.

Ul dahan ishqiga bog‘liq neki bor, u bo‘ldi yo‘q,
Mushkil ochmoq sirrini ham bo‘lmoq ahbob o‘g‘risi.

Oy yuzinda xatti xoli oldi ko‘nglimni tamom,
Bu qaro ayyorni ko‘rki, bo‘ldi mohtob o‘g‘risi.

Lo‘lilarday fol ochib, zulfiga bog‘latdi tag‘in,
G‘orat etdi bor-budim charxning bu qallob o‘g‘risi.

Qoshlarin toqinda xoli ko‘ngling oldi, Sayyido,
Bo‘ldi har ne o‘g‘ridan badtar bu mehrob o‘g‘risi.

* * *

Dil oshiq o‘lib zulfiga, savdolara tushdi,
Majnun kabi zanjir ila sahrolara tushdi.

To jomga yuzing aksi tushib, ey labi gulgun,
Ko‘p xomtama bo‘ldiyu tamannolara tushdi.

Sirri dahaning so‘yladilar ramz ila har dam,
Bir mubham o‘lan nuqta muammolara tushdi.

Zulfing o‘yi ishq ahli xayolin asir aylab,
Ul shakli chalipo bu kalisolara tushdi.

Durdona tishing qatrayi yomg‘ir ko‘rar erkan,
Tark etdi bulutni, dili daryolara tushdi.

Goh eldan azob, alamu goh ginayi gardun —
Ishqingda boshim, ko‘rki, ne g‘avg‘olara tushdi.

Yondirdi meni sha'shaayi nuri jamoling,
Muso kabi Sayyid bu tajallolara tushdi.

* * *

Bog'ni tashlab bu sahar ul guli ra'no ketdi,
Bog'lar ayrildi safodanki, tomosho ketdi.

Ne ajab, ko'z yoshlarim zam-zam kabi oqdi-yu
Bu makonimdan o'sha Ka'bayi ulyo ketdi.

Ketdi to har halqasi zulfin qo'limdan mening,
Qutqarib umrim, boshimdan o'sha savdo ketdi.

Yana sen, ey dili bemor, bedavo qolding-ku,
Ul o'lik tirgizgani kelgan Masiho ketdi.

Qildi Mahmud qancha ish, bo'lmadi bir oqibat,
Ul Ayozi dil-u jon ham misli Laylo ketdi.

Dedi, minba'd bo'ladir otashi do'zax joying,
U o'zi bog'i jinon, qomati tubo ketdi.

Sayyido, ketdi bari kelgan esa Shirvonga,
Bu shahar qoldi suratday, o'sha ma'no ketdi.

* * *

Ey, ravzayi behishti jamoling nishonasi,
Kavsar u la'li shahdi misoling nishonasi.

Do'zax namunayi olami dardi furqating,
Jannat naimi bog'i visoling nishonasi.

Bulbul navo qilmas edi dard-la yona-yona,
Gul bo'lmasa erdi yuzi oling nishonasi.

Etmas edi biror kim hajarul asvadni tavof,
Yo‘qsaydi agar yuzdagi xoling nishonasi.

Sayyid bosh egib mehrobga, o‘qirmidi namoz —
Gar bo‘lmasa toqinda hiloling nishonasi.

* * *

Yor husniga xat keldi, ko‘paydi savodi,
“Vallayl” oyati shaffof edi ham qaro-di.

Ul gul meni mashhuri ulus ayladi, ko‘r,
Shuhrat qozonibdir Odu qavmi Ayodi.

Mayliga, Xudo, murodiga yetsin u yor,
Gar qatlim esa bunda xayol-u murodi,

Voiz etar inkor boda-yu may nafini,
Mayxo‘rga uning ko‘p g‘arazu kin, inodi.

Zohid ishi zohirda aso ham duodir,
Mal’un ishi nayrang-u, tuganmas fasodi.

Davronda bilim gavhariga yo‘q xaridor,
Daf bo‘lsa edi bu zamonaning kasodi.

Koshkiydi iting otini Sayyid atasang,
Har gal chaqirib, qilgay eding uni shodi.

* * *

Derdimki, ko‘ngil zer-u zabar o‘lmasin, o‘ldi.
Yuz ko‘z yoshi bilan namu tar o‘lmasin, o‘ldi.

Derdimki, xating bosmasa erdi mohi ro‘ying,
Bu fitna ayon davri qamar o‘lmasin, o‘ldi.

Umrim bitibon, bo‘ldi nihoyat shabi vasling,
Etdimki duolar bu sahar o‘lmasin, o‘ldi.

Bordir dili shaydoda mudom sevgi niholi,
Derdimki, u bebargu samar o‘lmasin, o‘ldi.

Ohlar chekibon derdim o‘sha sarvi jamoli
Sarkashlar uchun maddi nazar o‘lmasin, o‘ldi.

Rashkim meni o‘ldiradi u xipchabelim gar
Gulshanga chiqib, zebi kamar o‘lmasin, o‘ldi.

Sayyid, seni etsin gungu lol qodiri subhon,
Derdimki, dili yora kadar o‘lmasin, o‘ldi.

* * *

Ziloliy lablaring “aynan tusammo salsabil”[1] bo‘ldi,
Tilab bir qatrasin qonim bu olamda savil bo‘ldi.

Dahoning sirrini izhor etay deb orzu aylardim,
Tushib so‘z olama, bor-yo‘q uza u xilma-xil bo‘ldi.

Asr payg‘ambari menman, desam bo‘lmas kufr, zero
So‘zim bir vahyi munzaldir, xabarchim Jabrail bo‘ldi.

Desam hijron o‘tinda yondi ko‘nglim, hech ishonmaslar,
Qorong‘u kechalar lek shu’layi ohim dalil bo‘ldi.

Ayirdi ul azizni qismati olam safosindan.
U Yusuf hajrida ikki ko‘zim, boq, ikki Nil bo‘ldi.

Ko‘rib fatton ko‘zin ming g‘amzasin, xafvindan Azroil
Kamandi zulfiga o‘zni urib, miskin, xijil bo‘ldi.

U gulruh foniy olamga zarurat birla kelmishdir,
Azizi olam erkan, Sayyiding xor-u zalil bo‘ldi.

[1] Jannatda oqquvchi buloq.

* * *

Bir-da bazmimda mening u buti Navshod bo'lsami,
Ko'rgay erding, g'amli ko'nglim birda-bir shod bo'lsami.

Ul qadi sarvi ravon boshimga solgach ko'lkasin,
G'ussadan g'amparvarim — ko'nglim-da ozod bo'lsami.

Ey, husn yurtinda podshoh, ayla insof, ne bo'lur –
Ko'rgach ag'yor-la seni, ko'ngil-da barbod bo'lsami.

Zulfi mushkinin tag'in aylarmi jonimga kamand,
Ohuko'z ko'nglim tag'in ovlarga sayyod bo'lsami.

Jabri yor bo'lmish uzun, ey soqiyo, kelgin yaqin,
May uzat — haddi Iroq to xatti Bog'dod bo'lsami.

Ey, labi shahdu shakar, endi o'zing insofga kel,
Sendayin Shiringa oshiq menu Farhod bo'lsami.

Olmamish piri mug'on tarbiyatin Sayyid, ne tong,
Javhari noqis biri ham ahli irshod bo'lsami.

* * *

Ey, do'st, Safo! Etding mudom sen xushsafo meni,
Yerdan ko'tarib olgan u — sen, dilrabo, meni.

Mehringa qurbon bo'layin, ey Ka'bayi ummid,
Bundan keyin boshim seningdir, et fido meni.

Ey shoh, g'ulomingman agar sen qayda bo'lsang ham,
Yozmish azaldan senga g'ulom deb qazo meni.

Har kuniyam bormoqni istarman huzuringa,
Bu istagimdan qaytarar, ammo hayo meni.

May jomi-yu hamd-u sano bobinda yozarkan,
Aylabsan ul tasvirda bir ahli riyo meni.

Ko'yingdan uzoq, necha kun bo'lganda judo men,
Ey do'st, yozib erding, netayin, badado meni.

Yo'lingda shahid bo'lmagunimcha bu jahonda,
Haq aylamasin, ishqilib, sendan judo meni.

Bursang-da dashnom, har so'zing shirin tuyulardi,
Sayyid kabi deb o'ylama sen bevafo meni.

* * *

Ko'rmadi sendek bir oyni charxi minoning ko'zi,
Qaqshamish husning ziyosindan Surayyoning ko'zi.

Zohidi xudbin na bilsin oroazing asrorini,
Zavq olarmi bog'da guldan ko'r, benavoning ko'zi.

Ul kaliso jomidek faryod etar hajringda dil,
Tashga chiqsang sen agar,
chiqqay kalisoning ko'zi.

Joninga jonlar fidodir, sensan, ey tarso go'zal –
Joni Maryam, ruhi Iso ham Masihoning ko'zi.

Garchi kun-tun aylagay fikringni, ey tifli zamon,
Bir alifdan boshqasin ko'rmaydi mulloning ko'zi.

Anbari soroga mayl etmasdi, ey ohunigoh,
Zulfi mushkining agar ko'rsaydi Soroning ko'zin.

Ey, nurafshon oy, seni ko'rganda Sayyid, lol qolur,
Chun qolibdir u hilolabruda dunyoning ko'zi.

* * *

Bu ko‘ngilki, bo‘lsa gar u mahliqodan xoli,
Shubhasiz, bo‘lgaydir u nuri Xudodan xoli.

Tushmish u ko‘nglimga ruxsoring quyoshin nuri,
Bu qorong‘u uy emas har dam ziyodan xoli.

Men adashdim zulfi xushbo‘yingni deb Chin mushki,
Endi bildim, men ham ermasman xatodan xoli.

Tildi qonlig‘ bu ko‘ngilni bizga otgan o‘qing,
Dil bu ehsoning sabab ermas duodan xoli.

Qanday izhor aylasam dardi nihonim gulga,
Chunki gulzor hech emas bodi sabodan xoli.

Xolidir har nuqta o‘z holinda, holsiz biroq,
Lek emas bir nuqta hech amri qazodan xoli.

Boshqalar oshiq emas Sayyid kabi zulfinga,
Nega bo‘lmaydir ular zulfi dutodan xoli?

* * *

Alminnatu lilloh, g‘ama g‘amxor topildi,
G‘am chekkani bir yori havodor topildi.

Yuz shukrin etarman, g‘amu mehnatga sherik bor,
Olamda menga yori madadkor topildi.

Moyildi agar charxi jafokor vafoga,
Ayt, bitta agar yori vafodor topildi?

Tushmishdi mato-yi hunar-u fazli kasodga,
Shod bo‘lki ko‘ngil, ravnaqi bozor topildi.

Qolgandi tarozuyi ko‘zimda duri ashkim,
Shukrim tugamas, durga xaridor topildi.

Yengildir u g‘am bo‘lsa agar g‘amxo‘ri bunda,
Shodmanki, iloji g‘ami dushvor topildi.

Sayyid, o‘sha ko‘yning iti bo‘lmish senga hamdam,
Faryodinga faryod etar ul yor topildi.

* * *

Bu fitna bila etdingiz tag‘in fasona meni,
Yoyib oshiqligim sha’nini bu jahona meni.

Budir u kiprigi o‘qu kamonqoshing, dedilar,
Siz etdingiz tiyri ta’naga bir nishona meni.

Budir bahor dilorosi, deb erdilar vale u
Bahori umrim aro otdi-ku xazona meni.

Xazinalar berib, bu durri gavharimni oldim,
Yeturdi ganji xudovandga ul xazona meni.

Na xanda, giryayi befayz ishim mudom kun-u tun,
Yeturdi kunlarim bu holi za’farona meni.

Firot suvi boshimdan oshdi, ammo tashnadirman,
Yoqibdir o‘tlara holati oshiqona meni.

Ekan g‘amu azob bu Sayyiding yozug‘i, ey voh,
Shu xorlar aro xor etibdir bu zamona meni.

* * *

Bo‘lay qurbon u ko‘zlarga, ko‘ribdir nozli yorimni,
Uni ko‘rgan ko‘z, albatta, olur o‘z ixtiyorimni.

O‘pay bir bor u ko‘zlarni, ular yorimni ko‘rmishlar,
Qilay qurbon u ko‘zlarga qo‘limda har ne borimni.

Agar bog‘da ko‘rib qolsa, ochilgay ko‘zi nargisning
O‘shal chashmi xumorim, qaddi sarvim, guluzorimni.

Rahmsiz, qattol u ko‘zdan e’tibor ko‘rmadim hargiz,
Menam oxir kamaytirdim ko‘zimdan e’tiborimni.

Uning bodom ko‘zin o‘ylab, netay, bemori bo‘lmishman,
Ko‘zim unnobi borib aylasin izhor qarorimni.

Quvongayman, meni ham xok etar endi bu zolim charx,
Sabo yorim eshikiga yeturgay to g‘uborimni.

U kun, Sayyid, kelurmu ham kelurmu boqqa yor ul kun,
Ko‘ray xurram ochilgan u gulimni, navbahorimni.

* * *

Ruxsori garchi chohda jozib bir siymob edi,
Go‘yoki burji Dalvda bir ofitob edi.

Bo‘lmas bahor mavsumi kun Dalvdan ayon,
Qish bo‘lsa ham bu payt, quyosh oliyjanob edi.

Obi baqoni ko‘rgan erdi u chohda Xizr,
Obi hayot ko‘zinda, ammo sarob edi.

Ul Dalvi osimon edi, Yusuf bir ofitob,
Na zulfi sirtmog‘i bo‘yinda, na tanob edi.

Choh uzra suv emas, otash otildi tashqari,
Karvonga u zamon kerakli garchi ob edi.

G‘avvos bo‘lib Bashir u daryoyi chohda,
Hosil u daryodan unga bir durri nob edi.

Sayyidni ayyomi visol tark aylamish tamom,
Go‘yoki bazmi vasli bir xayol-u xob edi.

* * *

Oshiftaligim zulfi siyoh tori bilarmi,
Yo Rab, alamim ko'ngli kengu tori bilarmi?

Bilmas, bilaman yor alam-u dardi nihonim,
To'fonli dilim olim-u ilg'ori bilarmi?

Zulmatda yo'lim qoldi, ko'zim intizoridir,
Ul oy o'zi bilmasa-da, iqrori bilarmi?

Boshin uribon yerga mudom netadi zohid,
Tarsoga ayon ma'niyi zunnori bilarmi?

Voiz dedi mayxo'rni mudom ahli jahannam,
Bor mag'firati, qodiri g'affori bilarmi?

G'ar obid etar jannat ila kavsara rag'bat,
Mayxona ila bodayi gulnori bilarmi?

Sayyid ki, bilar o'z-o'zini ma'rifat ahli,
Bir bor so'rangiz, fayzi dah-u chori bilarmi?

* * *

Netarsan endi, bulbul, bunda gulzor qolmadi,
To'kildi gul qurib, ul xorga bir yor qolmadi.

Qilarding ahli ag'yordan shikoyat, ey ko'ngil,
Shukr ming bor, zamonda endi ag'yor qolmadi.

Bu kun ko'zga chalingay eng xira yulduz — Suho,
Falaklar davri to'xtab, charxi davvor qolmadi.

Yo'qoldi barcha yulduz bu jahonda — chiqdi kun,
Bo'lak kun nuridan shu'layi anvor qolmadi.

Tavajjuh ayladi yuzlar haqiqat shamsiga,
Yetib iqbolga, bunda bir alamdor qolmadi.

U vahdat dengiziga oqdi kasrat suvlari,
Faqat bir Xudo qoldi, boshqa qahhor qolmadi.

Ko'ngil, pok bo'ldi butlardan o'shal baytul Xudo,
U yordan o'zga bu xonada dayyor qolmadi.

Matoyi she'rni, Sayyid, endi bozor eltma, qo'y,
Ketibdir barcha sarrof, hech xaridor qolmadi.

* * *

O'zim ketsam-da ul ko'yda dili g'amparvarim qoldi,
Sari ko'yinda yorimning faqiri muztarim qoldi.

Chaqirdi bazmi ishratdan raqib, u mehribon ketdi,
So'limda ko'za-yu may, o'ng qo'limda sog'arim qoldi.

Ketib Farhodu Majnun, men jahonda qolmisham tanho,
Na bir hamdam, na bir munis, na yor-u yovarim qoldi.

Vujudimni bu dunyoning g'uborindan falak poklab,
Bu olamda mening zotiy o'shal o'z javharim qoldi.

Darig'okim, ajal keldi, menam ketdim bu olamdan,
Raqibi bulhavaslarga u mohi anvarim qoldi.

Diling bir parchasin yopsang netardi sen tobutimga,
Ko'p ishlar bitmayin ketdim, jahonda sevarim qoldi.

Shukr ollohga, jonbaxsh she'rlarim mendan erur yodgor,
Jahonda, Sayyido, na mol, na mulku, na zarim qoldi.

* * *

G‘ayr ila yorim kezur, ko‘rdimki, bir oqqu kabi,
Qolmisham vayronalar burchinda men boshqu[1] kabi.

Kechalar eslab uni zavqim oshar, shavqim jo‘shar,
Bir nigohi bor nigorning bolishi parqu kabi.

Durri dandoni g‘amindan qatra-qatra ko‘z yoshim,
Tiri mujgoni ko‘ringay gavhari lo‘lu kabi.

Men demasman, ichmadim may sensiz, ey nomehribon,
Ichdim, ammo lablaringdan ayri — bir og‘u kabi.

Sarvini bemeva derlar, bo‘lsa bor, ey sarviqad,
Ne axir u ikki meva, ko‘z olur limu kabi.

Ko‘zlaring ohu debon, ey sho‘x, xato qildim tayin,
Hurkibon qochding-ku mendan necha bor ohu kabi.

Ey, ko‘zingning burguti changal uribdir ko‘ksima,
Oh urar miskin ko‘ngilki, nolasi yohu kabi.

Otashin ruxsori uzra zulfin o‘ynar dam-badam,
Butga sirrin so‘ylagan otashboz u hindu kabi.

Sunbuli zulfini malhamdek yaramga surtaman,
Har kecha xushbo‘y yaram ham bir guli shabbu[2] kabi.

Sayyido, kilki musavvirdir Musoning hassasi,
Unga sen hech bir nazira bog‘lama jodu kabi.

* * *

Gar vasli bo‘lmasa, kerak emas bahori,
Yuz ming bahor bo‘lsa ham bo‘lmas ko‘ngil qarori.

[1] Boyqush.

[2] **Shabbu** — shabbo‘y , tunguli *(tarj.)*.

Gulzorga gul kelguncha yaxshiydi bir kelsa yor,
Qolganmi yorning o'zi bir gulga e'tibori?

Sunbul bo'lib xijolat, qolmish egib boshini,
Yorimda ko'rganmi yo ul zulfi mushkbori?

Udi Qumor[1] deydilar yorning qaro sochlarin,
Tolasiga teng emas yuz nofayi totori.

Ey dil, qo'lim uzildi yor zulfi tolasidan,
Qilgay nasib, bir ko'ray, kim bo'lsa beqarori.

Ul sarviqad dardida har yon oqar ko'z yoshim,
Siz daryo demang uni, yo'q yomg'iri, yo'q qori.

Ko'ringay gulday bo'lib qon rangli ko'z yoshlarim,
Men shu bahorni netay, nedir bog', lolazori?

Do'stlar, ko'minglar meni yo'l chetiga, tepaga,
O'tganda tushgay ko'zi shoyadki qabrim sori.

Soqiy, bo'lay qurboning, to'ldir qadahni, uzat,
Sayyid shu payt ko'p garang, bosh og'ritar xumori.

* * *

Intizorlik haddan oshdi, guluzorim kelmadi,
Sunbulim, sarvim, gulim, bog'i, bahorim kelmadi.

Intizorlikda ko'zim yo'llarda qoldi, ey Xudo,
U ko'zim nuri, yuzi xurshidvorim kelmadi.

Ayriliqning o'tida yongay mudom umrim ipi,
Ey ko'ngil, o't yoqki, shami shomi torim kelmadi.

[1] **Qumor** — Hindiston janubidagi viloyat, xushbo'y udlari mashhurdir *(tarj.)*.

Aylading oxir Yusufdan ham judo sen, ey falak,
Dilda Misriy taxti bor, ul tojdorim kelmadi.

Qoldi bu maydonda sargardon boshim bir to'pchadek,
Bunga chavgoni bilan u shahsuvorim kelmadi.

Bermadi tong epkini kelmoqligindan bir xabar,
Sayyido, darmoni chashmi ashkborim kelmadi.

* * *

Ishq ahli erur har biri bir jona xaridor,
Parvona erur sha'mi shabistona xaridor.

Ishq bobida erkakcha tutib ishni u xotin,
Bo'lmishdi go'zal Yusufi Kanona xaridor.

Bor budini bermish, dedilar, gapmi shuyam, eh,
Jon naqdi-la men bo'ldim u jonona xaridor.

Ruxsori nigor jilvagahi husn-u sehrdir.
Hulkar emish u mehri duraxshona xaridor.

O'ksinma, yigit o'ldi debon mehribon ota,
Sen durri yatim, ko'pdir senga mardona xaridor.

Ohim o'ti Mushtariyu charxni yoqadir, gar —
Bo'lganda u oshinoga begona xaridor.

Ashki ol ila yor dudog'in vasf etar erkan,
Sayyid mudom ul la'li Badaxshona xaridor.

* * *

O'ldirar, ko'nglim, sog'inching — u go'zal tovus seni,
Lek umidim bor, falak hech etmagay ma'yus seni.

O‘ylanib, ko‘z solma zohid sallasi, ust-boshiga,
Qo‘y, ko‘ngil, aldatmasin u xirqayi maxsus seni.

Bu diling shisha misoldir, unda ne jon rishtasi,
Haqlidirlar desalar, shu’layi fonus seni.

Ey falak, egri o‘tirsang hamki to‘g‘ri so‘yla, kel,
Ohim etmish sarnigun — mankus,
tag‘in manhus seni.

Vaslida ko‘zni yumib, fikran jamoliga boqay,
Hajrida qayg‘usiga, ko‘nglim, etay mahbus seni.

Bormikan dil yayratar yer dilbarimning ko‘yiday,
Ey sabo, to‘rt yon jo‘natdim, ayladim josus seni.

Bunchalar hijronda afsus chekmagin, ey Sayyido,
Afsus, o‘ldirgay aniq oxirda bu afsus seni.

* * *

Naylayin gulshannikim, ul guli axmar ketdi,
Ko‘z yoshim go‘yo qurib, sarv-u sanobar ketdi.

Ohu nola chog‘idir, ayla fig‘on, ey bulbul,
Yuz tikan qolmish bu bog‘da, guli gavhar ketdi.

Ketdi ul jon javhari, sinmish mening rang-ro‘yim,
Ko‘p talofot yog‘di boshga, o‘sha javhar ketdi.

Men-ku bundan so‘ngra ham etgum necha nuqsonlar,
Voyki, ul oy ham yonimdan sal mukaddar ketdi.

G‘arq etib ko‘z yoshga kel-da, o‘tli ruxsoring och,
Bo‘ldi qurboning, yonimdan ul samandar ketdi.

Yangi oydek qoshlarin yopgach qaro sochlari,
Oh, bulut ostida u mohi munavvar ketdi.

O‘pganimda hurvashimning labi jonparvarin,
Xotirimdan havasi chashmayi kavsar ketdi.

Ketdi u yosumaniy zulf, qoldi g‘am yo suman,
Ya’sima bois bo‘lib, oh, u sumanbar ketdi.

Ketdi Sayyid yor ko‘yinda aylanib bir toshni,
Hayfkim, Ka’ba tavofiga u kofir ketdi.

* * *

Netar qon yig‘lasang, ey ko‘z, o‘shal huriliqo ketdi,
Dilim oromsiz-u g‘amgin etib u dilrabo ketdi.

Ko‘ngil xilsatsaroyi vaslida sardor ekan, birdan
Otib u oy firoqiga, etib zor-mubtalo ketdi.

Ko‘zimdan xoki poying oldi ashkim seli to‘fonin,
Qurib ko‘zlar, ajab, undan surilgan to‘tiyo ketdi.


Ne tong chiqsa fig‘onim charxga har bir ustixonimdan,
Ki bu singan so‘ngaklardan bu kun u mo‘miyo ketdi.

Gulandom zulfi hajrinda tinimsiz yig‘ladim, oxir
Oqib tushdi ko‘zim, evoh, ki undan oq, qaro ketdi.

U oydan ajralib, Sayyid, hayotim qoldi zulmatda,
Menimcha, ufqi olamdan bu kun nuri Xudo ketdi...

MIRZO ALIAKBAR SOBIR





XO‘P-XO‘PNOMA

MILLAT QANCHA TOR-MOR BO‘LSIN, NE ISHIM BOR?!

Millat qancha talosh bo‘lsin, ne ishim bor?!
Dushmanlarga muhtoj bo‘lsin, ne ishim bor?!
Qo‘y, men to‘q bo‘lay, o‘zgalar-la ishim yo‘qdir,
Dunyo-yu jahon och bo‘lsin, ne ishim bor?!

Sas berma, yotganlar bid’atda, qo‘y, yana yotsin,
Yotganiga rozi bo‘lmasa, kimsa uyg‘otsin,
Bitta-bitta botsa-da, haq dodimga yetsin,
Man omon bo‘lay, jumla jahon botsa-da botsin.

Millat qancha tor-mor bo‘lsin, ne ishim bor?!
Dushmanlarga muhtoj bo‘lsin, ne ishim bor?!

Solma yodimga suhbati tarixi jahonni,
Ayyomi salafdin dema so‘z bir-da falonni,
Bor bo‘lsa, keltir, olayin do‘lmani, nonni,
Istiqbolni ko‘rmoq ne kerak, umr, axir, foniy.

Millat qancha tor-mor bo‘lsin, ne ishim bor?!
Dushmanlarga muhtoj bo‘lsin, ne ishim bor?!

Vatan-u avlodni qo‘y holiga, ovora to‘lg‘onsin,
Chirkin razolatda qo‘li, boshi bulg‘onsin,
Til avrat bo‘lsa, badtar bo‘lsin, o‘tda yonsin,
Faqat mening ovoza-yu shonim yuksalsin.

Millat qancha tor-mor bo‘lsin, ne ishim bor?!
Dushmanlarga muhtoj bo‘lsin, ne ishim bor?!

Har millat etar dunyo sahnida taraqqiy,
Aylar har bir manzil-u ma’voda taraqqiy.

Yurgan-yotganimda tushar yodga taraqqiy,
Biz ham etaylik olami ro‘yoda taraqqiy.

Millat qancha tor-mor bo‘lsin, ne ishim bor?!
Dushmanlarga muhtoj bo‘lsin, ne ishim bor?!

UL KUNKI, SENGA XOLIQ ETAR LUTF BIR AVLOD

Ul kunki, senga xoliq etar lutf bir avlod,
Bo‘lsin yuraging shod!

Folbinga olib borki uni, aylasin imdod,
Ko‘z tegmasin, hayhot;

Sog‘dan so‘lga, so‘ldan sog‘ga sol bo‘yniga xantal,
Qo‘y shinni maattal;

Isiriq tutatib ming bor ayla muqaffal,
Qizdir uni ol-ol;

Gar tegsa sovuq, isitmada bo‘lsa-da bemor,
Dorisiga o‘tu o‘lan bor;

Ko‘rsatma tabibga u jigargo‘shangni zinhor,
Ketsin u murdor;

Yig‘lasa go‘dak dardiga axtarma davosin,
Chaqirgin onasin;

Qo‘qitsin u ham qarg‘ab bola-chaqasin,
Bo‘g‘sin sadosin;

O‘rgat unga, albatta, o‘zing bir necha mavhum,
Maxdud ila ma’sum;

Shu holda yashab o'tar dunyoda u mazlum,
Har holati mazmum.

Bir-bir til ochganda unga ta'lim ayla ravon,
Hech bo'lma pushaymon.

Bildir unga ming turli qabhatlarni har on,
Olsin shunday unvon.

O'n yoshga yetguncha o'g'loning aylama g'aflat,
Yo'lla necha bid'at.

To o'n beshga yetguncha topar ishda mahorat,
Ham aylayur odat.

Yuborma uni maktabga, qotirmagil boshin,
Oqizma ko'z yoshin.

Pand-u nasihat birlar kasb etar maoshin[1],
Saqlar o'zi boshin.

Rohat neligin o'rgat, u qilsin-da maishat,
Kazzoblikni o'rgat.

Vatan avlodini qo'ygil, ovora to'lg'onsin,
Chirkin safolat-la, mudom boshi bulg'onsin,

Millat qancha tor-mor bo'lsin, ne ishim bor?!
Dushmanlarga muhtoj bo'lsin, ne ishim bor?!

Ul kunki, senga xoliq etar lutf bir avlod,
Bo'lsin yuraging shod!

Isiriq tutatib ming bor ayla muqaffal,
Qizdir uni ol-ol.

Sen unga qimor o‘rgat, qatl etmoqqa qarat,
Xushdir bundoq san’at.

Mol-dunyo sevib aylasin har kun seni xursand,
Sog‘ bo‘l, aziz farzand!

Uyda topilur endi, axir, choy, palov, qand,
Kimdir senga monand?

Nogoh hibsga olinsa, tutsa seni vahshat,
Qoziga ber pora-yu rishvat.

Sot bor-yo‘g‘ingni, pullaringni olsin advokat,
Bechora oqibat.

Oxirda qolursan hasratda, tansiq jamoli,
Cho‘ntak ham puldan xoli.

Qoldingda o‘g‘ilsiz, endi bir boshla savolni,
Nasihat senga havola.

Top rizqning halolin,
Ey, boshi baloli.

Yig‘ kechmishni, qolni,
Mahol o‘qimoqdan
Topmoq bu jalolni!..[2]

BILMAM NE KO‘RIBDUR BIZNING O‘G‘LON O‘QIMOQDAN?!

Bilmam ne ko‘ribdur bizning o‘g‘lon o‘qimoqdan?!
Ding bo‘ldi qulog‘im!
Jurnal, gazeta, har neni hayron o‘qimoqdan
Qiynaldi ushog‘im!

Aqlin oborib, bas ki, o‘xshar kunda qaroga,
Yo Rab, ne hamoqat!
So‘z etmas asar, chora qoldi faqat duodan,
Tadbir ayla, o‘rgat!

La’nat senga, ey iblis, seningdir bu jaholat,
Etding ne xiyonat!
Sendan tarqalibdir bizning uyda bid’at,
Ey moyai hiylat!

Tutsin, ko‘rayin, ko‘zlaringning oq-u qarosin,
Ey hamsari badxoh!
Suvda cho‘kmas, o‘tda yonmas balosan,
Yoqsin seni Alloh!

Bu bola o‘qitmoqqa etding meni targ‘ib,
Xo‘p aylading ig‘vo.
Endi nedir fikring? Ishimiz bo‘ldi bu tartib,
Yo‘q chorasi aslo.

Hayhot ki, tadbir shu bo‘ldi holi xarobga,
Zoil bo‘ldi aqli.
Darsga, gazetga, maktabga, jurnalga, kitobga
Moyil bo‘ldi aqli.

Yiqding o‘yimni, aylading avlodimni zoye,
Ish o‘tdi mahaldan.
Men anglamadim ilm nadir yoki sanoye,
Kechdim bu amaldan!

Istadimki u ham men kabi bir hurmatga yetsin,
Dunyoga belansin;
To qo‘l kuchiga molik bo‘lib shuhratga yetsin,
Ovoza kuylansin.

Bir vaqtidir bugun, bo‘lsin Rustami davron,
Bir ot qozonsin.

G‘oratlar etib toki topsin sar-u somon,
Bir neni-da topsin.

Puch aylading, iblis, bu go‘zal, sodda javonni!
Tilbilmas o‘g‘il, voy!
Rangi sarg‘aydi, qolmadi aslo yarim joni,
Bir kulmas o‘g‘il, voy!

Oh, noqobil o‘g‘lim, ne og‘ir mashqqa tushibsan,
Koshki, kechsayding!
Foydasi yo‘q, olma talab ishqqa tushibsan,
Bu g‘amni ichsayding!

Ey, ikki ko‘zim nuri, o‘qimoqdan hazar etgin,
Solih valad bo‘l, kel!
Ot uni, hunar o‘rgan, sen meni baxtiyor etgin,
Ishda po‘lot bo‘l, kel!

Basdir, o‘qiding, oz qoldiki joning ado bo‘ldi,
Bu ishdan qo‘l tort!
Yozmoq, o‘qimoq boshingga badtar balo bo‘ldi,
Yozishdan qo‘l tort!

Ming ilm o‘qirsan, so‘z bilarsan — hurmating bo‘lmas
Bu dorul jahonda.
So‘z bahrida gavhar bo‘larsan — kimmating bo‘lmas
Bul xasta zamonda.

Yo‘q, yo‘q, boqdim fikringga, sendan o‘g‘il chiqmas,
Joyingmi jahannam!
Milt-milt o‘qimoqdan, inson, bir tanga pul chiqmas!
Ming‘irla damodam,
Ilm olgin har dam,
Bo‘l qissaga hamdam.
Umring bo‘ladir kam,
Dushman senga olam!..

MOHI KAN`ONING BOTAR, EY PIRI KAN`ON, G‘AM YEMA!

Mohi Kan’oning botar, ey piri Kan’on, g‘am yema!
To gulistoning bo‘libdir baytul-ahzon, g‘am yema!
Ey dili mehnatzada, shod bo‘l, toshsin g‘urur,
Kasbki, nomardlar qilar afkori vijdon, g‘am yema!

Bo‘lmadi maqsudingizday davr-u charxu kajraftor,
Qolmagaydir bundoq holat uzra davron poydor,
Qismatingdir aylamoq g‘am kun ham tun nola, zor,
Ey ra’iyyat, ey faqir-u yo‘qsil, dehqon, g‘am yema!

Subhidamdan tur oyoqda, shomgacha chek zahmatni,
Kuchlilardaan ham eshit har xil fahsh-u tuhmatni,
Sen sokin bo‘l, aybi yo‘q, qo‘y, kuchli totsin lazzatni,
Qo‘y, seni xor aylasinlar xon-u a’yon, g‘am yema!

Ishla, qo‘y, qadding bukilsin, ishla, taning terlasin,
Ishla, och qol, och bahoyim toq ayoling chorlasin,
Zulmdan faryod-u dodlar etgan tiling g‘o‘ldirasin,
G‘orat etsin kuningni mulla va boy, xon, g‘am yema!

Ko‘rgan bu umring og‘irdir, benavo, ohu fig‘on,
Bundoq pinhon sirlar bo‘lmas senga hargiz bayon,
Mulla Nasriddin, “Lison ul g‘ayb”ga bo‘lding tarjimon,
Ruhi pokingdir senga har dam sanoxon, g‘am yema!

QARILIKDAN SHIKOYAT

Afsus qaridim, hassam oxir tushdi qo‘limdan,
Yuz hayf javonlik!
Zamon ayladi ojiz meni, qoldim amalimdan,
Chekdim ne ziyonliq!

Solganda ul yoshlikda kechgan kunlarni yodga,
Dardim bo'lar o'n qat!
Yo Rab, yetsaydim bir bor dunyoda murodga?
Hayhot va hayhot!

Soqol oqarib, bel bukilib, tinma zinoni!
Ovqatim bo'ldi talx;
Xotin ham yopar soqolimga kunda xinoni,
"Rişiki, barang alx..."[1]

Yod bo'lsin u kunlarki, istagancha kezardim
Sozanda Oruğnan;
Ming ojiz-u bechoralarning boshin ezardim
Ushla, yumrug'idan..

Bu sohada har lahza etib sa'i taloshni,
Sarvat qozonardim;
Tahsil aylabon qo'l kuchiga amr-u maoshni,
Davlat qozonardim.

Qo'l-u oyoq sust boldi endi qarilikdan,
Bir dardoshim yo'q!
Ko'rmaysanmi ahvolimni, tushdim asovlikdan,
Faryoddoshim yo'q;

Hech yerda sasim yo'q,
Otash nafasim yo'q,
Fikrimda ul yoshlik,
Boshqa havasim yo'q!..

BOKU QASHSHOQLARIGA

Bu charxi falak teskari davron etar endi,
Qashshoq ham o'zin doxili inson etar endi.

[1] **"Risi ki, barang alx"** — soqqol ki, xinoga, rangga qoldi, ishing rasvodir *(fors maqoli)*.

Bo‘lmas bu ki, har amrga bir g‘orat etar endi qashshoq,
Davlatli bo‘lgan yerda jasorat etar qashshoq,
Osuda nafas olmoqqa ham jur’at etar qashshoq,
Yoinki huquq uzra adovat etar qashshoq...

Bu charxi falak teskari davron etar endi,
Qashshoq ham o‘zin doxili inson etar endi.

Qashshoq, menga bir so‘yla, nedan hurmating bo‘lsin?
Axir, ne sabab so‘z demoqqa qudrating bo‘lsin?
Qo‘l tort, nechuk davlatlilarga xizmating bo‘lsin,
Oz-ko‘p senga berganlariga minnating bo‘lsin!..

Bu charxi falak teskari davron etar endi,
Qashshoq ham o‘zin doxili inson etar endi.

Davlatli omondir, o‘zingni solma baloga,
Qashshoq so‘zi haq bo‘lsa-da, boqma u sadoga,
Yo‘l berma nafas olmoqqa hargiz fuqaroga,
O‘z sha’ningni puch aylama har besar-u poyga!..

Bu charxi falak teskari davron etar endi,
Qashshoq ham o‘zin doxili inson etar endi.

Aldanma, faqirning bo‘lolmas aql-u zakosi,
Chun yo‘qdir uning sening kabi libosi,
Yo‘q sarvati, yo‘q davlati, yo‘q don-u dunyosi,
Bor eski chorig‘i, tag‘in bir yetim navosi...

Bu charxi falak teskari davron etar endi,
Qashshoq ham o‘zin doxili inson etar endi.

Istasang agar bo‘lishni osuda jahonda,
Tokim bo‘lmassan g‘amlarga oluda jahonda–
G‘arib yuziga boqma bu behuda jahonda,
O‘z fikringni bil, bo‘l tag‘in osuda jahonda...

Bu charxi falak teskari davron etar endi,
Qashshoq ham o‘zin doxili inson etar endi.

Ko‘r millatning dardini, axtarma davosin,
Qo‘l tutma yetimning boshiga, keskgin sadosin,
Zinhor qo‘yib dahrda bir xayr binosin
Yod aylama, shod aylama millat fuqarosin...

Bu charxi falak teskari davron etar endi,
Qashshoq ham o‘zin doxili inson etar endi.

JAHD AYLA, SEN ANDOQ NAZARI XALQDA POK BO‘L

Jahd ayla, sen andoq nazari xalqda pok bo‘l,
Maxluqni inontir.
Hissiyoting olov bo‘lsa, atvorda hok bo‘l,
Yoq olamni, yondir.

Xalqning nazarin jalb ayla toatga, taqvoga,
Mashg‘uli o‘yin bo‘l.
Har hiylai fitnaga kir, albatta, rasvoga,
Iymonga ustun bo‘l.

Sa’y aylaki, soqqol uzanib uch chorak bo‘lsin,
Qalpoq unga nisbat.
Qursoqda bilursaki, o‘n arshin kerakbo‘lsin,
Tafsilga na hojat...

Qo‘yma yerga tasbehni, qo‘l tortma duodan,
Takbir o‘qi doim.
Majlisda kamtar tut o‘zingni, bo‘l injabadan,
So‘z so‘yla muloyim.

Ishda g‘o‘dayib mazhab-u iymondan surunding,
Ko‘p muhtaram bo‘lding.

Endi nazari xalqda sen pok ko‘rinding,
Ahli karam bo‘lding.

Boshdin-oyoqqa amnu omon bo‘ldi vujuding,
Zuhd ila bitishding.
Duo tilaguncha, hamon to‘ldi vujuding,
Maqsudga yetishding!

Vaqt keldiki, endi etasan olamni talon,
Tut, qo‘yma qochganni!
Hukm endi seningdir, yana ko‘p ishlarga sarson
Qil mushkul ochganni.

Tul xotinga bedod ayla, ayla xiyonat,
Xafv etma ajaldan.
Makr bo‘lsa, o‘zing qil, o‘qi shaytonga ham la’nat!
Shod bo‘l bu amaldan.

Qo‘l tortma makrdan,
Qaytma bu yo‘ldan,
Iymonni bersang-da,
Berma pulni qo‘ldan!..

ETDI BU FALAK HAR KIMGA BIR TAVRI YOMONLIQ

Etdi bu falak har kimga bir tavri yomonliq,
Yuz hayf, o‘tgan kun!
Har bir ish uchun xotimabaxsh bo‘ldi bu yorliq,
Bo‘ldik yana mumnun.

Shukr ayladik Allohga, yetsa ziyon ham biroq,
Osuda biz bo‘ldik.
Chaldi bizga bir o‘zga kuy ila chirilloq,
G‘amli kunga qoldik.

Na rahm aylar, sharm qilar, yig‘ini anglar,
Bundoq falak bo‘lmas!
Yo‘q bundoq ikki tilli, yomon yuzli jafokor,
Bir zarra uyalmas!

Berdi bu hamma qo‘shnilarga san’at-u davlat,
Dunyo, sanga la’nat!
Saslandi, ketdik, siz yoting hammomda rohat,
Bizga bu zahmat!

Islom bolasi yotsin, oyog‘inda falaqa,
Bu navdir ta’lim.
Ursin bularning boshiga ham mirzo tayoqda,
Biling uni olim.

E-voh, bu falak qo‘ydi bizga luqmai hasrat,
Qoldik biz odamsiz!
Bermas tag‘in bir parcha nonni topmoqqa fursat,
Ket, yot deya shamsiz!

O‘z bilganini qildi musulmonlarga davron,
Qo‘l ishdan uzildi.
Chaq-chaq boshin og‘ritdi, boshin yanchdi tegirmon,
Ish masxara bo‘ldi.

Bu charxi sitamkorning omon masxarasidan!
Sho‘rlik, bolang o‘lsin![1]
Boqdi bu musulmonlarga g‘am panjarasidan,
Charxning yuzi do‘nsin!

Avval bu falak jumladan olgandi yemoqni,
G‘am kosasi toshdi.
Oxirda bizning boshimizga urdi to‘qmoqni,
Dard boshdan oshdi.

Bir o‘ris ko‘rinsa bo‘ldik xor yoninda,
Qo‘ymiz, qurbonliq biz.

Kesmas so‘zimiz bir puldir sardor yoninda,
Bandi nodonlik biz?!
Tangri bunga shohid —
Qo‘yu qurbonliq biz...

QO‘ZG‘OLMA, OMONDIR, BOLAM, G‘AFLATDAN UYG‘ONMA!

Qo‘zg‘olma, omondir, bola, g‘aflatdan uyg‘onma!
Ochma ko‘zingni, xobi jaholatdin uyg‘onma!

Laylay, bolam, laylay!
Yot, qol sokin, laylay!

Aldanma, uyg‘oqlikda farog‘at qandoq, hayhot!
G‘aflatda yotganlar kabi lazzat shundoq, hayhot!
Bedor bo‘lganning boshi salomat undoq, hayhot!
Yot boshingda, yot, bastari rohatdan uyg‘onma!

Laylay, bolam, laylay!
Yot, qol sokin, laylay!

Ochsang ko‘zingni, ranj-u mashaqqat ko‘rajaksan,
Millatda g‘am, ummatda kudurat ko‘rajaksan,
Solgancha nazar millatda hayrat ko‘rajaksan,
Ur boshiga uyquni, g‘aflatdan uyg‘onma!

Laylay, bolam, laylay!
Yot, qolsokin, laylay!

Bir lahza uyg‘onguncha, qutqar joningni, uxla,
Tut nashani, mayl ayla nash’angni, uxla,
Ozgina so‘ng “ber-ber”ga sol fe’lingni, uxla,
Yillarcha shior etganing odatdan uyg‘onma!

Laylay, bolam, laylay!
Yot, qol sokin, laylay!

Ko‘z nuridir uyqu, uni quvmagin ko‘zingdan,
Yo‘l berma, mabodo chiqsa bir on so‘zingdan,
Ammo shunday uxla, hatto ket o‘zingdan,
Ofoqni tutgan sho‘ri qiyomatdan uyg‘onma!

Laylay, bolam, laylay!
Yot, qol sokin, laylay!

TAHSILI ILM

Tahsili ilm etmakim, ilm ofati jondir,
Ham aqlga ziyondir.
Ilm ofati jon ekani mashhuri jahondir,
Maorifi zamondir.

Otangning pandini eshit, ey g‘o‘r bolajonim,
Yoqma g‘amda jonim!
Xush ul kasgakim, yel uchirib, tog‘da cho‘pondir,
Osuda hamondir!

Ilm ichra xato bo‘lishin shundan bilarmankim,
Qilar nola har kim,
Ilm olganning kufri tillarda bayondir,
Takfirga nishondir.

Maktab senga xush kelmasin, ul joyi xatarnok,
Kirma unga biroq.
Maktab deganing qaydi til-u bandi zabondir,
G‘oratkori jondir.

Siyohdon nedir?
Ul qalbi qora, huqqai dilxun,
Bo‘lma unga maftun!
Oq kunlarni etma qora,
Alloh, omondir!
Bu rang yomondir.

Daftar nedir?
Ul nochorlarning hamdam-u rozi,
Xafvga to'la yozuv.
Shoirlarni telba etib, ovora qo'yg'ondir,
Bu matlab ayondir.

Ul boshi kesik qalamning tutma belindan,
Xafv ayla tilingdan.
Oxirda yoqar joningni, bir zahri ilondir,
Makri ayondir.

Qog'oz senga oq ko'rsatar o'z siynai sofin,
Tinglama lofin.
Ko'p tez qorayar qalbi, murabbiysi yomondir,
Bir olovda yon, tur.

Ul zohiri nurli, yuragi qora qalamdir,
Mirzolarga hamdamdir,
Qalbingda yotgan siringni bilgancha yozgondir,
Ayyori zamondir.

Derlar o'qiganlar: o'qimoq yaxshidir, ammo
Bor bunda muammo...
Yaxshi nazar etsa-da, saranjomi yomondir,

Har odimi qondir;
Lağlağı[1], omondir,

Qızdırmalı[2], yon tur,
Sırtıq[3], Mozalan[4], dur!

---

[1] **Laglag'** — "Molla Nasraddin" jurnalida asosan S. Mamatqulzoda ishlatgan yashirin imzodir.

[2] **Qızdırmalı** — "Molla Nasraddin" jurnalidagi she'rlarda M.H. Zeynalovning taxalluslaridan biridir

[3] **Siriq** — "Molla Nasraddin" jurnalida ishlatiladigan yashirin imzolardan biridir.

[4] **Mozalan** — "Molla Nasraddin" jurnalida eng ko'p A. Haqverdiyev istifoda etgan taxallusdir.

Hop-hop[1] tilga tushdi,
Ish mushkulga tushdi,
Chunki belga tushdi,
Endi palapondir...

OTA NASIHATI

Basdir, ey o'g'il, bo'sh yerga bu qadar chopishma,
Qoning ado bo'ldi!
Kunduz, kecha shaxd aylabon darsga yopishma,
Joning ado bo'ldi!

Bu shahr aro ko'pdir, ko'rarman, ilm o'qiganlar,
Ular ne topibdi?
Devonadir molini bu yo'lga qo'yganlar,
Go'yoki, yotibdi.

Ko'pdir zarari odam uchun ilm o'qimoqdan,
Sen eshit, aytay man:
Avval buki, maktabda bo'lur talx yemog'ing,
Ey diydasi ravshan!

Bir kun ko'zingning nuri ketib, ko'r bo'lajaksan,
Joning ham sog' bo'lmas;
Ranging sarg'ayib, oxiri rangpar bo'lajaksan,
Bag'ringda yog' bo'lmas.

Oxirda, tutoq, o'lmading universitetga ketding,
Qutqarding o'zingni.
Insof bilan ayt, bu ishni yaxshimi qilding?
Bir tut bu so'zingni!

Sen ham aytarsan, sotsialistman yoki demokrot,
Bilmam nega dersiz.

[1] **Hop-hop** — M.A. Sobirning eng mashhur taxalluslaridan biridir.

Xalqning o‘yini yiqdi chiqib bir necha badzot,
Oh, oh, e tayinsiz!

Har bir gado oz-moz o‘qib, odam bo‘libdir,
Rang-ro‘yini bilmas.
Cho‘pon-cho‘liq o‘g‘li boy bilan hamdam bo‘libdir,
O‘z joyini bilmas.

Gohi shohga bir ta’na qilar, goh vazirga,
Voh, boq, turgin nari!
Gohi mulloga shak aylar, gohida pirga,
Kofir bo‘lar bari.

Bundan so‘ngra tovba qil, maktabga ketma,
Bir on dam ol, o‘g‘lim!
Hech boqma muallim so‘ziga, hech amal etma,
Axir uyal, o‘g‘lim!

Chiq toqqa, toshga, yo‘l kezibon g‘oratga boshla,
Oxirda qochoq bo‘l.
Sol bir xaltani bo‘yningga, bu odatga boshla.
Hammol-u g‘amti bo‘l,
Xalqdan tilamchi bo‘l,
Har ishda sayoq bo‘l,
Bor jonga ziyoni —
Mehnatdan uzoq bo‘l!..

OH AYLAGANIM NASH'AYI KALYON[1] UCHUNDIR

Oh aylaganim nash’ayi kalyoning uchundir,
Qon yig‘laganim qahvai finjoning uchundir.

Va’z aylaganim hadyai ehsondan shundoq,
Undan g‘arazim kissai hamyoning uchundir.

[1] **Kalyon** — “kalyan” (ruscha), giyohvandlarning nasha chekadigan uskunasi.

Sargashtaligim xirmoni bug‘doylar uchun,
Oshuftaligim sarvatu somoning uchundir.

Tarj aylaganim siynamni har kun qadamingda, —
Qosh qoqmog‘im supradagi noning uchundir.

Bemor tanim kabob-u go‘sht alamidan,
Qoning suyarim do‘lma,
bodinjoning uchundir.

Og‘zim to‘ladir ne’mati firdavs deganda,
Taboqda qora ko‘zli fisinjoni uchundir.

Vasf aylaganim zavq-la anhori behishtni
Kavsar mazali sharbati rayhoning uchundir.

Ko‘rdimki, palov pishmoqdadir,
ochimdan o‘ldim,
Bildim, bu tadorik shabi ehsoning uchundir.

Oh, bir bor ko‘rsaydim seni, ey sevgili voris,
Maylim sen ila dasti zarafshoning uchundir.

Xonimlarga jon ber, ko‘ngil, boqma fuqaroga,
Siynamda seni bog‘laganim oning uchundir.

Ohing sharori etmas asar bir kasga, Xo‘p-xo‘p,
Bu ot senga shundoq talashgan joning uchundir...

Yon, tinma, yo Alloh!
Qon, tinma, yo Alloh!
Haq so‘ylamoq bo‘lsang,
Do‘n, tinma, yo Alloh!..

"HAYOT"NING "QO'P-QO'P"IGA JAVOB

Bu murg'ak ki, nuri basar-u shirai jondir,
Tobi tan-u oromi dil-u ruhi ravondir.

Ming zahmat ila o'ylaganim toza javondir,
Yuborma buni maktabga, rahm ayla, omondir!

Qo'y, ko'chada noz ila xirom aylasin o'g'ling!
O'zi sevgan amrga qiyom aylasin o'g'ling!

Bu bulbuli sho'rida, bil, pokiza nafasdir,
Oludai g'am etmoqqa moyili behavasdir,

Shunchalik ketib maktabga, bilganlari ham basdir,
Maktabdir oti, lek haqiqiatda qafasdir.

Qo'yma, kun tug'ilganda maqom aylasin o'g'ling!
Tongdan bul vayronada shom aylasin o'g'ling!

Maktabga borib darsin o'qiganni ko'rarsan,
Nutqi buzilgan toza javonlarni ko'rarsan.

Jismda qotib qolgan ul qonlarni ko'rarsan,
Orifsan, o'zing yaxshi-yomonlarni ko'rarsan.

Achingma, ketib fikrin unda xom etsin o'g'ling!
Umrin g'ami ilm ila, bas, tamom etsin o'g'ling!

Bovar etolmam ilmdan bo'lsin farah tortiq,
Ilm ortiq bo'lganda, bo'lar g'am ham ortiq.

Istarsan, agar o'g'ling etsin kasbni ko'p xor,
Ham sarvati zoye bo'lar, ham mehnati bekor.

Targ'ib ayla, bu kasbni harom aylasin o'g'ling!
Bir nom chiqarib, shuhrati tom aylasin o'g'ling!

Bechora kishi, qamoqqa boshin halok etur,
Axir, menga bir so‘yla, ko‘ray ilm o‘zi nedur?

Bilmoq ne kerakkim, bu orifdur, bu-da boydur?
“Havvaz”, so‘ra “hütti”, bu nima xuydir, u nima ro‘ydur?

Qo‘y, pul qozonib, sadri maqom aylasin o‘g‘ling!
Boy-xonlar ila daxli kalom aylasin o‘g‘ling!

“Gop-gop” kabi befoyda ahli qalam bo‘lma,
Bo‘l “Başıqapazlı”, vale “Bidardü” “Qam” bo‘lma.

“Qızdırmalı” bo‘l, “Taşnalab”u “Didanam” bo‘lma,
Mulla Mozalan”[1]larga uyush, muhtaram bo‘lma.

Qo‘y, “Xo‘p-xo‘p” bo‘lib, shuhrati tom aylasin o‘g‘ling!
Kasbin tashlabon, she’rni davom aylasin o‘g‘ling!

XONIMCHALARGA OID

Ey gul, ne ajab silsilai mushki taring bor,
Ohu nazaring bor.
Voy sarv, ne xush jon oluvchi g‘amzalaring bor,
Ham ishvalaring bor.

Aldadi yoshlarimizni noz-u karashmang,
Feruzarang ko‘zing.
Xiromon sochingda ne balo talxi baring bor,
Zahring, shakaring bor.

Boshdan oyog‘ing shaxd kabi sofsan, ey sho‘x,
Shaffofsan, ey sho‘x!

[1] Gop-gop, Basiqapazli, Bidard, Biqam, Qizdirmali, Tasnalab, Didanam, Molla Mozalan — “Molla Nasraddin” jurnali va “Hayat” gazetasidagi yashirin imzolardir.

Ammo arining nishi kabi nishtaring bor,
Inja kamaring bor.

Vatan javonlari sadqa etar vaslingga jonin,
Ham ruhi ravonin.
Hatto keksalardan necha baxt beraring bor,
Yaxshi xabaring bor.

Etding sochingni "jingalak",
surding yuzga "rumyana" —
Javlon ayla, javlon!
Bir uy ne munosib senga, har uyda yering bor,
Har uyda ering bor.

Undoq domaning, tojirlarga ishqing asar etdi,
Telbavor etdi.
Omilarga tujjordan ortiq asaring bor,
Fathing, zafaring bor.

Maktablar ichra emas suhbati ro'ying,
Kayfiyat o'ying.
Ishq g'ami darsin o'qigan ming nafaring bor,
Oshuftalaring bor.

Kavkazli musulmonlar etarsa sen-la kayf,
Fikr etma ajoyib.
Eronli musulmonlardan bir qonjigaring bor,
Ming darbadaring bor.

Tashvish qilmaki,
mayxonada ko'p senga oshiq,
Diydoringga mushtoq.
Masjidda yana bir necha jon xunjigaring bor,
Sho'ridasaring bor.

Bilmam ne afsun aylading, ey fitnai ayyom,
Kuydi senda islom?!

Har shahrda, har go‘shada, bas, jon olaring bor,
Dil beraring bor.
Oshiq axtarib olamni sayr aylading ammo,
Xayr aylading ammo.
Bir sovchi bilan er qilsang, zararing bor,
Xafving, xataring bor.

Har xomtama oshiq ila ulfating bo‘lmas,
Unsiyating bo‘lmas;
Bori yo‘q etar sarxushga nazaring bor,
So‘ngra hazaring bor.

Gavhar sochilar, zar sochilar, yor, yo‘lingda,
Dildor yo‘lingda.
Ey, o‘ylarsen, sening shundoq guharing bor?
Voh, kon, zaring bor!

Xo‘p-xo‘p, dema behud ki,
men kuydim u nigorga,
Boq ahli diyorga.
Ey g‘ofil, o‘zingdan nechuk xabaring bor!
Xunobi taring bor,

Darding, kadaring bor,
Ko‘p dardi saringbor,
Bu ko‘hna boshingda
Yangi xabaring bor!

Millat shundoy botdi,
Ummat bundoq yotdi,
Tur, so‘yla, ey ahmoq,
Toshni kim uyg‘otdi?

Ko‘z och, xataring bor!

JAVOBLAR JAVOBI

Ilm oyinai surati hol edi, nedan bas,
Ochsam-da, arvohga misol edi, nedan bas,
Ilm ila vatan mukammal edi, nedan bas,
Tahsili adab, kasbi kamol edi, nedan bas,

Millat iymonasi bu go‘zal rutbaga do‘ndi?
Afsus, “Hayat” esa momot bo‘ldi, yopildi!

Ilm edi agar baxsh etgan insonga sharofat —
Millat ne sababdan unga ko‘rsatmadi rag‘bat?
Islom ulamosida gar bo‘lsaydi layoqat
Rusni o‘qiganlardin nuchun etdilar nafrat?

Bu nafratni har kun ko‘rib, axir, uyaldi,
Afsus, “Hayat” esa momot bo‘ldi, yopildi!

May nash’asini zavq bilar, jom ne bilsin?
Ruh anglaganin lazzati akrom ne bilsin?
Ustozning ishin, ishlaganin xom ne bilsin?
Ilmning, hunarning qiymatin islom ne bilsin?

Ketsin qaboga qo‘shnilar, islom chopildi,
Afsus, “Hayat” esa momot bo‘ldi, yopildi!

Qo‘y, qo‘shnilar olsin ming turli favoid,
Qo‘y, qo‘shnilar etsin holga chorai sharoit,
Sen so‘yla, gazetdan ne bo‘lur bizlarga oid,
Shundoq ikkini bir qilgin, qo‘yma undoq zoye,

Islomda bilmoq, o‘qimoq ziyoni zildir,
Afsus, “Hayat” esa momot bo‘ldi, yopildi!

Ag‘yorlar endi senga foiqmi yo yo‘qmi?
Islomini mahv etmoqqa shoiqmi yo yo‘qmi?

A'yon-u imom millatga loyiqmi yo yo'qmi?
Shundoq amaling qat'iy to'qmi yo yo'qmi?

Chun nafrati loyiq o'ti har go'shada yondi,
Afsus, "Hayat" esa momot bo'ldi, yopildi!

Gap-so'z amal ochmas, ishga g'ayrat kerak bo'lsin,
Millat cho'ntagin ochmoqqa himmat kerak bo'lsin,
Ming ilm demoqdan ham hamiyat kerak bo'lsin,
So'zdan ne bitar, ishda haqiqat kerak bo'lsin!

Haqsizlikni har kunda ko'rib oxir uyaldi[3],
Afsus, "Hayat" esa momot bo'ldi, berkildi!

Og'ritma ortiq boshingni, mayl etma ilmga,
Yo'q vaqtni sarf etma kamolotga, rusumga,
Har kas onini kutmoqdadir, boqsang umumga,
Xarj etsa agar do'lma, bodimjonga, luqumga.

Xo'p-xo'p, yemoqqa, ichmoqqa bu qavm yaraldi!
Afsus, "Hayat" esa momot bo'ldi, yopildi!..

BOKU PAHLAVONLARIGA

Ko'nglim buzilar ko'chada javloningni ko'rgach,
Nutqim tutilar qomati arsloningni ko'rgach.

Jonim uzilar qo'ldagi qalqoningga boqib,
Qalbim taloshar beldagi patroningni ko'rgach.

Boqqanda revolveringga andomim bo'lur sust,
Bag'rim yorilar xanjari burroningni ko'rgach.

Tafriq etolmam: mastmi, hushyormisan sen, —
Mastona ravish, mashqi parishoningni[1] ko'rgach.

[1] Dastlabki to'rt nashrda "ro'yi parishoningni" deb berilgan.

Tushding firiblar mashqiga, islomga qayishma,
O'ldur qay yerda bo'lsa, musulmonini ko'rgach.

Qo'y, bo'rkingni ko'z-qoshing ustiga, lipilla,
O'zing kabi bir bozgari maydonini ko'rgach.

Mast bo'l kecha-kunduz, ne bilay, yot qay yerlarda,
Yum ko'zingni, xonai vayronani ko'rgach.

Besoqollar[2] ila kayfingni qil bog'da, chamanda,
Bir boqma qardoshing ahvoli — jigar qonini ko'rgach.

Goh "skoroxod" chekmam, gohi hey "lakeron"ni,
Shundoq kecha-kunduzda xiromoningni ko'rgach.

Bor-yo'g'ingni sarf ayla xonimlarga, shundoq
So'y hamsari mazlumai nolonini ko'rgach.

Kul, kul ki, yoshdirsan,
Oromi jahonsan,
Sarxushlarga jonsan,
Hamon kulajaksan.
Vaqtiki, qariding,
Soqolni tushga solding,
Xun kunlarga qolding,
Shunda bilajaksan!..

OTGANIMIZ TOSH EDI DA'VO KUNI

Otganimiz tosh edi da'vo kuni,
Tutardik qo'lda xarsang g'ij-u g'ij!

Har kasga tegsaydi, etardi hamon
Bir necha kun ohu fig'on, "ufu-uf"!

Malham olardi, bitardi yara,
O‘zda qolardi yana jon soppa-sog‘.

Endi to‘pponchadir, turib boshida,
Nogoh bo‘lar alvon rang qon —
"part"u "part"!

Shunda ko‘rursan, yiqilib yonma-yon
Bir nechta navrasta yoshlar "la-la-lay"!

"Suf" bunday davronga ki, badtar bo‘lur
Sayri falak, davr-u zamon yilma-yil!

Millati islom qirar bir-birin,
Alloh, omon, bu ne yomon "qiru qir"!

Qardoshga boq — qardoshini o‘ldirar,
Vahshiy bo‘ldi ahli jahon sar-basar!

Millatni ko‘rganda bundoq harj-u xarj,
Ko‘nglim bo‘lar to‘p-to‘la qon qatma-qat.

Bundoq ish ketsa, Boku qo‘ldan ketar,
Qolmas bu ma’voda omon hech, hech!

Borni, xudoyo, o‘zing isloh qil,
Aylasinlar keksa-yu yosh sulh, sulh.

KO‘PNI KO‘RGAN KAMPIRNING QIZLARGA NASIHATI

Qari momoning so‘zlarini dema yomondir,
Jonim, ko‘zim, oy qiz!
Har kalomi ming La’li Yaman, durri Adandir,
Angla so‘zim, oy qiz!

Ko‘p umr kechdi, ko‘p hunar ayladim isbot
Bu dorul jahonda.
Ming hiylalarni qat-qat bosdim siynamga bot-bot
Bu xayli zamonda.

Ming yil senga naql aylasam makri nisoni,
Tugmas, oz bo‘lmas.
To‘ldirsam agar makrla atrof-u jahonni,
Bir bo‘sh yeri qolmas.

Jodu ham qo‘limdan keladi, jin ham qutqarmas,
Afsunimga boq-boq!..
Men aylaganim makrni shayton ham qilolmas,
Valloh va billoh!

Farishta monandsan ki, bu kun fayz-u huzurim
Bo‘ldi senga qismat.
Ol so‘zlarimni endi sen, ey ko‘zdagi nurim,
Qo‘yma kecha fursat.

Avval bu qadar bil ki, vafodor er bo‘lmas, —
Oqil bo‘lar bo‘lsa;
Bir er ki, vafodor bo‘lgan olamda topilmas, —
Johil bo‘lar bo‘lsa;

Zinhor vafo talab qilma er deganingdan,
Barvaqt bo‘l, omondir!
Osuda xayol bo‘lma bu raqib deganingdan,
Uch-to‘rting o‘lgandir.

Qirq yil etarsan bir kishi amriga itoat,
Manzur deb bilmas;
Vaqt kelar, qariysan, bo‘ladi boshqa bir avlod,
Boqmas senga, kulmas.

Er dard-u g‘amin chekma, sen o‘z holingga yig‘la,
Ey, joni jahannam!

Sarrishtai tadbiringni xilvatda yashirgin,
Qil ko‘nglingni xurram.

Toinki ayiqdir, hazar et er deganingdan,
Er zulmi yomondir!
Chun uxladi, chal cho‘ntagidan,
ol zar deganingdan,
O‘z rangingni yondir.

Fursat ki, bo‘lur —
chehrangni bo‘ya har kecha maxfiy,
Sayyoralik qilgin!
To bilmoqqa shayton ham keltirding necha maxfiy,
Ayyoralik qilgin!

Chun subh choyin ichdi kishi, chiqdi kanorga,
Bedard, beg‘am bo‘lding.
Ochildi boshing, endi qil o‘z dardingga chora,
Bonu haram bo‘lding.

Bir Xonsanam bo‘l, yog‘,
novvot, bol, choy, shakar bo‘lsin,
Gulqand bor uyda.
Yana nelar qolsa, unga ham xushxabar bo‘lsin,
Harchand bor uyda.

Yubor bolani, Shahzodani ayla xabardor —
Kelsin holi-xilvat.
Kelganda keltirsin necha jononlarni zinhor,
Qur majlisi ishrat.

O‘choqqa qo‘ygin qasqonni, qaynat samovarni,
Chol nayni, iboli.
Mehmonlarga hozir ayla ming turli nahorni.
Ber kulcha, zardoli,
Ham qaymoqni, bolni.

Er fidolik etsin,
Har kun ishga ketsin.
Bo‘lma unga hamdam,
Joni bajahannam!
Hech chekma malolni,
Qur mashlisi olni,
Buzma jalolni,
Oy boshi baloli!..

BOLALARGA

Ey millatning umidi, dil-u joni, bolalar!
Otajonlarining sevgili jononi, bolalar!

Onalaringiz berdi sizga mehr-u muhabbat,
Og‘ush-u shafqatda sizga baxsh etdi rohat,
Otalaringiz xarjingizga berdi kafolat,
Alminnatu lilloh, sizga yor bo‘ldi saodat,

Bo‘ldingiz -ku bir uyning o‘g‘loni, bolalar!
Osuda kezing endi bu dunyoni, bolalar!

Siz sarv kabi yuksak bo‘lib bo‘y otdingiz,
Har yili jahd etaroq xalqni uyg‘otdingiz,
Shod bo‘ldi ota, onangiz — bu bo‘yga yetdingiz,
Yetar sizga gahvorai noz ichra ki, yotdingiz,

Endi qo‘ying yostiqni, uyquni, bolalar!
Ham tark aylang xonai vayronani, bolalar!

Vaqt bo‘ldi, chiqib ko‘chada javlon etasiz siz,
Har yerni kezib, sayron etasiz siz,
Jang-u jadalni qudrati talon etasiz siz,
Har yo‘lga kirib, olamni vayron etasiz siz,

Kunda otasiz bir necha patronni, bolalar!
To o'rganasiz shevayi da'voni, bolalar!

Vaqt keldi, havas etmadingiz maktabga, darsga,
Ta'lim olasiz har neki, olamdagi qo'rsga,
Xayrni tashlab, ahd etasizzararli hisga,
Moyil bo'lasiz har ishgakim, fitnaga, tersga,

Odat qilasiz o'yin-u tomoshoni , bolalar!
Siz naylagaysiz maktabni, mulloni, bolalar!

Vaqt bo'ldi, urib yiqmoqqa mushtoq bo'lasiz siz,
Uyda kerak bo'lganda, qochoq bo'lasiz siz,
Ham otaga, ham onaga oq bo'lasiz siz,
Mujmalmiyalar to naqadar sog' bo'lasiz siz,

Har kun tuyasiz onai nolonni, bolalar!
To "uf" demoqqa qolmagay imkoni, bolalar!

Har istaganing bo'lmasa hosil padaringdan,
Ur, yiq, tala, to qurquvga tushsin zararingdan,
Erk ber og'zingga, chekinma hunaringdan,
Bechora xolos bo'lmoq uchun sho'ru-sharindan,

Chiqsin joni, sotsinosh-u qozonni, bolalar!
Naylar tag'in sarvati somonni, bolalar!

Basdir ki, o'g'il sohibi tushkun padar bo'ldi,
Xayr o'ldi ajab, oqibati bexayr bo'ldi,
Ko'z nuri hisob aylagani dardisar bo'ldi,
Zahmatda kuchinbergani jumla xatar bo'ldi;
Na bo'lmadi tokim, qutqarsa jonni, bolalar!
Na topmadi o'z dardiga darmonni, bolalar!..

MEN BILMAS EDIM, BAXTDA BU NEKBAXT BO‘LARMISH

Men bilmas edim, baxtda bu nekbaxt bo‘larmish,
Izzat chevrilib, oxir bundoq bir zillat bo‘larmish,
Charxning, ajabo, sayri ham ming qavat bo‘larmish,
Millat uyg‘onib, tolibi hurriyat bo‘larmish,
Millatda, yohu, shundoq bir g‘ayrat bo‘larmish?!

Yolg‘iz ne deyin, ketdi mening millat qo‘limdan,
Tuproq boshimda, chiqdi butun izzat qo‘limdan!

Tabrizda gar bo‘lgan edim juma imomi, —
Sirli emas, yaxshi bilar el matlabi komni, —
Pul ila sotib olgan edim men bu maqomni,
Ag‘dargan edim o‘zimga filjumla avomni,
Qul etgan edim shahrda har puxtaini, xomni,

Voh, men ne bilay subh o‘tib, shom bo‘lar erkan,
Eronda ham hurriyati islom bo‘lar erkan?!

Tadrij ila olgandim qo‘lga shuncha dahani,
Bir parcha patir asiri etgandim elatni,
Orttirgan edim omborni, yilqini, otni,
Ranjbar aylamishdim o‘zimga shirinni, totni,
Darkor edi xayrimga umumning harakati,

Birdan-birga ketdi hamma kor-u borim, ey voh!
Chiqdi boshga sarvat qazongan qo‘llarim, ey voh!

Tabrizda rohat qilib, osuda yurardim,
Mo‘minlarni har tuhmatga bo‘lsa-da qo‘yardim,
Har ahmoqni, xomni qo‘zi sifatinda so‘yardim,
Haq so‘z aytganning jonin olib, ko‘zin uyardim,
Ne qilsam qilardim, qancha rang bo‘lsa bo‘yardim,

Yuz hayf, go'zal hukmi shariat talaf bo'ldi!
Asosiy Qonun ham bir to'siq, hadaf bo'ldi!

Bilmam, arilar manziliga kim cho'p uzatdi,
Yillarcha g'ofillikda yotgan xalqni uyg'otdi,
Fitna niholin ekdi, uyim g'amlarga botdi[2],
Men qancha yugurmay, xalq gul-butoq otdi,
G'araz ahli o'z istagani matlabga yetdi.

Ahkomi shariat yana bir kor ko'rarmi?
Bundan so'ngra bug'doy ham ombor ko'rarmi?

Lol bo'lsa nedir Mirzo Javod[1]ning tili, ey kosh!
To og'zin ochib ayladi har sirli so'zni fosh!
Bir yonda yig'ar Mirzo Husayn[2] boshiga yo'ldosh,
Jig'-mig' qilib oxir boshimga soldi-da bir tosh,
Tabrizda to bo'ldi hammasi talon-u tolosh.

Endi nazar-u xohishi ahli hasad bo'ldim,
Bir dardkashim bo'lmadi, tamom barbod bo'ldim!

Devona qilibdir meni Tabriz xayoli,
Majlisda tavozedagi har so'z xayoli,
Nafs talabi, sufra g'ami, dahliz xayoli,
Sadri to'yining dasturxoni, tarvuz xayoli,
Totliga to'la kosai labrez xayoli,

Bir bor u go'zal kunlarni, yo Rab, ko'rarmanmi?!
Bu xomxayolni etib, oxir o'larmanmi?!

Yo Rab, zora bir bor etsam ul shahrni ziyorat,
Noz ila xirom qilsam, — orqamda jamoat!

---

[1] **Mirzo Javod** — Tabrizda anjuman a'zosi bo'lib, inqilobiy nutqlari bilan tanilgandi.

[2] **Mirzo Husayn** — O'sha paytda Tabrizda anjumanning faol a'zolari biri bo'lgan.

Ko‘rganda meni yo‘l bersa bu ahli viloyat,
Ta’zim etsa, boshin egsa, qo‘lin tutsa millat,
Bir kimsada bir so‘z demoqqa bo‘lmasa jur’at,
Ayonlarni tindirsam etib faxr-u mubohat.

Hayhot va hayhot va hayhot va hayhot!!!
Ket yot va ket yot va ket yot va ket yot!!!

HAR NE BERSANG, BER, MABODO BERMA BIR DIRHAM ZAKOT

Har ne bersang, ber, mabodo berma bir dirham zakot,
Qo‘y, ochidan o‘lsa, o‘lsin benavo kentli va yot.

Har ne tuz bersang, ber, o‘g‘lim, burchingni berma tamom,
Har na olsang, ol, azizim, olma kosibdan salom.

Har ne qilsang, qil va lekin etma maydon istinob,
Har ne tutsang, tut va lekin tutma bir kori savob.

Har ne cheksang, chek, vale xijolat qabhdan,
Qayda yotsang, yot, uyg‘onma, turma hargiz subhdan.

Har yerga kelsang, kel, ammo kelma darsga, maktabga,
Har kasga dil bersang, ber, ammo dil berma dinga, mazhabga.

Har ne cheksang, chek, birodar, chekma tuz mezonini,
Chekma sen millat g‘amin, chekma, chek nasha kalyonini.

Boqmasang nochorga, boqma, boqma, boq lo‘batlarga,
Kelmasang iymonga, kelma, kelma, qol la’natlarga.

Bo‘lmasang bir xayrga bois, bo‘lma, bo‘l bois sha’rga,
Etmasang imdod, etma, et sitam ojizlarga.

1907

SHUNDOQ BILARDIM KI, YANA SUBH BO‘LDI

Shundoq bilardim ki, yana subh bo‘ldi,
Murg‘i sahar shu bir og‘iz gaplashdim.
Tosh sindirdi oxir bol-u parimni,
Gapirmoqning hosilini angladim.

Ovchi fazoda ko‘radi boyqushni,
Sahnada qaqillarman endi men.
Bir on meni urma, omon, bag‘ritosh!
Rahm ayla, inqillarman endi men.

Ey varraklar, meni qo‘rqitmangiz,
Men sizga tark etganman samoni!
Sayr aylaysiz, toza havoda uchingiz,
Men ham kezay sahnachai xonani.

Yig‘lamangiz, yig‘lamangiz, ko‘chalar,
So‘zlamayman, so‘zlamayman hech endi!
So‘zlamoqni sizga berdim endi men,
Gapirmayman: anglamayman hech endi!..

NE BO‘LUR SHIRINMAZOQ ETSA BUL HALVOYI HURRIYAT

Ne bo‘lur shirinmazoq etsa bul halvoyi hurriyat,
Yesam bir luqma undan, so‘ylatsa savdoyi, hurriyat!

Degin, xayr bo‘lsin, tush ko‘rdimki, bir daryo kanorida
To‘kmishlar yonma-yon, qat-qat, butun layloyi hurriyat.

Yig‘ib ham to‘ldirurlar kissa-cho‘ntak,
bog‘larlar mahkam,
Ururlar tillo, tog‘dan ham oshar baloyi hurriyat.

Bas, ey, ko‘pdan beri shavqinda edim men bu holvaning,
Dedim, yoron, ne bo‘lur bering menga bir poyi hurriyat!

So‘zim xush kelmayin kajlar, so‘yladi: “Yo‘q bo‘l!
Bu ko‘toh qo‘l bilan termassan xurmoyi hurriyat?

Bilmaysanki hech, bu dilbar bugun Eronga maxsusdir,
Nomahramsan, bo‘lmassan shohidi zeboi hurriyat?”

Ko‘z yosh to‘kib, mahrum bo‘lib, bir yonda aylandim;
Olib bir kemani to‘ldirdilar toy-toyi hurriyat.

Hushtaklar chalinib, kema ravon bo‘ldi, boqardim men,
Jo‘nab ketardi olisga zavraqi daryoi hurriyat.

Ki, nogoh bir qora bayroq ochildi dor yog‘ochinda,
Yozilmish unda bir xati musibatgo‘yi hurriyat;

O‘qirkan xatni, ma’lum bo‘ldi: kema g‘arq bo‘lmish,
Qoldi daryoda hayron g‘arq bo‘lib da’voyi hurriyat.

Po‘rtana mavjlar har yondan yaksar hujum aylar,
Ko‘rdim kiyu to‘lqini kemadan chiqdi: voy-voy, hurriyat!

Bu sasdan seskanib qalqdim, shoshilib soatga boqdim,
Hali ko‘rdimki, kechadir, so‘yladim: lay-loy, hurriyat!..

EY AZIZIM, XALAFIM...

Ey azizim, xalafim,
izat-u obro‘yim, sharafim,
ruhi ravon,
munisi jon,
ta’bi tovon,
pokaza jovonim ki,

o‘n yildan beri umri girihbonimni,
yolg‘iz demasman, dinimni, iymonimni,
insofim, vijdonimni,
irfonimni,
ham jonimni-da,
jumla qo‘ni-qo‘shnimgina emas,
el ham bilur ki, senga
vaqf aylabon shom-u sahar,
har ne qadar,
ranj-u kadar,
xayr-u zarar,
fitna-ya sar sendin o‘tar
davru qadardan yetisha bilursa menga,
jonimga minnat-la qabul qilib,
shundoq otalik haqqining rizosi uchun,
mehr-u muhabbat-la,
ne izzat-la,
ne holat-la
senga tarbiya, ta’lim etarkan,
sarvqading tiklaganman,
jon-u dilimdan seni ko‘p istaganman,
bir pulga qimmat ahmoq bo‘lganman,
o‘z ko‘zimning nuri bo‘lgan
sevgili avlodimni tinimsiz
dakki va tazyiq aylagan
johilu gumroh otalar.

Bir seni zindoni darsda muqayyad aylabon,
ilmu maorif deyilgan bo‘sh,
abas,
insonga noloyiq ishlar ila
fikringni, ham aqlingni,
vijdoningni maxdud aylabon,
ruhingni injitmagayman,
zahmatingga botmagayman,
ko‘chada, bozorda

o‘z qasdingga iqdom etib,
har kunni bayram etib,
kunlarni oqshom etib,
istaganigni namoyon aylab,
kezmog‘ingga rozi bo‘lib,
men seni bir san’atga ham qo‘ymaganmanman,
har kecha har yerda mehmon qolmog‘ingni,
zavq-u safo olmog‘ingni,
surnay, karnay chalmog‘ingni istaganman,
o‘z boshinga erkin qo‘yganman,
hamd Xudoga ki,
bo‘lding shundoq quvvatli,
muhabbatli,
shijoatli javon,
kelbati polvon,
orzui jonon,
vaqt u zamondir ki, tag‘in bundan
shundoq bir nom chiqarib,
ish bajarib,
yilqi quvib,
mol oborib,
dunyoda qiyomat qo‘porib,
yo‘llarni chang-dud aylabon,
olamni maxdud aylabon,
hosili maqsud aylabon,
sen meni xushnud aylabon,
o‘g‘ri-yu makkor bo‘lasan,
yo‘l yurasan,
el ko‘rasan,
garchand qarilikda javobi bordir,
ammo uni o‘ylab o‘tirma
aslo ki, tutilsang,
qo‘lnga tushsang ham
tarahhumlidir hukumat,
senga aylar hamma hurmat,
qamoqda ham qilarsan rohat,

noning issiq, sving sof,
joying kunji farog‘at,
senga bir kimsada jur’at
bo‘lmas ki, etsin aziyat,
ne bo‘lar, bir kun kelsa fursat,
qochasan, qutulasan hibsdan; albat
ki, qomoqqa-da
bo‘lmasa imkon,
ishingni afv etar devon,
bo‘larsan erkin “posilyon”,
ne g‘aming bor, senga qurbon
ki, u yerlarda ko‘pdir
sen o‘zing xushlaydigan
Sonya kabi g‘uncha dahan,
siymi badan,
rashki chaman,
zulfi saman,
ko‘zlari ohui xo‘tan,
parichehra, oppoq,
u ismatli,
vajohatli,
sabohatli,
malohatli “madam”lar,
birin, albatta, olarsan,
desa: “rus bo‘l”,
qiyin ishmas, o‘ris bo‘larsan,
tag‘in bo‘yningga bir xoch ham solarsan...

Bu amaldan parvoz qilarsan,
“Ivan” nomin olarsan,
“Amilyanov” bo‘larsan,
Ne qadar bo‘lsa-da umring,
O‘sha yerlarda qolgaysan!..

SIRADAN BIR TELBA SHAYTON AYTAR: INSONLAR, INSONLAR!

Siradan bir telba shayton aytar: insonlar, insonlar!
Nedir dunyoni tutgan ilm-u irfonlar, insonlar!?

Qongan kim, qondirgan kim,
nashri irfon aylagan kimdir?
Sizni irshod etar, ko'rmassiz, fattonlar, insonlar!?

Adabdan, ilmdan gar fayziyob bo'lsa avom-u kas,
Tushar shon-u sharafdan mullalar, eshonlar, insonlar!

Sevarmi ahli istibdod, agar millat hushyor bo'lsa?
Bunga rozi bo'larmi bir necha vijdonlar, insonlar!?

Qo'zg'olmish bu yo'qsillar, olmoq istar haqqi mashro'in,
Ne yerda qoldingiz boylar, og'alar, xonlar, insonlar!?

Muharrirlar, fatton ko'zlar uyalmaslar, tortinmaslar,
Yozarlar ham loflar, afsonalar, yolg'onlar, insonlar!

Shariatdan tortib qo'l, xayrga moyil o'lmay bir dam,
Kesing boshlar, oling jonlar, to'king qonlar, insonlar!

Basharsiz, sizga qon to'kmoq tabiiydir, foydalidir,
Bu fitratdan uzoqdir, shubhasiz, shaytonlar, insonlar!

Emasmi hayf tillardan g'ubori jahl mahv bo'lsin?
Nechun har kun qondan qo'pmasin to'fonlar, insonlar!?

Damodam nafsi ammora demoqda "ol jahonni",
Nechun salim qolsin boshlar, badanlar, jonlar, insonlar?

Jaholat pardasin, shak etmayin, unda ko'rarsiz kim,
Omonat jismlar, ham nafslar, shaytonlar, insonlar!..

AMALIMIZ, AFKORIMIZ MAHVI VATANDIR

Amalimiz, afkorimiz mahvi Vatandir,
Kin-u g‘araz-u hirs bizga ziynati tandir,
Faollik yo‘q shundoq ishimiz lofi dahandir,

Dunyoda asorat-la kom bo‘larmiz biz,
Kavkazliklarmiz, yo‘l to‘sar deb, nom olarmiz biz!

Aqrab kabi nashtar kuchi bor tirnog‘imizda,
Islom kuchsiz bo‘lsa, suv yo‘q bardog‘imizda,
G‘ar burchda ming tulki yotar gardishimizda,

Ming hiyla qurib, rutbai ikrom olamiz biz,
Kavkazliklarmiz, yo‘l to‘sar deb, nom olarmiz biz!

Kavkazli oti olamda nafratga nishondir,
Quldir, xo‘jamiz zulmda mashhuri jahondir,
Kim aytsa taraqqiy etamiz deb, mencha, yolg‘ondir,

Adovat, hasadni odat qilib, kom olarmiz biz,
Kavkazliklarmiz, yo‘l to‘sar deb, nom olarmiz biz!

Biz istamaymiz dardni ki, ming maktab ochilsin,
Gar ming-ming maorif so‘zi dunyoga sochilsin,
Maktabda ne hurmat ki, u somonga chaqilsin?

Mayxonada “vodka” urarmiz, kom olarmiz biz
Kavkazlilarmiz, mast bo‘lar-u nom olarmiz biz!

Ovro‘poli o‘z millatini obod etsa, etsin,
Sha’n-u sharaf-u nomusini baland tutsa, tuttsin,
Insonlik otin dunyoda g‘olib etsa, etsin,

G‘aflatda yotib, ot botirib, nom olarmiz biz,
Boshga tuxum chaqarmiz-u, kom olarmiz biz!..

SARHISOB

Ovoz totlandi, qo‘ymangiz!
Millat shodlandi, qo‘ymangiz!
Rishoti darsga, maktabga...
Jumla otlandi, qo‘ymangiz!
Ishlar ko‘p toshdi, qo‘ymangiz!

Qo‘l uvushib, ozganlarga,
Kunda gazet yozganlarga,
O‘t qo‘yilib qozonlarga,
Qaynadi, jo‘shdi qo‘ymangiz!
Haddidan oshdi, qo‘ymangiz!

Tark aylangiz javonlarni, —
Zarracha yo‘qdir qonlari,
So‘zlari to‘g‘ri bo‘lsa-da,
Boshlari sanchdi, qo‘ymangiz!
Chehra tirishdi, qo‘ymangiz!

Sehrni, fusunni xushlangiz,
Shoirni, she’rni boshlangiz,
Maktab ila bu firqaning
Dardi birlashdi, qo‘ymangiz!
Dovuri bor, sasin kesing!

Qarg‘a qag‘ etar, qo‘ymangiz!
Yomonliklar etar, qo‘ymangiz!

Kofir bo‘lib, yuring, uring!
Rishtai ulfatni qiring!
Yozgani she’rni buring!
Dinga yopishdi, qo‘ymangiz!
Kufrga shoshdi, qo‘ymangiz!

Aqli, shuuri, fahmi yo‘q,

Sharm-u hayoda vahmi yo‘q,
Mazhabi, dini, rahmi yo‘q,
Ishlari yoshdir, qo‘ymangiz!
Dalli ishga boshdir, qo‘ymangiz!

Qirildi, qochdi, qo‘ymangiz!
Ko‘zdan adashdi, qo‘ymangiz!..

YIG‘LAMA

Ne ravodir, ag‘niyolar boqsa och qolganga, yo Rab!
Bu na so‘z ki, och qolganga iona, yo Rab!

Chiqar joni och qolganning ko‘zining qaboqlaridan,
Ketib ishlasin, pul topsin qo‘lining bilaklaridan,
Nedir ag‘niyoga xayri ularning yemaklaridan?
Yemasdan ochlikdan o‘lsa, tag‘in xush bahona, yo Rab!

Menga shundoq-shundoq ishda demang so‘z, ey jamoat!
Parvoyimga kelmas, yaksar qirilib o‘lsa shu millat?
Yaratgan Xudoyi roziq etajak o‘zi kafolat,
Ne kerak boqmoq faqirga, bu yurak to‘lg‘ona, yo Rab!

Shul gazetchilar emasmi ki, solar bizni baloga?
Undoq bir ish bo‘lmagan, hey, berilsa sodda sadoga –
Ki, kerak ko‘mak berilsin fuqaroi benavoga...
Shuncha pulni yuborgaysen u yon-bu yonga, yo Rab!

Senga ne, ey, uying kuygur, fuqaro uchun yonarsan?
Otang o‘g‘li qardoshingdir, na-da sen birin tanirsan?!
Ikki ko‘zlarimdir pulim, inson, bil, magar ko‘narsan!?
Uni bermoq bo‘lmas, axir, har o‘lgan-qolganga, yo Rab!

Fuqarolar ag‘niyoning tortadir nechun yoqasin?
Agar ochgan bo‘lsa qorni, sotsin qalpog‘in, chaqasin;

Qilar ag‘niyo ham boshqa ishga oid o‘z sohasin,
Magar ozdir ilmi tahsil falon, falonga, yo Rab!

Shundoq, hey, gazet yozarsan, kishi,
bir dam matlabing na?!
Amalin ko‘r ag‘niyoning, joyi bo‘lsa, so‘ngra qiyna!
Pulini faqirga bersa, ochidan o‘lsinmi Anna?
U magar ki, Xonsanamdir, qilpillar to‘lg‘ona, yo Rab?!

VOY, VOY! NE YOMON MUSHKULGA TUSHDI ISHIM, ALLOH!

Voy, voy! Ne yomon mushkulga tushdi ishim, Alloh!
Faryodimga yet kim, yonarman otashda, billoh!
Islomga xalal bermoqdadir bir necha badxoh,
Istarlar, bo‘lsa bandalaring bundan-da gumroh.

Yetdim ne yomon asrga, omon, ey voh!
La havla vala quvvata illoh va billoh!

Maktablar ochib, aylangiz ehsonni, — deydilar,
Maktabga qo‘ying uskuna, dastgohni, — deydilar,
Parchalangiz cho‘pu falaqqoni, — deydilar,
Tashqari haydang hazarti mulloni, — deydilar.

Mulla quvilar, ya’ni muallim kelar, voh-voh!
La havla vala quvvata illoh va billoh!

Men anglamasman kim, nima ma’noi muallim?
Qirq-ellik manat pul olar har oy muallim?
Bir toza usulga bo‘lar fidoyi muallim?
Pullarni olar, so‘zlaydi “savdoyi” — muallim?

Mulla bunga hasratlar chekar ko‘chada oh!.. Oh!..
La havla vala quvvata illoh va billoh!

Bir yildir, biroz ko‘p ham erur, yo‘qdir yemog‘im,
Bormaydi qo‘lim ishga, yurmaydi sira oyog‘im,
Qaydin yana bir so‘z topadi o‘g‘lon-ushog‘im,
Taqqillaydi, Alloh ham shohid, qulog‘im,

Port-Artur, hurriyati Manjuriya[1], qah-qah!..
La havla vala quvvata illoh va billoh!

Dod bo‘lsin o‘tgan kunlarga, devona bo‘ldilar!
Islomga ham, iymonga ham begona bo‘ldilar!
Billohi, boshim aylanar, ayo, ne bo‘ldilar?
Hurriyatu-murriyatga mastona bo‘ldilar...

Voh! Voh... yana voh-voh!.. yana voh-voh!..
yana voh-voh!..
La havla vala quvvata illoh va billoh!

Oh, voy, kechgan yillar,
nolaga bir dam to‘lg‘onsayding,
Yangi yana besh yuz yil o‘tgunicha tayansayding,
Ilmu adab-u fazl-u kamolotni tanisayding!
Ey, bildir, anglatgin, ne bo‘lar o‘tlarda yonsayding!

To aylamasayding bu g‘ofillarni ogoh!
La havla vala quvvata illoh va billoh!

Bilmam, ne ishim bordir, boshim dardga qorishdi,
Ilm ila shundoq dushman bo‘lgan qavmga borishdim,
Tajdidi vafo birlamaorif-la surishdim,
Rohatda yotolmasman, menga g‘am zo‘ri yopishdi;

Etmoqmi bo‘lur birda bu ishlarni muboh?
La havla vala quvvata illoh va billoh!..

[1] **O‘ris** — yapon urushi va undan so‘ng kuchlangan ozodlik harakatlariga ishora etimoqda.

PINHONIMIZ, OSHKORIMIZ AFSONAI ZANDIR

Pinhonimiz, oshkorimiz afsonayi zandir,
Afsonai zan, nuri dil-u ruhi badandir,
Chun xubbi rizo lozimai xubbi vatandir.

Ahli vatanmiz, xubbi vatan yodin olarmiz biz!
Dindorlarmiz, kunda bir xotin olarmiz biz!

Yo‘q farq bizning baland ila olchog‘imizda,
Doim ko‘rarmiz ish bu keksalik chog‘imizda,
Juft-juft turar xotin so‘limizda, sog‘imizda.

Shahvat qulimiz, nafsdan imdod olarmiz biz!
Dindorlarmiz, kunda bir xotin olarmiz biz!

Har shom kerak uqbai afkor ochilsin,
Favvorai iqboldan amal sochilsin,
Har subh namoz o‘tmoqqa hammomga qochilsin.

Totli etaroq tillarga bir bol olurmiz biz!
Dindorlarmiz, kunda bir ayol olarmiz biz!

Bu mashg‘ulotlar shevai o‘tgan zamondir,
Ota-bobomizdan bizga meros hamondir,
Jahd aylama, jimmiz, qonimiz o‘t kabi qondir.

Bu yo‘lda to‘kib qonimizni, otin olarmiz biz!
Dindorlarmiz, kunda bir xotin olarmiz biz!

Shoir millat, elat-la adolat etar, etsin,
Xotin izla, er ayolga rag‘bat[1] etar, etsin,
Har kim ki, bir xotin-la qanoat etar, etsin,

Uch-to‘rtdan o‘tib, oxiri dodin olarmiz biz!
Dindorlarmiz, kunda bir xotin olarmiz biz!

Ayolni olmoq bir hunari shar'iyamizdir,
Tez boshlagaymiz, chun bu libos oriyamizdir,
Ayol ne demak? Xodimamiz, joriyamizdir!

Harchand olgan paytda jo'shqin bo'larmiz biz!
Dindorlarmiz, kunda bir xotin olarmiz biz!..

HA, DE KO'RAY, NE BO'LDI, BAS, EY BOLAM, IDDAOLARING?

Ha, de ko'ray, ne bo'ldi, bas, ey bolam, iddaolaring?
Tutgan edi yer-u ko'kni nolalaring, navolaring...
Yoxud bilibon aybingni, boshladingmi adolaring?
Shundoq, harf-u so'z hamon men degan bo'ldi, bo'lmadi?

Sen aytmadingmi — sog'lomman,
yo'q badanimda bir maraz?
Men demadimmi — gavhari nafsingga hirs bo'lar araz?
Sen demadingmi — shaxsimga bir zarra bilmagay g'araz?
To ki, olindi imtihon, men degan bo'ldi, bo'lmadi?

Anjuman ahlini qochoq, sen demadingmi, birda ki,
Bermayajaksan rizo kelib o'lkamizga Otaboku?![1]
Ne bo'ldi, tez tugadi, bas, ish ko'rgan anjuman toki?
Ko'hna eshik, hamon berkdir, men degan bo'ldi, bo'lmadi?
Sen u emasmiding, deding: "Duma" umidgohimiz?
Men demadimmi, bor bunga ilinj-u ishtibohimiz?
Boku vakili ketdimi, bo'ldimi dodxohimiz?
Ket, hali xomsan, yetil, men degan bo'ldi, bo'lmadi?
Sen demadingmi, "Duma"da hal bo'lur ehtiyojimiz?

[1] Otaboy A'zam (Mirzo Aliasqar xon) (1857–1907) — O'sha paytda Eronning bosh noziri edi. 1905–1911-yillar inqiloblari orasida Eronda dahshatli ochlik boshlangan, xalq harakati yuzaga kelgandi, varaqalar tarqatilar edi. Xalq harakati ta'siri ostida shoh Otaboy A'zamni vazifasidan ozod qildi, boshqa bir xodimni uning o'rniga tayinladi.

Men ham demadimmi ko'p yema,
tez buzilgay mijozimiz?!
Qora bulutlar o'ynashar, endi nedir ilojimiz?
Masxaralar bizni "Duma"ng, men degan bo'ldi, bo'lmadi?
Sen u emasmiding, deding: bor bizning ittihodimiz?
Men ham, yodingda bor, dedim: yo'q bunga e'timodimiz,
Fitna, nifoqqadir bizning g'ayratu ijtihodimiz?!

Parda ochildi nogahon, men degan bo'ldi, bo'lmadi?

EY Kİ GUYİ ŞARAFİ-NAFS BYEADLASTÜ BECUD

Yey ki guyi şarafi-nafs beadlastü becud,
Vey ki cuyi göhari-taci-karamat zi sücud,
Saxt bizarü malulam man az in göftü şünud,
Guş kon pandi-hakimaneyi-Lağlağı nümud,
Şarafi-nafs bebüxlastü laamat, na becud,
Har ki in har dü nadarad, adamaş beh zivücud.

Söhbat az bazlü saxavü karamü cud makon,
Ataşi-cud mazan, ne'mati-xod dud makon,
Müstahaqra bekaram naili-maqsud makon,
Ne'matira ki, faraham şoda mafqud makon,
Yey ki dar ne'matü nazi bekasi cud makon
Ki, mahalast bedin maşğala imkani-xülud.

Az ğami-faqr miyandiş madeh dil bemalal,
Abiru riz behar dar be tamannayi-sual,
Begadayi hamaca cam'i-nümavü zarü bal,
San'ati piş magirü dari-har xana benal,
Yey ki dar şiddati-faqrivü parişaniyi-hal,
Dözd şo kin do, sa ruzi besar ayad ma'dud.

Zarar az faqr çü didi tarafi-sud gozar,
Ğam maxor düzdgari kon suyi-maqsud gozar,

Hirs kon tiztar az ataşi-Namrud gozar,
Xaki-rahi ki, beru migozarad zud gozar,
Ta nanaland zi cövri-to bema'bud gozar
Ki, üyunastü cüfunastü xüdudastü qüdud.

Tarjimasi[1]***:***

Ey degan ki, sharafi nafs adolatda bo'lur,
Yo saxovat tojining duri ibodatda bo'lur.
Mana ming dard-u musibat shundoq suhbatda bo'lur,
Quloq os, foyda senga shunday nasihatda bo'lur.
Sharafi nafs baxillikda, jaholatda bo'lur.
Bular bo'lmasa birovda, nega dunyoda qolur?

Qilma hech vaqt saxovat va sharaf suhbatini,
Yondirib, kul aylama qo'lda bo'lgan ne'matini,
Ko'rma muhtojlarning umringda bir on suratini,
Jon kabi bag'ringga bos ul to'plagan davlatingni.
Tutma qo'l bir nafarga, buzma go'zal odatingni.
Bundoq fursat odamga, anglaki, qaydan bir bo'lur.

Tutmasin chehrangni g'am,
chekma faqrga dard-u malol,
Yuzingning suvini to'k, tur yo'lning ustida joy ol.
Egib ol bo'yningni to ki, o'zni gadoliqqa sol,
San'at o'rganma mabodo, ishlashni etma xayol,
Bu zalillik-la ki, bo'ldingyanada bad ahvol.
O'g'ri bo'l ki, bu ishdin insonga ko'p foyda bo'lur.

Foyda axtar, senga yuz bersa-da hayotingda zarar,
Don o'g'irlik qil, mol yig' ki, ular g'amingni mahv etar.
Ayyor bo'l o'z amalingda, kuningni qilma besar.
Yeb yur ul yo'lda, to'xtama, ozina tursang agar,
Xalq qo'lingdan chiqar-u, Xoliqqa ming nola etur,
U ko'rgandir, U bilgandir, seni istasa tutur.

[1] She'rlarni forschadan Karim Bahriyev tarjima qilgan.

FAQIR, O‘ZINGNI SEN HAM BIR INSON BILASANMI?!

Faqir, o‘zingni sen ham bir inson bilasanmi?!
Pulsiz kishi, insonlikni oson bilasanmi?!

Inson bo‘lganning joh-u jaloli kerak bo‘lsin,
Inson bo‘lganning davlati, moli kerak bo‘lsin,
Himmat demasman, uylari oliy kerak bo‘lsin.

Olchoq, kazzob bo‘lmoqni ravon bilasanmi?!
Ahmoq kishi, insonlikni oson bilasanmi?!

Har majlisi oliyda suqilma tez aroga,
San tur poygakda, dema bir so‘z umaroga,
Joiz emas insonday tanishmoq fuqaroga.

Davlatlilarga o‘zingni yakson bilasanmi?!
Ahmoq kishi, insonlikni oson bilasanmi?!

Faqr ila gina ahliga kim berdi musovot?
Ma’noda ham, suratda ham bor bunda xilofot,
O‘z fazlingni pulsiz etmassan kimsaga isbot.

Buni mumkinu qobili imkon bilasanmi?!
Ahmoq kishi, insonlikni oson bilasanmi?!

Ket, yut saqiching, ishla ishing, chiqma poyingdan,
Maqsud musovot esa ayrilma joyingdan,
Bor nisbati arbobi dunyoga ne xo‘yingdan?

Bir kun kelib, aqchangni milyon bilasanmi?!
Ahmoq kishi, insonlikni oson bilasanmi?!

Davlatlimiz, albatta, sharofat ham bizniki,
Amlak bizniki bo‘lsa, maishat ham bizniki,
Devon bizdan, arbobi hukumat ham bizniki.

O‘lka tarafimda deya, xon-xon bilasanmi?!
Ahmoq kishi, insonlikni oson bilasanmi?!

Osuda to‘lmoqda toshib cho‘ntak davlatimizdan,
Orzumand bo‘larsiz hali ne’matimizdan,
Shundoq chiqa olasizmi bizning minnatimizdan?!

Ehsonimizning shukrini kufron bilasanmi?![2]
Ahmoq kishi, insonlikni oson bilasanmi?!

Hech bir uyalarsan?!
Yo bir kuyunarsan?!
Al-minnati lilloh,
O‘tlarda yonarsan!

TANİ-ADAMİ ŞARİFAST BE NANİ-ADAMİYYAT]

Tani-adami şarifast be nani-adamiyyat,
Na hamin kamalü fazlast nişani-adamiyyat.

Agar adami be nitqastü be lahn sövti-dİlkeş,
Çi mayaneyi-qramafon, çi mayani-adamiyyat.

Xöraşü plov, fisincan, xinikabi-qandü fincan,
Hayavan xabar nadarad zi xani-adamiyyat.

Be tabiat adami şöv peyi-safki-xuni-ixvan,
Rakü xuni-adami xür be dahani-adamiyyat.

Agar in dirandaxuyi nabüvad çisan tavan kard,
Hama ömr candabazi be zanani-adamiyyat1.

Güzarani-fa’la didi... to sual kon, zi qeyrat
Bedar ay ta be bini güzarani-adamiyyat!..

Tarjimasi[1]*:*

Odamni noni-la endi tanirlar, sanarlar inson,
Insonga bezak emasdir bu zamonda ilm, irfon.

Gapdonlikda, so'zchilikda birin odam derlar jondan,
U ne ila farqlanar, bas, chirilloq gramofondan?

Tizilar do'lma, palovjon, to'shalar guldor dasturxon,
Bundoq inson olamida ne bilar ne bor ki, hayvon.

Odam bo'l tabiating-la, titib olamni to'zit sen,
Basharning uzib bo'g'zini,
sen o'z og'zing ila ich qon.

Bundoq vahshiylik, jinoyat agar bo'lmasa birida,
Ne safoli ishla mashg'ul bo'lar bul jahonda har on?

Qandoq umr kechar sho'rlik... o'rgan endi g'ayratidan,
Nazar ayla, ko'r ki, inson bo'larkan nechuk faravon.

NOAHL BO'LGANGA MATLABNI ANGLATIB BO'LARMI?!

Noahl bo'lganga matlabni anglatib bo'larmi?!
So'zga qonmaganni zo'r ila tinglatib bo'larmi?!

Ko'nglim senga moyildir azaldan, ey pul!
Bo'lsam-da toatingga yil-u kun mashg'ul,
Sen-la ko'rarman o'zimni har bazmda maqbul,

Sensiz bu jahon ahlin ishontirib bo'larmi?!
Noahl bo'lganga matlabni anglatib bo'larmi?!

[1] Forschadan Karim Bahriyev tarjimasi.

Sensiz yo‘qdir afsonai sarmoyai faxrim,
Sen-la yuksalar martabai poyai faxrim,
Gar kechsa yuzim qibladan, ey moyai faxrim,

Sendan yana ko‘z nurin to‘ldirib bo‘lurmi?!
Noahl bo‘lganga matlabni bildirib bo‘larmi?!

Jonim uzilar puldan kechib, xalqni suyguncha,
Hech yotganim yo‘q to seni sandiqqa qo‘yguncha!
Durlar menga: pul yig‘moqni boshla, e to‘yguncha!

Ishq ahlini savdodan gangitib bo‘larmi?!
Noahl bo‘lganga matlabni anglatib bo‘larmi?!

Kosib emasmiz, jilvai pulni tanirmiz biz,
Pul bilan bo‘lgan shon-u shavkatdan qonarmiz biz,
Bir zarra zarar yetsa pulga, o‘tlanarmiz biz,

Yonsin jigarim! Tilloni zanglatib bo‘larmi?!
Noahl bo‘lganga matlabni anglatib bo‘larmi?!

Sa’y aylaganman bir necha yil aql-u axloq,
Qancha urinib qo‘l ko‘rmadi sarvat-u amlok,
Bir ojizga rahm etmasdan, umr o‘tkazgayman toq,

Endi bu yo‘limni berib, changlatib bo‘larmi?!
Noahl bo‘lganga matlabni anglatib bo‘larmi?!

Bular o‘tar, endi tushdi el boshqa havoga,
Pul istaydilar, maktab ochilsin fuqaroga,
O‘g‘lon o‘qisin, qiz o‘qisin, to‘lsin ziyoga;

Kosiblarni ilmga o‘qib, o‘rgatib bo‘larmi?!
Noahl bo‘lganga matlabni anglatib bo‘larmi?!

Endi, mana, ilm izlar millat bolasi?!
Tahsili kamolot etar ummat bolasi?!
Borsin ishga bu tanbal-u beg‘ayrat bolasi!

Jonim, ko‘zim, oriflarni gangitib bo‘larmi?!
Noahl bo‘lganga matlabni anglatib bo‘larmi?!

Bizlarda yo‘q edi bundoq odat, — endi chiqdi,
Bolalarga dars-u kitobot endi chiqdi,
Islomga zarar berar bu bid’at[2], — endi chiqdi,

Bu chashmaini bir yo‘l ila bulg‘atib bo‘larmi?!
Noahl bo‘lganga matlabni anglatib bo‘larmi?!

BOQ, TAAJJUB, NE OG‘IR UYQUDA O‘G‘LON, O‘LIKDAY!

Boq, taajjub, ne og‘ir uyquda o‘g‘lon, o‘likday!
Hatto tebranmas aning ustida chopon, o‘likday!..

Bu qadar qichqiriqqa turdi qo‘ni-qo‘shni tamom,
Qimir etmas bu, berganmi, deysan ki, bu jon, o‘likday!

Demoq bo‘lmas tirilar bir yotib, albat, turadi,
O‘liklar yotajakdir, yo‘q bunga poyon, o‘likday!

Ko‘p sovuqdir chiqqan ohistagina bir-bir nafasi,
Badanida uvushgan, laxtalangan qon, o‘likday!

Simirar jonini bitlar, burgalar, his etmas,
Chalsa karnay ustida, qilt emas hamon, o‘likday!

Qay tabibga arz etdim uning illatini,
Dedi: ol bundan qo‘ling, qo‘ygin, ko‘p zamon o‘likday!

Na “xabar” ila, na “tanaffus bermoq”la buni —
Va na “do‘q” ila bo‘lar dardiga darmon, o‘likday!

Buni xato tushunar jumla musulmon bolasi
Har viloyatda derlar: voy otangdan, o‘likday!

Mazali gap bu ki, bir necha o‘ris “dama”lari
Bularga qo‘shilib derlar ki, musulmon o‘likday!

Omon, ey Mullo tog‘a, bir kitob och, fol ko‘rgin,
Topmasang chorasini, sen ham ayt al’amon:o‘likday!..

ASILONA TARONA

Nega suqilding oraga, ey boshi baloli qashshoq?!
Ne xayol bilan bo‘libsan bundoq iddaoli, qashshoq?!

Sen meni tinglamay, ablah, shoshib yo‘ldan adasharsan,
Eshikda turmading kutib, ichkariga o‘zni urarsan,
Qara, faqir ahvolingda boy va xon-la talasharsan,
Ko‘rmayapsan, biz boylarning ne qadar jaloli, qashshoq?!

Eh, baqir-chaqir qilarsan, o‘rtanib ham uyalmassan,
Odob ila o‘z o‘rningni tanib jim o‘tirolmassan,
Yana ko‘hna choponingdan uyalib ham qizarmassan,
Salla dersan, boshingda — lattadir matoli, qashshoq?!

Bunga boq, bir sir-sifat-la tanisharlar bir ibora!..[1]
Ko‘zim og‘riydi etganda bu qurg‘urga bir nazzora...
Keltiribon otdi kimlar bularni bizning diyorga?
Ne bilay — qay yerli kosib,
ne bilay — qay yerli qashshoq?!

Bundoq edi odat avval, boyga yolvorardi kosib,
Basavlatni ko‘rganida oyoqqa turardi kosib,
Ikki qat bo‘lib, odob-la boyga bosh egardi kosib,
Bor edi vafoli kosib, bor edi hayoli qashshoq!

Aylandi zamona endi, to‘lg‘ondi butun jamoat,
Oyog‘i choriqlilar ham kelib istaydi musovot!..
Bundoq asrda maishat bizga xush tatirmi, hayhot?!
Uyg‘onib vatan, jamoat, ko‘z ochdi jafoli qashshoq!

Jo‘na, yo‘qsil, sen ket yiroq, sening kunlaring oy bo‘lsin,
Ket, tenging-la so‘zlashkim, senday faqirga to‘y bo‘lsin,
Bashiriyat olamidan nimangga ko‘ra joy bo‘lsin?
Shu emasmi bosh-oyog‘ing, ey boshi havoli qashshoq?!

Bashiriyat axtararsan, qani rutbai jaloling?
Madaniyat axtararsan, qani puling, mulk-u moling?
A’zamiyat axtararsan, qani bug‘doyingu boling?
Qani qator qator sholing, yirtiqdir ro‘moling, faqir?!

So‘zlagaysan ezg‘in-ezg‘in, qani qasr-u zarnigoring?
Qani “Anna”dek jazmaning, qani “Sonya”dek nigoring?
Qani majlis-u qimoring, qani ulfati mayxo‘ring?
Qani nash’ai xumoring, ey qalin qaboqli qashshoq?!

Agar istasaydi Alloh, ki seni etardi maqbul,
Bizga berganiday, albat, senga ham berardi pul-mul,
Qo‘y, uyal layoqatingdan, nolishlarga bo‘lma mashg‘ul!
Quruq, bo‘sh qo‘l bilan ummat topmagay kamolin,
qashshoq!

Fikr ayla, etma hech vaqt bundoq bo‘sh xayolni,
qashshoq!
Tur, ket, jahannam bo‘l, yuragim yaroli, qashshoq!..

LAYLI-MAJNUN

Ey davlatimning zavoli, o‘g‘lim!
Ey boshi og‘ir baloli, o‘g‘lim!

Ey maktabu darsning oshnosi!
Ey rishtai ilm mubtalosi!

Shod bo‘ldim u kunki, sen tug‘ilding,
Ming shukur ayladimki, o‘g‘lim bo‘lding.

Derdimki, go‘zal adab bo‘larsan,
Bir oilaga sharaf bo‘larsan.

Pulli hunarimni yod etarsan,
Otangni, onangni shod etarsan;

Bu dunyodan bo‘lsa ketar holim,
Shundoq senga tark bo‘lar mulk-u molim.

Bilmasdim, bo‘lursan ilmga shaydo,
Sho‘rida etar seni bu savdo.

Ba’zi o‘qiganlar rafiqi badxoh
Tadbirimni zabun etmish, evoh!

Aldanib unga, seni o‘qitdim,
Yuz hayfki, aqlimni unutdim!

Kesdim o‘z qo‘lim-la o‘z oyog‘imni,
Xomush ayladim men o‘z chirog‘imni.

Eyvoh, bu xato o‘tib o‘zimdan,
Ko‘z nurini sochibman ko‘zimdan.

Sen ham nega buncha sahv etarsan,
Ko‘z nuri kabi uzoq ketarsan?

Buncha o‘qiding, tashla bu dorni,
Bir marta tashla bu zahri morni!

Pul qolmadi, boqsam hisobga, —
Ketdi qalamga, qog‘oz, kitobga.

Jurnal-u kitob yuz-yuz bo‘lmas,
Bu harj tijoratga tuz bo‘lmas.

Daftarga besh-olti jild basdir.
Ey nodo‘stim, bu ne havasdir?!

Chernil, grafit, pero, karandash[1] ki, —
Ijod etgani bo‘lsaydi sil, koshki!

Insof aylamasmisan ki, yondim,
Pulni ne azob ila qozondim!

Behuda esa nega xarj etarsan,
Bu ko‘nglimga har xil ranj etarsan!

Xarjing ozayib, tuganmas erdi,
Billoh, tag‘in pulim ko‘payardi!

Kuching yo‘qdir, qiynaldi joning,
So‘ldi gul yuzing, qoraydi qoning.

Taqdir bu ki, xastadir mizojing,
Yo Rab, kim etar sening ilojing?!

Na bordir yeb-ichmog‘ing, na-da xobing,
Tahsilgadir barcha ishtibohing.

Na sayr-u safoni xohlagaysan,
Na dars-u kitobni boshlagaysan.

Milt-milt o‘qibon chirillagaysan,
Qarg‘a kabi zor qag‘illagaysan!

Ayyomi bahorni to‘ldir, o‘g‘lim!
Qo‘yma meni g‘amga, kuldir, o‘g‘lim!

Hamyoshlaring safoda, bog‘da,
Hamasrlaring chamanda, bog‘da.

[1] O‘quv qurollarining ruscha nomlari.

Ba'zisi kezmoqda dashtzorni,
Qush qo'lida, aylagaylar shikorni.

Ba'zilari bir tarafda, xilvat,
Odatda etarlar aysh-u ishrat.

Ba'zisi bo'lib qimorga mashg'ul,
Boshqasi sharobga, yorga mashg'ul.

Har bir nafari bir ishda halak,
Har digari bir amalda bebok.

Har kun og'aynilarini shod etarlar,
Hurmatlarini ehtiyot etarlar.

Xush bo'l, og'a-iningga sen darhol,
Har doim bo'larsan jahonda xushhol!..

MAZLUMLIK ETIB, YO'L BERMA FARYODGA, EKINCHI!

Mazlumlik etib, yo'l berma faryodga, ekinchi!
Solma o'zingni tulkilikka, o'tga, ekinchi!

Bir uzr-la har kunda kelib turma eshikda,
Yolvorma menga, bo'yning egib turma eshikda,
Gohi boshingni, goh to'shingni urib turma eshikda,

Sergap bo'lma, odob ko'zla bu ma'voda, ekinchi!
Lol bo'l, ey bolam, yo'l berma faryodga,ekinchi!

Xush kelmasa yil ishchiga, dehqonga, menga ne?
Yog'masa yomg'ir, urug' do'nmasa donga, menga ne?
Tushsa qora to'zon ekinga, bo'stonga, menga ne?

Urdi sening qashshoqliging badga, ekinchi?!
Qilt-qilt mo'ltirab, yo'l berma faryodga, ekinchi!

Shamol olsa sar-u somoningni, naylay?
Yoinki chigirtka yesa bo'stoningni, naylay?
Berding o'tgan yil topgan-tutganingni, naylay?

Endi navbat gilam sotmoqqa, ekinchi!
Lol bo'l, ey bolam, yo'l berma faryodga, ekinchi!

So'z ochma menga ko'p ishlabon, oz yemog'ingdan,
Jonim qiynalmasin ki, o'laman demog'ingdan!
Men ko'zlamayman, bug'doy chiqsa, qo'l solmog'ingdan!

Sholi-da keltir, arpa-da, bug'doy-da, ekinchi!
Yo'qsa so'yarman, otarman uyingni o'tga, ekinchi!

Hech narsam yo'q desang, olarman joningni, albat!
Vallohi, bo'g'ay diydai giryoningni, albat!
Balchiqqa tiqay paykari uryoningni, albat!

O'z holingni o'zing endi olaqol yodga, ekinchi!
Qilt-qilt mo'ltirab, yo'l berma faryodga, ekinchi!

Dehqon otasan, bug'doyni ber, sho'rni yegaysan,
Suv bo'lmasa, qishda eritib, qorni yegaysan,
Toshdan yumshoq zahar nedir, morni yegaysan,

Bog'lamabdi taning etu yog' dunyoda, ekinchi!
Hayvon kabi umr o'tkazibsan, sodda ekinchi!

Lekin mening insonlik bo'lmas vaz'i madorim,
Boyzodaman, osoyishdadir jumla qarorim,
Maysiz, mazasiz bo'lmas, axir, shom-u nahorim;

Endi shundoqdir holati boyzoda, ekinchi!
Boyzodalarning rasmi shudir dunyoda, ekinchi!..

AL MINNATU LILLOH KI, "DABİSTAN" HAM YOPILDI!

Alminnatu lilloh ki, "Dabistan"[1] ham yopildi!
Bir bodi xazon esdi, guliston ham yopildi!

Hosillari puch bo'ldi butun ahli dehqonning,
Yel urdi qovun-tarvuzni, bu bo'ston ham yopildi!

"Ülfat"[2] kesildi, to'xtadi "Bürhani-taraqqi"[3],
Mahv bo'ldi "Hamiyyat"[4], odobiston ham yopildi!

"Rahbar"[5] o'zgarib, uxladi "Irşad"u[6] "Takamül"[7],
Arslonlarga o'q tegdi, bog'iston ham yopildi!

Maydoni raqobatda bizning himmatimizdan
Da'vo yopilib, Rustami doston ham yopildi!

Vatan ahllari, qo'y, baqirib o'lsin dardidan,
Yondi onalar siynasi, maston ham yopildi!

Qo'y, ko'hnalarning tosh yuragi guldek ochilsin,
Dorul zafari tozaparast jon ham yopildi!..

---

[1] **"Dabistan"** — 1906–1908-yillarda Bokuda chop etilgan bolalar uchun maxsus jurnal edi. Uning yopilishi ziyolilarni tashvishga solgandi.

[2] **"Ulfat"** — 1905–1907-yillarda Petrburgda tatar tilida chiqqan gazeta.

[3] **"Burhani-taraqqi"** — 1906–1911-yillarda Astraxanda chop etilgan diniy gazeta.

[4] **"Hamiyyat"** — 1907-yilda Astraxanda nashr etilgan "siyosiy, ilmiy, fanniy, adabiy, adabiy va tijoriy... jaridai islomiya" edi.

[5] **"Rahbar"** — 1906–1907-yillarda Bokuda chop etilgan, Kavkaz va Rossiyada tarqatilgan jurnal.

[6] **"Irsad"** — 1905–1908-yillarda Bokuda nashr etilgan gazeta.

[7] **"Takamul"** — 1906–1907-yillarda Bokuda nashr etilgan gazeta bo'lib, har hafta chiqardi. So'nggi soni 1907-yil mart oyida chiqqan.

MUALLIMLAR[1]

Taklif etilgandi maqbul Ganja syezdi,
Bo'lgandik ajab biz yana rohat, muallimlar!

Tushdi davr chohiga badbaxt "Nicat"[2]ing,
Aylashmadi bir lahza farog'at, muallimlar!

Devondorlari bandga chekib, oldi ikki bor
Bu bid'at bo'lgan amrga ijozat, muallimlar!

Endi Bokuda boshlanajak bo'ldi bu majlis,
Bo'ldik yana ul majlisga da'vat, muallimlar!

Qo'ymas bu yashirin bizni dunyoda besh-o'n kun
Odatiy qilib kayf, etsak ishrat, muallimlar!

Bilmam, bu s'ezdning nedir, axir, bizga xayri —
Har yilda cheksak buncha aziyat, muallimlar?!

Doim bu tashabbuslar bo'lar haqqul-amalsiz,
Millat puli yo'q, to olsak biz naqd, muallimlar!

Lozim, deydilar, xarj etsak shul cho'ntagimizdan,
Ham sarf etsak,
ham moyai zahmat, muallimlar!

Bunday amalga aql bo'lgan do'stimiz bo'lmas,
Loyiqmi cho'ntaklarga xiyonat, muallimlar?!

Ya'ni, ne demoqdir bu ki, sen pulingni xarj et,
To ilm o'qirkan dars ila millat, muallimlar?!

---

[1] M.A. Sobir matnida "Uchitellar" deb nomlangan.

[2] **"Nicat"** — Bokuda tashkil etilgan xayriya jamiyati bo'lib, muallimlarni qurultoyga shu jamiyat da'vat etgan edi.

Millatdan o‘tib yig‘lagan oxirda bo‘lar ko‘r, —
Mazmunli masaldan bu iborat, muallimlar!!

Bildir-da na zahmat-la bu majlisga yig‘ildik,
Etdik ne qadar bo‘sh yerda suhbat, muallimlar!

Bir-bir tanishildi ki, nedir shia ila sunniy,
Lozim ki, bir bo‘lsin shariat, muallimlar!

Dersiz ki, kerakdir ochilsa maktabi juvon,
Bir yonda yana maktabi san’at, muallimlar!

Bu laqmalik, yolg‘onlarga kim quloq osdi,
Kim berdi bu ahmoq so‘zga qiymat, muallimlar?!

Bosh tutdimi baytul molimiz, so‘yla, ey Alloh?
Men o‘lay, chekdikmi hech xijolat, muallimlar?!

Islomni o‘lik yo tirik bilarsiz, ayting?
Talab aylasaydingiz vakolat, muallimlar?!

Bir millatga siz bo‘lsangiz shundoq ega garchi,
Botsin yerga, yo Rab, bundoq millat, muallimlar!

Sidqi bu ki, bu borada ra’yimdir g‘alayon —
Siz-la bo‘la olmam bir shirkat, muallimlar!

Fikrim budir, shundoq olam o‘z kayfiga mashg‘ul —
Bir go‘shai gulzorda xilvat, muallimlar!

“May shishada, jom qo‘lda,
og‘ir nash’a boshimda...”
Bu she’rni etay tarki odat, muallimlar!

VAQTI KI, BO‘LUR BIR UYDA MOTAM

Vaqt ki, bo‘lur bir uyda motam,
Tashkil etilar “xudoyi”, “ehson”,
Ma’lum etarlar afkori olam,
Farah ila qo‘llarda “kalyon”,
Uy sohibining xayoli barham,
Uy mehmonlarining fikri — do‘lma, non,
Pishganda qovurdoq qozon-qozon,
Kelganda tovoq-tovoq baqlajon–
Yod et meni, yog‘li-yog‘li yod et!

Vaqti ki, asos bo‘lar batartib
Majmuai noz-u ne’mat ila,
Dasturxonda saf bo‘lib baodob,
Ehsoni nisoba matonat ila,
Darvozada ahli faqr: “Yo Rab!
Yo Rab!..” — chaqirar zalolat ila;
Dasturxonda totli sharbat, ah-ah,
Ichadi mehmonlar qo‘lda qadah,
Darvozada hasrat-u naodomat,
Og‘zing to‘lganda ehson oshidan–
Yod et meni, mahzun-mahzun yod et!

Vaqti keltirur bir ahli sarvat
Xayroti zakot bir qadar pul;
Sayful ulamo etib ijobat,
Ayol-la bo‘lar va lekin mashg‘ul;
Ya’ni ki, muqaddasmi haqiqat (?)
Men — fozili asr, xalq — emas fozil.
Mablag‘ to‘kilar qoshingga lay-lay,
O‘lganda havolai faqr-u balodan ,
Haqqul fuqaroga ul shayx o‘qday:
“Val lahadu..” debon jilmayar pinhon,
Yod et meni, gizli-gizli yod et!..

FAXRIYA

Garchand biz asiri davr-u zamonmiz,
Garchand baloga duchor bir jahonmiz,
O'ylama ki, shu asrda ovorai nonmiz,
Avval na bo'lsak, yana biz shunda hamonmiz...

Turonlimiz, urfchi, san'atchi, lofchimiz biz!
O'z qavmimiz boshin angallovchimiz biz!

Zulmatsevar insonlarmiz uch-besh yoshimizdan,
Fitna qilamsiz tuprog'imizdan, toshimizdan,
Makr etibon, bosh olarmiz qardoshimizdan,
Chiqmas, chiqa olmas bu odat boshimizdan...

Safdoshimizga chunki haqiqiy xilofchimiz biz!
O'z qavmimiz boshin angallovchimiz biz!

Ul kunki, Malikshoh Buzurg[1] ayladi rihlat,
Etdik ikki nomard vazirga tobelik niyat,
Qo'rqdik u qadar bir-birimizdan ki, nihoyat
Dushman keldi-da, taxtimizni ayladi g'orat...

O'z haqqimizni ko'zlamoqqa betarafmiz biz!
Turonlilarmiz, urfchi, san'atchi, ustai lofmiz biz!

Bir vaqt bo'ldik lashkari Chingizga[2] tarafdor,
Xorazmiylarni[3] mahv ayladik qatl ila bir bor,

---

[1] **Malikshoh (1055–1092)** — Saljuq hukmdori edi. Otasi Alp Arslon vafotidan so'ng hokimiyatga egalik qilib, Ozarbayjonning shimoliy viloyatlarida ham hokimiyatini mustahkamlashga harakatlar qilgandi.

[2] **Chingizxon (Temuchin) (1155–1227)** — Mug'ul xoni va sarkardasi. Uning hukmdorligi davrida (1206–1227) Mug'ul davlati tashkil topdi, hokimiyatini Shimoliy Xitoy, Sharqiy Turkiston, Xorazm davlati va boshqa yurtlarga yurishlar qilib kengaytirdi.

[3] **Xorazm davlati** — 1220-yilda Chingizxon qo'shinlari bosqini ostida parokanda bo'ldi.

Xorazmiylarning shohi qochqin bo‘ldi nochor,
Masjidlarni, maktablarni yiqdik yana takror...

Haqqa ki, sazovori nishon-u sharafmiz biz!
O‘z dinimiz boshiga balo, xilofmiz biz!

Bir vaqtda da’voi Salib[1] o‘ldi muhayyo,
Da’voda faranglarga qilib taqlid, ammo
Tinchimasdan etdik fojini barpo,
O‘z tig‘imiz ildizimidan kesdi sarpo...

Go‘yoki biyobonda bitgan bir alafmiz biz!
O‘z qavmimiz boshin angallovchimiz biz!

Bir vaqt yana Qoraquyun[2], Oqquyun [3]bo‘ldik,
Ozarbayjonga, hamda Onado‘liga to‘ldik,
Qadrimizni qirib bir-birimizdan ki, yorildik,
Qirgancha yorildik va yorilguncha qirildik...

Turonlimiz, urfchi, san’atchi, lofchimiz biz!
O‘z qavmimiz boshin angallovchimiz biz!

Bir vaqti salib tafriqa bo‘ldik ikki qismat,
Temur[4] shohga bir poramiz etdi hamiyat,
Xon Yildirimga[5] bir poramiz qildi iatoat,
Qonlar sochilib, Anqarada qo‘pdi qiyomat...

---

[1] **Salib yurishlari** — XI–XIII asrlarda G‘arbiy Ovro‘po feodallarining Baytulmuqaddasini “musulmonlar hokimiyatidan xolos qilish”, katoliklikni yoyish uchun yurishlari edi.

[2] **Qorquyunli** — XV asrning birinchi yarmida barpo etilgan davlat bo‘lib, 1468-yilgacha mavjud bo‘lgan, poytaxti Tabriz edi.

[3] **Oqquyunli** — XV asrning ikkinchi yarmida yaralgan davlat bo‘lib, 1467-yildagi urushdan so‘ng tarqab ketdi va yangi Oqquyunli davlati paydo bo‘ldi.

[4] Amir Temur (1336–1405) — Turkiston Amiri va sarkardasi.

[5] **Yildirim Boyazid (1360–1403)** — 1389–1402-yillarda Turkiya sultoni bo‘lgan, o‘z saltanatini kengaytirish uchun Yevropa va Osiyoda yurishlar qilgan. 1402-yilda Anqara atrofidagi urushda asir olingan.

Ahsan bizga! Ham qilich, ham qalqonmiz biz!
O‘z qavmimiz boshin gangitgan jonmiz biz!

Temur shohi langga bo‘lib tobei farmon,
Xon To‘xtamishni[1] ayladik ol qoniga g‘alton,
To bo‘ldi Qizil O‘rdalarning davlati talon,
Moskov shohiga foydabaxsh bo‘ldi bu maydon...

Yovlikda urushmoq ila sharafdormiz biz!
O‘z dinimizning boshiga yetguvchi xormiz biz![14]

Bir vaqt Shoh Ismoil[2] va Sulton Salimga[3]
Dushman o‘laroq ayladik islom dinimga,
Qo‘ydik ikki yangi nomni bir dini qadimga,
Chiqdi bu shialik, bu sunniylik yo‘limga...

Tushgancha bu holatga sazoyi asabmiz biz!
O‘z dinimiz boshiga balo-yu g‘azabmiz biz!

Nodir[4] bu ikki xastalikni oldi nazarga,
Istardi, davo aylasa bu qo‘rqinchli dardga,
Bu maqsad ila azm etaroq kirdi saflarga,
Maqtulan uning loshini qo‘ydik quruq yerga...

---

[1] **To‘xtamish** — Qizil O‘rda xoni edi, 1385-yilning oxirlarida katta qo‘shin bilan Ozarbayjonga hamla qilib, Shirvon, Tabriz va boshqa shaharlarni talon-toroj etgandi.

[2] **Shoh Ismoil (1486–1524)** — Safaviylar sulolasida Ozarbayjonning ulkan davlat xodimi va shoiri edi. 1502–1524-yillarda Ozarbayjon va Eron shohi bo‘lgandi. “Xatoiy” taxallusi bilan ozarboyjon tilida devoni, “Dahnoma”, “Nasihatnoma” kabi asarlari mashhurdir.

[3] **Sulton Salim (1467–1520)** — 1512–1520-yillarda Turkiya sultoni bo‘lgan, Safaviylar davlatiga qarshi “islomning mudofasi” shiori ostida urush olib borgan.

[4] **Nodirshoh (1688–1747)** — 1736–1747-yillarda Eron shohi edi, Ozarbayjon, Armaniston, Gurjiston, Dog‘iston, Buxoro va boshqa zaminlarda urushlar olib borgan, 1747-yilda suiqasdda o‘ldirilgan.

Bir ajib narsamiz, na bilim, na ruh hofizmiz biz!
O‘z dinimiz boshiga balo-yu chohmiz biz!

Endi yana bor yangi xabar, yangi tomosho,
Eronli, usmonli nomi bo‘ldi ihyo,
Bir qit’a ustida qo‘pdi bir yakka da’vo,
Maydon ki, qizishdi o‘laroq mahvi sarupo...

Busiz ham agar chandon ki, yaksar talabmiz biz!
O‘z qavmimiz boshiga bala-yu xalafmiz biz!

QO‘RQAMAN

Poyi piyoda kezarman cho‘llarni, —
Vahshiy qurt, ilon ko‘rarman, qo‘rqmasman.

Sayr etarman dasht-u biyobonlarni, —
Bo‘ri biyobon ko‘rarman, qo‘rqmasman,

Goh bo‘larmon ummonda zavroqnishin, —
To‘lqinli to‘fon ko‘rarman, qo‘rqmasman.

Goh chiqarman sohilga, har yonda ming
Vahshiy sirtlon ko‘rarman, qo‘rqmasman.

Goh shafaqdek tusharman tog‘larga, —
Olovli vulqon ko‘rarman, qo‘rqmasman.

Goh kirarman soyali o‘rmonlarga, —
Ming yirtqich hayvon ko‘rarman, qo‘rqmasman.

Yuz qo‘yarman gohi zimistonlarga, —
Bir suruv arslon ko‘rarman, qo‘rqmasman.

Qabristonni etarman goh makon, —
Qabrda mor-u chayon ko‘rarman, qo‘rqmasman.

Manzil bo‘lur menga goh vayronalar, —
Ruh ko‘rarman, jon ko‘rarman, qo‘rqmasman.

Bu kurrai arshda men, muxtasar,
Muxtalif alvon ko‘rarman, qo‘rqmasman.

Xorijiy yerlarda ham hatto kezib
Ko‘p turfa inson ko‘rarman, qo‘rqmasman.

Lek, bu qo‘rqmaslik bilan, to‘g‘risi,
Oh, do‘stim, vallohi, billohi, tallohi,
Qayda bir musulmon ko‘rarman, qo‘rqarman!..

Besabab qo‘rqmayman, vaji bor:
Naylayin axir, bu yo‘q bo‘lganlarning
Fikrini qon-qon ko‘rarman, qo‘rqarman,
Qo‘rqarman, qo‘rqarman, qo‘rqarman!..

BA’ZI YERLARDA TASODIF KELARLAR OSHGA, OTA

Ba’zi yerlarda tasodif kelurlar oshga, ota,
Yemak ko‘rsam, tutarman o‘zimni bir boshqa, ota!

Degayman, koshki qo‘noqlik bo‘lgan uylarda butun
Yeb-ichmoq ila boshim band bo‘lsa kun-kecha, ota!

Shu qadar jonim kirari tutuni chiqsa kabobning —
Och-nahor butun yutarman zavq ila ichga, ota!

Ko‘rib qolsam go‘shtni qassob do‘konida osig‘liq,
Oz qolar — bir it kabi nafsim hurar go‘shtga, ota!

Jon bo‘lar jonimga go‘sht, xush yoqar bo‘g‘zimga kim,
Men yerman, bunga bolalar boqib,
tusharlar yig‘lashga, ota!

Go‘shtni ko‘p istayman,
ammo pulni istarman-da ko‘proq,
Ne bo‘lar, quzg‘un kabi to qo‘nsam go‘tli to‘shga, ota!

Xarj etarsan bir parcha aqcha pulingni bayramda
Za’faronga, yog‘ga, zira-yu arpabodiyonga, ota!

Filhaqiqiat, yemoq kerak agar ovqat tekin bo‘lsa,
Bo‘lmagay puling ketsa qariga, yoshga, ota!

Pulga asli yarashar, gar saqlasang sandiq ichra,
Ne kerak xarj aylamoq millatga, dindoshga, ota?!

Boshdan aqlim ketar,
Alloh ham bilar, millatdan,
Nomi chiqsa jim bo‘larman, aylanib toshga,ota!

Pulning oti pul erur, lek o‘zi jon ozig‘i,
Berib bo‘lmas qarindosh-u qo‘shniga, qardoshga, ota!

Berarman dinimni, iymonimni, ammo pulimni
Bermayman, “Bahlul”[1] og‘a, ishongin yoshga, ota!..

MUALLIMLAR SYEZDI

Bosh tutdi muallimlarning majlisi-syezdi,
Ey voh, “uchitel”lar yana darkor bo‘lajakdir!..

Fikrimcha mening, endi yig‘ilagda hamon
Oldingi masala[2] yana takror bo‘lajakdir.

[1] **“Bahlul”** — 1907-yilda Bokuda chop etilgan jurnal.

[2] Birinchi muallimlar qurultoyida ko‘tarilgan va hamon hal bo‘lmagan masallarga ishora qilinmoqda.

Tashkil etajaklar kishilar qizlar maktabin,
Qizlar o'qibon jumla sharafdor bo'lajakdir.

Har shaharda bir san'at maktabin ochgaylar,
O'g'lonlar olib handasa, me'mor bo'lajakdir.

Tatbiq etajaklar yozuvni shevai turkka,
Yo'qsil-da jahondan xabardor bo'lajakdir.

Tasnif bo'ladi chngi kitob turk tilinda,
Har kim o'qubon ilm-la bedor bo'lajakdir.

Bu bir, ikki, uch masalada yo'q u qadar gap,
Bo'lsin, yo jahannam, necha raftor bo'lajakdir.

Lekin bu yomondir ki, ikki mazhabda chigal
Bir masala ustinda guftor bo'lajakdir.

Sunniylik va shialikni qoldirgaylar-da,
Islomga yetib zarar, rahnakor bo'lajakdir.

Qardosh biladi bir-birini shia va sunniy,
Har amrda xotiri hamafkor bo'lajakdir.

Mazhablarni biryonliq etib bu "uchitel"lar,
Shundoq sokin islom nomi tezkor bo'lajakdir.

Afsus, yuz afsus, hayhot, ey go'zal islom!
Kimlar senga, ko'r, endi tarafdor bo'lajakdir!?

Bosh sochli, oyoq kovushli, jim-jim gapirganlar
Din qadrin bilib, mo''min-u dindor bo'lajakdir!..

CHOPTIRMA OTING, KIRMA BU MAYDONGA, EY MULLA!

Choptirma oting, kirma bu maydonga, ey Mulla![1]
Ko‘p masxara gap yozma musulmonga, ey Mulla!
Solma o‘zingni otashi sandonga, ey Mulla!
Kelsin yozuving joningga, devonga, ey Mulla!

Bu so‘zlaringni yoz xor-u nodonga, ey Mulla!
Biz anglaylik bir, tegdi axir jonga, ey Mulla!

Endi, ayt, ko‘sak — maqsading, ayo, nedir bizdan?
Na kashf-u karomat, na-da bir mo‘jiza sizdan
Hech ko‘rmaganmiz, olma o‘zingni bir nari ko‘zdan!
Shundoq ki, kelar bir gal shakl chekmoq og‘izdan!

Qo‘rqaman, sen buni inkor etasan tag‘in, ey Mulla!
Yo mahv etasan oxirat asarin, ey Mulla!

Ilm ahlisan, et hayz-u nifosi go‘zla unvon,
Yo masalai shak ila sahvi ayla giryon,
Mendan, kel, eshit buncha nasihat, ey musulmon!
Naql ayla, “Cehil Tuti”[2], na hurriyati vijdon?!

Bo‘lgin bir gal pushaymon, kel iymonga, ey Mulla!
Suhbat etarsan huri ul g‘ilmonga, , ey Mulla!

Yo va’z ayla, bizdan o‘tar har axbor-u har xodis,
Qil molga havas, qur bo‘sh yernda qal’ai voris,
Irsola o‘qi, ayla ayon farqi har bois,
Ayo, senga ne bo‘ldi, o‘tdi va’zu ul hadis?

Qil takya, tikla to‘da, ayla rohat, ey Mulla!
Ilm ahliga endi shudir odat, ey Mulla!

---

[1] “Molla Nasraddin” jurnali nazarda tutilmoqda.

[2] **“Cehil Tuti”** — “Ming bir kecha” uslubidagi forscha yozilgan hikoyalar kitobidir. Kitobda To‘ti tilidan so‘ylangan ishqiy hikoyalar kiritilgan.

Chiq minbarga, zohirda o‘qi naql-u kitobni,
Bug‘doyni ur omborga, urgin may va sharobni,
Ur boshiga, niqtagin — bu maxluqqa savobing,
Ayo, ne ishing bor, yozar oyati hijobin?

Bu so‘zlarni inson yozdi insonga, ey Mulla!
Nuqta yaralgan firqai hayvonga, ey Mulla!

Yo mujtahid bo‘l, top o‘zingga ko‘proq muqallid,
Yoinki avom bo‘l, ayla irsolaga taqlid,
Ayo, senga ne, nayladi mullo ila sayyid?
Yo nayladi hoji? Aylama har so‘zga tavhid!

Har ne aylasa, boshda bor imomat, ey Mulla!
Tinma, teginma olami islomga, ey Mulla!

Gohi yomg‘irni, gohi musalloni tanirsan,
Gohi ho‘kizning ustida dunyoni tanirsan,
Gohi bulutni, arshi a’loni tanirsan,
Goh jinni, gohi kulli biyobonni tanirsan,

Jazbaga kirib ko‘p o‘qiding, ozding, ey Mulla!
Har ne kelsa o‘z aqlingga, yozding, ey Mulla!

Tasbehni keltir, quro‘oqni bog‘la, ayla tazvir,
O‘z vahmu xayolotingni ayla bizga tafsir,
Ayo, senga ne foyda ki, Eron bo‘lar ta’mir, —
Rasvo etar har hafta chaqirsang shundoq tasvir?

Axir, senga ne, ne bo‘ldi Eronga, ey Mulla!
Yo mulla, sayyid qo‘lida vayrona, ey Mulla!

Jug‘rofiya nedir, ilmi hisob, ilmi riyoziy,
Yo ilmi masohat etar taqsimi orazni,
Yo ilmi ma’danni o‘qigay, kashf etib gazni,
Qo‘y, ozgina sarf etib o‘qisin, bo‘lsin rozi,

Suhbat aylasin toza najosatdan, ey Mulla!
Yo masalai g'usli tahoratdan, ey Mulla!

Yo tiryaki bo'l, ketma na da'vo-yu azmga,
San'at nedir, Allohga tavakkul ayla, kezma,
Yo tushsa yetim moli — yegin, yo'l ber hazmga,
O'yna, yegin, ich bodani, bor mutrib-u bazmga,

Bizlarga ne kerak tijoratlar, ey Mulla!
Bir yaxshi tijoratdir bu odatlar, ey Mulla!

Ayo, senga na — qiz aro ketdi, ushoqmidi?
Ayo, senga na — ochlarga ne bo'ldi, quroqmidi?
Yo kunda bir fatvo ki, musulmondan yiroqmidi?
Yoinki taraqqiy bizga qaydan edi, uzoqmidi?

Inkor aylama qasd ila ko'hna yo'lni, Mulla!
Bechora, sho'rlik, boshi junundan to'liq, Mulla!

Yotmassan o'zing endi-da, hali yotma,
Mullalarga yonsin diling, xalqni aynitma,
Xonlarning uyin yiqma, qo'zim, ko'hnani otma,
Muzli suvni qaynoq qozonning oshiga tutma,

Yo'q angaganing manfaati jonga, ey Mulla!
Darveshga, oxundga, boyga,
ham xonga, ey Mulla!..

IKKI SAVOLGA BIR JAVOB

Yoqalashib, ko'rmaganing narsa uchun chirillama!
Taprbiyasiz bola kabi behudaga hiringlama!
Bosh-qulog'ing tuzalmasdan, buncha yonib, gurillama!
Turma, shoshilma, yot, bolam, sen aytgan bo'lmadi hali!
Muntazam qilmasang amal, ravnaqi kor bo'lurmi yo?!

Subh to'liq yetmasidan vaqti nahor bo'lurmi yo?
Bir gul ochilmog'i ila fasli bahor bo'lurmi yo?

Turma, shoshilma, yot, bolam, sen aytgan bo'lmadi hali!
Qatl etdingiz Otaboqin, men ki, bu amrga ko'nmasman?!
Bor yana ming Otaboqi, yo'qsa amalda unmasman?
Ko'hna dunyo bu tezlikdatozalashga ishonmasman!

Turma, shoshilma, yot, bolam, sen aytgan bo'lmadi hali!
Girom Otabok o'ldi-da, to'pu sanchqingiz qani?
Bahri muhitning harbida kema-yu jangingiz qani?
Eski hammomdir, eski tos, bas, yangi rangingiz qani?
Turma, shoshilma, yot, bolam, sen aytgan bo'lmadi hali!
So'yla menga, vazorati milliyangiz tuzildimi?
Yo uzun qo'l, uzun papoq qisqalashib chuvaldimi?
O'lkangizga jodu, afsun yo'l topa bildi, keldimi?

Turma, shoshilma, yot, bolam, sen aytgan bo'lmadi hali!
Dorus-safoi Tehronning chet elga bir sayohati,
Mirzo Abdulhasan[1] xonning ko'r ravishi tabobatin,
Tan yarim bo'ldi zahr ila yaksar ajam jamoating!

Turma, shoshilma, yot, bolam, sen aytgan bo'lmadi hali!

Mulki Iroqni adi-badi aytsam agar, kalol bo'lur,
Pul topar qalamimiz yozsa ham malol bo'lur,
Endi tongdan she'rimiz muxtasar arzu hol bo'lur,

Turma, shoshilma, yot, bolam, sen aytgan bo'lmadi hali!
Soyda suv to'lmadi hali!
Ko'hna idoramiz turar,
Rangi ham so'lmadi hali!..

---

[1] **Mirzo Abulhasan xon** — savodi kam bir odam edi. Tanish-bilishlik asnosida ish boshiga kelgan edi. Shoir bu satrida xilof yo'llar bilan hokimiyatga kelganlarga ishora etadi.

SO‘LDIMI GULZORING, EY FOIQI NO‘MON PISAR

So‘ldimi gulzoring, ey Foiqi No‘mon pisar,
Lolai no‘monlaring bo‘ldimi xuni jigar,
Siynangga dasti qazo chekdimi dog‘i qadar,

Nargisi shahlolaring, voh, chalajon bo‘ldimi?
Endi senga men degan matlab ayon bo‘ldimi?!

So‘ylamadimmi senga, rohat o‘tir, hayf sen,
Chekma bu millat g‘amin, chek o‘zingga kayf sen,
Xonga emasdir shoning, o‘limlisen, zaif sen,

Aylamading e’tibor, qissang tamom bo‘ldimi?
Endi senga men degan matlab ayon bo‘ldimi?!

Foyda bermas, dedim, etganing afg‘on senga,
Holiga yonganing xalq aylamas ehson senga,
Maskan bo‘lar oqibat g‘ussai zindon senga,

Go‘shai zindon senga endi makon bo‘ldimi?
Endi senga men degan matlab ayon bo‘ldimi?!

Men demadimmi senga boshda o‘tir tojdek,
Turma muqobil balo tig‘iga omochdek,
Istama hurriyati yo‘qsili muhtojdek,

Bol-u paring nogahon tig‘ga nishon bo‘ldimi?
Endi senga men degan matlab ayon bo‘ldimi?!

Men demadimmi senga kirma ishga jon bilan,
Xavf ayla, tillashma ko‘p boylar bilan, xon bilan,
Bo‘lmagin sen hamravish majlisi Eron bilan,

Majlisi Eronda bir shavkat-u shon bo‘ldimi?
Endi senga men degan matlab ayon bo‘ldimi?!

Men demadimmi senga hazrati zi shonlarni,
Aylama da'vat abas birlikka eshonlarni,
Sen ki, yig'a bilmassan buncha parishonlarni,

Masalai ittihod holi bayon bo'ldimi?
Endi senga men degan matlab ayon bo'ldimi?!

EY ON KI, ULUMI MADANIYDAN XABARING BOR

Ey on ki, ulumi madaniydan xabaring bor,
Yuz dardi saring bor;
Bejo yerga har lahzada sho'r-u shar'ing bor,
Ko'p past nazaring bor.

Basdir, oz ayla bizlarni sen ilmda tolib,
Axir, ne munosib?
Ko'r millati bepoyni, chunon sor-u xoring bor,
Bundan badtaring bor!

Tasxiri ajina ila et kashf-u karomat,
Ehson degay millat;
Ne ilm o'qibon ilmu sanoga hunaring bor,
Na'fing, samaring bor?!

Qalqonli ilon oldiga bor, aylasin afsun,
Etma bizni mahzun!
Minglab bu amalda ko'rasan, siym-u zaring bor,
Oliy asaring bor!

Basdir, tag'in millat g'amini aylama takror,
Bo'lmas bundoq asror!
Bir boq o'zingga, ko'r, necha ashki basaring bor,
Ham chashmi taring bor!

Yuz ilm o‘qisang, oxiri ovora qolarsan,
Bechora qolarsan;
Boqmaslar sening siynangda turli guharing bor,
Lolai taring bor.

Bir yangi javon bo‘lsang, azizim, ishing ishdir,
Bu yaxshi ravishdir;
Har kas ko‘rib, so‘ylar: necha la’lu shakaring bor,
Inja qamaring bor.

Albat, yemoq-ichmoq, kayf qilmoq bo‘lar koring,
Ham bo‘lmagay oring;
Bunda bilasan yaxshichq fath-u zafaring bor,
Holu digaring bor.

Ketsa ish shundoq muhtashami xilvat bo‘larsan,
Osuda qolarsan;
Shundoq qilmasang.
Bilarman, ko‘p xataring bor,
Ham o‘shr-u sharing bor.

Yo‘qsa, aytarsan millati bechora g‘amidan,
Hokim sitamidan;
Bil, tuning kabi nolai murg‘i saharing bor!
Ul darbadaring bor!

Etma g‘ami millat,
Ochma boshga zahmat,
Qilsang shundoq mehnat,
Qonli jigaring bor!

SAVOL-JAVOB

— Ko‘rma! — Bas, ustoz, yumarman ko‘zimni.
— Jim bo‘l! — Muteman, yutarman so‘zimni.

— Bir so‘z eshitma! — Qulog‘imni bog‘larman.
— Kulma! — Xo‘p-xo‘p, shom-u sahar yig‘larman.

— Kuyma! — Bajarmam! Meni ma’zur tut,
Bunaqa taklifi maholni unut!

Qobili imkonmi g‘amga qonmaslik?
Ishq olovi ichra o‘tda yonmaslik?

Ayla xomush otashi so‘zoningni,
Qil meni osuda, ham o‘z joningni!

BEMARHAMAT A’YONLARINGGA SHUKUR, XUDOYO!

Bemarhamat a’yonlaringga shukur, xudoyo!
Bul sohibi milyonlaringga shukur, xudoyo!

Millat g‘amiga boqmagan ansori karam-la —
Eshoni qozikalonlaringga shukur, xudoyo!

Ish bilmagan faqat yemoq-ichmoqdan o‘zga,
Bu jonli tegirmonlaringga shukur, xudoyo!

Bedod ul birodarlar-la qoniga g‘alton,
Qafqozdagi qurbonlaringga shukur, xudoyo!

Xususan Boku shahrinda, u shuhratli makoningda
Daryodek oqqan qonlaringga shukur, xudoyo!

Xunxor bo‘lgan afrodi bani novingga doim —
Bu vahshi-yu parronlaringga shukur, xudoyo!

Qashqir bo‘lsa, shaqol bo‘lsa, biyobonda bo‘lardi,
Shahar ichra bu hayvonlaringga shukur, xudoyo!

Ko‘z-ko‘z qilib sadaqasin ahli olamga —
Himmat qilgan insonlaringga shukur, xudoyo!

Hammomda ham yalang‘ochni tunagan bul[1]
G‘ayratli musulmonlaringga shukur, xudoyo!

Sukut saqlab o‘tirgan bor jinoyatlarni ko‘rib,
Bu sohibi vijdonlaringga shukur, xudoyo!

Bilmam, ne zamon qag‘ring etar olamni barbod?!
Sabr etdigin avonlarga shukur, xudoyo!

Hal bo‘lmadi ko‘nglimdagi mushkulli muammo,
Tasnif etarman matlani, ma’badi bor, ammo!..

MAKTUB

Mulla tog‘a, etma sharorat bundoq,
Oraliqqa solma jaholat bundoq!..

Kunda chiqarma yangi bir qoida,
Maktabni bilma bundoq befoyda,
Millatni band etma “alif”, “be”ingda,
So‘ylama “sa’fas” bundoq, “qarsat”[2] bundoq!..

Ko‘pdan seningdek emasman bir sarob,
To ota ekanman olamda arbob,
Ilm-la bolamni etmasman xarob —
Ming bor aytsang, so‘z shundoq, suhbat bundoq!..

Ilm nedir, fazl nedir — qonmasman,
Ilm otashinda kuyib yonmasman,

[1] 1907-yilda bir necha qurolli talonchi Bokuning ichkari shahar qismidagi musulmon ayollar hammomga bostirib kirib, xotinlarni talagan edi. Bu borada o‘sha davr matbuotida ko‘p maqolalar yozilgandi.

[2] **Sa’fas, qarsat** — eski tadris usulida ta’lim beriladigan abjad so‘zlaridir.

Sen aytgan ig'volarga aldanmasman,
Berma boshqa o'zingga zahmat bundoq!..

Jahlda bir qal'ai tosh devorman,
Olamni mahv etmoqqa men tayyorman,
Nashani, sharobdan kayfga xushtorman,
Etganman umrimda men odat bundoq!..

Sokin bo'l, ko'zimga tiqma millatni!
Ne qilay millatni, bu milliyatni?!
Boshim garang bo'ldi, netay suhbatni,
Qadimdan millat shundoq, ummat shundoq!..

Men faqat o'z amrimga shon qilaman,
Xayrim uchun olamni vayron qilaman,
Men na jamoat, ne vatanni bilaman,–
Yonsin vatan, cho'ksin jamoat bundoq!..

Yo'q ko'zim aslo fuqaroni ko'rmoqqa!
Bir o'zim, fuqaro noravo ko'rmoqqa?
Ko'zda agar bo'lsa ziyo ko'rmoqqa —
Ko'rsat ko'zga pul bundoq, davlat bundoq!..

TUHMAT ETAR GAZETCHILAR, — MAHSHARI NOSI BOSHQACHA!..

Tuhmat etar gazetchilar, — mahshari nosi boshqacha!..
O'zlarining, inon ki, yo'q fahm-u zakosi boshqacha!..

Men kabi oqil bo'lsalar, kasb etsalar o'g'rilikni, —
Zahmati, ranji bir boshqa!.. Zavq-u safosi boshqacha!..

Jumla maorif ahlining holati ko'z o'ngidadir, —
Vaju maoshi boshqacha!..
Dard-u balosi boshqacha!..

Ilm onasiga so‘zlanur Maryamga[1] so‘zlangan jumla,
Ilmning onasi bir boshqa!.. Johil otasi boshqacha!..

Men berarmanmi o‘g‘limni, maktabga, darsga zavq etsam?!
Darsning azasi bir boshqa, xalqning adosi boshqacha!..

1908

TOSH QALBLI INSONLARNI NAYLARDING, ILOHIM?!

Tosh qalbli insonlarni naylarding, ilohim?!
Bizday bu sovuq qonlarni naylarding, ilohim?!

Ko‘payib hayosizlik el bo‘lur mutahammul,
Har zulmga ko‘ngan jonlarni naylarding, ilohim?!

Bir davrda kim sidqi safo qilmayajakmish, —
Bilmam bundoq davronlarni naylarding, ilohim?!

Mazlumlarning ko‘z yoshi daryo bo‘lar ermish, —
Daryolarni, ummonlarni naylarding, ilohim?!

Sayyodi jafokorda rahm bo‘lmas ekan hech, —
Ohularni, jayronlarni naylarding, ilohim?!

Bog‘ning, ekinning xayrini boylar ko‘rar erkan, —
Urug‘ qadagan dehqonlarni naylarding, ilohim?!

Ish ranjbarning, kuch ho‘kizning, yer o‘ziningki, —
Boyzodalar-u xonlarni naylarding, ilohim?!

Hukm aylar emish butun olamda jaholat, —
Bul oshiqi irfonlarni naylarding, ilohim?!

[1] **Maryam** — Diniy ta’limotlarga ko‘ra, Iso payg‘ambarning onasidir, Iso otasiz dunyoga kelgani barcha dinlarda keltirilgan ahvolotdir.

Etakli musulmonlarni takfirga qo'ygan bu
To'shtukli musulmonlarni naylarding, ilohim?!

Yoxud bularning buncha nufuzi bo'lar erkan, —
Besh-uch bu suxandonlarni naylarding, ilohim?!

G'ayratli chaqimchilaring ish bajararkan, —
Tanbal, dalli shaytonlarni naylarding, ilohim?!

Erlar ajab bir qiz kabi o'g'lon sevar emish, —
Uylardagi juvonlarni naylarding, ilohim?!

Tojirlarimiz Sonyalarga band bo'lar erkan, —
Badbaxt To'qazbonlarni naylarding, ilohim?!

Subhonaka, subhonaka, subhonaka, yo Rab!
Boqqancha bu hikmatlarga hayron bo'larman qarab!..

FISINJON

O'ylama, qo'psa falak bizlarga vayronlik bo'lar,
Un tamnnosi ila bug'doy tegirmonlik bo'lar!

Qorishiqdir halollik millat iste'dodiga, —
Chevrilirsa, sofi bir yon, xasi bir yonlik bo'lar!

Qalqib ketgach,
bulg'alangach zamona ummon kabi,
Yog'i yog' ustga chiqar, ayroni ayronlik bo'lar!

Kim ki, insonni sevar, — oshiqi hurriyat bo'lar,
Balli, hurriyat bo'lgan yerda insonlik bo'lar!

Ey ki, dersan, orif yo'li — xato, desam senga -
Ilmi mantiqcha bu so'z bahrai nodonlik bo'lar!

Oriflar dersan o‘zing ahli xatoda bo‘ladi,
Tushunarsanmi bu so‘zda necha haryonlik bo‘lar?

Ko‘zingni xiralatarmi irfonning quyoshi?
Ketdik, ilmsiz, omi, bunchami xulqonlik bo‘lar?!

Tapnymiz biz sizni endi, dema ha, biz shunaqa,
Tanilur ul kishi kim, tutgani maydonlik bo‘lar!

Boqmasmiz go‘shai chashm ila faqirona taraf,
Yugurarsiz u tomon ki, totli fisinjonlik bo‘lar!..

BIZGA NE?!

Gar bu yil xalqni mahv etdi qironlik, bizga ne?!
Topmadi och-yalang‘ochlar guzaronlik, bizga ne?!

Biz magar ochlarga vaqf ayladik o‘z molimizni?
To ki, har muhtojga in’om etsak amvolimizni?
Biz bayon etsak agar biroz o‘z ahvolimizni,
Doimo boshlarmiz noz ila aftolimizni;

Otasiz jonlarni bosdi bo‘ronlik, bizga ne?!
Topmadi och-yalang‘ochlar guzaronlik, bizga ne?!

Bu ham so‘zdirmi, topganimiz poralarni
Nega beraylik, bog‘labon Zangazur ovoralari?[1]
Bizlarga dahli nedur, — yo‘q ekan choralari
Qo‘y, oqarsin fuqro ko‘zlarining qoralari!

Cheksin ular kecha-kunduz nigoronlik, bizga ne?!
Topmadi och-yalang‘ochlar guzaronlik, bizga ne?!

[1] Zangazur mahallalarining och-nahorlariga iona puli to‘planganda aksariyat boylar namoyon qilgan ahvolga ishora qilinmoqda.

Boshla, ey Mullo tog‘a, sen ham bizni qo‘yma zorga!
Biz sening hiylang ila tushmasmiz aslo bu dorga!
Boqmasmiz go‘shayi chashm ila Zangazurga!
Qorli tog‘larda sovuqdan o‘lganning joni go‘rga!

Bo‘lmadi qismat u badbaxtga oshiyonlik, bizga ne?!
Topmadi och-yalang‘ochlar guzaronlik, bizga ne?!

Bizga ko‘rsatma, azizim, u g‘am o‘choqlarin,
Bahor ko‘p kezgan edik ol gullar ochgan tog‘larin,
Yiqqan edik danaklarin, bo‘shatgandik bog‘larin,
Qish uchun xushlagandik Tiflis o‘yinchoqlarin;

Vayron etsa Zangazurni endi bo‘ronlik, bizga ne?!
Topmadi och-yalang‘ochlar guzaronlik, bizga ne?!

Nigoh tashlamay o‘tdik xonai vayronlarni,
Aylandik kishvari Tiflisda koshonalarni,
Topdik oxir Lizalar, ko‘p necha jononalarni,
Gulchiroqlar-la yoritdik nur ila xonalarni,

Bechora daxmasidaa zim-zimistonlik, bizga ne?!
Topmadi och-yalang‘ochlar guzaronlik, bizga ne?!

MAGARKI, HAMYONI ZULMAT

Magarki, hamyoni zulmat
Istar ki, davom etsin jaholat;
Hayhot, bilarmi unda millat
Tavhid nedur va yo nabuvvat?

Maktab taqozo etar zamona,
Balqar unda to guli farosat;
Ey, sayr aylagan u gulistionda,
Asli uyqu istamoqqa ne hojat?!

Uxla hali, g‘ofilona uxla!

Toki uxlabon yotgan uyg‘onmas,
Farq etmas unga oq, yo qora;
Xasta ki, bishinda hush qolmas,
Dardin tushunib, toparmi chora?

Keyin unga turfa-turfa tullak
Aylar joniga bir ajab tabobat!
Ey xasta, uyg‘onma, etma idrok,
Bor qoningni so‘rsa-da hijomat!

Boqma u yonga, bu yonga, uxla!

Aldanma, qo‘zim, ki lafzi kafar
Tahrir o‘lubon chiqar lug‘atdan;
Magarki, tirikdir Mirzo Qanbar
Evoh, degaymiz bundoq malomatdan;

Qo‘ymas ki, bu xalqi jismi vohid
Hukmida bo‘lib etar maishat;
Kufr va shirkda afsona bu vujud,
Hayhot, qilarmi tarki odat?!

Bu nuqtani bila-bila uxla!..

SHIRVON

She’rimni. Mullo tog‘a, sandiqqa solsang, menga ne?!
Tushmasa o‘ynab-kulib yodimga Shirvon, menga ne?!

O‘zim ojiz emasman, shahrimizning holini
Chekarman nazmga, agar bo‘lsada vayron, menga ne?!

Avvalo, umidu matlab bu ki, shahr ahg‘li tamom
Tanbalu johili behimmat, nodon, menga ne?!

Yig‘in-u majlisimiz, madrasa-yu masjidimiz,
Ham qiroatxonamiz yopiq, parishon, menga ne?!

Evaziga bularning choychi, maychi do‘konida
Kecha-kunduz to‘ladilar jumla musulmon, menga ne?!

Fuqaroning qonini ko‘pdan so‘rurlar zolimlar,
Shayxlar xalqqa sotar xayoli g‘ilmon, menga ne?!

Ishonmasang, so‘zlarimni jurnalda ham yozma yana,
Maslahat ammo budir,
fikr ayla, bir yon, menga ne?!

BIR CHO‘NTAKDA ACHCHIQ NOSIM, BIR CHO‘NTAKDA OQ MANAT

Bir cho‘ntakda achchiq nosim, bir cho‘ntakda oq manat,
Bo‘lsin, bo‘lsin, qo‘y, ko‘p bo‘lsin bundoq lazzatli hayot!
Peshgohi chashm-u jonimda vatanim etsa vafot, —
Bo‘lsin, bo‘lsin, qo‘y, ko‘p bo‘lsin bundoq lazzatli hayot!

Qarshimda ta’zim uchun saf bog‘lasa nochorlar,
Oqsa ochlar diydasidan yosh bo‘lib g‘am-g‘uborlar,
Boqmasman, yaxshi ko‘paysa g‘aznada dinorlar,
Bo‘lsin, bo‘lsin, qo‘y, ko‘p bo‘lsin bundoq lazzatli hayot!

G‘ariblar qoni bilan, qo‘y, bo‘lsin vatan bir lolazor,
Zolimlarning zulmi hargiz etmasin vijdonga kor,
Faqat oshsin sha’nimiz, bo‘lsin maishat barqaror,
Bo‘lsin, bo‘lsin, qo‘y, ko‘p bo‘lsin bundoq lazzatli hayot!

Shunda bahs etmam, menga lozim shu isyon oxiri,
Chun pulga muhtojdir dunda har kim, har on oxiri,
Jahannamda bo‘lmasin yaksar musulmon oxiri!
Bo‘lsin, bo‘lsin, qo‘y, ko‘p bo‘lsin bundoq lazzatli hayot!

Chalkashibdi millatning, naylay, huquq-aqidasi?!
Yoki hech bir yerda yo‘qdir hurmati, sha’ni, sasi,
Bundoq-bundoq so‘zlarning men bo‘lmadim qo‘zg‘uvchisi!
Bo‘lsin, bo‘lsin, qo‘y, ko‘p bo‘lsin bundoq lazzatli hayot!

Muxtasar, aytma yonimda bir-da vijdon nomini,
Och qolib, zor yig‘lagan yetim inson nomini,
Istasang ko‘nglimni ochmoq — so‘yla milyon nomini!
Bo‘lsin, bo‘lsin, qo‘y, ko‘p bo‘lsin bundoq lazzatli hayot!..

SHIKOYAT

Ey inson, bundan avval xalqda hurmat bor edi,
Benavo mullalarga hurmat-u izzat bor edi!

Katta har yonga ki, boq desa, boqardi xalq,
Yer yuzinda barokat, ne’mat-u davlat bor edi!

Kimning og‘zi edi ki, men oq desam, qora desin?
Har nega amr aylasam, xalqda itoat bor edi!

Yana o‘z amriga mashg‘ul edi boshdin oyoq,
Na bu mulla talashmoq, na bu suhbat bor edi!

Ilm qayda edi, musulmon qaydadir, qardoshim,
Na taraqqiy so‘zi, na suhbati millat bor edi!

Borayin qoshiga, bilmam bu yoshlar ne der ekan
Ki, azal ularda na g‘usl-u tahorat bor edi!

Hammasi kofirga o‘xshar bu haromzodalar, voh,
Na musulmonlikka ularda shaxdu shiddat bor edi!

Bu vatan qashshog‘ini ular uyg‘otdi, hayhot!..
O‘tdi ul davr ki, mullolarda rohat bor edi!

Ehsonxo‘rlik ne go‘zal edi, to‘ygan edim,
Na ochiqqan bu qorin, na musibat bor edi!

Menga zid so‘z aytsa kim, uni etardim kofir,
Ishimni boplab olsam, kimda jur’at bor edi?

Endi bu tirriq bolalar ham etar ta’na bizga,
Zoye ketdi u ayyom, ki bir fursat bor edi!

Oh, afsus ki, kechdi u go‘zal davronlarim!
Men rohat qilrdim ki, bu xalq ichra jaholat bor edi!

USMONLILAR, ALDANMANGIZ, ALLOHNI SEVARSIZ!

Usmonlilar, aldanmangiz, Allohni sevarsiz!
Eronli kabi yonmangiz, Allohni sevarsiz!

Shod bo‘lmangiz, ey sevgili millat vakilasi,
Usmonliga chora bo‘lar qonuni-asosi!
Qonuni-asosi dema, eronli azosi,
Eronlilarning boshlarida qonli balosi,
O‘g‘lonlari o‘lgan onalarning ohi, diydiyosi,
Desalar, sizda bor bu ishning so‘ngra safosi,–
Aldanmangiz, aldanmangiz, Allohni sevarsiz!
Eronli kabi yonmangiz, Allohni sevarsiz!

Avvalda berarlar sizga hurriyati afkor.
Ya’ni tanishib fikringizni aylarsiz izhor;
Vaqti ki, tanishdingiz, vazorat bo‘ldi xabardor,
Mutloq ko‘rarlarki, cho‘ntaklariga zarar bor;
Har fitna bilan bo‘lsa, quvajaklar sizni nochor,
Chun ki, bu yig‘ingohda bo‘lar haqqingiz inkor,
Yaxshi bo‘lib, to‘planmangiz, Allohni sevarsiz!
Eronli kabi yonmangiz, Allohni sevarsiz!

Ko‘rdim ki, arzlar etib vaziroga
Bir yo‘l ila o‘z fikringiz tiqdingiz oraga,
To yetdi xabar bir fitnakor ulamoga,
Mirzo Ali Akbarlar[1] qo‘lin ochdi duoga,
Tahqir o‘qi, la’na to‘pi tegdi orifoga,
Bormi shundoq bir shaxs, ado axrori viqoga?
Bu amrni bekor bilmangiz, Allohni sevarsiz!
Eronli kabi yonmangiz, Allohni sevarsiz!

Voh, ne ajab, usmonlilar, ayo, nega qonarsiz?
Qonuni asosiy berilsa yo inonarsiz?
Mir Hoshim-u[2] Fazlullohingiz[3] yo‘q deb bilarsiz?
O‘ksik emas ular, vale, siz ne tanirsiz!
Bir kun tanigach ularni, nogoh uyg‘onarsiz,
Shundoq uyalarsizki, qonga bo‘yalarsiz!
Qonsizlarga hech qonmangiz, Allohni sevarsiz!
Eronli kabi yonmangiz, Allohni sevarsiz!

Bir vaqtda bizlar ham bo‘ldik xurram-u xandon,
O‘yladik ki, bizga berdilar hurriyati vijdon,
Shukr etdik, bechoralar bo‘ldi doxili inson,
Ayolimizni saqlamadik xonada pinhon,
Hoji Mirzo Hasan qirq lotuga berdi bir o‘g‘lon,
Bu mullanamolar desalar: bizda bor iymon,
Yo‘q, yo‘q, hech tovlanmangiz, Allohni sevarsiz!
Eronli kabi yonmangiz, Allohni sevarsiz!..

---

[1] **Mirzo Ali Akbar** — Yarim asrga yaqin murtajiy faoliyat ko‘rsatgan Ardabil oxundi edi.

[2] **Mir Hoshim** — murtajiy Tabriz ruhoniysi, mashrutachilarning qismat dushmanlaridan biri edi.

[3] **Shayx Fayzulloh** — Eronda mashruta harakatining sha’niga muboriza olib borgan qoraguruhchi mujtahidlardjan biri edi. Mashrutani “shariatga xilof”, mashrutachilarni “kofir” deb atardi.

MEN SHOHI SHON-U SHAVKATMAN, ERON MENIKIDIR

Men shohi shon-u shavkatman, Eron menikidir!
Eron meniki, Rey, Taboriston menikidir!
Abad shundoq, yo qolsa-da vayron, menikidir!
Qonuni asosiy nedir, farmon menikidir!
Shavkat meniki, faxr meniki, shon menikidir!

Bergandi otam[1] gar sizga Qonuni asosiy,
Bir mullo kishi edi, bor edi hilmi, hayosi,
Bilmasdi nedir lekin imorati siyosiy;
Ey hamshahrim, sen kiy egningga bitli libosni!
Hay'at meniki, taxti zarafshon menikidir!
Qonuni asosiy nedir, farmon menikidir!

Eronli emas, jumla bilar, Mandaliman[2] men,
Qirg'in-u, jafoi sitamning changaliman men,
Eronlilar boshlarining ishkaliman men,
So'rarman, icharman qonlarini — chun zulukman men,
Tana meniki, go'sht meniki, qon menikidir!
Qonuni asosiy nedir, farmon menikidir!

Ko'ryapsizki, qancha sizlarga yomon ayladim men!
Baqqol bolasin lashkarga sarbon ayladim men!
Otashda yoqib majlisni vayron ayladim men!
Qur'onni olib, uni ham nolon ayladim men!
Shartnoma nedir, ahd ne, farmon menikidir!
Qonuni asosiy nedir, farmon menikidir!

Usmonlida garchi taralar bir necha saslar,
Olqishlagay ul saslarni bor qirmizi kaslar!

---

[1] Muzaffariddin shoh nazarda tutilgan.

[2] **Mahammadali mirzo (1872–1925)** — 1907–1909-yillarda Eron shohi bo'lgan. Muzaffaraddin shohning katta o'g'li va vorisi edi. 1908-yilda milliy majlisni tarqatib yuborgan.

G‘am chekmangiz ey keksalar, ko‘hnaparastlar!
Eronimga ta’sir etolmas bundoq nafaslar!
Bundan keyin bu o‘lkada maydon menikidir!
Maxluq o‘zimman, xanjari burron menikidir!

Tabrizlilarning ko‘r edimi ko‘zlari avval,
Bir yerda o‘tardi kecha va kunduzlari avval,
Haqqimda yo‘q edi ularning so‘zlari avval,
Shoh etdilar Eronga meni o‘zlari avval,
Endi ne deydilar, davron menikidir!
Qizlar meniki, go‘zal o‘g‘lon menikidir!

Eronli yashar, umri o‘tar zillatda hamisha,
G‘urbatda, hasratda, asoratda hamisha;
Eronli mudom jon berar g‘urbatda hamisha!
Eronli, o‘tgin, yirtiq yoqang bitda hamisha!
Hoqon o‘zimman, kishvari zamon menikidir!
Qonuni asosiy nedir, farmon menikidir!

ISTIQBOLIMIZ BIR LOFDIR

Inonmam, so‘zlama ortiq ki, fayzobod bo‘lar olam,
Yog‘ar imkoni rahmat, bog‘i adl-u dod bo‘lar olam,
Chiqar hurriyat oftobi, tamom ozod bo‘lar olam,
Xomxayol bo‘lma, bilma ki, bir kun shod bo‘lar olam!
Shu ekan va’zimiz, ko‘p vaqt o‘tmay barbod bo‘lar odam!

Ne istarsan, jonim, qo‘l tort, yetar faryodi hurriyat!
Ne qilsin eskilar birla dilbari navzodi hurriyat?!
Butun ahvonlaring erkan dili tosh, jallodi hurriyat?
Xomxayol bo‘lma, bilma ki, bir kun shod bo‘lar olam!
Shu ekan va’zimiz, ko‘p vaqt o‘tmay barbod bo‘lar odam!

“O‘qir, tahsil bilan ehrozi hurriyat qilar inson...” –
Bu so‘z tom to‘g‘ridur, ammo qani maktab, qani irfon?

Qolarkan o'lkamiz maktabsiz va-da avlodimiz nodon,
Xomxayol bo'lma, bilma ki, bir kun shod bo'lar olam!
Shu ekan va'zimiz, ko'p vaqt o'tmay barbod bo'lar odam!

Tajalli etganin ko'rdik u mahbubi diloromning,
Faqat ol qonga g'alton bo'lganin-da ko'rdik islomning,
Boshidan chiqmaguncha Rey havosi shohi badnomning,
Xomxayol bo'lma, bilma ki, bir kun shod bo'lar olam!
Shu ekan va'zimiz, ko'p vaqt o'tmay barbod bo'lar odam!

Agar sen ko'rmagan bo'lsang zavqini gulzori ayvonning,
Yaqin ol, men ham ko'rmam bir safosin ul gulistonning,
Sen-u mendan keyin yo o'zgararmi holi davronning?
Xomxayol bo'lma, bilma ki, bir kun shod bo'lar olam!
Shu ekan va'zimiz, ko'p vaqt o'tmay barbod bo'lar odam!

NAVQIRON

Ayvonimiz naridir,
Navkarlarim xo'radir,
Nechun menga boqasan,
Mening holim qaridir?!

Jag'da tishim to'kilgan,
Yaralarim so'kilgan,
Meni keksa demaslar,
Bir oz belim bukilgan!

So'zing meni yaralar,
Yuragimni poralar,
Soqqolim oqargan-u,
Xino qo'ysam qorayar!

Istasam, lavashim bor,
Har kechada eshim bor,

Dema, otam, qaydasan,
Bor-yo‘q ellik yoshim bor!

Ketma, ketma, ey dilbar!
Menga solma g‘am, kadar,
O‘zimni uchta yoshga
Aylamasman barobar!..

Ketma, ketma, omondir!
Yuragim to‘la qondir,
Vujudim qarisa ham,
Ko‘nglim hali javondir!

YASHAMOQ ISTAR ESAK, TOM AVOM BO‘LMOQ KERAK!

Yashamoq istar esak, tom avom bo‘lmoq kerak!
Otib insonlikni chetga, barcha hayvon bo‘lmoq kerak!

Yashamoq istar esak dahrda amniyat ila,
Ilmga, fanga, adibga boqaylik nafrat ila,
Qo‘shilsak fitnalarga dildagi vahshiyat ila,
Yotaylik bastari g‘aflatda uzun muddat ila;
Puxtalikdan ne foyda, hali xom bo‘lmoq kerak!
Yashamoq istar esak, tom avom bo‘lmoq kerak!

Yostiqqa bosh qo‘yaylik, ko‘rpani qo‘sh etaylik1,
Oqshomni g‘aflati yo‘q, zebo-la og‘ush etaylik,
Uyqu lazzatin ko‘rib, nolasin xo‘sh etaylik,
Islom g‘ayrat-u himmatin yoddan faromush etaylik;
Do‘stga g‘am keltirib, dushmanga kom bo‘lmoq kerak!
Yashamoq istar esak, tom avom bo‘lmoq kerak!

Fikri tadrij etgan nodonni kanor etmoqdir lozim,
Har ne bo‘lsa, bu bedinlarni zor etmoqdir lozim,

O‘lkadan bularni majburlab bezor etmoqdir lozim,
Tez zamonda vatanni, millatni xor etmoqdir lozim;
Shundoq qilib, noili maqsud-u marom bo‘lmoq kerak!
Yashamoq istar esak, tom avom bo‘lmoq kerak!

Boshqalar ko‘pdan sharlar aro etar sayri havo,
Biz bu sayrni etarmiz uyquda har subhi sabo,
Qavli oxundni unutdingmi ki, va’z etdi sano:
Dunyo foniydir, azizim, unga bo‘lma fido!
Tarki dunyo aylabon,
firdavs marom bo‘lmoq kerak!
Yashamoq istar esak, tom avom bo‘lmoq kerak!

Ne bilursan hali sen, sahnai ro‘yoda ne bor?!
Ahli zohir ne topar, olami ma’noda ne bor?!
Har ne bor — tushda bor, yo‘qsa bu dunyoda ne bor?
Yaxshi yot, qo‘l-qanot och, uch,
ko‘r u ma’voda ne bor?!
Tushning xayoli ila mashg‘uli kom bo‘lmoq kerak!
Yashamoq istar esak, tom avom bo‘lmoq kerak!

Yot, xayol sur jannatdagi a’loi rizvonlar ila,
Qo‘l-bo‘yin sol hurlar-u parilar, g‘ilmonlar ila,
Yeb, ich!.. Otiq kayfga boq jumla musulmonlar ila,
Qo‘y bu dunyoni bu kofirlarga shaytonlar ila,
Bizga malakalar-la uchib, oliy maqom bo‘lmoq kerak!
Yashamoq istar esak, tom avom bo‘lmoq kerak!

Qo‘y, ular kashf-u taraqqiy aylasin san’at ila,
Paraxod yo vagon ijod aylasin zahmat ila,
Biz pul berib minsak yetar, yo‘l yursak rohat ila,
Ne munosib ki, raqobat etsak har millat ila?!
Bizga og‘alik qilga elga g‘ulom bo‘lmoq kerak!
Yashamoq istar esak, tom avom bo‘lmoq kerak!

ODAMNI ODAM AYLAGAN PORADIR

Odamni odam aylagan poradir[1],
Porasiz odamning yuzi qoradir!

Qo‘y, ne nasling, nasabing bo‘lsin,
Najibona savlating bo‘lsin,
Boshdan-oyoq nuqson bo‘lsang-da —
Bu olamda davlating bo‘lsin;
Odamni odam aylagan poradir,
Porasiz odamning yuzi qoradir!

Bo‘lmasin fahming, aqling, idroking,
Bor ne g‘am, to ki, bordir amloking;
Otash-u xonasiz bu millat ekan–
Har kasning sajdagohidir xoking;
Odamni odam aylagan poradir,
Porasiz odamning yuzi qoradir!

Bo‘lmasa, bo‘lmasin, axir, insofing,
Tut qoningni shisha ichra, a’rofing,
To ki, bo‘lsa qo‘lda besh olti tangang —
Mo‘tabarsan ko‘zida do‘st-u ashobning;
Odamni odam aylagan poradir,
Porasiz odamning yuzi qoradir!

MILLAT QO‘SHIG‘I

G‘ayrat etib kurashding, tushding tuzoqqa, millat!
Endi biroz orom ol, bosh qo‘y yotoqqa, millat!

Har yerda har makonda har turli ish bajarding,
Islomga xizmat etding, mazhablarni ayirding,

[1] **Pora** — pul.

Yuzlarcha soqqa topding, minglarcha so‘z buyurding,
Har kunda bir jamoat tikding quroqqa, millat!
Endi biroz orom ol, bosh qo‘y yotoqqa, millat!

Uyquda edi olam, avlodini uyg‘otding,
Jumla millat ichinda o‘z shoningni yuksaltding,
Hurmatli nom qozonding, oliy maqomga yetding,
Evoh, yuz evoh, evoh bu tumtaraqqa, millat!
Endi biroz orom ol, bosh qo‘y yotoqqa, millat!

Minba’d jidd-u jahdingni yo‘qdir bizga lozimi,
Zero ki, asrning holin tom boshqadir rusumi,
Maktab sevar jamoat, tahsil etar ilmni,
Sarf aylagay topganin otga, uloqqa millat!
Endi biroz orom ol, bosh qo‘y yotoqqa, millat!

Sayr etmoqqa samoni ijod bo‘lar balon[1]lar,
Bir yonda avtomobil, bir tomondan vagonlar,
Har ixtiroga doir ta’sis bo‘lar salonlar,
Valloh, bular telbadir boshdan oyoqqa, millat!
Endi biroz orom ol, bosh qo‘y yotoqqa, millat!

Bular butun jahonning asbobi ixtilosi,
Ular asiri dunyo, biz oxirat fidosi,
Besh kundir umri dunyo, yo‘qdir uning baqosii,
Bizningcha, xato tushmoq bunday mazoqqa, millat!
Endi biroz orom ol, bosh qo‘y yotoqqa, millat!

Islom uchun kerakmas kofirlarning shiori,
Qo‘y ularni, yuksalsin har qasri — zarnigori,
Biz ko‘zlarmiz faqat bir ayvon-u gulzorni,
Tush yerda hurlar ila to‘liq quchoqqa, millat!
Endi biroz orom ol, bosh qo‘y yotoqqa, millat!

[1] “Balon” deganda havo shari, ya’ni dirijabl nazarda tutilgan.

G‘ILAY

Ket-ketgin, “Zanbur”[1] og‘a, sen ham shoshding dermisan?!
Gohda bir mazhabga, goh dinga talashding dermisan?!

Sen xok odamsan agar, senda bu tadbir nedir?
Jurnalingga yozganing gajakli tasvir[2] nedir?
Qo‘llaringdan uzilgan kimdir, u zanjir nedir?
Tinmagaysan, ne sana sarhaddar oshding dermisan?
Gohda bir mazhabga, goh dinga talashding dermisan?!

Nedir ul halqai zanjirdan bir parcha uzar?
Kimlarni ko‘rsaturlar halqaning ichindakilar?
Shakli islomga kulgan kimdir ul iprisqilar?
Sen bu raftor ila bizdan qochding dermisan?!
Gohda bir mazhabga, goh dinga talashding dermisan?!

Ochmoqqa bir parcha asrorni etib sa’i talosh,
Aylagaysanki bizga tang shundoq rohi maosh?
Bu qadar etma jasorat, o‘zingni o‘yla, yuvosh!..
To‘ymaguncha kayfingga dag‘allashding dermisan?!
Odatga, urfga, rusumga qarshilashding dermisan?!

Sen bu shakl ila butun xalqni uyg‘otding ham deylik,
Bizni manfur aylabon, bir yonga sotding ham deylik,
Senga ne xayr bo‘lg‘usi, bizlarni otding ham deylik?
Bosh tikib, bundoq bizlar-la ko‘p taloshding dermisan?!
Odatga, urfga, rusumga qarshilashding dermisan?!

---

[1] **“Zanbur”** — 1909–1910-yillarda Boeuda nashr etilgan haftalik hajviy jurnal.

[2] “Zanbur” jurnalining 1910-yil 19-fevral tarixli 4-sonida rassom B.R. Telinqator (Beno) tomonidan bir surat chizilgan, unda islom olami daraxtga zanjirlangan bir keksaning timsolida tasvirlangan. Zanjirning har halqasi o‘sha zamondagi salbiy nusxalardan birining boshi shaklida chizilgan bo‘lib, yaqin atrofda shayton zanjirdan qutula olmayotgan cholning holiga kulib turadi. Sobirning she’ri shu surat borasida bahs qiladi.

Mazhaka jurnalin avval bizga, ibratdir, deding,
Bir pora shaxsga ilashding, bu nasihatdir, deding,
Bizni tiqding ishga, bir nav zarofatdir, deding,
Endi amma yana jondan savalashing dermisan?!
Odatga, urfga, rusumga qarshilashding dermisan?!

Shaxsi islomning agar biz qo'lini bog'laganmiz —
Ne gunoh aylaganmiz? Millat uchun yig'laganmiz...
Hifz etib mazhabni, shayton yoqib, dog'laganmiz!
Bizni ko'rmoqda muqassir, nechun talashding dermisan?!
Odatga, urfga, rusumga qarshilashding dermisan?!

Biz agar bo'lmasak, islomga nigohbon kim bo'lar?
Besh kun o'tmaski, bu bog'ning gul-u rayhoni so'lar,
Ijtilofi sha'niya butun islomga to'lar,
Lek sen anglamasdan ishda shoshding dermisan?!
Gohda bir mazhabga, goh dinga talashding dermisan?!

Asta-asta yig'ilib, to'dalashding dermisan?!
Ba'zi afsonachilar-la yanglishding dermisan?!
Bus-butun safsatalar-la bulg'anishding dermisan?!
Ey bolam, aybingni qir!
Bir hayo ayla, kechir!
Yo'qsa, takfir etamiz,
Tezda rasvo bo'lasan!..

OLTMISH YILLIK UMRIM BO'LDI SENDA BARBOD, ARDABIL!

Oltmish yillik umrim bo'ldi senda barbod, Ardabil!
Bitta nomardman, agar etsam seni yod, Ardabil!

Yo'q deb o'ylardim men butun olamda Erondin ziyod,
Bir farahobod yer yo'qdir ul chamandin ziyod,
O'lka bo'lmas husnda Fotima, Tukazbondin ziyod,

Bor emish Ro‘siyada ming-ming parizod, Ardabil!
Bitta nomardman, agar etsam seni yod, Ardabil!

Ey vatan, hurday ko‘rardim sendagi hilqatlarni,
Derdim, ul hurlarimning sensan yaqin jannatlari,
Endi hayronman boqib, ko‘rguncha bu lo‘’batlarni,
Har birinda boshqa lazzat, boshqa bir tot, Ardabil!
Bitta nomardman, agar etsam seni yod, Ardabil!

Hali ham Bokudaman, Boku dema, jononazor,
So‘lim daryo sog‘ili: bir lo‘’batistoni tator,
Har taraf oq-chog‘ “madam”lar, yaxshi bir zot, Ardabil!
Bitta nomardman, agar etsam seni yod, Ardabil!

Ming meningdek nola-yu bir Sonyaning dildodasi,
Ming meningdek pokdin bir qadah may iftodasi,
Ming meningdek mo‘minning bilmam neduohr sajjodasi,
Bandalik qaydin kechib, bo‘lmishdir ozod, Ardabil!
Bitta nomardman, agar etsam seni yod, Ardabil!

Bosh emas, o‘n besh emas, har yon boqarsan, —
bor “madam”:
Uy “madam”, manzil “madam”, ayvon “madam”,
bozor “madam”,
Sirk “madam”, do‘kon “madam”, passaj “madam”,
gulzor “madam”,
Muxtasar, aqlim shoshdi, ey dod-bedod, Ardabil!
Bitta nomardman, agar etsam seni yod, Ardabil!

Garchi Erondan chiqarkan, boshda edi niyatim,
Niyatim kasbim edi, bor erdi kasbga g‘ayratim,
G‘ayratim rozi emasdi, ki yetishsin kulfatim;
Yo‘q ko‘zimda endi na kulfat, na avlod, Ardabil!
Bitta nomardman, agar etsam seni yod, Ardabil!

Bas ki, ortar bularni ko‘rganda har dam rag‘batim,
Rag‘batim ortganda ham, lekin qovushmas hasratim,

Hasratim bir negadir, andoq tuzalmas holatim!
Holatim naskini nafsga qilmas imdod, Ardabil!
Bitta nomardman, agar etsam seni yod, Ardabil!

Qo'rqitardi o'lkadan chiqmay terib g'urbat meni,
Chulg'agandir g'aflatimdan vahshat-u dahshat meni,
Endi bu ko'rganlarimdan mot etar hayrat meni,
O'zligimdan chiqibman, afsus!.. faryod!.. Ardabil!
Bitta nomardman, agar etsam seni yod, Ardabil!

Yangidan bargasht etib, bir on javon bo'lsaydim, oh!
Tor kiyimli bir yoshgina xushnishon bo'lsaydim, oh!
Bu parilar bir-la to'yguncha hamzabon bo'lsaydim, oh!
Dahrda besh kun yashardim xurram-u shod, Ardabil!
Bitta nomardman, agar etsam seni yod, Ardabil!

EY VOH KI, XOSIYATI MILLAT YO'Q BO'LDI!

Ey voh ki, xosiyati millat yo'q bo'ldi!
Millatda bo'lgan bus-butun odat yo'q bo'ldi!

Yetmasmi bu kim, millatning ahrori buzildi,
Orif tanilgan ba'zi fusunkori buzildi,
Majmua yozar bir to'da beori buzildi,
Shoir laqabinda necha idbori buzildi,
Ya'ni ki, bir asrning butun ash'ori buzildi,
Derman — bu jahannam, elning afkori buzildi,
Tuproq boshimga, endi ham tujjori buzildi!
Har ishga qo'l qotdi, muruvvat yo'q bo'ldi!
Millatda bo'lgan bus-butun odat yo'q bo'ldi!

Bor edi bu millatda qadim go'zal bir odat:
Bir shaxsi musulmon aylagan vaqtda rihlat,
Mayit hali qabrida yotsin deya rohat,

G‘usl etmasdan avval qilinardi unga hurmat,
Yuzlarcha etardik unga sipora tilovat,
Har juzda bir tanga yetardi bizga rishvat,
Bir hurmat edi bu bizga, ham mayyitga nisbat;
Hayf ki, oxiratda bu hurmat yo‘q bo‘ldi!
Millatda bo‘lgan bus-butun odat yo‘q bo‘ldi!

Tojirlarning endi buzilmish tiynati ro‘yo,
Tuymishlar ular bizdagi niyatlarni go‘yo,
Ehsonlar tark bo‘ldi, qozonlar so‘ndi, ey voh!..
Na mullo haqi bor, na qo‘noqlik, na musammo,
Pishmas baqqolning bir parcha halvosi ham hatto,
Har chora etsak ham, ishimiz bitmagay aslo,
Oh!.. Oh!.. U o‘tgan kunlarimiz nedir, xudoyo?!
Kufron ayladikmi senga, bu ne’mat yo‘q bo‘ldi!
Millatda bo‘lgan bus-butun odat yo‘q bo‘ldi!

Kim ketsa edi hajga va yo Karbubaloga,
Ehson etardi u avval biz — ahli duoga,
Moyil u duoga — ega biz siym-u tilloga,
Garchand uni unvon etardik bir necha oyga,
Derdik ki, kerak poklik u hamyondagi moya,
Bir xayrli amal edi bu biz mullanamoga,
Hayf ki, boqilmas endi soqolga, asoga,
Birlashdi hamma, sidq-u sadoqat yo‘q bo‘ldi!
Millatda bo‘lgan bus-butun odat yo‘q bo‘ldi!

Shoyadki, kelajak kunlarimiz o‘tsa bu nisbat,
Qo‘rqarman ki, kundan-kun badtar bo‘lar holat,
Bir kun kelar — bedor bo‘lar jumla jamoat,
Maishatdan ibodatni farq etar bu millat,
Maydonga chiqar bizdagi har turli xiyonat,
Na tuhfa kelar bizlarga, na nazr, na rishvat,
Hurmat o‘rniga el bizga izhor etar nafrat,
Hatto deyurlar: — Mullo, ziyofat yo‘q bo‘ldi!
Do‘lma va palov, holva-yu sharbat yo‘q bo‘ldi!
Millatda bo‘lgan bus-butun odat yo‘q bo‘ldi!

YO‘QOL ESHIKDAN, YIG‘LAMA ZOR-ZOR, TILANCHI!

Yo‘qol eshikdan, yig‘lama zor-zor, tilanchi!
Vaqillama boyqush kabi, idbor tilanchi!

Bu majlisimiz majlisi ehsondir agarchi,
Tuzganlarimiz ne’mati alvondir agarchi,
Ehson fuqaro kaslarga shoyondir agarchi,
Bir odati irsiyaga yana bor, tilanchi!
Yo‘qol eshikdan, yig‘lama zor-zor, tilanchi!

Davlatlilarmiz, maqsadimiz aysh-u safodir,
Mehmonlarimiz bus-butun arbobi sinodir,
Ko‘kdir, yag‘rindor, bo‘yniyo‘g‘ondir, ajabodir,
Boydir, og‘adir, og‘zi duoli ulamodir,
Pishayotganlar ming xil lazzati halvodir,
Tikma ko‘zingni qozonga, beor tilanchi!
Yo‘qol eshikdan, yig‘lama zor-zor, tilanchi!

Yana bizga ne boshqa qoldi so‘rov-savoling?!
Yoinki ochidan o‘layotir ahling, ayoling?!
Boq, boq, qandoq chirkindir bu manhus jamoling!
“Hax-tuf” yuzinggaYu surati murdor tilanchi!
Yo‘qol eshikdan, yig‘lama zor-zor, tilanchi!

Davlatli nechun sarf etar o‘z fazl-u saxosin,
Ayonni qo‘yib, to‘ydirsinmi fuqarosin?
To‘ksin, ko‘ray, Alloh yuzining sharm-u hayosin!
Qo‘l tort yoqamizdan, yo‘qol, g‘addor, tilanchi!
Yo‘qol eshikdan, yig‘lama zor-zor, tilanchi!

Bir bora faqir ekaning angla-da, zinhor
Davlatlildarning rizqiga bo‘lma havaskor,
Yo‘q bo‘lsa yemakka non, o‘lib ketgin,
joningni qutqor!

Etma bu qadar bizlarga ozor, tilanchi!
Yo‘qol eshikdan, yig‘lama zor-zor, tilanchi!

Faqr ahli g‘anilar ila muloqot eta olmas,
Davlatliga insonligin isbot eta olmas,
Davlatli faqir ila musovot eta bilmas,
Nuqson keltirar sha’niga bu kor, tilanchi!
Yo‘qol eshikdan, yig‘lama zor-zor, tilanchi!

VA’Z ETGANING ISHONDI, SEN AMMO ISHONMADING!

Va’z etganing ishondi, sen ammo ishonmading!
Yo ajabo, magar magar qiynalib o‘rtanmading?!

Yotganda xobi g‘aflat ila millating sening,
Vaqf bo‘ldi mudom matlab, so‘zlash xizmating sening,
Har kun kengaydi doirai hurmating sening,
El aylan faqirga, toshdi sarvating sening,
Millat oriqlab ketdi, sermirdi oting sening!
Pora haromdir deding, olding, hech uyalmading!
Yetimning moli — olov — deb, yeding-u, yonmading!

Qassobxonani bizga ul dorula’mon deding,
To‘g‘ri libosiga o‘rab, ming turli yolg‘on deding,
Bo‘lgunicha mushtabih: “G‘alat qilma, inon!” — deding,
Kimki yaxshi so‘zlasa, unga ming yomon deding,
Qonga to‘lib qiyshaydi ko‘zing, za’faron deding;
Bir vaqt kelar, tanir seni har kimsa, lol qolmading!
Bu tansiq bir so‘z edi — haqiqatni olmading!

Millat tomirin qirqib, sen doim tomirlading,
Har kimning qo‘lidagi yerga tushdi, o‘g‘irlading,
Toqat tilading elga, o‘zing dunyo to‘plading,
Foniy deding mol-mulkni — imoratlar tiklading,

Sarrishtai matohni mustahkam tumorlading,
Pora haromdir, deding, olding, hech uyalmading!
Va'z etganing ishondi, sen ammo ishonmading!

Qovli sharh ekan, ajabo "man kafar"so'zi,
Etmoqdasan kufr bahonasi har so'zni,
Bilganim bu ki, o'rtada gar bo'lsa zar so'zi,
Hargiz bilolmassan bunday olchoq, xatar so'zni,
Vijdonga, obro'ga, hayoga tegar so'zni,
Bir vaqt bo'lar, tanir seni har kimsa, qonmading!
Yo lil ajab, magar siqilib, o'rtanmading?!

Qonu tanimda bo'lding ajab gurzi-jonshikor,
Nafsing tiyilib, qiynalmasdan bo'lding ta'makor,
Yomon tuyuldi endi, senga bo'lmas e'tibor,
Sirlaring, tilsimlaring bo'lgach elga oshkor —
Qolsin, deya daftarlar sahifasida bul yodgor–
Bir vaqt bo'lar, tanir seni har kimsa, qonmading!
Yo lil ajab, magar siqilib, o'rtanmading?!

O'QITMAYMAN, QO'L TORTING!

O'g'il meniki agar, o'qitmayman, qo'l torting!
Aylamangiz dardisar, o'qitmayman, qo'l torting!

Garchand bu badbaxt o'zi ilmga havaskordir,
Kasbi-kamol etmoqqa harakati ham bordir,
Meningcha bu ishlar bari bir shevai kuffordir,
Dinga zarardir, zarar, o'qitmayman, qo'l torting!
Aylamangiz dardisar, o'qitmayman, qo'l torting!

Bas ki, bolalar hali yaxshi-yomon ajratmas,
Ilmning abas bo'lishin tushunmaydi, anglamas,
Shoir bolalar kabi har bir so'zga aldanmas,
Aylaydi umrin xatar, o'qitmayman, qo'l torting!
Aylamangiz dardisar, o'qitmayman, qo'l torting!

Aylamasman rahm uning ko'zdan oqqan yoshiga,
Boqsin o'zidan buyuk o'z qavm-u qardoshiga,
O'lsa-da rozimasman, shapka kiysa boshiga,
Kofir bo'lar bir nafar, o'qitmayman, qo'l torting!
Aylamangiz dardisar, o'qitmayman, qo'l torting!

Bola meniki, ota, daxli nedir sizlarga?
Kim sizni qoyim etdi — hukm etasiz bizlarga?
Ko'nmayman aslo bundoq dinga tegar so'zlarga!
Bir qora qon, muxtasar, o'qitmayman, qo'l toring!
Aylamangiz dardisar, o'qitmayman, qo'l torting!

Qo'ysangiz, o'z o'g'limni o'zim solay holimga,
San'atimni o'rgatib, tushuray ahvolimga,
Kecha o'qitmoq so'zin arz ayladim olimga,
So'zladi: "haza kafar", o'qitmayman, qo'l torting!
Aylamangiz dardisar,
o'qitmayman, qo'l torting!
Jim bo'ling, buncha ki, aldatmangiz,
Endi besh yildir tamom dinimga qo'l otmangiz,
Sevgilli avlodimni kofirga o'xshatmangiz,
Tuydim ishin sarbasar, o'qitmayman, qo'l torting!
Aylamangiz dardisar, o'qitmayman, qo'l torting!

Sotmayman o'z aqlimni siz kabi bemazhabga,
Roziman, o'g'lim ketsin qabrga, — ketmas maktabga!
Maktab otin aytmangiz — aytmang uni bir da'fa!..
Alhazar, undan hazar, o'qitmayman, qo'l torting!
Aylamangiz dardisar, o'qitmayman, qo'l torting!

Basdir shu bilganlari, koshki uni bilmasa!
Jonimga bo'lsin fida bir bor yuzi kulmasa!
To ki, o'z zehnidagi fikrlari to'lmasa,
Bilma uni baxtovar, o'qitmayman, qo'l torting!
Aylamangiz dardisar, o'qitmayman, qo'l torting!

Fikrimni bermasman hech siz kabi nodonlarga,
Shavq etasiz o‘g‘limni bir pora ultonlarga,
Chunki xiyonatkorsiz jumla musulmonlarga,
Manzilingizdir do‘zax, o‘qitmayman, qo‘l torting!
Aylamangiz dardisar, o‘qitmayman, qo‘l torting!
Dinga zarardir, zarar, o‘qitmayman, qo‘l torting!..

QOCH, OT BOSDI!

Qoch, o‘g‘lon! Qoch, bosdi ot! Millat kelar!
Jabhadan chiqqan bir jamoat kelar!
Etib jumla avomga shafqat, kelar!
Berib har kasga darsi ibrat, kelar!
Qoch, o‘g‘lon! Qoch, bosdi ot! Millat kelar!

Chekil, yo‘l ber, ot bag‘rin titratganmiz,
Urib yiqqanmiz, tutganmiz, otganmiz,
Chopib quvganmiz, qon-terga botganmiz,
Yig‘ib millatni bir yerga qotganmiz,
Musovot, adolat, uhuvvat kelar!
Qoch, o‘g‘lon! Qoch, bosdi ot! Millat kelar!

Necha asrdir endi bil-ehtimom,
Qo‘yib nomi millatga ehtirom,
Quchoq, qo‘llashib, chirpinib subhi shom,
Xususan bu so‘ngi besh yilda tamom
Etib olamga baxshi hayrat, kelar!
Qoch, o‘g‘lon! Qoch, bosdi ot! Millat kelar!

Nedir, yo‘qsa o‘ylashingcha etdim xato?
Jim! Xato qilmam! So‘ylamasman bejo!
Mazax etgan bo‘ldim dersan goho?
Miyig‘ida kulmoq nedir, so‘yla yo?
Senga balkim bular zarofat kelar?
Qoch, o‘g‘lon! Qoch, bosdi ot! Millat kelar!

Buyur, tashlagin dunyoga sen ham nazar,
Musulmon kabi kim bo'ldi baxtovar?!
Bu Eron, u Turkiya — ham bexatar,
Hayhot boshla Fasdan Xitoga qadar,
Termulguncha qalbga masharrat kelar!..
Qoch, o'g'lon! Qoch, bosdi ot! Millat kelar!

Ul Albaniyada arnovud g'ayrati,
Bu Qazvindagi murtajiy hay'ati,
Kiridda musulmonlarning holati,
Buxoroda mazhabchilar suhbati,
Yamandan ham boshqa rivoyat kelar!
Qoch, o'g'lon! Qoch, bosdi ot! Millat kelar!

Bul O'rusiya ahli iymonlari
Ki, ya'ni bir chimdim musulmonlari,
Ul yakshanba-juma, bu do'konlari,
U Duma mojarosi, bul vijdonlari,
Hanuz e'tirozga na hojat kelar?
Qoch, o'g'lon! Qoch, bosdi ot! Millat kelar!

Bu — Kavkaz, bu ham — Kavkaz oriflari,
Bu ham — nizo ahli, bor ta'riflari,
Bu millat yo'lida shon-sharaflari,
Bu ham shonli-shonli ma'oriflari,
Bulardan yana shundoq xizmat kelar!
Qoch, o'g'lon! Qoch, bosdi ot! Millat kelar!

Shu bilan, shunday biz nechuk baxtiyor
Bo'lib etmadik-da hali ixtiyor?!
Aytgin, nuqsonimiz ne erur zinhor?
Bu — siyrat, bu — surat, bu — g'ayrat, bu — or...
Bizga, yo, ne nisbat-la bu to'hmat kelar?
Qoch, o'g'lon! Qoch, bosdi ot! Millat kelar!

Har tomirimizda bir azm-u sabot,
Bu azmu sabot ila topdik najot,

Bu kun barchamiz kutarmiz bir hayot,
Bir ahvol, bir fikr, bir iltifot...
Bu afkorga qarshi na diqqat kelar?
Qoch, o'g'lon! Qoch, bosdi ot! Millat kelar!

Qani bizda, evoh, nifoq-u tazod?
Qani bizda dindoshimiz-la inod?
Bu -ulfat, bu — o'rtoq, bu ham — ittihod!..
Boq, shunda, bu majlis, bu ham — in'iqod!
Na qo'rquv, na nafrat, na la'nat kelar,
Na bo'hton, na — buhron, na g'iybat kelar,
Na mol, na boyliklar, na rishvat kelar,
Qoch, o'g'lon! Qoch, bosdi ot! Millat kelar!..

KO'RGANDA INSON BIR ARBOBI SARVAT YUZINI

Ko'rganda inson bir arbobi sarvat yuzini —
Ko'rar mujassam bo'lgan bir nomard yuzini!

Ko'zim chiqsin agar yuzda, mingda, millionda —
Ko'rolsam o'lkada bir ahli himmat yuzini!

G'amim ki, bor mening asli budir: qiyomatda
Ki, bir bor ham ko'rmasaydim ushbu millat yuzini!

TINDIRAR ASR BIZNI — TINMAGAYMIZ...

Tindirar asr bizni — tinmagaymiz,
To'kilgan el uchun o'ksinmagaymiz;
Ajnabiy sayrga havo sharida chiqar,
Biz haligacha avtomobil minmaymiz;
Qushday ko'kda uchar ul yerlardagilar,
Bizni yerga ko'mdi minbardagilar!

AHLI ERONDA, BOQ O‘G‘LON, YANA HIMMAT KO‘RINUR!

Ahli Eronda, boq o‘g‘lon, yana himmat ko‘rinur!
Yana har go‘shada bir toza jamoat ko‘rinur!
Boqasan har tarafga — junbishi g‘ayrat ko‘rinur!
Butun ashobi tarqqiydan alomat ko‘rinur!
Ahsanulloh ki, tag‘in bizda saodat ko‘rinur!

O‘qiganda gazetani g‘amli yuraklar ochilar,
Farahangiz xabarlarni ko‘rganda g‘amdan qochilar,
Qalbdan, so‘zdan unga ishqi muhabbat sochilar,
Chunki har sahfada bir toza rivoyat ko‘rinur!
Ahsanulloh ki, tag‘in bizda saodat ko‘rinur!

Ko‘rajak ersa agar ko‘z, nazar Eron ishiga,
Bil’aks, Eronda bo‘lgan kishvari Tehron ishiga,
Ulamo fikriga, boy xohishiga, xon ishiga,
Kunda bir firqani tashkil etgan ayon ishiga,
Na xiyonat, na adovat, na jinoyat ko‘rinur!
Ahsanulloh ki, tag‘in bizda saodat ko‘rinur!

Ye’tidali[1] deya bir firqaning unvonidan,
Sevinar shaxs buning maslag-u vijdonidan,
Endi eronliklarning g‘am o‘tolm as yonidan,
Kechajaklar kishilar millat uchun o‘z jonidan,
Chunki bularda bu kun yangi himmat ko‘rinur!
Ahsanulloh ki, tag‘in bizda saodat ko‘rinur!

Necha och boy, necha to‘q mulla, necha ko‘k qozi,
Uzv bo‘lib majlisda hal etdilar e’tirozni,
Alloh bo‘lsin bundoq komil kishilardan rozi,
Unutildi tag‘in Eronda sukuni moziy,
Endi Eron dema bir go‘shai jannat ko‘rinur!
Ahsanulloh ki, tag‘in bizda saodat ko‘rinur!

[1] **Ye’tidali** — Irandakı siyasi partiyalardan biri edi.

Garchi zilzila Tabrizga biroz berdi zarar,
Sharqiy Eronda bo'ron ham ayladi zer-u zabar,
Etmagay majlis agarchi, bularga etdi nazar,
Chunki ishlar hali bir nav zarofat ko'rinur!
Ahsanulloh ki, tag'in bizda saodat ko'rinur!

BIZNI ALDAMA, XOJAM, HAR SO'ZINGDA!

Bizni aldama, xojam, har so'zingda,
Bizgamas, ket, nasihat et o'zingga!
Ko'zing ko'rar ekan dunyoni ayri, —
Bizdan qo'l tort, chora qil o'z ko'zingga!

ORIF YUGURAR KI, MILLAT OZOD BO'LSIN

Zohid yugurar ki, masjid obod bo'lsin.
Orif yugurar ki, millat ozod bo'lsin,
So'z bo'yinbog'i silliqlarga berildi:
Bir madmuazel bo'lsin ki, parizod bo'lsin!

TUN YOTIB, MIR HOSHIMNI TUSHDA KO'RDIM, SO'YLADIM

Tun yotib, Mir Hoshimni[1] tushda ko'rdim, so'yladim:
Sayyidim, hajringda arz-u sho'rish-u hashr aylarman.
Ul bo'g'ilgan bir "Sada"[2] ila dedi: ko'rmasmisan —
Hiylalar ijod etib, bir gazeta nashr aylarman.

[1] **Hoshimboy Vazirov (1868–1916)** — 1905-yil inqilobidan so'ng faoliyat ko'rsatgan jurnalist va yozuvchi edi. "Taza hayat" (1907–1908), "Ittifaq" (1908–1909), "Mazali" (1914–1915) va boshqa bir qator gazeta va jurnallarni nashr etgan.

[2] **"Sada"** — 1909-1911-yillarda Bokuda Hoshimboy Vazirov muharrirlik qilgan gazeta.

...DEYDI

Shundoq toshdayin asqoli taassubdan uyqum, —
Kunda ming tebransa yer, tebranmas aslo bir tukim!

QAYSI OLCHOQ BIR QO'LNING YOZGANI XATDIR U KI...

Qaysi olchoq bir qo'lning yozgani xatdir u ki,
Bus-butun taqdirga shoyon xatlarning a'losidir?
Men buni ham ahli vijdondan savol etdim, dedi:
Xalqiga Abdulhamidning[1] chekkan bir imzosidir.

YO'LDOSHIM, UYQUDAMISAN?

— Yo'ldoshim, uxladingmi og'ir?
— Yo'q, bir so'zing bo'lsa, gapir!
— O'n manat qarz ber, qayg'udaman...
— Yo'q, yo'q, birodar, uyqudaman!

BOSHQA MILLATDIN HUQUQIN OLMOQ UCHUN HAR ZAMON...

Boshqa millatdin huquqin olmoq uchun har zamon
Inqilobiyun, salohiyun, rashodiyun chiqar!
Bizdan esa sotmoqqa nomusi orzui millatin
Sotqiniyun, xumoriyun, fasodiyun chiqar!

[1] **Abdulhamid II (1842–1918)** — 1876–1909-yillarda Turkiya sultoni bo'lgan. 1876-yilda Konstitutsiya e'lon qilsa-da, liberallik tarafdori Midhat poshshoni surgunga yuborgan. 1878-yilda parlamentni yo'qotib, yakkahokimlik idora usulini o'rnatgan.

KECH O‘QIRKAN BIR MAKTAB MUDIRINING MAKTUBINI

Kech o‘qirkan bir maktab mudirining maktubini[1]
Ming xato ko‘rdim — qorishgan bir varaq imlosiga;
Uf!.. Sho‘rlik millat, dedim, bilsaydingiz maktab nedir,
Bundaylar tushmasdi ta’lim bermoqning savdosiga.

BIR DASTA GUL

Eronli derki, mudom adl ila tot bo‘lsin;
Usmonli derki, Alloh, millat ozod bo‘lsin;
Zohid ne deydi? — Deydiki, qornim to‘lsin,
Eronli ham, Usmonli ham barbod bo‘lsin!

Savdogar chopar — bir tijorat qilsin,
Omi chopar– shunga bir xizmat qilsin,
Ish mullolarniki — el chopsin, topsin,
Yotsin, tursin, qush go‘shtli ovqat qilsin.

Jurnal, gazeta chiqar ki, millat o‘qisin,
Har bir asarindan olsin ibrat, o‘qisin;
O‘rischa o‘qiganga bu ish malol kelar,
Derlar, buni qo‘y, qora jamoat o‘qisin.

Shoshgin zikr-u sajdaga bosh qo‘ymoq uchun,
Zohid yugurar masjidga ajr yulmoq uchun,
Dunyo berganini oldi-da yedi,
Endi yugurar mavlodan ham olmoq uchun.

[1] Hajviy she’r Bokudagi “Ittihad” maktabining mudiri Husayn Kamolning matbuotda chiqqan bir maqolasi tufayli yozilgan.

ALHAZAR, QO‘YMA BOQSA AKSIMGA ZOHID KI, UNING

Alhazar, qo‘yma boqsa aksimga zohid ki, uning
Nuri haq diydai xudbiniga zulmat ko‘rinur;
Qo‘y bu oyinaga ul poknazar boqsin ki,
Butun ashyoda unga nuri haqiqat ko‘rinur.

ORIF KIMDIR? — DEYA SO‘RDIM, DEDILAR BUL ZAMONADA...

Orif kimdir? — deya so‘rdim, dedilar bul zamonada:
Orifning endi na dini-va na iymoni bordir.
Buni bildim, tanidim. “Zohid kim” deb so‘rdim. Derlar:
Zohidning ilmi yo‘qsa-da, xo‘p ajib jig‘ildoni bor.

DER EDIK BIR ZAMONLAR BIZ KAMOLI FAXR-U HIMMAT-LA...

Der edik bir zamonlar biz kamoli faxr-u himmat-la:
“Jahongirona bir turkiy davlat chiqarsak bu yurtdan![1]”
Bu kun-da iftixor etsak sazodir qayg‘u, hayrat-la:
Karamkorona besh davlat etishdi bir raiyatdan!

YOSHSAN, QASHSHOQLIKDAN SHIKOYAT QILMA

Yoshsan, qashshoqlikdan shikoyat qilma,
Yoshlikdan-da buyuk bir sarvat bo‘lmas!
Keksaning to‘rt yoni to‘la pul bo‘lsa,
Belinda go‘dakcha bir quvvat bo‘lmas!

[1] Taraqqiyparvar turk shoiri Nomiq kamolning mashhur qasidasidan bir misra.

NA'RA TORTIB, SHOD BO'LING, ERONLILAR!

Na'ra tortib, shod bo'ling, eronlilar!
G'ussadan ozod bo'ling, eronlilar!

Olamga ta'sir ayladi oh-vohingiz,
Doğdu yana behcat ila mohingiz,
Yodga solur sizlarni o'z shohingiz,
Kundan-kun obod bo'ling, eronlilar!
G'ussadan ozod bo'ling, eronlilar!

Yor bo'lur soyai sulton sizga,
Aylagay lutf-u qarovon sizga,
Kelgaydir Mamdali mehmon sizga,
Endi siz irshod bo'ling, eronlilar!
G'ussadan ozod bo'ling, eronlilar!

Dard-u g'amni, g'uussani bir yon oting,
Istagan maqsadga yaksar yeting,
Endi yana hasrat, qadarnitark yoting,
Tush ko'rib shod bo'ling, eronlilar!
G'ussadan ozod bo'ling, eronlilar!..

QURBON BAYRAMI

Bayram qilar shavkatlilar shonlilar,
Davlatlilar, pullilar, milyonlilar,
To'qbo'yinlar, shishqorinlar, jonlilar
Qurbon qilur Xalilulloh[1] ishqi deb,
Fisq-u fujur qilar Alloh ishqi deb.

[1] **Xalilulloh** — Ibrohim payg'ambarning nisbatlaridan biri bo'lib, Allohning do'sti demakdir. O'z o'g'li Ismoilni Allohga qurbonlik qilishni istaganida samodan bir da'vat kelib, farzandi evaziga qo'yni qurbonlikka kesgan. Qurbon bayrami shundan boshlangan, deyiladi.

Ikki qo‘shni — birdir asli millati,
Har ikkisi bir payg‘ambar ummati,
Biri qurbon qilar, pishirar etni,
Bayram qilar Xilulloh ishqi deb,
Boshqasi ham boqar Alloh ishqi deb.

Bu qo‘shnining o‘g‘li g‘ayur, sollanar,
Bo‘yinbog‘in taqar, jim tannozlanar,
Ota-ona boqar-u behollanar,
Faxr etarlar Xalilulloh ishqi deb,
Qo‘llarin uzatar Alloh ishqi deb.

Ko‘rarmisan yurtning Hoji Pirini,
Yeyolmaydir go‘shtning o‘ndan birini,
Qo‘shnisi och, so‘rar barmoq kirini,
Hoji ichar Xalilulloh ishqi deb,
Yotar, turar, shishar Allohishqi deb,

Dedim, hoji, ko‘zla ishning birisin,
Diqqat ayla narisin va berisin,
Maktabga ber bolalaring barisin,
Ilm o‘qisin Xalilulloh ishqi deb,
Bolalarni shod et Alloh ishqi deb.

Dedi, bizda yo‘qdir bermoq firog‘i,
Bersam, xotin dodlab solar qiynog‘in,
Go‘shni yermiz xamir o‘rab tun chog‘i,
Barokatdir, Xalilulloh ishqi deb,
Uyla tursin, bu ham Alloh ishqi deb.

ZOHIDLARGA

Och tilingni, yum ko‘zingni, zohido,
Takror o‘qi, hech anglama ma’nosini!

Boqma bir ibrta-la butun olamga,
Ko‘rma Haqning nuri tajallisini!

Quruq ibodat-la, quruq zuhd ila
Anglama sen ishq muammosini.

Zuhd etib, aylama inkori ishq,
Shaxs bilur ishq-la o'z mavlosini.

Qaysga man etma ishqning nomini, —
Ko'rmas unda surati Laylosini[1].

Xilvat go'shalarda o'tirma, inson,
Bilma Haqning go'shada ma'vosini.

Qasding agar bor esa, kel, ko'rsatay,
Ko'zing bo'lsa, ko'rgin tomoshosini.

San'atga boq, kinoga bor, bir qara,
Tark ayla kayfiyati inshosini.

Lekin qani senda basirat ko'zi, —
Tokim ko'rsang vaji dilorosini?!

Yohu, debon oxir ocharsan qoboqni,
Tark etarsan zuhd musallasini.

Kufrda taqlid etarsan shoirga,
Zikr etarsan she'ri muqaffosini.

1911

SAVOL

Ayb ekan kasga ko'ra nafsini qo'ymoq, ajabo,
Shayxulislom o'zga buncha davlatni taqdir aylagay?

[1] Sharqda keng tarqalgan "Layli va Majnun" syujeti qahramonlariga ishora etilgan.

JAVOB

Mullodir chunki, u o‘z ko‘rgani ro‘yolarin
Boshqadan so‘rmas sira, o‘ziga takbir aylagay.

LA’NAT SENGA, EY JOHIL, NEGA BEDOD ETARSAN!

La’nat senga, ey johil, nega bedod etarsan!
Har kun yana ming bora la’nat ijod etarsan!
Sarmashq etding Qobilu Hobilning[1] harakatin,
Qardoshlarni qardoshlarga qayrab, jallod etarsan!
Nokaslarga imdod-u kaslarga etding bedod –
Bir ko‘r, kimga yordam-u kimga bedod etarsan?!

G‘OFIL YASHAMOQDAN AFZALDIR O‘LMOQ

G‘ofil yashamoqdan afzaldir o‘lmoq,
Harchandki, g‘aflat-la bir ordir o‘lmoq;
Jaholat zanjirida olchoqday yashamoqdan,
Johil, senga dor uzra sazovordir o‘lmoq!

MILLATNING HOLI PARISHON SHUNDOQ

Millatning holi parishon shundoq,
Har bir ishi nafratga shoyon shundoq,
Johil shundoq, vahshiy va nodon shundoq,
G‘am yema, sabr et, bu ham, yohu, o‘tar!

[1] **Qobil va Hobil** — Din tarixida Odam Atoning o‘g‘illari hisoblanadilar. Qobil baxilligidan va qizg‘anchoqligidan o‘z qardoshi Hobilni o‘ldiradi. Bu qonli jinoyat tarixdagi ilk jinoyat hisoblanadi.

Doirai aql-u adabdin kanor,
Amri musulmon deb aytar shior,
Lek qolmadi bir kimsada nomus-u or,
G‘am yema, sabr et, bu ham, yohu, o‘tar!

Har ishimiz masxaraliq, kulguli,
O‘lsak kafan biznikidir, ey dalli,
Har ne qilsa Qalbi Ja’far, Qalbali,
G‘am yema, sabr et, bu ham, yohu, o‘tar!

Voizimiz so‘zlab yotar minbarda gar,
Biri — a’lam, Mo‘jizai shaqqulqamar,
Zafari chindan senga bersa xabar,
Sukut qil, lol bo‘l, bu ham, yohu, o‘tar!

Marsiyaxon kunda chiqar ul minbarga,
Xalqi soya, soyasi tushmas yerga,
Boqma sira bundoq yomon kunlarga,
G‘am yema, sabr et, bu ham, yohu, o‘tar!

O‘g‘ri-yu ochofat masjidda yotar,
Zang urar, to‘y qilar, to‘ymasdan o‘tar,
Bosh-oyog‘in qoniga g‘alton etar,
G‘am yema, sabr et, bu ham, yohu, o‘tar!

Boshga tushdi masjidi gulxan shundoq,
Tob aylamoqqa yo‘q imkon shundoq,
Marsiyamiz yolg‘on shundoq, bo‘hton shundoq,
Ezilmagin, qardosh, bu ham, yohu, o‘tar!

Chokar[1] shundoq marsiyaxoni sahih,
Qavli g‘alat, fe’li tamoman qabih,
Jannat va’dasin berar xalqqa faqih,
G‘am yema, sabr et, bu ham, yohu, o‘tar!

[1] **Chokar** — taqvodor shoir.

Bazzozimiz boshga solar o‘latni,
O‘ziga tarhib etar millatni,
Savob amri deya atar bu bid’atni,
G‘am yema, sabr et, bu ham, yohu, o‘tar!

Masjidiga o‘g‘rincha kirar, oshiqar,
O‘maradi chakmon, kalish, har ne bor,
Oyoqyalang bo‘lib, qolapsan nochor,
G‘am yema, sabr et, bu ham, yohu, o‘tar!..

OVRO‘PODA MAMDALINING ISHQBOZLIGI

Mamdali

Rahm et menga, jon madmuazel!
Ko‘nglim bo‘ldi qon, madmuazel!
Birbosh Adasdan kelganman
Oldinga, jonon madmuazell!
Ko‘r holi beoromimni,
Til besukundir, kel menga!
Ishqim fuzundir, kel menga!

Madmuazel

Yo‘qol, ey zolim Mamdali!
Shohi serzulum Mamdali!
Sen hayosizni ko‘rmoqqa
Yo‘qdir majolim, Mamdali!
Ket, ket ki, zulmingdan vatan
Bir daryo qondir, kelmasman!
Bo‘yning yo‘g‘ondir, kelmasman!

Mamdali

Men o‘z yerimda shoh edim,
Shohi falak xargoh edim,

Shonim, jalolim bor edi,
Axir, ne zilulloh edim;
Eronda, ko‘p yerda yana
Shonim mahzundir, kel menga!
Ishqim fuzundir, kel menga!

Madmuazel

Sen bir dona mardudsan,
Har shondan matrudsan,
Bir mustabid Shaddodsan[1],
Bir mustaqil Namro‘dsan[2],
Ming marta ulardan yana
Zulming yomondir, kelmasman!
Bo‘yning yo‘g‘ondir, kelmasman!

Mamdali

Noz etma, Eron sarbasar
Bo‘lmish manim-la hamkadar;
Axir, Eronda bor yana
Navkarlarim ming-ming nafar;
Ular butun qirg‘in-ajal,
Millat quyundir, kel menga!
Ishqim fuzundir, kel menga!

Madmuazel

Bu rostdir, lekin ahli kor,
Oz bo‘lsa-da, Eronda bor;
Taqdir bu xoin niyating
Etmas ijobat zinhor;

[1] **Shaddod** — Yamanning qadim hukmronlaridandir. Rivoyatlarga ko‘ra, Hut payg‘ambarning davrida yashagan, lekin uning payg‘ambarligiga ishonmagan.

[2] **Namro‘d** — Qadim Bobil shahrini tiklagan hukmdor. Iymonsiz shoh, Ibrohim Xalilullohni o‘tda yondirmoqni istagan, qadimgi dunyoning eng zolimlaridan biridir.

Chunki sening hol-u kuning,
Shaxsing zabundir, kelmasman!
Baxting nigundir, kelmasman!
Fikring bu dundir, kelmasman!
Ishing o'yindir, kelmasman!
So'z muxtasardir da'vatan:
Bo'yining yo'g'ondir, kelmasman!..

TUSH

Heyvara[1], ey mudiri ahli fuzun,
Bir tush ko'ribman, degin, xayr bo'lsin!

Ko'rgandim men tunov kecha uyquda
Yana ham sokin bo'lgandim Bokuda.

Bokuda, lek ko'p uzoqlarda,
Kezardim bir bo'lak so'qmoqlarda.

U so'qmoqlar ki, ro'zi fitratdan
Nari edi butun muzofotdan.

Endi, yuz marhabo, safolanmish,
Fonus nuri ila ziyolanmish.

Yo'q ekan oqshomdan ketish-kelishi,
Endi bir boshqa rang bo'libdir ishi.

Eshiklardan chiqish, kirish bordir,
Bunda, albatta ki, bir ish bordir...

Ko'rarman bunda ba'zi a'yonni,
Hammasining bor nasaboti, shoni.

[1] **Heyvara** –"Gunas" va "Yeni haqiqat" gazetalaridagi "Palanduz" nomli haftaliq sahifa mudiri tarafidan ishlatiladigan taxallus edi.

Eshikni birma-bir chertar, qo‘nishar,
Ba’zisi-la yana toza tanishar.

So‘z olar, pul berar, rijo etadi,
Ayricha-ayricha duo etadi.

Biroviga ishtahayi me’da berar,
Boshqasiga boshqa-boshqa va’da berar...

Istardim anglashni — ne ishdir bu,
Na olishdir, na berishdir bu?

Meni his bosdi zori hayratdan,
Afsus, uyg‘ondim bu xobi rohatdan!

Endi, ey Heyvara, boricha hunar,
So‘yla, ta’birini bilolsang agar?!

U so‘qmoqlar, u shaxslar, yohu,
Kimdir ayo, nedir, na ishdir bu?

EYJON!..

Muftining ra’yi ila kashfi vajuhi nishvon
Shar’da joiz emish, hukm etarmish Qur’on;
Muslimga avratga boqmoqda yo‘q emish hurmat,
Avratning qo‘l-yuzi avrat ki, emasmish, ey jon!..

Bas, ta’qiq zodai No‘mon[1]ne der edi, ajabo?
Yo unga l’n etgan o‘g‘lon ne der edi, ajabo?
Hazrati ulamoda, bas, u junbish ne edi?..
U zamon jumla musulmon ne der edi, ajabo?

[1] “Molla Nasraddin” emakdoshi Umar Foiq No‘monzoda nazarda tutilgan.

Ne der edi Shakining, G'unjonning iymonlari,
Tiflisning bir pora mazhabchi diliqonlari,
Gulfaning, Naxichevonning, Orbuning xalfalari,
Bokuning jo'mardlari, Lenqoranning jonlilari?

Endi, yohu, bu xato ishlarga vijdon ne deydi?
Aql ne hukm aylar, yo bunga irfon ne deydi?
Qandoq Qur'onga berar istagancha ma'noni,
Och, o'qibularga, ko'r, hazrati Qur'on ne deydi?

Ne deyodi? — Balli der arbobiga, man bilolmayman,
Bir to'da mullo kabi haylayi pand bilolmayman,
Demas Alloh ikki ma'noli so'zni qullariga,
Shu qadar anglaganman, boshqa suxan bilolmayman.

EL AYTAR NOMIMNI MING LA'NAT ILA

El aytar nomimniming la'nat ila,
Men elni yod etarman rahmat ila;
Na elning rahmatining bir kesari,
Na mening rahmatimning bir asari;
Men na mustajobi la'nman, zero,
Na-da el rahmatga, kufronga sazo!

AZROILNING ISTE'FOSI

Azroil arz etarkan, so'yladi: "Ey, robbil jahon...
Bir tabib bandang bu yil qullaringni qildi yakson.

Men bir jonni olmoqqa halak erdim qanchalab,
Bu tabib jonni olar bemalol ming-mingtalab.

Sen bergan jonlarni ming-mingin bu zolim oladi,
Ko'rdimki, quling bo'lib bu olamda kim qoladi?

Qo‘y, olay jonin uning, eling kutsin mahsharini,
Yo‘qsa, billoh, bu qirar qullaringning barini.

Bu iltijoyimni qabul aylamas bo‘lsang biroq,
Karam et, to amalimdan ketkazganing ham yaxshiroq.

Boshqa bir xizmatni ber, ayla meni minnatdor,
Azroil bo‘lmoqni ber shu tabibingga zinhor”.

YIG‘LAGAN HAR KISHI G‘AYRATSIZ BO‘LUR

Yig‘laganda kishi g‘ayratsiz bo‘lur,
Necha ki, yig‘ladi — Eron bo‘ldi.

U zamon ki, qo‘rqibon shoh qochdi,
Martajiylar tag‘in pinhon bo‘ldi.

Parlament porladi a’zosi ila,
Dedik, Eron yana Eron bo‘ldi.

Majlis ichra millat iymonlari
Nomi milliyatga shoyon bo‘ldi.

Tuzaldi ishlarning o‘ksik-keragi,
Millatning dardiga darmon bo‘ldi.

Lek biz ushbu tamannoda ekan,
Boq ki, Eronda ne doston bo‘ldi!..

G‘ar yetgan o‘tdi jamoat boshidan,
Har o‘tgan silsilai jon bo‘ldi;

Yetdi bir martabaga surati kor, —
Parlament qahvachi do‘kon bo‘ldi.

Ichilgan choy, yeyilgan yog‘li palov,
Chekilgan huqqai “kalyan” bo‘ldi.

Parlamentdir, bolam, axir bu yerda
Kim tanishdi, ne so‘z unvon bo‘ldi?

Qaysi bir masaladan bahs etildi,
Hosili millatga e’lon bo‘ldi?

Yo‘q, afandim, yanglish so‘zlama,
Dema ish loyiqi vijdon bo‘ldi.

To‘g‘ri, garchi ufuqi Erondan
Shamsi mashruta duraxshon bo‘ldi;
Ya’ni millat ishi millat qo‘liga
Berildi, masala oson bo‘ldi.

Shunda o‘z ishlarini ijroiya
Dasti millatda bir imkon bo‘ldi?

Lek bildingmi buzurgoni vatan
Bundoqish ko‘rdi ki, shoyon bo‘ldi?!

Chirpinib ish ko‘rajak yerda, yozuq,
Voy, otam, voy! — deya giryon bo‘ldi.

Ko‘zlilar boshladilar yig‘lamoqni,
Ko‘rlar ham unga xandon bo‘ldi.

Ish yotib qoldi orada o‘lgandek,
Na unga mayl, na imkon bo‘ldi.

Asl matlab unutildi, lekin
Yoshu qari, hamma quyon bo‘ldi.

Ko‘rdi maydonni odamdan xoli —
Qayga bir azmga shitobon bo‘ldi.

Har kas shundoq bajarib, oldi laqab,
Doxili zumrai arkon bo'ldi.

Turtilib suqdi o'zin parlamentga, —
Parlament majmai irfon (?) bo'ldi.

Voh, ne ko'pdir butun Eronda laqab,
Kimi boy bo'ldi, kimi xon bo'ldi...

Chiqdi maydonga mulavvab kishilar,
Baxtovarlar bari a'yon bo'ldi.

Ish nima bo'ldi, undan olma xabar,
Oldin arz etdim, u nishon bo'ldi...

Bir aytgan bo'lmadi, ey holi xarob,
Mamlakat xok ila yakson bo'ldi!

Siz hali oshiqi shaydoi laqab,
Shu ishmi loyiqi inson bo'ldi?!

Laqab ish bermas, afandim, kishining
Oti yo Somu Narimon[1] bo'ldi.

Kishidan istalgan ishidir, ish,
Kim ki, ish qildi, sohibi shon bo'ldi!

Ko'ray de, shunda muqaddas vatanning
Qaysi bir mushkuli oson bo'ldi?...

Shundoq ish ko'rdi laqab "fabrikasi",
Butun ishlar shunga qurbon bo'ldi.

Endi bildingmi ishning ahvolini,
Demagil, Eron nega vayron bo'ldi?!

[1] **Som va Narimon** — Firdavsiy "Shohnoma"si qahramonlari.

KO‘P AYTMA —
SARVAT-U SOMONLIMAN, EY FALON!

Ko‘p aytma — sarvat-u somonliman, ey falon!
Bo‘ldi pulim, bir necha millionliman, — bir uyg‘on!
Muhtaramman, mo‘tabarman, shonliman, — tur, tayan!
Mashhadliman, qiblalimman, hojiman, naslliman,
Dinliman, iymonliman, arkonliman,
Ham qo‘li Qur’onliman.

Senda, deylik, din ham bor, iymon ham bor, — filmasal,
Uying to‘la ne’mat-u alvon ham bor, — bebadal,
Rohat — ko‘pdir, sarvat-u somon ham bor, —
ko‘p go‘zal,
Uy-eshik, ayvon, ko‘p yumshoq yotoq, — tumtaroq,
Yog‘li palov, totli fisinjon ham bor,
Sharbati rayhon ham bor.

Qo‘shningda, lekin nechauryon ham bor, — qish, bo‘ron...
Girya ham bor, nola-yu afg‘on ham bor, nimjon...
Sen ki, shariatchisan, ey benavo, qil hayo!
Shar’da axir ne, bir ehson ham bor,
Haqqi musulmon ham bor...

Endi ket, insof ayla,
Och boshingni, ber elga,
Mazhabu iymon so‘zing
Vird aylama bir yo‘la!..

TO‘RT TILLI AYTISHUV

Zaqafqoziya muftiysi Husayn afandi janoblari der ki:

Kashfi vaj etmoq emas avratlarga shar’an harom, —
Shudir Qur’on, shudir asar, shudir mavhumi kalom!

"İşıq"[1] gazetasi mudirasi Xadicha xonim janoblari der ki:

Muslima avratlari mastura bo'lmoq istarmiz, —
Shudir so'z, shudir amal, shudir muvofiq bir marom!

Samax jomesi mudarrisi Abdulxoliq afandi janoblari der ki:

Muslima avlod faqat qo'z, yuz ochar indassalot, —
Shudir oyat, shudir axbor, shudir azhobi ikrom!

"Mulla Nasriddin" ham der ki:

Mufti undoq, Abd... bundoq,
ham Xadicha shundoqdegin*, —
Shudir undoq, shudir bundoq, shudir shundoq, vassalom!..

BUTUN OVRO'PODA KAMYOB EKAN, AMMO BOKUDA...

Butun Ovro'poda kamyob ekan, ammo Bokuda
Ne sababdandir ki bu yil bo'ldi farovon "yubiley".
Jo'natilsin "zakaz" endi Bokuga Shirvondan,
U yerda chunki sotilmoqdadir arzon "yubiley".

EY PULLILARNING SAFOSI, NAVRO'Z!

Ey pullilarning safosi, Navro'z!
Tojirlarning oshinosi, Navro'z!
Bir millatning bayramisan, nechun
Bo'lding bechoraning qazosi, Navro'z?!

[1] **"Isiq"** — 1911–1912-yillarda Bokuda chop etilgan haftalik ayollar jurnali edi. Muharriri Xadicha xonim Aliboyeva, noshiri esa Mustafo boy Aliboyev edi.

BAYRAM TUHFASI

Ey, to‘ymas mullalaring og‘zida sharbat, Navro‘z!
Ag‘niyolar bir-la qurarsan majlis-u ishrat, Navro‘z!
Sendan har kimsa sevinar, bas, nega qashshoq fuqaro
Bolalarin ko‘rgan zamon bo‘lar xijolat, Navro‘z?!

SHUNDOQ BIR TARJIMA KIM, SHEKSPIR RUHI ZIRQIRAR...

Shundoq bir tarjima kim, Shekspir[1] ruhi zirqirar,
Yig‘ladi Otello[2] ruhi -labarobar o‘ziga.
“Eh, mutarjim!” deya bir o‘tli tupuk sachratdi u,
Shubhasiz, tushdi u ham tarjimakorning ko‘ziga.

ASHHADU BILLOHI ALIYUL AZIYM

Ashhadu Billohi Aliyyul Aziym,
Sohibi iymonman, ey shirvonlilar!
Yo‘q yangi bir dinga yaqinim mening,
Ko‘hna musulmonman, ey shirvonlilar!

Shiaman, ammo na bu ashqoldan,
Sunniyman, ammo na bu amsoldan.
So‘fiyman, ammo na bu abdoldan,
Haqni sevgan insonman, ey shirvonlilar!

Ummati marhumai mag‘fur ila,
Amrdaman toati mazbur ila,
Kufrimga hukm aylamang zo‘r ila,
Qoyili Qur’onman, ey shirvonlilar!

---

[1] **Uilyam Shekspir (1564–1616)** — Ingliz shoiri, dunyo adabiyotida mumtoz drammaturgiyaning yetakchilaridan biri. “Hamlet”, “Maqbet”,“Otello”, “Qirol Lir” va boshqa asarlar muallifi.

[2] **Otello** — U. Shekspirining “Otello” fojiasi qahramoni.

ALHAMDULILLOH KI, BU KUN BAXTGA YOR BO'LDI BOSHIMIZ

Alhamdulilloh ki, bu kun baxtga yor bo'ldi boshimiz,
Keldi Navro'z ki, demak, ortdi bir yilga yoshimiz,
Butun taqvimga ko'ra garchi ko'p ozdir yoshimiz,
Ne ajabki, ikkidir bir sanada yilboshimiz:
Biri Navro'z, biri Mohi muharramdir, ajab!
Birisi moyai ishrat, birisi hamdir, ajab!

Bu sababdin bir yilda biz ikki hadya jo etamiz:
Bir hadya o'n bir, ikkinchisin bir oy etamiz,
O'n bir nola chekib, yig'lab oh-voy etamiz,
Bir oyni lozimi kishmish yeymiz-u, o'qday ketamiz;
Chunki iyd bizga islomda hukmi a'zamdir, ajab!
Shevai mazhabi Zardo'sht[1], asari Jomdir[2], ajab!

Bu bir oyda kiyinib, sollanarmiz shahd ila,
Ellik-ellik otamiz, uy kezamiz ishrat ila,
Kirarmiz har uyga, har manzilga jamiyat ila, ,
Choy icharmiz, turfa taom yermiz ajib lazzat ila,
So'ng ko'p zamon so'ng uy egasi qarz ichra barhamdir, ajab!
Iydda qarzga botmoq ham bizga musallamdir, ajab!

Topdi vaqti ki, arab lashkari atroki zafar,
Dini mo'binimizni ayladi zer-u zabar,
Biz ham otdik butun odatimizni, barcha magar
Bu muborak kunni taqdir ila bu onga qadar
Saqladik, chunki dil islomga ko'p ohi a'zamdir, ajab!
Ham shikasta bo'lgan arbob magar kimdir, ajab?!
Lek bu iydimizning bitta qusuri yana bor:

---

[1] **Zardo'sht** — Otashparastlik dinining sohibidir. Navro'z bayramining asosi Zardo'sht va Jamshidi Jom davrida qo'yilgan, deb hisoblanadi.

[2] **Jom (Jomi Jamshid)** — Eronning va Midiyaning afsonaviy shohlaridan hisoblanadi.

SATIRIK PARCHALAR

TUTDIM RO‘ZANI RAMAZONDA

Tutdim ro‘zani ramazonda,
Qoldi ikki ko‘zlarim qozonda,
Mullam ham to‘yar yozuv yozg‘onda...

BOBOM — SHIA, O‘ZIM — SUNNIY, “DURAK”MAN

Bobom — shia, o‘zim — sunniy, “durak”man,
Na forsman man, na hindman man, kerakman!
Mug‘anda — mug‘bacha, masjidda — akbar,
Tafovut yo‘q... haqiqatda ziyrak man!..

TANGRI HAR YERDA PULNI BIR YURAGI SAXTGA BERAR

Tangri har yerda pulni bir yuragi saxtga berar,
Ma’rifat dardini bir kosibi badbaxtga berar.

Omi Hoji Rustamga yetti o‘g‘il berar u,
Lekin baqqol Jabiyga yetti qiz shartta berar.

Cho‘qqi soqol kimsaga yil bo‘yi kunda palov,
Lek abdol Ko‘saga go‘shtni haftada bir martaberar...

XALILULLOHGA ASIRMAN, OTAM YURTI AZARDIR

Man Xalilüllah-el asram, pedaram çon Azar,
Safar az Babil-e Şirvan konam inşaallah.

Garçe u daftar-e aş'ar-e mara pare nemud,
Vasl ba tab'e dorafşan konam inşaallah*.

***Tarjimasi*[1]:**
Xalilullohga[2] asirman, otam asli Azardir[3],
Chiqqum Bobilda[4] Shirvondan zarur jur'at-la, inshalloh.
Agar-chi she'rimni yirtib, g'azab-la o'tlarga otdi,
Bu gavharlar sochgan ta'bim to'lar qudrat-la, inshalloh.

XUMSIY SHAROBNI SAYYIDGA BERIB, SOQIY DEDI

Xumsiy sharobni Sayyidga berib, soqiy dedi:
Sobir faqirdir, yetar shuncha zakot unga[5].

SHE'R BIR GAVHARI YAKDONAYI QIYMATLIDIR

She'r bir gavhari yakdonai qiymatlidir,
Tushirmasman "drug" vasfi ila uni qiymatdan.
Qilarman hajv, so'zim to'g'ri, kalomim shirin,
Ahli zavqqa berarman nash'a bu xush sharbatdan.

---

[1] Forschadan Karim Bahriyev tarjimasi.

[2] **Xalilulloh** — Ibrohim Xalilulloh — Allohning do'sti demakdir. Qurbon bayramini undan boshlangandir.

[3] **Ozar** — Ibrohim Xalilulloh payg'ambarning otasidir.

[4] Bu yerda nazarda tutilganiga ko'ra, Bobilni bunyod etgan hukmdor Namro'd butparast bo'lgan. Ibrohim Xalilulloh butparastlikka qarshi bo'lgani uchun uni o'tda yoqmoqchi bo'ladi. Shoir shu hodisaga ishora qiladi.

[5] Musulmonlar yil mobaynida qilgan daromadlaridan "xums" va "zakot" nomli soliq to'lardilar."Xums"daromadning beshdan biri, "zakot" esa o'ndan biri hissasida bo'lardi. "Xums" — sayyidlarga, "zakot" esa yo'qsillarga berilardi. Shoir o'zining yo'qsilligiga ishora etmoqda.

SEN PIRI JAHONDIRSEN, EY, SAYYIDI SARKOR...

Sen piri jahondirsen, ey, sayyidi sarkor,
Meni qo'ygin, mayli, aylagin pir ila raftor!
Senga qismat bo'lmas yana bu davlat-u diydor,
Endi mening hajrimda jigari qon bo'larsan!

Oshiq menga bir men kabi zebo kerak bo'lsin,
Gulga moyil bir bulbuli shaydo kerak bo'lsin,
Senda bu ishga sabr-u bedavo kerak bo'lsin,
Ammo bilarman, sabr o'yi vayron bo'larsan!

SOBIRI SHAYDO KI, TARKI SHAHRI SHIRVON AYLADI

Sobiri shaydo ki, tarki shahri Shirvon ayladi,
Kim ki bulbulga o'xshar, mayli guliston ayladi;
Ming uch yuz birda hijratdan keyin maymun yili,
Shavvolning so'ngida azmi Xuroson ayladi...

MUSULMON VA ARMANI VATANDOSHLARIMIZGA

Asrimiz xohish etarkan ittifoqu ittihod,
Jumlamiz amniyat ichkari olmoq'istarkan murod,
Bo'ynimizda yo'q ekan bir gunoh asbobi tazod,
Bu vatan avlodiga oriz bo'ldi, buzishinod,
Musulmon-la armanining bo'yniga tushdi fasod,
Yo'qmi bir sohibhidoyat, yo'qmi bir ahli rashod?!

Ey suxandonlar, bu kunlar bir hidoyat vaqtidir!
Ulfat-u unsiyatga doir xitobot vaqtidir!

Ikki yo'ldosh, ikki qo'shni bir vatanda hamdiyor,
Asrlarcha umrin yashab, sulq ichra bergandir qaror,
Fitnai iblisi mal'un[1] bo'ldi nogoh oshkor...
Ko'r, jag'olatdan na holga tushdi vaz'i ro'zg'or!
Qatli g'orat beshumoru shahri qariyatoru mor...
Al'amon, bu fitnaga chora qil, ey Parvardigor!

Ey suxandonlar, bu kunlar bir hidoyat vaqtidir!
Ulfatu unsiyatga doir xitobot vaqtidir!

Fitnalar kim, fosh bo'lar,
bilmam ne holatdan bo'lur,
Aql bovar aylamas kim, odamiyatdan bo'lur,
Muslimiyatdan yoxud armaniyatdan bo'lur,
Shubha yo'qdir, jahldan yoinki g'aflatdan bo'lur,
Bu musibatlar butun buzg'unch adovatdan bo'lur,
Bu adovat mutloqo holi zalolatdan bo'lur;

Ey suxandonlar, bu kunlar bir hidoyat vaqtidir!
Ulfat-u unsiyatga doir xitobot vaqtidir!

Haqni xalqqa bildirib, da'fi zalolat etamiz,
Kun kabi tobon etib, poymoli zulmat etamiz,
Nobakor bu ishlarning da'finda g'ayrat etamiz,
Xotiri badbaxt agar, raf'i qudurat etamiz,
Chorasozi sulh qilib, da'fi xusumat etamiz,
Sobiro, baynalmillat tadbiri ulfat etamiz!

Ey suxandonlar,
bu kunlar bir hidoyat vaqtidir!
Ulfatu unsiyatga doir xitobot vaqtidir!

[1] Fitnai iblisi mal'un deganda shoir chor hukumatining Kavkazda yuritgan fitnakor milliy qirg'in siyosatini nazarda tutadi.

SO‘Z

Ey so‘z, nola bersa senga xurshidi samovot,
Sendin oladi ziyoni hamma zarrot.

Bir nuri haqiqatsan, etdi haq seni nozil
Kim, baxsh etarsan gulshani noshudga fayziyot.

Goh lavhda mastur, qalamdan goh sarsari,
Goh arshda misboh, gohi farshda muskat.

Subhi azaliydan yuzing etgancha tajalli,
Mahv bo‘ldi jahonni o‘ragan tutuni zulumot.

Bo‘lmish butun arbobi nazar oshig‘i husning,
Tanviri o‘ying aylagay arbobi kamolot.

Bir muhibai lutfi xudosan ki, haqiqiat,
Insonlar etar zoting ila faxr-u mubohot.

Sarkashlarni har toatga majbur etarsan,
Ta’siri nufuzing-la arir sangi jamodot.

Ey fikr chaqmog‘i, ayo vijdon zumrasi!
Ey qalb sazosi, ayo nuri xayolot!

Bashar zotiga tarbiyabaxsh bo‘lganing uchun —
Gar do‘nsa, sazodir senga ummul adabiyot.

Sensan fusohai arabni aylagan biyron,
Izhor balog‘at-la, ayo nuri hidoyat.

Mumtoz aylading nav’i bani odamni ilhaq,
Inson sening ila etdi e’zozi maqomot.

Vijdon-u tilni Sobirga ayla fayziyob,
To kim, bitsa ko‘nglida rayhoni kamolot.

MILLAT NOLASI

Vo-hasrato!.. Barham bo'ldi ittifoqi millat!
Milliyat ijtimiysin buzdi nifoqi millat!

Amnu rafahu rafot tabdil bo'ldi fasodga,
Mehru vafo-yu ulfat qurbon bo'ldi hasadga,
Qur'onimiz chaqirar bizni bir e'tiqodga,
Shar'i sharifga soldi ming bir nifoqi millat!

Tablig'ga boshladi chun
Payg'ambar alayhissalom,
Amru rasolatiga shundoq keltirdi islom,
Bir dinni, bir Xudoni islomga qildi a'lam,
To bir ittifoqqa kelsin, bitsin nifoqing, millat!

Ashobu poklar bo'ldi xizmatguzori islom,
Jahonni tutdi bugun zuliqtidori islom,
Chunki tamaddun edi asli shiori islom.
Talpindi garchi arshga toqi-ravoqing, millat!

Nashr etdilar islomning shiorin har diyorga,
Bilittifoq bo'ldilar xizmatda intizorga,
Bilmam, kim etdi axir islomni pora-pora,
Xalq bo'ldi firqa-firqa, bo'lding mazoxi, millat!

Kim xizmat etar, ey dil, islomga, ittifoqqa?
Kim tikdi boshu jonin bu maslakka, saboqqa?
Mazlumi Karbaloni ko'r, dashti Naynavoda
Xeshu taboring ketdi ming turli yoqqa, millat!

Sobir! Imomga payrov bo'lmoq kerak va illo,
Men musulmon demoq-la, yetmas subutga davo,
Boq, ko'r shavq ila bosh berdi izizi Zahro,
O'lsa, ne bo'lur yo'lda gar ishtiyoqi millat!..

HASRAT

Istaydilar ittifoq,
Ko'rsaturlar innifoq.

Bo'lsaydi safo zumrai irfon orasinda,
Qolsaydi vafodan asar a'yon orasinda,
Tursaydi sadoqat boy ila xon orasinda,
Qolmasdi azob zarracha inson orasinda!

Birlikka quvvat erur biz uchun Qur'on,
Amr aylar ekan birlikka Payg'ambari shon,
Topmaysan nega ikkita pok do'stni musulmon
Kavkazda bo'lgan bir necha milyon orasinda?!

Ma'nosiga kirmas ajabo Qur'onni bilganlar,
Islomni bundoq tafriqaga xor qilganlar,
Ayo, o'qimaslar nechun dinni bo'lganlar,
Foyda-ziyon ramzini Qur'on orasinda!

Axir, bu ne tafriqi taxalluqdir, ey ummat?!
Qo'ldan ketmoqda, anglamaysizmi, bu millat?!
To kay bu muxolif, bu tafarruq, bu adovat
Bir din, bir islom-u bir iymon orasinda?!

Musulmonlarga vobastadir g'ayrati islom,
Qilsin-da muslimlar bu kun xizmati islom,
Afsuski, behimmat o'ldi millati islom
Dunyoda bo'lgan muxtalif adyon orasinda!

Bir yildan buyon zulmat-da talosh musulmon,
Boyu badavlatlar aro och musulmon,
Ayo, ne ravodir bundoq muhtoj musulmon
Ko'n rizqingga derlar boy musulmon orasinda?!

Islomimizni etmaylik bundoq bir ihyo?!
Iymonimizni qilmaylik bundoq bir riyo?!

Islom bu emasmi, ki jigargo‘shai Zahro
Bosh berdi yo‘lida sassiz, ol qon ichinda!

Bizday millatga lozim emasmi bundoq tarbiyat?
Bizday ummatga vojib emasmi g‘ayrati millat?
E vohki, albat o‘qiydi bizlarga la’nat
Milliyatga xizmat etgan inson orasinda!

O‘XSHATMA

Savdoyi ul vahdatdan
Xoli ko‘rinur boshlar;

Begona bilur yaksar
Qardoshlarni qardoshlar.

Ko‘zlar yana qon sochsin,
Bitsin sochilgan yoshlar;

Yig‘lar bizga tuproqlar,
Tog‘lar, daralar, toshlar...

Zinhor, etaylik xizmat
Insonlikka, yo‘ldoshlar!

G‘ayrat, ey vatandoshlar!
Himmat, ey vatandoshlar!..

TARBIYA

Ummatning rahnamosi tarbiyadir,
Millatning peshvosi tarbiyadir.

Tarbiyat-la o‘tar hayoti jahon,
Har ishning ibtidosi tarbiyadir.

Ota-onaning avlodiga
Nazari e'tinosi tarbiyadir;

Chunki avlod — haqning ne'mati,
Shukri haqning adosi tarbiyadir.

Necha kim, bir adibi mumtozning
Darsi hikmatnamosi tarbiyadir.

Johilning ham zavolli avlodga
Shevai noravosi tarbiyadir;

O'rgatar tifla su'i axloqni,
Ajabo, muddaosi tarbiyadir.

Tarbiyat ilmsiz emas maqbul
Ki, uning taqozosi tarbiyadir.

DUNYO BIR MUDDAT BO'LDI MANZILIMIZ

Dunyo bir muddat bo'ldi manzilimiz,
Unda hal bo'lmas ekan mushkulimiz;
Yashagandan dushmanimiz ko'paydi,
Nachora, to'g'ri so'z erdi tilimiz!..

ONALAR BEZAGI

Gar bo'lsa ayolda ilmu irfon,
Bolaga o'tar u yo'lda iymon.

Aksi bo'lsa agar bu muddaoning,
Bo'lmas esa ilmi bir onaning –

Bolaga o‘tar hamon jaholat,
Na aql bo‘lar unda, na farosat.

Betarbiyalik-la asli mas’um
Oxirda bo‘lar kazzobu mash’um;

Shar’iydir chunki ushbu holat,
Hamjinsiga aylagay sinoat.

Toptalmasin huquqi ayol,
To komil bo‘lsin vosiqi ayol.

Ilm ila bo‘lur hosili izzat,
Ilm ila bo‘lur nufuzi millat.

Ilmga chaqirar butun avomni
“Al-ilmu farizatun” kalomi.

ONALAR BEZAGI

Bezak, bezak ki, degaylar, javohirot emas,
Javohirot bu kun ziynati hayot emas.

Nechun javohirga faxr aylasin, axir, ayol?
Some’da faxr esa shoyoni mahsulot emas.

Haqiqiy volidaning eng sharafli bir bezagi
Odobli, esli boladir, tajammulot emas.

Gar onaning ki, yo‘q bolasida husni tarbiyasi[1],
Sazoyi mukarrami nomi volidat emas.

Hayotga loyiq bo‘lgan ziynat — ilm gavharidir
Ki, shundoq tiriklik hayotdir, momot emas.

NOTIQQA XITOB

Ey, notiqi badiha pardoz!
Voh, suhbati dil firibi-yu e'joz!

Ey, mahbiti fayzi osmoniy,
Miftahi xazinai ma'oniy!

Sen mahzani hikmat eding, axir,
Sen munshii hikmat eding, axir!

Bir to'tii xushbayon eding sen,
Bir durji durafshon eding sen.

Afloki suxan sitoras eding,
Gulzori vatan hazorasi eding.

Tushding nega, bas, bu holga alhol?
Bilmam, ne sababdan bo'lmishsan lol?

Ey bulbulim, bo'l taronapardoz,
Qil bog'i badanda nag'ma ovoz!

Faryod ayla bir dam oshiqona,
So'yla dili zor-u notavonga:

Ki, ey g'uncha, ochil ki, shunda dunyo
Gulzori tamaddun bo'ldi yakto!

Chiq tashqariga bu pardai ibodan,
Ot pardani mazhari adodan.

Sen olami akbari xudosan,
Sen oyinai jahonnamosan.

Mohiyatingni haqir bilma,
Ozodalarni asir bilma.

Senda yaratmish bodai aflok
Aql-u hunar-u shuur-u idrok.

Olamda ne bor — bor senda,
Sarmoyai e'tibor senda;

Tur, tur ki, tugadi layli zulmat,
Ahrorga ochildi subhi davlat!

Oshiqlari ishtiyoqqa tushdi,
Har qosh egilib, qaboqqa tushdi.

Ular ham seningladir muassir —
Har ilm-u fununingga bo'ldi mohir.

HAVAS

Havas shavq aylar insonni hayotga,
Hasad-chi,
jalb etar shaxsni momotga.

Havas azal eltar zoti safoga,
Hasading mubtalo aylar baloga.

Havas sarzamini aql-u hunardir,
Hasading moyai g'am-u kadardir.

Havasdan nash'at aylar har mahorat,
Hasaddan qo'zg'alar ming-ming xijolat.

Havasning hosili sog'liq, fazodir,
Hasadning mevasi xato, jazodir.

Havas bir-la taraqqiyot darkor,
Hasaddan amal manxusi idbor.

KIM XUDO NE'MATI SHUKRIN TARK ETUR

Kim Xudo ne'mati shukrin tark etur,
Etmagay voqean xudog'a shukur;

Shokironi vasoili ne'mat
Bo'lur, albatta, noili ne'mat.

Ortiq etarkan shukur safosin,
Hosil aylar ko'ngil tamannosin.

Shakari shukrda halovat bor,
Shukurda sababoti ne'mat bor.

Ne'mati xudoga shukr etgan axloq,
Hazrati Haqqa shukr etmish mutloq.

Inoyat haqdandir, chunki kulli asos,
Haqqa rijodir shukri ne'amati nos.

Shukur — sarmoyai ibodatdir,
Shukur — parvonai itoatdir.

Ey Alloh, fazlingga rijo aylarman,
Men nechuk shukringni ado aylarman

Ki, daqiqa-daqiqa, on va on,
Sobirga ne'mating bo'lur shoyon.

NOLA ARBOBI KAMOL AYLAGAY TAHSIN MENGA KIM...

Nola arbobi kamol aylagay tahsin menga kim,
Nazm osmonida bir axtari raxshonman men.

Xoki poyimdir bergan didai xurshidga ziyo
Ki, Husayn navkarim, olamga sultonman men.

Davr berar boshimga har kun xumoi davlat
Ki, azo gulshaniga bulbuli nolonman men.

Moddiyunlar ko'zida xori mug'iylonman agar,
Nazari poki zeboda gulistonman men.

Garchi ko'p kibr-u hashambu haqorat-la, vale
Zokiri ali aboman, shohi davronman men.

Sobirman, sabr shiorimdir, qanoat tojim,
Nafsimga podshohman, sohibi farmonman men.

Topganman faqrda bir hotami istig'no kim,
Degayman taxti qanoatda Sulaymonman[1] men.

ISTAYMAN O'LMOQNI MEN, LEK QOCHAR MENDAN AJAL

Istaymano'lmoqni men, lek qochar mendan ajal,
Ko'r ne badbaxtman, hatto ajal qilar mendan hazar.

AZOBI G'AMLAR DASTIDAN YURAGIM SHISHGAN EDI

Azobi g'amlardastidan yuragim shishgan edi,
O'ylar erdim, yetajakdir o'zi qorajigarim;
Manhus baxtimni ko'r, men bu tamannoda ekan
Boshladi shishmoqni endi yuzi qora jigarim.

[1] **Sulaymon** — ham payg'ambar, ham shoh bo'lgan buyuk shaxsdir.

KUNIM YOMON O‘TDI SHAHRI SHIRVONDA

Kunim yomon o‘tdi shahri Shirvonda,
Dardlarim shiddat etdi har yonda;
Bir tarafdan og‘riyapti jigarim,
Bir tarafdan — yuraklagi kadarim.

RAHAM BEDAHİD, RU BERAH AMADAAM

Raham bedahid, ru berah amadaam,
Bar dargah-e hazrat-e ilah amadaam;
Bitöhfe nayamadam, na dastam xalist,
Ba dast-e pür az hame qonah amadaam...

Tarjimasi[1]***:***
Yo‘l bering, topganman yo‘lni, kelganman,
Bo‘lib bu dargohning quli, kelganman.
Tuhfasiz kelmadim, qo‘lim bo‘sh emas,
Quchog‘im gunohga to‘lib kelganman.

QO‘YMA, KELSA, SOQIYO, ZOHIDNI MAYXONAGA

Qo‘yma, kelsa, soqiyo, zohidni mayxonaga,
Aylanmasin mayxonamiz masjidi vayronaga.

Urma girih zulfingga, ayla hazar, ey sanam!
O‘xshamasin shaklda sabhai saddonaga.

Hirs ila, afsun ila bo‘lmas iloji junun,
Ishq so‘zindan boshqa so‘z demagil devonaga.

[1] Forschadan Karim Bahriyev tarjimasi.

Bodai talx ichra bu na'shai shirin nedir?
Yo'qsa qo'ydi dilbarim lab labi paymonaga?

Shunda ki, uzding qo'ling zulfi parishondan,
Beri kel, izhor qil dard-u diling jononaga.

Shamni ham yoqmoqdadir otashi savdoi ishq,
Shulai partafviruz xosmi parvonaga?

Sobir, ul jannat ruhing o'zi holing ko'rdimi,
Oz qoldi Odam[1] kabi aldanding bir donaga.

HAR SARIQ MO'YINGDA MING OSHIQI NOLONING BOR

Har sariq mo'yingda ming oshiqi noloning bor,
Magar, ey sho'x ki, bir jismda ming joning bor?

Layliga Qays[2] bo'lur oshiq, senga ming-ming Layli,
Axtararsan yana bir oshiq, ajab qoning bor!

Xohishing tarki dil-u jon edi, men ham berdim,
So'yla, ey yor, ko'ray endi na farmoning bor?

Iydi azhoda qo'ying so'yma, bo'ying qurboniman,
Oshiqi zoring kabi so'ymoqqa qurboning bor.

So'zi benolai parvonani ko'r, ey bulbul,
Gulzor sahnida shundoq sening afg'oning bor.

---

[1] **Odam** — ayoli Havo bilan qirq kun jannatda yashagan, Allohning amrini buzib, man etilgan ishq olmasini yegani uchun jannatdan yerga quvilgan, insoniyatning ilk namoyondasi bo'lgan payg'ambardir.

[2] **Layli va Qays** — Sharqda keng tarqalgan "Layli va Majnun" ishqiy afsonassining qahramonlari.

Har bir dard chorasin aylamoq osondir, tabib,
Ishq dardiga ne tadbir, ne darmoning bor?

Sobiro, g'arq etar oxir seni bu sayli balo,
Bo'lma g'ofil bundoq kim, diydai giryonim bor.

KO'CHANGNI XUNOBAYI CHASHMIM-LA NAMNOK AYLARMAN

Ko'changni xunobai chashmim-la namnok aylarman,
Kiprigim-la ostonangning gardini pok aylarman.

To ki, ko'rdim sog'ari sahfada aksi surating,
Umrlar kim, jahondaxizmati toq aylarman.

Ishqingni oson bilardim, chiqdi ish rasvoliqqa,
Endi rasvoi jahon bo'ldim, nedan bok aylarman?

Bo'ynimga soldim ul zebo tal'atning zulf-u qoshin.
Turfa joduman, fusuni mori Zahhok aylarman.

Vaslga umid bo'lsa, hajringda bu to'rt unsurni
Ko'zim ashkin selini mavjingda xashok aylarman.

Urma taroq zulfingga, berohat etma ko'nglimni,
Zulfingga tekkanda taroq,
ko'nglimni chok aylarman.

Sobiro, tuproqqa soldi soya[1] ra'no dilbarim,
Gar malak bo'lsam-da, endi sajdai xok aylarman.

[1] Bu misradagi tashbehning ma'nosi shunday: go'yo oy (qamar) aqrab burjida bo'lganda, yuziga soya tushadi. Shoir go'zalning yuzini oyga, sochining zulfini esa chayonning dumiga (Aqrabga) o'xshatadi.

ISTASANG, KO‘NGLIM KABI ZULFING PARISHON BO‘LMASIN

Istasang, ko‘nglim kabi zulfing parishon bo‘lmasin, —
Ul qadar jabr et menga — oh etmoq imkon bo‘lmasin!

Dardi ishqing qasdi jon aylasa, men ham shokirman,
Istarman — jismimda dard bo‘lsin, tag‘in jon bo‘lmasin!

Qo‘yma, ag‘yor aylasin kuyingda javlon, ey pari!
Ahrimanlar[1] moliki mulki Sulaymon bo‘lmasin!

Otashing ro‘yinda af’i toq yotib geysularing,
Turfa jodudir ki, mor otashda suzg‘on bo‘lmasin!

Derlar, oshiqkush nigorim qatlimga g‘ambodadir,
Alloh, Alloh, bir sabab qil kim, pushaymon bo‘lmasin!

Mubtaloyi dardi ishqman, qo‘l tortgin mendan, tabib!
Ayla bir tadbir kim, bu dardga darmon bo‘lmasin!

Sobiro, vasl umidi ila g‘ami hijronga chida,
Qaysi bir mushkuldir kim, sabr ila oson bo‘lmasin?!

EY DIL, OMONDIR, SIRRINGNI BEGONA BILMASIN!

Ey dil, omondir, sirringni begona bilmasin!
Yor zulfi ham, ohista yot, shona bilmasin!

Tushding xayoli donai xol ishtiyoqiga,
Ey murg‘i raf’, xoksor bo‘l, dona bilmasin!

[1] **Ahriman** — zardo‘shtiylikda yomonlik ilohi va devlar podshohi hisoblanadi. Shoir badxoh, fitna va fasod tarqatuvchilarni “Ahrimanlar” deb ataydi.

Ey yor, jon qadami muboraging fidosi,
Ohista qil xirom ki, hamxona bilmasin!

G‘ayrat halok etar meni, ochma jamolingni,
Ko‘rsatma shamga yuzingni, parvona bilmasin!

Bir lahza yor bazmida shodman, ey ko‘ngil,
Orom ber, bu matlabni begona bilmasin!

Ey ohi sard, urma nafas yor zulfiga sen,
Bir dam qaror ber, dili devona bilmasin!

Zohid ishqqa takfir aylasa Sobirni, ,
Zohir ko‘zi-la Ka’bani butxona bilmasin!

MAKTAB QO‘SHIG‘I

Maktab, maktab, ne dilkushosan,
Jannat, jannat desam, sazosan.
Shodman, shodman tafakkuringdan,
Alhaq, alhaq, go‘zal binosan!

Atring, atring guli rayhondir,
Fayzing, fayzing hayoti jondir,
G‘unchang, g‘unchang safoyi vijdon,
Nuring, nuring ziyoafshondir!

Tohir, zohir hunarlaring bor,
Bohir, sohir samarlaring bor,
Daryo-daryo mavjlaring ichra
Porloq-porloq gavharlaring bor!

Daftar-daftar xabarlaring bor,
Rahbar-rahbar asarlaring bor,
Mushkin-mushkin qalamlaringda
Ohu-ohu nazarlaring bor!

Himmat, himmat sening-la oliy,
Xoki vatan sening-la xoli,
Sensan, sensan umum insonning
Nutqi, fikri, tili, maqoli!

Gulshan-gulshan latofating bor,
Ravshan-ravshan saodating bor,
Nafis-nafis bayonlaringda
Shirin-shirin hikoyating bor!

Bo‘lsin, bo‘lsin sening-la xushhol,
Yetsin, yetsin kamolga atfol,
Ko‘rsin, ko‘rsin farzandlarida
Sobir-sobir padarlar iqbol!

MAKTABGA TARG‘IB

Mening bog‘im, bahorim!
Fikri ziyoli, o‘g‘lim!
Maktab zamoni keldi,
Tur, ey vafoli o‘g‘lim!
Ey ko‘zim, ey jonim!
Bor maktabga, javonim!

Kun chiqdi, subh ochildi,
Qorong‘ular chekindi,
Derazadan nur tushdi,
Yotoqlarga sochildi.
Ey ko‘zim, ey jonim!
Bor maktabga, javonim!

O‘g‘il, o‘g‘il, omondir,
Ko‘p uxlamoq yomondir.
Ko‘p uxlamoq — shaytondan,
Tez turmoq — Allohdandir.

Ey ko‘zim, ey jonim!
Bor maktabga, javonim!

Nasihat ol, nasihat,
Qil kasbu ilmga g‘ayrat!
Ilmsizlik balosi
Mushkul bo‘lur, haqiqat.
Ey ko‘zim, ey jonim!
Bor maktabga, javonim!

Maktabda bor sharofat,
Daftarda bor latofat,
Paydo bo‘lur qalamdan
Shirin-shirin hikoyat.
Ey ko‘zim, ey jonim!
Bor maktabga, javonim!

Alloh bo‘lsin sodiqing,
Maktab sening shafiqing;
Tur, maktabga ket, o‘g‘lim,
Daftar sening rafiqing.
Ey ko‘zim, ey jonim!
Bor maktabga, javonim!

Mualliming kalomin
Ol, saqla ehtiroming;
Haqdan etar tamanno
Maktabining davomin.
Ey ko‘zim, ey jonim!
Bor maktabga, javonim!

Ilm o‘rgan, imtihon ber,
O‘z fazlingni nishon ber;
Qadrin bil ilm-u fazlning,
Ilmning yo‘lida jon ber.
Ey ko‘zim, ey jonim!
Bor maktabga, javonim!

ILMGA TARG‘IB

Ilmning izzati poyidor bo‘lur,
Jahlning shiddati jonshikor bo‘lur;
Har kim ilm o‘qir, baxtiyor bo‘lur,
Millat ilm ila barqaror bo‘lur.
O‘qingiz, azizlar, o‘qimoq zamonidir!
O‘qimoq har odamning adabi nishonidir!

Ilm ila sarafroz bo‘lmasak biz,
Jumladan beniyoz bo‘lmasak biz, —
Bizda faxr-u mubohot bo‘lurmi?
G‘ayrilarga musovot bo‘lurmi?

Har bir toifa bir sayoq ila
O‘tdi izzatga ittifoq ila,
Tushdik zillatga biz nifoq ila,
Maktab ochaylik ishtiyoq ila.
O‘qingiz, azizlar, o‘qimoq zamonidir!
O‘qimoq har odamning adabi nishonidir!

Sidq ila qo‘l-qo‘lga uzatmasak biz,
G‘aflatni bir tarafga otmasak biz, —
Bizda hargiz saodat bo‘lurmi?
Shafqat etmoqqa qudrat bo‘lurmi?

Islomiyatga iftixorimiz —
Sunniy-shialik bo‘ldi korimiz,
Ketdi sha’nimiz, e’tiborimiz,
Bormi rutbamiz, iqtidorimiz?
O‘qingiz, azizlar, o‘qimoq zamonidir!
O‘qimoq har odamning adabi nishonidir!

To‘g‘ri bir ittihod etmasak biz,
Birlikka e’tiqod etmasak biz, —
Bizda sharti uxuvvat bo‘lurmi?
Dini islomga xizmat bo‘lurmi?

BOLA VA MUZ

Darsdan qochgan bir bola
To‘kdi muz uzra jola.

Sirg‘aldi birdan-birga,
Tushda yuz bilan yerga.

Turdi bola, nayladi?
Muzga shundoq so‘yladi:

“Sen ne yomonsan, ey muz!
Odam yiqqansan, ey muz!

Oz qoldi umring saning,
Bahorda ortar g‘aming:

Erib, suvga botarsan,
Oqib soyga ketarsan!”

BAHOR KUNLARI

Kel, kel, bahor kunlari!
Yilning dilbar kunlari!

Tog‘da erit qorlarni,
Bog‘da erit qorlarni:

Soylar to‘la sel bo‘lsin,
Sochpopuklar gul bo‘lsin.

Yog‘ochlar ochsin chechak,
Yaprog‘i luchchak-luchchak.

MAKTAB BOLALARIGA TUHFA

Tug‘ilar inson ota o‘chog‘inda,
Boshlanar volida quchog‘inda.

Ota har kun ketar ishga, zahmatga,
Ne qadar zahmat bo‘lsa-da, mehnatga.

Sevolmas o‘zining istirohatin,
O‘ylar bolasining saodatin.

Ishlagay, to jismin qon-terga yopadi,
Har ne bo‘lsa-da, parcha non topadi.

Ona bolasiga vaqf etar o‘zini —
Yumolmas, yummasa farzand ko‘zini.

Tonggacha benavo chekar zahmat,
O‘z bolasiga baxsh etib rohat;

“Alla-alla” deya ovoz taratar,
Ming muhabbat ila beshik tebratar.

Oh, bizlar bola ekan, ne qadar
Bergandik onaga ming ranj-u kadar.

Shunda biz ularni e’zoz etaylik,
Ular istagan bir yo‘ldan ketaylik.

So‘raylikhar zamon rizolarini,
Olaylik xayrli duolarini.

“Oyoq ostidadir behisht onaning” —
Bu hadisi sharifdir, ishoning!

Bizga lozim — haqqa qul bo‘laylik,
Volidaga baxtli o‘g‘il bo‘laylik.

Otaga hurmat etmagan bolaning,
Onaga xizmat etmagan bolaning

Na bo'lur o'z nafsiga xayri,
Na-da undan vafo ko'rar g'ayri!

Shubhasiz, ul farzand haqqa yor bo'lmas,
Ikki dunyoda ham baxtiyor bo'lmas.

MAKTAB SHOGIRDLARIGA TUHFA

Ey bolalar, bolalik ayyomi, —
Kelgan ayyomning undadir komi.

Kim ki, g'ayrat-la zahmatga surinar,
Kasbga, irfonga tunu kun urinar, —

Zahmati tuxumi saodat bo'lur,
Hayoti hamisha farog'at bo'lur.

Kim ki, tanballikka muhabbat etar,
Doim arg'imchoqlar-la ulfat etar,

O'tkazar vaqtini jaholat ila,
Butun umri o'tar zalolat ila.

Ishda, yoshlar, bu holin ko'ring,
Bu iki hold ehtimolin ko'ring.

Vaqtdan doim iste'foda eting,
Ilm tahsilini iroda eting.

O'qingiz, beniyoz bo'ling, o'qingiz!
Ilm ila sarafrozbo'ling, o'qingiz!

Kelajak kunlarning saodatini —
Qozoning fazl-u faxr-u izzatini.

Sizdadir millatning umidvor ko‘zi, —
Hol ila yo‘llanur sizga bu so‘zi.

Tinglangiz yangilik sadolarini!..
Eshiting otashin navolarini!..

O‘qingiz, millatning najoti bo‘ling!
Toabad boisi hayoti bo‘ling!

TABIB ILA XASTA

Bir tabibga bordi-da bir bemor
Dedi: “Me’damda og‘riqli bir ne bor;

Bir davo ber, menga iloj qilgin,
O‘larman, chorai mizoj qilgin”.

Tutdi qo‘ldan tabib darhol:
“Nima yeding?” — deya berdi savol,

Dedi: “Issiq non yedim, doktor,
Yeganim bir narsa aynigan yo‘qdir”.

Hayron qoldi tabib uning so‘ziga,
Izladi bir davo boqib ko‘ziga.

Xasta:
“Me’damdir og‘rigan, bu ko‘zim,
Yoki tushunarli emasmi so‘zim?”

Dedi doktoriga ki: “Ey ahmoq,
Aybli bo‘lmasa ko‘zing mutloq,

Qaynoq nonni yemas eding aslo,
Shu sababdin ko‘zga izladim davo”.

KEKSA BOG‘BON

Bir to‘da yosh yo‘l kanoridan
O‘tarkan bir bog‘ qatoridan,

Ko‘rdilar — yuz yoshinda bir bog‘bon
Ishlardi bog‘da kuch berib hamon;

Titrab-titrab qo‘li, botgancha terga,
Olma ko‘chatini ekardi yerga.

Kularkan, berdilar savol: “Voh, ey chol,
Yuz yoshinda nedir bu ish, bu ahvol?”

Dedi: “Yerni kovlab, jafo chekarman,
Tuproqqa olmaning niholin ekarman”.

Dedilar: “Bunda bor kuchlaring yakson,
Sen bu kun bor esang, ertaga yo‘qsan.

Bugun ekkanlaring qaysi vaqt chiqar?
Bu meva berguncha sening joning chiqar...

Damingni ol, chekma bo‘sh yerga zahmat,
Mevasini yemoq sengamas qismat!”

Dedi: “Ekdilar, oldik va yedik,
Xayr-la yod etib, duolar dedik;

Ekarmiz biz keyin yesinlar uchun,
Ahli xayrga duolar desinlar uchun”.

CHUMOLI

Ko‘rdilar bir chumoli kattakon yukni
Tashirdi yelkasida sur’at ila;

Dedilar: “Mo‘rchaga boq, shuncha yukni
Ko‘tarar bir zaif quvvat ila”.

Dedi: “Jim, quvvatim badanda emas,
Ko‘tardim quvvati hamiyat ila”.

Ey o‘g‘il, chumolidan olgin ibrat,
Bor, og‘ir ishda ishla g‘ayrat ila!

Bekorchi ishlarni hunar deb bilma,
Bundoq ishlar o‘tar xijolat ila.

Hunar uldir ki, bir buyuk amalni
Etasan hal ming shijoat ila.

Odamlar himmati tog‘ni qo‘porar,
Odam bo‘l, tog‘ qo‘por hamiyat ila!

Xususan, ijroi amri millatda
Ildam bo‘l kamoli jur’at ila!

Vatan sevgshisinda, millat ishqinda
Jon fido et xolis bir niyat ila!

Ish qilgin, bosh ketsa, qo‘y ketsin...
Nom qolur, bas emasmi, millat ila?!

BOLA VA PUL

Ko‘chadan bir bola uyga yugurdi,
Bir hamyonni qo‘lda ushlab turardi:

“Ona, kel, kel ki, davlatga yetdik,
Pulli bo‘ldik, saodatga yetdik!”

Dedi ona ki: “So‘yla, ey farzand,
Ne bo‘ldi ki, bo‘ldik endi davlatmand?

Ko‘rayin, ber, nedir, nedir bu, o‘g‘ul?”
Dedi: “Titdim buni — ichi to‘la pul;

Yo‘lda ketgan bir keksa kishi nogoh
Tushirib qo‘ydi, bo‘lmadi ogoh.

Bir kimsa ko‘rmasdan, men shoshib oldim,
Tez qochib, yo‘limni uy tomon soldim”.

Onasi o‘g‘lining jinoyatini
Ko‘rarkan, zohir etdi nafratini;

Dedi: “O‘g‘lim, harom edimi qoning
Ki, bunga rozi bo‘ldi vijdoning?

Poku mas’um eding — gunoh etding,
O‘z vijdoningni muboh etding.

Nega berding fanoga to‘g‘rilikni,
Kasbi kor aylading bu o‘g‘rilikni?

Hech fikr etmam, o‘zganing moli
Bizni boy qilar, etar oliy.

Yo‘q, yo‘q, o‘g‘lim, inon ki,
xor bo‘larmiz!
Azali ahli ro‘zg‘or bo‘larmiz!

Xoin bo‘lsak agar bu dunyoda,
Or-u nomusimiz uchar saboda;

Ko‘zimiz hayoi zalolatdan
Boqolmas bir kimsaga xijolatdan;

Garchi pul ko‘p farahafzodir, o‘g‘il,
Lek nomus bebahodir, o‘g‘il!”

ISKANDAR VA FAQIR

Kun tig‘ida bir ojiz-u muztar
Yo‘l kanorinda turar qalandar.

Unga bir ko‘p pashsha yopishar edi,
Yozug‘in holatin qopishar edi.

Ayonlar-la o‘tarkan Iskandar[1],
Uni ko‘rib tarahhum etdi magar:

“Ey faqir, ehtiyojingni ko‘rsat,
So‘ra mendan — ne istaging shu fursat!

Dardingni so‘ylagin — davo etayin,
Ne esa hojating — ravo etayin!”

“Podshohim, men senga rijo etaman:
Bu pashshalardan istiqo etaman;

Hukm qil ki, to uchib ketsinlar,
Meni bir lahzaga rohat bersinlar”.

“Voh, inson, hojat ista ki, u bitsin,
Tokim, unga bizning hukmimiz o‘tsin.

Axir, bu ishda yo‘qdir imkonim,
Chivinlarga o‘tmas amru farmonim”.

“Podshohim, shu holing ila ajab
Menga dersan ki, hojat ayla talab?

Holbuki, ko‘p latifdir bular,
Har toifadan zaifdir bular.

[1] **Iskandar (e.a. 356–323)** — qadimgi dunyoning mashhur sarkardasi va davlat rahbari edi. 336-yildan e’tiboran Makedoniya hukmdori bo‘lib, Hind daryosidan Dunay bo‘ylarigacha bo‘lgan ulkan saltanatni barpo etgan.

Yo‘q ekan bir pashsha ustidan qudrat,
Men nechuk sendan istayman hojat?”

Ey o‘g‘il, hojatni Xudodan tila,
Dardingni zoti kibriyodan tila.

Jumlaning dardlari davosi uldir,
Ojizning, qodirning Xudosi uldir.

KUMUSH EGASI VA SEL

Bir kishi saqlardi uyda bir kumush,
Suv qo‘shardi sutga, edi sutfurush.

Yog‘di shiddat ila bir yomg‘ir nogoh,
Kishining tab’i ahvoli bo‘ldi muboh.

Tutdi dunyoni sellarning jo‘shi,
Uy-joy vayron bo‘ldi, ketdi kumushi.

Kishi yig‘lar edi, ko‘z yoshi, fig‘on;
So‘yladi farzandi: “Tinchlan, otajon!

Chunki suv sutlaring tufayli bo‘ldi,
Qo‘shgan suvlar oxir tog‘ seli bo‘ldi.

Endi kumushingni oborgan bo‘lsa,
Boshingga mahsharni qo‘porgan bo‘lsa,

So‘ylama kim, falak qazosidir bu,
Qilgan ishlaringning jazosidir bu”.

MULLO NASRIDDIN VA O‘G‘RI

Mulloning sallasin yuldi o‘g‘ri,
Yugurib qochdi bir boqqa to‘g‘ri.

Boqmadi ki, o‘g‘ri ketar qayonga, —
O‘zi sekin yugurdi qabristonga.

Mullani ko‘rdilar — turar qabrda,
Dedilar: “Turibsan nechun bu yerda?”

Dedi: “Bir o‘g‘ri sallamni yuldi,
Qochdi-ketdi, boshim ochiq qoldi”.

Dedilar: “O‘g‘ri qochdi, ketdi boqqa,
Bu yerda o‘tirma, turgin oyoqqa,

Bog‘ga to‘g‘ri borgin, bo‘lmagin bir hol,
O‘g‘rini ushlagin, bor, sallangni ol”.

“Bilmadim, — dedi ki, — bog‘ing qay yerdir,
O‘g‘rining ham oxir yeri qabrdir”.

O‘RGIMCHAK VA IPAK QURTI

Bir o‘rgimchak o‘zi kerilibturdi,
Dedi faxr ila: “Ey ipak qurti,

Ne mashaqqat-laish ko‘rarsan sen?
Nega buncha og‘ir yurarsan sen?

Kel, mening san’atimda sur’atimni
Ko‘rib, takror qil mahoratimni...

Ishga kirsam, oxirini ko‘rurman,
Oz fursatda qancha ko‘p to‘r to‘qirman”.

Boqdi, kuldi unga jim ipak qurti,
Sarzanish qildi, ta’nalar urdi;

Dndi: “Biror nafs bo‘lsa, har yerda
To‘qirsan katta-yu kichik to‘r, parda.

Ayt, ko‘raylik, nedir samari?
Balki, har o‘tganga tegar zarari!..

Lek menda yo‘q bo‘lsa-da sur’at,
Qilayotgan ishda bor og‘ir qiymat.

Olamga foyda berar mening korim,
Har kim istar — bo‘lsa xaridorim!”

QIMMAT OLIB, ARZON SOTGAN TOJIR

Bir kuni tojir o‘z do‘konida
O‘g‘lini saqlar edi o‘z yonida.

Aylardi g‘aribo dodi ustod:
Sotganida — kam, olganida — ziyod.

Makr-u tazvir edi uning har ishi,
Halol emasdi butun olish-berishi.

Otaning ishida bo‘lib fikr-u yodi,
Ko‘rganini urgandi avlodi.

Bir kun o‘z dardining iloji uchun,
Ketdi tojir bir ehtiyoji uchun.

O‘g‘li ko‘rdiki, vaqti fursatdir:
“Ishimni qilsam, — dedi, — g‘animatdir”.

Qo‘li amal ichra, ko‘zi nigoron,
Otasi bir tomondan bo‘ldi ayon.

Torayib bus-butun jahon ko‘ziga,
Urdi bir shapaloq o‘g‘lin yuziga.

Ko‘rdi bir chol, ancha tajribakor,
Dedi: “Berma aslo bunga ozor.

Ekkan daraxtingning budir samari,
Sendan o‘rgangandir o‘g‘ling hunarni.

Sof lavhida bu ma’sum go‘dakning
Aks etmish sening botining, shakling;

Chizganing naqshdir bu naqshi xato,
Berma isnoding uchun o‘g‘lingga jazo.

Tarbiyat mustahaqdir, o‘g‘lon
Otasida ne ko‘rsa, takrorlar shoyon.

Xoh qabih amaldir, xoh jamil, —
Olar o‘g‘lon barchasidan tahsil.

Solih bo‘l ki, solig‘ bo‘lsin avloding!
Qabih bo‘lsang, qabih bo‘lar avloding!”

YOLG‘ONCHI CHO‘PON

Bir cho‘pon bir kun chekdi tog‘da oh:
“Sirtlonlar bor, — dedi, — keling, voh!”

Ahli qishloq yugurdi tog‘ tomonga,
Tushmasin deb qo‘yu qo‘zi talonga.

Bularni qo‘rquvda ko‘rganda cho‘pon,
Kulimoqqa tushgancha gap otdi:“Yoron,

Siz buni o‘ylamang bir haqiqatdir,
Bu bir hazil, bir zarofatdir!”

Benavolar qaytli va lekin cho‘pon
Yana bir kun tog‘ udra chekdi fig‘on:

“Sirtlonlar bor!” — deya baqirdi yana,
Qishloq ahlin yordamga chaqirdi yana.

Odamlar etdilar ikki bor hujum,
Yana bo‘ldi yolg‘onligi ma’lum.

Rostdan ham bir zamon ba azmi shikor
Qo‘ylarga tashlandi sirtlon, jonivor.

Har qancha dod soldi cho‘pon, yohu!
Eshitganlar dedi: bir yolg‘ondir bu!

Bu sababdan tog‘ tomon ketmadilar,
Uning dodlariga nazar etmadilar.

Vahshiylar yedilar butun qo‘yini,
Shudir, o‘g‘lim, yolg‘onchilik o‘yini!

Boq, yolg‘onchi tanildi chunki cho‘pon,
To‘g‘ri so‘z desa ham — tuyuldi yolg‘on.

Hargiz, o‘g‘lim, yolg‘on dema ki, Xudo
Do‘st tutmas yolg‘onchini ul aslo!

Ham xalqning ichinda hurmati bo‘lmas,
Izzati, qadri-yu qiymati bo‘lmas.

“O‘yi yonsa yolg‘onchining, — derlar, —
Unga biror kimsa etmagay bovar”.

SHARHLAR

Izohlarda "Hophopnama"ning 1912-yil nashri "birinchi nashr", 1914-yil nashri "ikkinchi nashr", 1922-yil nashri "uchinchi nashr", 1934-yil chiqarilgan "Bütün asarlar" "to'rtinchi nashr", "Hophopnama"ning 1948-yil nashri "beshinchi nashr", 1954-yil nashri "oltinchi nashr" deb qayd etildi.

1906

Millat qancha tor-mor bo'lsin, ne ishim bor?!

Ilk bor "Molla Nasraddin" jurnalida (28-aprel 1906, №4) imzosiz chop etilgan. Sobirning barcha nashrlariga kiritilgan.

Bir majlisda o'n ikki kishining suhbati

Ilk bor "Hayat" gazetasida (10-fevral 1906, №33) "M. Möhtamil" taxallusi ostida chop etilgan.

Ul kunki, senga xoliq etar lutf bir avlod

Ilk bor "Molla Nasraddin" jurnalida (26-may 1906, №8) "Hop-hop" imzosi bilan chop etilgan.

Bilmam ne ko'ribdur bizning o'g'lon o'qimoqdan?!

Ilk bor "Molla Nasraddin" jurnalida (16-iyun 1906, №11) "Hop-hop" imzosi bilan chop etilgan.

Mohi kan'oning botar, ey piri kan'on, g'am yema!

Ilk bor "Molla Nasraddin" jurnalida (2-iyun 1906, №9) imzosiz chop etilgan. Bu she'r Sobirning ilk bizga ma'lum bo'lgan naziralaridandir. Muhammad Hodiyning Hofizdan qilgan bir g'azal tarjimasiga nazira o'laroq, yozilgandir. Hofiz satrlari Hodiy tarjimasida "Mohi Kan'oning kelar, ey piri Kan'on, g'am yema!" — deb boshlanadi.

Qarilikdan shikoyat

Ilk bor "Molla Nasraddin" jurnalida (23-iyun 1906, №12) "Hop-hop" imzosi bilan chop etilgan. Sobirning barcha nashrlariga kiritilgan. Uchinchi va to'rtinchi nashrlarda "Afsus qocaldım" ("Afsuski, qaridim...") nomi bilan berilgandi.

Boku qashshoqlariga

Ilk bor "Molla Nasraddin" jurnalida (7-iyul 1906, №14) imzosiz chop etilgandi.

Jahd ayla, sen andoq nazari xalqda pok bo'l

Ilk bor "Molla Nasraddin" jurnalida (21-iyul 1906, №16) "Hop-hop" imzosi bilan nashr etilgan. Barcha nashrlariga kiritilgan. Uchinchi va to'rtinchi nashrlarida "Verma pulu aldan" ("Berma pulni qo'ldan") sarlavhasi bilan chop qilingan.

Etdi bu falak har kimga bir tavri yomonliq

Ilk bor "Molla Nasraddin" jurnalida (4-avgust 1906, №18) "Molla Nasraddin" imzosi ostida chop qilingan.

Qo'zg'olma, omondir, bolam, g'aflatdan uyg'onma!

Ilk bor "Molla Nasraddin" jurnalida (11-avgust 1906, №19) imzosiz chop etilgandir.

Tahsili ilm

Ilk bor "Molla Nasraddin" jurnalida (18-avgust 1906, №20) (M.M.) imzosi bilan chop etilgan. Barcha nashrlarida chop etilgan. Uchinchi nashrda "Fuzuliyga nazira" deb ham atalgan, chunki bu she'r Fuzuliyning "Layli va Majnun" dostonidagi bir g'azalga naziradir. O'sha g'azal shunday boshlanadi:

"Jon berma g'ami ishqqa ki, ishq ofati jondir,
Ishq ofati jon ekani mashhuri jahondir!.."[1]

[1] Karim Bahriyev tarjimasi.

Ota nasihati

Ilk bor "Molla Nasraddin" jurnalida (25-avgust 1906, №21) "Yaramaz" ("Yaramas") imzosi bilan chop etilgan.

Oh aylaganim nash'ai kalyon uchundir

Ilk bor "Molla Nasraddin" jurnalida (1-sentabr 1906, №22) "Hophop" imzosi bilan chop etilgan. Fuzuliyning g'azaliga nazira bo'lib, mazkur g'azal shunday boshlangandi:

"Oh aylaganim sarvi xiromon uchundir,
Qon yig'laganim g'unchai xandon uchundir.
Sargashtaligim kokili mujgoning tufayli,
Oshuftaligim zulfi parishoning uchundir..."[1]

"Hayot"ning "qo'p-qo'p"iga javob

Ilk bor "Molla Nasraddin" jurnalida (8-sentabr 1906, 23) "Hop-hop" imzosi bilan chop etilgan. M.A. Sobirning bir qator she'rlari "Hayat" gazetasida "Gop-gop" (Qo'p-qo'p) imzosi bilan chop etilganidan so'ng shu she'rini yozgan edi.

Xonimchalarga oid

Ilk bor "Molla Nasraddin" jurnalida (22-sentabr 1906, №25) "Hophop" imzosi bilan chop etilgan.

Javoblar javobi

"Hayat" gazetasining to'xtab qolishi munosabati bilan yozilgan bu she'r ilk bor "Molla Nasraddin" jurnalida (6-oktabr 1906, №27) "Hophop" imzosi bilan chop etilgandi. "Hayat" — 1905–1906-yillarda Bokuda kundalik nashr bo'lgan "siyosiy va iqtisodiy, tijoriy va adabiy turkcha jaridai islomiya" edi. Muharrirlari Aliboy Husaynzoda va Ahmadboy Og'ayev edi, noshiri esa Alimardonboy To'pchiboshov edi.

Boku pahlavonlariga

Ilk bor "Molla Nasraddin" jurnalida (13-oktabr 1906, №28) "Hophop" imzosi bilan chop etilgandir. Bu she'r Fuzuliyning g'azallaridan biriga naziradir. U g'azal shunday boshlangan:

[1] Karim Bahriyev tarjimasi.

"Ko'nglim ochilar zulfi parishonini ko'rgach,
Nutqim tutilar g'unchai xandonini ko'rgach.
Boqquncha senga qon sochilar dudoqlarimdan,
Bag'rim tilinar kipriging mujgonini ko'rgach..."[1]

Otganimiz tosh edi da'vo kuni

Ilk bor "Molla Nasraddin" jurnalida (27-oktabr 1906, №30) "Hophop" imzosi bilan chop etilgandir.

Ko'pni ko'rgan kampirning qizlarga nasihati

Ilk bor "Molla Nasraddin" jurnalida (3-noyabr 1906, №31) "Hop-hop" imzosi bilan chop etilgandir. Uchinchi va to'rtinchi nashrlarda "Ar zülmü yamandır" ("Er zulmi yomondir") nomi bilan nashr etilgan.

Bolalarga

Ilk bor "Molla Nasraddin" jurnalida (10-noyabr 1906, №32) "Hop-hop" imzosi ostida chop etilgan.

Men bilmas edim, baxtda bu nekbaxt bo'larmish

Ilk bor "Molla Nasraddin" jurnalida (10-noyabr 1906, №34) "Hop-hop" imzosi bilan chop etilgandir.

Har ne bersang, ber, mabodo berma bir dirham zakot

Ilk bor "Molla Nasraddin" jurnalida (8-dekabr 1906, №36) "Molla Nasraddin" imzosi bilan chop etilgan.

1907

Shundoq bilardim ki, yana subh bo'ldi

Ilk bor "Molla Nasraddin" jurnalida (6-yanvar 1907, №1) "Hop-hop" imzosi bilan chop etilgan.

Ey falak, zulming ayondir...

Ilk bor "Molla Nasraddin" jurnalida (19-yanvar 1907, №3) "Hop-hop" imzosi bilan chop etilgan.

[1] Karim Bahriyev tarjimasi.

Ne bo'lur shirinmazoq etsa bul halvoyi hurriyat

Ilk bor "Molla Nasraddin" jurnalida (19-yanvar 1907, №3) "Molla Nasraddin" imzosi bilan chop etilgandi.

Nafsning g'arazi, aqlning marazi

Ilk bor "İrşad" gazetasida (24-yanvar 1907, №16) "Mir'at" imzosi bilan chop etilgan.

Ey azizim, xalafim...

Dastlab "Molla Nasraddin" jurnalida (10-fevral 1907, №6) "Hop-hop" imzosi bilan chop etilgan.

Xasisning hayfi — vorisining kayfi

Dastlab "İrşad" gazetasida (21-fevral 1907, №30) "Mir'at" imzosi bilan chop etilgan. Uchinchi va to'rtinchi nashrda "Hayf-kayf" sarlavhasi bilan havola qilingandi.

Siradan bir telba shayton aytar: insonlar, insonlar!

Ilk bor "Molla Nasraddin" jurnalida (3-mart 1907, №9) "Qabaqda gedan zancirli" imzosi bilan chop etilgandir.

Mazkur she'r "Füyuzat" jurnalining 1-noyabr 1906-yil tarixli 1-sonida "Dali şair" (Devona shoir) imzosi bilan chop etilgan boshqa she'rga nazira o'laroq yozilgan. "Hayrat yoxud bir malakning insonlarga xitobi" nomli o'sha shge'r shunday boshlangan edi:

"Samodan bir malak hayrat-la der: insonlar, insonlar!
Nedan bu ro'yi dunyoni qopladi ol qonlar, insonlar!
Shahidi tig'ingiz ihvoningizdan etmasin faryod,
Ajab, kimdir shu xunolud bo'lgan bejonlar, insonlar!.."[1]

Amalimiz, afkorimiz mahvi vatandir

Dastlab "Molla Nasraddin" jurnalida (10-mart 1907, №10) "Qabaqda gedan zancirli" imzosi ostida chop etilgan. Uchinchi va to'rtinchi nashrlarda Nomiq kamolga nazira, o'xshatma nomi bilan berilgandi. Chunki

[1] Karim Bahriyev tarjimasi.

bu she'r Nomiq Kamolning "Füyuzat" jurnalining 1907-yil 3-mart tarixli 11-sonida bosilgan she'riga o'xshatmadir. Nomiq kamolning o'sha she'ri shunday boshlangandi:

"A'molimiz, afkorimiz iqboli vatandir,
Sarhadimizga qal'a bizning xoki badandir.
Usmonlilarmiz, ziynatimiz qonli kafandir,
Urushda shahodat-la butun kom olurmiz biz,
Usmonlilarmiz, jon berarmiz,
nom olurmiz biz!.."[1]

Sarhisob

Dastlab "Molla Nasraddin" jurnalida (31-mart 1907, №13) "Din dirayi" imzosi bilan chop etilgan.

Yig'lama

Ilk bor "Molla Nasraddin" jurnalida (7-aprel 1907, №14) "Fazil" imzosi bilan chop etilgan. Sobirning barcha nashrlariga kiritilgan.

Voy, voy! Ne yomon mushkulga tushdi ishim, alloh!

Dastlab "Molla Nasraddin" jurnalida (28-aprel 1907, №17) "Örümçak" imzosi bilan chop etilgan.

Pinhonimiz, oshkorimiz afsonai zandir

Ilk bor "Molla Nasraddin" jurnalida (5-may 1907, №18) "Boynuyoğun" imzosi bilan chop etilgan. Mazkur satirik she'r Nomiq Kamolning 1907-yilda "Füyuzat" jurnalida (3-mart, №11) chop etilgan "A'molimiz, afkorimiz iqboli vatandir" misrasi bilan boshlangan she'riga yana bir naziradir.

Ha, de ko'ray, ne bo'ldi, bas, ey bolam, iddaolaring?

Rossiya ikkinchi Davlat dumasining tugtilishi arafasida yozilgan bu shu'r ilk bor "Molla Nasraddin" jurnalida (12-may 1907, №19) imzosiz chop etilgan.

[1] Karim Bahriyev tarjimasi.

Yey ki guyi şarafi-nafs beadlastü becud

M.A. Sobir fors tilida yozgan bu she'r ilk bor "Molla Nasraddin" jurnalida (19-may 1907, №20) imzosiz chop etilgan. Mazkur satira Sa'di Sheroziyning"Şarafi-mard de cudastü karamat be sücud, Har ki, in bar do nadarad adamaş beh zi vücud" deb boshlangan g'azaliga tazmindir.

Faqir, o'zingni sen ham bir inson bilasanmi?!

Ilk bor "Molla Nasraddin" jurnalida (26-may 1907, №21) imzosiz chop etilgan.

Tani-adami şarifast be nani-adamiyyat

Ilk bor "Molla Nasraddin" jurnalida (2-iyun 1907, №22) imzosiz chop etilgan. Bu she'r Sa'diyning 1907-yilda "Haqaiq" jurnalining 8 mayda chiqqan 3-sonidagi "Şarafate-adami" (Odamlikning sharofati) nomli g'azaliga naziradir. Sa'diy g'azali shunday boshlanadi:

"Tane adami şarif ast becane adamiyyat
Na hamin lebase ra'nast neşane adamiyyat".

Noahl bo'lganga matlabni anglatib bo'larmi?!

Ilk bor "Molla Nasraddin" jurnalida (1-iyul 1907, №21) imzosiz chop etilgan.

Boq, taajjub, ne og'ir uyquda o'g'lon, o'likday!

Ilk bor "Molla Nasraddin" jurnalida (8-iyul 1907, №25) imzosiz chop etilgan.

Asilona tarona

Dastlab "Bahlul" jurnalida (14-iyul 1907, №5) imzosiz chop etilgandi.

Layli-majnun

Ilk bor "Molla Nasraddin" jurnalida (15-iyul 1907, №26) imzosiz chop etilgan. Mazkur she'r Fuzuliyning "Layli va Majnun" dostonidagi Majnunning otasi qilgan nasihatga naziradir. Fuzuliyda nasihat shunday boshlangan:

"Ey, javhari jonimning havosi,
Hey, diydai baxtimning ziyosi!
Dardim olasan, manim panohim,
Faxrim, sharafim, umidgohim!.."[1]

Mazlumlik etib, yo'l berma faryodga, ekinchi!

Ilk bor "Molla Nasraddin" jurnalida (24-iyul 1907, №27) imzosiz chop etilgan.

Al minnatu lilloh ki, "dabistan" ham yopildi!

"Dabistan" jurnalining yopilishi munosabati bilan yozilgan bu she'r ilk bora "Molla Nasraddin" jurnalida (29-iyul 1907, №28) imzosiz chop etilgan edi.

Muallimlar — "uçitellar"

Muallimlarning ikkinchi qurultoyi oldidan yozilgan mazkur satira ilk bor "Molla Nasraddin" jurnalida (12-avgust 1907, №30) imzosiz chop etilgan.

Vaqti ki, bo'lur bir uyda motam

Ilk bor "Molla Nasraddin" jurnalida (20-avgust 1907, №31) imzosiz chop etilgan. She'r Rajoizoda Mahmud Akramning "Yad yet!.." she'riga naziradir.

Faxriya

Ilk bor "Molla Nasraddin" jurnalida (26-avgust 1907, №32) imzosiz chop etilgandi. Mazkur hajviy she'r A.Jannatiyning 1907-yilda "Füyuzat" jurnalining 7-avgust tarixli 24-sonida chop etilgan "Faxriya" she'riga javob tariqasida bitilgandir. Jannatiyning she'rida shunday satrlar bor:

"Turonlilarmiz, sohibi sha'ni sharafmiz biz!
O'z so'zimizning noibi, xayrul xalafmiz biz!.."[2]

[1] Karim Bahriyev tarjimasi.

[2] Karim Bahriyev tarjimasi.

Qo'rqaman

Ilk bor "Molla Nasraddin" jurnalida (2-sentabr 1907, №33) imzosiz chop etilgan.

Ba'zi yerlarda tasodif kelarlar oshga, ota

Dastlab "Bahlul" jurnalida (13-sentabr 1907, №6) imzosiz chop etilgan.

Muallimlar syezdi

Ikkinchi muallimlar qurultoyi bilan aloqador she'r ilk bor "Molla Nasraddin" jurnalida (17-sentabr 1907, №35) imzosiz chop etilgan.

Choptirma oting, kirma bu maydonga, ey mulla!

Ilk bor "Molla Nasraddin" jurnalida (17-sentabr 1907, №35) imzosiz chop etilgandi.

Ikki savolga bir javob

Ilk bor "Molla Nasraddin" jurnalida (2-oktabr 1907, №37) imzosiz chop etilgan. Mazkur hajviy she'r chop etilgandan so'ng M.Muhammadzoda "Taza hayat" gazetasida (12-oktabr 1907, №144) yangidan Sobirga javob beradi. Javob shunday boshlangan:

"Ha, de, ey baxtiyor, arit dard-u g'am-u malolingni,
Tarbiyasiz farzand ila, xushroq ayla xayolingni,
Ne aybi bor edi, yo'qlar edik biz ham kamolingni,
Men aytganim bo'ldi, bo'lar,
sen aytgan bo'lmas bo'lmasa!.."[1]

So'ldimi gulzoring, ey foiqi no'`mon pisar

Ilk bor "Molla Nasraddin" jurnalida (20-oktabr 1907, №39) imzosiz chop etilgan. Shoir "Molla Nasraddin" jurnalining emakdoshlaridan biri bo'lgan Umar Foiq No'monzodaning chor hukumati tomonidan qo'lga olinishi munosabati bilan shu she'rni yozgandi.

[1] Karim Bahriyev tarjimasi.

On ki, ulumi madaniydan xabaring bor

Dastlab "Molla Nasraddin" jurnalida (20-oktabr 1907, №39) imzosiz chop etilgan.

Savol-javob

Ilk bor "Molla Nasraddin" jurnalida (26-oktabr 1907, №40) imzosiz chop etilgandir.

Bemarhamat a'yonlaringga shukur, xudoyo!

Ilk bor "Molla Nasraddin" jurnalida (16-dekabr 1907, №47) imzosiz chop etilgan.

Maktub

Ilk bor "Molla Nasraddin" jurnalida (23-dekabr 1907, №48) imzosiz chop etilgan.

Tuhmat etar gazetchilar, — mahshari nosi boshqacha!..

Dastlab "Molla Nasraddin" jurnalida (30-dekabr 1907, №49) imzochiz chop etilgandi.

1908

Tosh qalbli insonlarni naylarding, ilohim?!

Ilk bor "Molla Nasraddin" jurnalida (6-yanvar 1908, №1) imzosiz chop etilgandir.

Fisinjon

Ilk bor "Molla Nasraddin" jurnalida (27-yanvar 1908, №4) imzosiz chop etilgan

Bizga ne?!

Ilk bor "Molla Nasraddin" jurnalida (24-fevral 1908, №8) imzosiz chop etilgandi.

Magarki, hamyoni zulmat

Dastlab "Molla Nasraddin" jurnalida (30-mart 1908, №13) imzosiz chop etilgan.

Shirvon

Ilk bor "Molla Nasraddin" jurnalida (13-aprel 1908, №15) imzosiz chop etilgan.

Bir cho'ntakda achchiq nosim, bir cho'ntakda oq manat

Dastlab "Molla Nasraddin" jurnalida (13-aprel 1908, №15) imzosiz chop etilgan.

Bu hajviy she'r Abdulla Javdat beyning 1908-yilda "Ictihad" jurnalining 5-aprel tarixii 4-sonida chop etilgan "Bir şairi-qaribin zindan yadigarı" nomli she'riga naziradir. O'sha she'r shunday boshlangan edi:

"Bir yonimda yori mahzun, bir yonimda koinot,
Bo'lmas bo'lsin bundoq suzishli, falokatli hayot!
Peshgohi chashmi jonimda vatan aylar vafot,
Bo'lmas bo'lsin bundoq suzishli, falokatli hayot!.."

Shikoyat

Ilk bor "Molla Nasraddin" jurnalida (28-iyul 1908, №30) "Boynuburuq" imzosi ila chop etilgandir.

Usmonlilar, aldanmangiz, allohni sevarsiz!

Dastlab "Molla Nasraddin" jurnalida (4-avgust 1908, №31) "Qoca iranlı" imzosi ila chlp etilgandi.

Men shohi shon-u shavkatman, eron menikidir

Eron shohi Mahammadalining tilidan yozilgan bu hajviya ilk bor "Molla Nasraddin" jurnalida (11-avgust 1908, №32) "İran qurdu" imzosi bilan chop etilgan.

Istiqbolimiz bir lofdir

Ilk bor "Molla Nasraddin" jurnalida (25-avgust 1908, №34) "Qoca amu" imzosi ostida chop etilgandi.

Bu she'r Mahammad Hodiyning 1908-yilda "Taza hayat" gazetasining 4 va 7 avgust tarixli 178 va 181-sonlarida chop etilgan "Istiqbolimiz porloqdir" she'riga javobdir. M.Hodiyning she'ri shunday boshlangandir:

"Agar firdavsi hurriyat, fayzobod bo'lur olam,
Kular subhi haqiqat, adolatobod bo'lur olam,
Shijoati musovot-la sahni dod bo'lur olam,
Insoniyat ishqi kamoltida munqad bo'lur olam,
Hurriyat sururi abadiy, dilshod bo'lur olam,
Shu istibdod qo'lindarn qutqarar, ozod bo'lur olam!.."

Navqiron

Ilk bor "Molla Nasraddin" jurnalida (25-avgust 1908, №34) "Boynuburuq" imzosi bilan chop etilgan.

1909

Yashamoq istar esak, tom avom bo'lmoq kerak!

Ilk bor "Molla Nasraddin" jurnalida (11-oktabr 1909, №41) "Gülayan" imzosi ostida chop etilgan.

Odamni odam aylagan poradir

Ilk bor "Molla Nasraddin" jurnalida (25-oktabr 1909, №43) "Gülayan" imzosi ostida chop etilgan.

1910

Millat qo'shig'i

Ilk bor "Zanbur" jurnalida (26-fevral 1910, №5) "Qoca bay" imzosi bildan chop etilgandir.

G'ilay yoxud

Ilk bor "Zanbur" jurnalida (5-mart 1910, №6) "Qoca bay" imzosi bilan chop etilgandi.

Oltmish yillik umrim bo'ldi senda barbod, Ardabil!

Ilk bora "Molla Nasraddin" jurnalida (7-mart 1910, №10), "Kablayı Feyzullah, nazimi: Ağlar gülayan" imzosi bilan chop etilgan.

Ey voh ki, xosiyati millat yo'q bo'ldi!

Dastlab "Zanbur" jurnalida (12-mart 1910, №7) "Qoca bay" imzosi bilan chop etilgandi.

Yo'qol eshikdan, yig'lama zor-zor, tilanchi!

Dastlab "Zanbur" jurnalida (29-mart 1910, №8) "Qoca bay" imzosi bilan chop etilgandir.

Va'z etganing ishondi, sen ammo ishonmading!

Ilk bor "Molla Nasraddin" jurnalida (4-aprel 1910, №13) "İmza: (.....)" imzosi bilan chop etilgan.

O'qitmayman, qo'l torting!

Dastlab "Molla Nasraddin" jurnalida (18-aprel 1910, №15) "Imza: (.....)" imzosi ila chop etilgandir.

Qoch, ot bosdi!

Ilk bor "Molla Nasraddin" jurnalida (30-may 1910, №21) "(.....)" imzosi bilan chop etilgandir.

Ko'rganda inson bir arbobi sarvat yuzini

Ilk bor "Haqiqat" gazetasida (13-iyun 1910, №133) "S." Imzosi bilan chop etilgan.

Tindirar asr bizni — tinmagaymiz...

Ilk bor "Haqiqat" gazetasida (14-iyun 1910, №134) imzosiz chop etilgan.

Ahli eronda, boq o'g'lon, yana himmat ko'rinur!

Dastlab "Zanbur" jurnalida (18-iyun 1910, №21) "Qoca bay" imzosi bilan chop etilgan.

Bizni aldama, xojam, har so'zingga

Ilk bor "Haqiqat" gazetasida (22-iyun 1910, №141) "S." Imzosi ila chop etilgan.

Orif yugurar ki, millat ozod bo'lsin

Dastlab "Haqiqat" gazetasida (25-iyun 1910, №144) "S." Imzosi bilan chop etilgan.

Tun yotib, mir hoshimni tushda ko'rdim, so'yladim

Dastlab "Zanbur" jurnalida (25-iyun 1910, №22) "Patilti" imzosi bilan chop etilmishdir.

...Deydi

Dastlab "Haqiqat" gazetasida (27-iyun 1910, №145) "A.S." imzosi bilan chop etilgan.

Qaysi olchoq bir qo'lning yozgani xatdir u ki...

Ilk bor "Haqiqat" gazetasida (29-iyun 1910, №147) "A.Sabir" imzosi bilan chop etilgandir.

– Yo'ldoshim, uyqudamisan?

Dastlab "Haqiqat" gazetasida (30-iyun 1910, №148) "A.Sabir" imzosi bilan chop etilgan.

Boshqa millatdin huquqin olmoq uchun har zamon...

Dastlab "Zanbur" jurnalida (2-iyul 1910, №23) "Patilti" imzosi byuilan chop etilgandir.

Kech o'qirkan bir maktab mudirining maktubini

Ilk bor "Haqiqat" gazetasida (4-iyul 1910, №151) "A.Sabir" imzosi ostida chop etilgandir.

Marhabo xodimlarim, ha endi xizmat vaqtidir!

Mamadali shohning tilidan yozilgan hajviy she'r ilk bor "Molla Nasraddin" jurnalida (4 iyul 1910, №26) "(.....)" imzosi bilan chop etilgan.

Bir dasta gul

Ilk bora "Molla Nasraddin" jurnalida (4-iyul 1910, №26) "(.....)" imzosi bilan chop etilgan.

Alhazar, qo'yma boqsa aksimga zohid ki, uning

Ilk bor "Haqiqat" gazetasida (6-iyul 1910, №153) "S." Imzosi bilan chop etilgan.

Orif kimdir? — Deya so'rdim, dedilar bul zamonada...

Ilk bor "Haqiqat" gazetasida (12-iyul 1910, №158) "A.Sabir" imzosi bilan chop etilgan.

Der edik bir zamonlar biz kamoli faxru himmat-la...

Ilk bor "Haqiqat" gazetasida (14-iyul 1910, №1A0) "A.Sabir" imzosi bilan chop etilgan.

Yoshsan, qashshoqlikdan shikoyat qilma

Ilk bor "Yeni füyuzat" jurnalida (26-oktabr 1910, №2) "A.Sabir" imzosi bilan chop etilgan.

Na'ra tortib, shod bo'ling, eronlilar!

Ilk bor "Günaş" gazetasida (5-noyabr 1910, №60) "Palanduz" sahifasining 5-sonida "Nizadar" imzosi bilan chop etilgan.

Qurbon bayrami

Dastlab "Günaş" gazetasida (30-noyabr 1910, №81) "Palanduz" shoirlaridlan "Nizadar canabları" imzosi bilan chop etilgan.

Zohidlarga

Dastlab "Günaş" gazetasida (23-dekabr 1910, №99) "A.S." imzosi bilan chop etilgandi.

1911

Savol

Dastlab "Günaş" gazetasida (2-yanvar 1911, № 1) imzosiz chop etilgan.

La'nat senga, ey johil, nega bedod etarsan!

Ilk bor "Günaş" gazetasida (4-yanvar 1911, № 3) "A.S." imzosi bilan chop etilgan.

G'ofil yashamoqdan afzaldir o'lmoq

Dastlab "Günaş" gazetasida (10-yanvar 1911, № 8), keyinroq esa Astraxandagi "Bürhani-taraqqi" gazetasida (21-yanvar 1911, № 131) "A.S." imzosi bilan chop etilgan.

Millatning holi parishon shundoq

Ilk bor "Molla Nasraddin" jurnalida (18-yanvar 1911, № 3) "(.....)" imzosi ila chop etilmishdir.

Xabarona

Eron shohi Mahammadali va Turkiya shohi Abdulhamid II suhbati shaklida yozilgan bu she'r ilk bor "Molla Nasraddin" jurnalida (18-yanvar 1911, № 3) imzosiz berilgan.

Abbos og'a der ki...

Dastlab "Günaş" gazetasida (19-yanvar 1911, № 16) "A.S." imzosi bilan chop etilgan.

Ovro'poda mamdalining ishqbozligi

Ilk bor "Molla Nasraddin" jurnalida jurnalında (25-yanvar 1911, № 4 imzosiz chop etilgan. Mahammadali shoh taxtdan ag'darilganidan so'ng, Odessada yashardi.

Bir aktrisaga ishqi tushgan, rad javobini olgach, Ovro'poga ketgan edi. Sobirning bir necha hajviy she'rlarida uning ma'naviyati, xiyonati, siyosati tanqid qilinadi.

Tush

Ilk bor "Yeni haqiqat" gazetasida (28-yanvar 1911, № 7) "Palanduz" sahifasining 4-sonida "Nizadar" imzosi bilan chop etilgandir.

Ey jon!..

Dastlab "Molla Nasraddin" jurnalida (29-yanvar 1911, № 5) imzosiz chop etilgan.

Bu satiraning maeriali Umar Foiq No''monzodaning "Molla Nasraddin" jurnalida (25-yanvar 1911, № 4) chop etilgan "Taşakkür" nomli maqolasidan olingandir.

El aytar nomimni ming la'nat ila

Mahamadali shohning tilidan yozilgan bu hajviy she'r ilk bor "Molla Nasraddin" jurnalida (29-yanvar 1911, № 5) "(.....)" imzosi bilan chop etilgandir.

Azroilning iste'fosi

Dastlab "Molla Nasraddin" jurnalida (7-fevral 1911, № 6) "(.....)" imzosi bilan chop etilgan.

Yig'lagan har kishi g'ayratsiz bo'lur

Dastlab "Yeni haqiqat" gazetasida (9-fevral 1911, № 16) "A.S." imzosi bilan chop etilgan.

Ko'p aytma — sarvatu somonliman, ey falon!

Ilk bor "Molla Nasraddin" jurnalida (12-fevral 1911, № 7) "(.....)" imzosi ostida chop etilgan.

To'rt tilli aytishuv

Dastlab "Molla Nasraddin" jurnalida (12-fevral 1911, № 7) imzosiz chop etilgan.

Butun ovro'poda kamyob ekan, ammo bokuda...

Ilk bor "Molla Nasraddin" jurnalida (12-fevral 1911, № 7) "(.....)" imzosi ila chop etilgan.

Ey pullilarning safosi, navro'z!

Ilk bor "Molla Nasraddin" jurnalida (9-mart 1911, № 10) "(.....)" imzochi ila chop etilgandir

Bayram tuhfasi

Ilk bor "Molla Nasraddin" jurnalida (9-mart 1911, № 10) "(.....)" imzosi ila chop etilgandir.

Shundoq bir tarjima kim, shekspir ruhi zirqirar...

Ilk bor "Molla Nasraddin" jurnalida (9-mart 1911, № 10) "(.....)" imzosi ila chop etilgan. Bu epigramma Hoshimboy Vazirov tarafidan Shekspirning "Otello" asari g'aliz, savodsiz bir holda ozarbayjon tiliga o'g'irilganligi munosabati bilan yozilgandir.

Ashhadu billohi aliyul aziym

Bu she'rning ilk bandi shoir vafotidan so'ng "Ma'lumat" gazetasida (29-iyul, 1911, №25)

"Marhum A. Sobirning oxirgi kunlarida aytgan kalomlaridan" qaydi ila chop etilgandi.

Hamdulilloh Ki, Bu Kun Baxtga Yor Bo'ldi Boshimiz

Ilk bor "Hophopnama"ning 1914-yil nashrida chop etilgan.

SATIRIK PARCHALAR

Tutdim ro'zani ramazonda

Bu she'r Sobiring bizga ma'lum bo'lgan ilk hajviy she'rlaridandir. Ilk bor she'rni 1912-yilda A.Sahhat nashr etgan "Hophopnama"siga yozgan muqaddimasida tilga olgandi.

Bobom — shia, o'zim — sunniy, "durak"man

Bu parcha S.M. Qonzodaning xotiralari ("Adabiyyat qazeti", 16-iyul 1936, № 18) asosida chop etilgan.

Xotirada aytilishicha, she'rni Sobir 1875-yilda, S.A.Shirvoniyning "Üsuli-cadid" maktabida tahsil olarkan, yozgandir.

Tangri har yerda pulni bir yuragi saxtga berar

Yozilish tarixi ma'lum bo'lmagan bu parcha S.M. Qonzodaning Sobir haqidagi xotiralari asosida nashrlarga kiritilgan.

Xalilullohga asirman, otam yurti ozardir

XIX asrning oxirlarida yozilgan bu parcha Sobirning ilk ijod tajribalaridandir. Ilk bor she'r 1912-chi yilda A. Sahhatnashr etgan "Hophopnama"si muqaddimasida keltirilgandi.

Xumsiy sharobni sayyidga berib, soqiy dedi

XIX asrning oxiriga oid bo'lgan bu bayt Sobirning ilk she'r parchalaridandir. Ilk bor she'r 1912-yilda A. Sahhat nashr etgan "Hophopnama"si muqaddimasida keltirilgandi.

She'r bir gavhari yakdonai qiymatlidir

Shoir yoshlik yillarida yozgan bu she'r ilk bor 1912-yilda A.Sahhat-nashr etgan "Hophopnama"si muqaddimasida keltirilgandi.

Sen piri jahondirsen, ey, sayyidi sarkor...

XIX asrning oxirlarida qalamga olingan bu she'r ilk bor 1912-yilda A. Sahhat nashr etgan "Hophopnama"si muqaddimasida keltirilgandi. Bu she'r Sayyid Azim Shirvoniyning bir g'azaliga javob tariqasida yozilgan. Shirvoniy g'azali shunday boshlangan edi:

"Ey moh, bilaman, fitnai davron bo'larsan,
Ey qoshi hilolim, Mohi tobon bo'larsan"[1].

Sobiri shaydo ki, tarki shahri shirvon ayladi...

XIX asrning 80-yillarida shoirning Xuroson safari vaqti yozilgan bu she'r ilk bor 1912-yilda A.Sahhat nashr etgan "Hophopnama"si muqaddimasida keltirilgandi.

Musulmon va armani vatandoshlarimizga

Ilk bor "Hayat" gazetasida (1-iyul 1905, № 19) "M. Alakbar Sabir" imzosi bilan chop etilgan.

Shu on fursating bor ekan, bir ish qil istiqbol uchun!

Ilk bor "Rahbar" jurnalida (24-sentabr 1906, № 1) imzosiz chop etilgan.

So'z

Ilk bor "Füyuzat" jurnalida (18-dekabr 1906, № 5) "A.Sabir Tahirzada" imzosi bilan chop etilgandir.

Millat nolasi

Dastlab "İrşad" gazetasida (15-fevral 1907, № 26) "A.Sabir Tahirzada" imzosi ila chop etilgandir.

[1] Karim Bahriyev tarjimasi.

Hasrat

Ilk bor "İrşad" gazetasida (22-fevral 1907, № 31), so'ngra esa Peterburgda chiqqan "Ülfat" gazetasida (8-mart 1907, № 63) "A.Sabir Tahirzada" imzosi bilan chop etilgan.

Shoirona tarona

Dastlab "Taza hayat" gazetasida (6-iyun 1907, № 47) "Ali Sabir Tahirzada Şirvani" imzosi bilan chop etilgan.

O'xshatma

Ilk bor "Günaş" gazetasida (19-dekabr 1910, № 95) "A.S." imzosi bilan chop etilgan.

Tarbiya

Dastlab "Günaş" gazetasida (29-dekabr 1910, № 104) "A.S." imzosi astida chop etilgandi.

Dunyo bir muddat bo'ldi manzilimiz

Ilk bor "Günaş" gazetasida (16-yanvar 1911, № 13) "A.S." imzosi bilan chop etilgan.

Onalar bezagi

Ilk bor "Günaş" gazetasida (20-yanvar 1911, № 17) "A.S." imzosi bilan chop etilgan.

Onalar bezagi — 2

Ilk bor "Yeni haqiqat" gazetasida (25-yanvar 1911, № 4) "A.S." imzosi bilan chop etilgan.

Notiqqa xitob

Ilk bor "Yeni haqiqat" gazetasida (28-yanvar 1911, № 7) "A.S." imzosi bilan chop etilgan.

Havas

Ilk bor "Yeni haqiqat" gazetasida (16-fevral 1911, № 21) "A.S." imzosi bilan chop etilgan.

Kim xudo ne'mati shukrin tark etur

Ilk bor "Hophopnama"ning 1914-yil nashrida chop etilgan.

Nola arbobi kamol aylagay tahsin menga kim...

Ilk bor "Hophopnama"ning 1922-yil nashriga kiritilgan.

Istayman o'lmoqni men, lek qochar mendan ajal

Ilk bor "Malumat" gazetasida (4-iyul 1911, № 3) H.I.Qosimovning xotirasidan keltirilgan.

Azobi g'amlar dastidan yuragim shishgan edi

Ilk bor "Malumat" gazetasida (29-iyul 1911, № 25) "A.Sabir" imzosi ila chop etilgandi. Gazetada she'r "Marhum Sobirning oxirgi kunlarida aytgan kalomlaridan" degan izoh berilgandi.

Kunim yomon o'tdi shahri shirvonda

Ilk bor "Malumat" gazetasida (10-avgust 1911, № 35) "A.Sabir" imzosi bilan chop etilgan.Gazetada she'rdan avval "Marhum Sobirning oxirgi kunlarida aytgan kalomlaridan" degan izoh berilgandi.

Raham bedahid, ru berah amadaam

Bu forscha yozilgan she'r ilk bor "Malumat" gazetasida (21-iyul 1911, № 18) Ali Fahmining shoir vafoti munosabati bilan yozilgan "Vaq'eyi-dilsuz" nomli maqolasi ichida keltirilgandi.

G'AZALLAR

Qo'yma, kelsa, soqiyo, zohidni mayxonaga

Ilk bor "Füyuzat" jurnalida (31-aprel 1907, № 15) "A.Sabir Tahirzada Şirvani" imzosi bilan chop etilgan.

Har sariq mo'yingda ming oshiqi noloning bor

Ilk bor 1914-chiyilda "Hophopnama"da chop etilgan.

Ko'changni xunobai chashmim-la namnok aylarman
Ilk bor 1914-yilda "Hophopnama"da chop etilgan.

Istasang, ko'nglim kabi zulfing parishon bo'lmasin
Ilk bor 1914-yilda "Hophopnama"da chop etilgan.

Ey dil, omondir, sirringni begona bilmasin!
Ilk bor 1914-yilda "Hophopnama"da chop etilgan.

Maktab qo'shig'i
Ilk bor "Dabistan" jurnalida (20-dekabr 1906, № 17) "A.Sabir Tahirzada Şamaxı" imzosi bilan chop etilgan edi.

Maktabga targ'ib
Ilk bor "Milli nağmalar" to'plamida (1907) "A.Sabir" imzosi bilan chop etilgan.

Ilmga targ'ib
Dastlab "Taza hayat" gazetasida (31-avgust 1907, № 109) Shamaxidan yozilgan bir muxbir maktubi ichida chop etilgandi.

Bola va muz
Ilk bor "Birinci il" darsligida (1907) "Manzumeyi-Sabir" imzosi bilan chop etilgan.

Bahor kunlari
Ilk bor "Birinci il" darsligida (1907) "Manzumeyi-Sabir" imzosi bilan chop etilgan.

Maktab bolalariga tuhfa
Dastlab "Sada" gazetasida (14-fevral 1910, № 37) "Balaxanı maktabi müallimlarindan A. Sabir Tahirzada" imzosi ila chop etilgan.

Maktab shogirdlariga tuhfa

Ilk bor "Sada" gazetasida (25-fevral 1910, № 46) "Balaxanı maktabi müallimlarindan A.Sabir Tahirzada" imzosi bilan chop etilgan.

Tabib ila xasta

Dastlab "Haqiqat" gazetasida (18-iyun 1910, № 138) "A.Sabir Tahirzada" imzosi bilan chop etilgan edi.

Keksa bog'bon

Ilk bor "Haqiqat" gazetasida (21-iyun 1910, № 140) "A.Sabir Tahirzada" imzosi bilan chop etilgan.

Chumoli

Ilk bor "Haqiqat" gazetasida (23-iyun 1910, № 142) "A.Sabir Tahirzada" imzosi ostidla chop etilgan.

Bola va pul

Dastlab "Yeni füyuzat" jurnalida (23-noyabr 1910, № 6) "A.Sabir" imzosi ostida chop etilgan.

Iskandar va faqir

Ilk bor "Günaş" gazetasida (20-dekabr 1910, № 96) "A.S." imzosi bilan chop etilgan.

Kumush egasi va sel

Dastlab "Günaş" gazetasida (26-dekabr 1910, № 101) "A.S." imzosi ostida chop etilgandi.

Mullo nasriddin va o'g'ri

Ilk bor "Günaş" gazetasida (2-yanvar 1911, № 1) "A.S." imzosi bilan chop etilgan.

O'rgimchak va ipak qurti

Ilk bor "Günaş" gazetasida (10-yanvar 1911, № 8) "A.S." imzosi bilan chop qilingan.

Qimmat olib, arzon sotgan tojir

Ilk bor "Yeni haqiqat" gazetasida (3-fevral 1911, № 96) "A.S." imzosi bilan chop etilgan.

Yolg'onchi cho'pon

Ilk bor "Yeni haqiqat" gazetasida (11-fevral 1911, № 18) "A.S." imzosi ostida chop etilgandir.

MUHAMMAD HODIY

SHE'RLAR



HAYOT SADOLARI

1

Hayotning saslari go'shimda ko'p faryod shaklinda,
Bu insonlar ki qardoshdir va lekin yot shaklinda,
Bu tuproq qonli avloqdir, bashar sayyod shaklinda,
Adovat doimo bordir, muhabbat ot shaklinda,
Bu dunyo eskidandir sahnai bedod shaklinda.
Jahon boshdan ayoq maydoni motamzod shaklinda,
Farahlar hibs bo'lmish huznlar ozod shaklinda,
Musibatlar, balolar, g'ussalar obod shaklinda,
Yuraklar g'am o'ti-la har zamon barbod shaklinda,
Boqishlar ko'lkali, yuzlar butun noshod shaklinda,
Bu motamgohni kim ko'rmish sururobod shaklinda.

2

Saodat bir amal, ammo shaqovatlar haqiqatdir,
Masarrat oniy bir narsa, malomatlar haqiqatdir,
Muhabbatlar muvaqqatdir, adovatlar haqiqatdir,
Adolat qayda, lekin zulm-u vahshatlar haqiqatdir,
Qani hurriyat olamda yasoratlar haqiqatdir,
Qochg'on bir ko'lkadir rohat, mashaqqatlar haqiqatdir,
Balolar, dardlar ko'pdir, falokatlar haqiqatdir,
Butun asorimiz qonli, jinoyatlar haqiqatdir,
Budur tarix maydonida hikoyatlar haqiqatdir,
Bani odamda har kuni sharoratlar haqiqatdir,
Jahon bir arzi motamdir, musibatlar haqiqatdir,
Jahannam bor bu dunyoda, aziyatlar haqiqatdir,
Maishat olaminda ranj-u zahmatlar haqiqatdir,
Bashar shaki umrinda shikoyatlar haqiqatdir,
Kadarlar, g'ussalar, g'amlar, safolatlar haqiqatdir,
Bani odamda har kuni bu sur'atlar haqiqatdir.

Boqishlar ko'lkali, yuzlar butun noshod shaklinda,
Bu motamgohni kim ko'rmish sururobod shaklinda.

3

Kulishlar ko'p kelishmasdir, faqat g'amlar tabiiydur,
Farahlarda tamal yo'qtur, u motamlar tabiiydur,
Ko'ngulda fuzi o'ti, ko'zlardagi namlar tabiiydur,
Hamisha qalbni mahzun aylagan damlar tabiiydur,
Yerning ustinda har kuni oqqan damlar tabiiydur,
Demak, islohi mushkul qonli odamlar tabiiydur,
Demak, pok bo'lmagan bu kirli olamlar tabiiydur,
Demak, dunyoda mazlum ila azlamlar tabiiydur,
Tabiat olamida g'amli ko'rkamlar tabiiydur,
Boqishlar ko'lkali, yuzlar butun noshod shaklinda,
Bu motamgohni kim ko'rmish sururobod shaklinda.

4

Bu odam o'g'li ko'pdandir muborizdur tabiat-la,
Ko'p eski bir muborizdur tuganmas dard-u ofat-la,
Muborizdur maraz-u mikro'b ila butun illat-la,
Muborizdur yel ila vahshiy daryolar-la, zulmat-la,
Butun dunyoni porlatmoq tilar anvori hikmat-la,
Butun tufroqni obod etmak istar dasti san'at-la,
Yerni ko'p shonlik etmishdir ishlamoqlik-la, g'ayrat-la,
Yo'lning ustindagi xarsanglarni yig'moqda hikmat-la.
Hamisha umri kechmishdir mashaqqatlar-la, zahmat-la,
Necha ming yil-da kechti, kechmagan bir vaqti rohat-la,
U hali muztaribdur, umri badbaxt-i falokat-la
Bashar tinchimaydir, bir kulmaydir, yig'lar musibat-la.
Boqishlar ko'lkali, yuzlar butun noshod shaklinda,
Bu motamgohni kim ko'rmish sururobod shaklinda.

5

Sovuqda titrar, ishlar, issiq kunlarda qoraymoqda,
Suvdan, o'tdan, temirdan, toshdan, ekmaklar chiqmoqda,

Qovushtirmoq uchun daryolarning tufrog'ini yormoqda,
Lahmlar ochmoq uchun eng buyuk tog'ni qo'parmoqda,
Tuganmas kuch bor emish ul bilakda, qo'lda, barmoqda,
Butun qo'llar, oyoqlar ko'p ishlamakdan qabarmoqda.
Faqat majruhdir umri sho'rlik har kun sarg'aymoqda.
Yulinda bir bulut bor, ko'zlari kulmas, yosh oqmoqda,
Boqishlar ko'lkali, yuzlar butun noshod shaklinda,
Bu motamgohni kim ko'rmish sururobod shaklinda.

6

Bani odam ishlamishdir hamisha, dema yotmishdir,
Yerni ilm ila, san'at ila ilitmishdir, do'natmishdir,
Asir etmish yerni zanjirga, chekmishdir, qo'shatmishdir,
Temirdan yo'l qayirmishdir, qozon uylar yaratmishdir,
Teran daryolarni buzmish, temir to'rlarni otmishdir,
Tog'ni-toshni qo'pormish, bir-biriga zahri qotmishdir,
Yerning ostidagi ma'danlarga qo'llar uzatmishdir,
Bu zahmatlar-la shundoq har zamonda qonga botmishdir,
Bu uni, u buni har kunda urmishdur, qonatmishdir,
Bu hayot olamida to azaldan og'u totmishdir,
Hamisha olgani g'amdir, sururin suruv sotmishdir.
Boqishlar ko'lkali, yuzlar butun noshod shaklinda,
Bu motamgohni kim ko'rmish sururobod shaklinda.

7

Tuganmasdir bu insonning kunduz, aql-u urfoni,
Bashar bir jonli ma'dandir, bashar bir ma'rifat noni,
Gul etmishdir tamomila bu sarvatgohi imkoni,
Tog'ning qalbidagi ashyo butun minqodi farmoni,
Yerning ostida oltinlar asiri-dasti-insoni,
Ko'kning, daryolarning, tufroqlarning chindan hukmroni,
Buyukdir, ko'p buyukdir ko'p-da yuksak odamning shoni,
Butun zulmatlarni tasvir etarkan fikri rahshoni,
Emasdir muntazam tag'in-da ahvoli parishoni,

Yuraklar o'tli, ko'zlar yosh, kulishsiz jumla peshoni.
Boqishlar ko'lkali, yuzlar butun noshod shaklinda,
Bu motamgohni kim ko'rmish sururobod shaklinda.

8

Yerning ustinda inson o'g'li — inson ko'p cholishqondir,
Azal kundan beri zahmatlarga ortiq olishqondir,
Yerni ko'p shanlik etmishdir, faqat o'z holi vayrondir,
Hali fahm etmas insonlar shu'ladir, ahli urfondir,
Buyuk bir qismi aqvomning qorong'uliklarda piyondir,
Ko'p ozdir anglagan, odamlarning ko'p qismi nodondir,
U hali bilgisizdir, pursizdir va ayni nuqsondir,
Buning uchun-da xushnud ko'rmagay har kunda giryondir,
Qani xushbaxt jamiyat butun olam parishondir.
Boqishlar ko'lkali, yuzlar butun noshod shaklinda,
Bu motamgohni kim ko'rmish sururobod shaklinda.

9

Nurafshon ko'klar ostinda omidur jonli insonlar,
Chechakli yerlar ustinda xazon vijdonli, insonlar,
Bahori porloq olamda ko'zi bo'ronli, insonlar,
Hayoti Nuhga mengzar, umringiz to'fonli, insonlar,
Bu daryoi baloda bemadad afg'onli, insonlar,
Tijoratgohi dunyoda, ajab, husronli, insonlar,
Gohi otashli, to'pli, goh qilich, qalqonli, insonlar,
Mudom bo'lsinmi tufroqning quchog'i qonli, insonlar,
Boqishlar ko'lkali, yuzlar butun noshod shaklinda,
Bu motamgohni kim ko'rmish sururobod shaklinda.

10

Bashar! Badbaxtsan giryon, parishon bir hayoting bor,
Musibat tufrog'idan yo'g'rilgan badbaxt zoting bor,
Aziyatdan yaralmish bir kayobu besaboting bor,
Tavorixning ichinda qonli-qonli fojiyoting bor,

Zulumot kunlaring motam-la to‘lmish koinotning bor,
Hayoti muzlimingdan so‘ngra barid bir mamoting bor,
Yerning ostida shundoq bemurosa irtiboting bor,
Deyurlar xashr-u nashring bor deyurlarki siroting bor,
O‘lim-la qutulish, yo‘qsa tariyqi najoting bor?
Demakki, bemurosa tabiiy ixtiloting bor,
Demak, yo‘q bo‘lmagaysan garchi zohirda vafoting bor,
Hayoting olamida men ko‘rgan shundoq sifoting bor.
Boqishlar ko‘lkali, yuzlar butun noshod shaklinda,
Bu motamgohni kim ko‘rmish sururobod shaklinda.

11

Hayotingda siroti mustaqimni ko‘rmagaysan, san,
Hidoyat rahbari aqli hakimni ko‘rmagaysan, san,
Sho‘rlik inson! Nechun qalbi salimni ko‘rmagaysan, san,
Adovat norini ko‘rding, naimni ko‘rmagaysan, san,
Muhabbat olamidan zarra mimni ko‘rmagaysan, san,
Nechun farmoni vijdoni, rahimni ko‘rmagaysan, san,
Hayoting yig‘lar ro‘yi basimni ko‘rmagaysan, san.
Boqishlar ko‘lkali, yuzlar butun noshod shaklinda,
Bu motamgohni kim ko‘rmish sururobod shaklinda.

12

Kelganingdan beri, ey, Odam o‘g‘li, arzi imkona,
Tosh otmoq vojib ekan sandagi jahl otli shaytona,
Dosh bermak farz ekan ul rahbari zulmati hurrona,
Faqat sen toshlar otding chehrai arbobi vijdona,
Tupurding ro‘yi haqqa, ya’ni ro‘yi ahli urfona,
Bu kun qochmoqdasan otashli, qonli bir biyobona,
Yaxshi boq, sendagi chirkinlikka holi parishona,
Bulg‘onmishsan bukun boshdan-oyoq qip-qizil qona,
Yerning usti to‘nibdir o‘z qo‘ling-la qonli maydona,
Boqarkan ko‘zlarim yig‘lar bu inson o‘g‘li insona,
Boqing, diqqat-la millatlardagi siymoi giryona.

Boqishlar ko‘lkali, yuzlar butun noshod shaklinda,
Bu motamgohni kim ko‘rmish sururobod shaklinda.

13

Bashar!
Ta’m ko‘rganing yo‘q, yo‘qsa samdanmi yaralmishsan?
Adolat-la orang yo‘qdir, sitamdanmi yaralmishsan?
Sukundor bo‘lmayursan, mavji yamdanmi yaralmishsan?
Hayoting bir jahannamdir, alamdanmi yaralmishsan?
Kuning, oying, yiling motammi, g‘amdanmi yaralmishsan?
Tavorixing tamoman qonli, damdanmi yaralmishsan?
Hamisha yig‘layursan, dami namdanmi yaralmishsan?
Ohiri yo‘qliging bordir, odamdanmi yaralmishsan?
Boqishlar ko‘lkali, yuzlar butun noshod shaklinda,
Bu motamgohni kim ko‘rmish sururobod shaklinda?

14

Onangdan tuqqaning kundan ishing faryod-u afg‘ondir,
U kundan e’tiboran ko‘zlaring har kunda giryondir,
Go‘daklikdan emganing sut va yoinki bu oq qondir,
Demak, xunxor vahshiysan, oting garchand insondir,
Nechuk badbaxtsanki olaming bir baytulahzondir?
Azaldan yig‘layursan, so‘ng xayoting ko‘p parishondir,
Bo‘yla sen jonli bir g‘amsan, bu holing bo‘yla burxondir.
Boqishlar ko‘lkali, yuzlar butun noshod shaklinda,
Bu motamgohni kim ko‘rmish sururobod shaklinda.

15

Qorong‘u asrlar kechdi, faqat yo‘q nuritobanda,
Muhabbat nuri porlarmi, bunga hayratdaman manda,
Nechuk bir kunda arzi tal’at aylar subhi rahshanda,
Necha ming yilda ketdi, kelmadi bir ro‘zi farxanda,
Sho‘rlik ey, Odamning o‘g‘li senga har kunda, har onda —

Hayoting giryadir, g'amdir, harom bo'lmish senga xanda,
Tabassum qilsa-da gullar yuzing kulmas bu gulshanda,
Dudoqsiz qolganing kunda kularsan, ya'ni madfanda,
Demakki, chehrai tole abad giryondir sanda,
U kechmish g'amli holing, balli, g'amsizmi bu ayonda
Va yoxud nasli oting-da butun giryon-u giryonda?
Bu kun ko'ngling parishondir, bu kun holing parokanda.
Boqishlar ko'lkali, yuzlar butun noshod shaklinda,
Bu motamgohni kim ko'rmish sururobod shaklinda.

16

Uchibdursan ko'kka, ammo holo, sirli tabiatsan,
Go'zal yo'llar qayirmishsan va lekin betariqatsan,
Shu'lali shaharlar qurding, o'zing mag'lubi zulmatsan,
Deyursan ma'rifat lozim, o'zing timsoli vahshatsan,
Sadoqatdan ursan dam, yolg'onchi besadoqatsan,
Tilingdan tushmayurkan haqparasti shikori-quvvatsan,
Bu xosiyat-ki bor sanda, inonki, nosaodatsan.
Boqishlar ko'lkali, yuzlar butun noshod shaklinda,
Bu motamgohni kim ko'rmish sururobod shaklinda.

17

Gunoh etmish demak dunyoda uylanmishdir, insonlar,
U to'ylardan ham tug'mishdir yerning ustida afg'onlar,
Azaldan portlamish olamda g'avg'o otlig' vulqonlar,
Bo'yla, ko'p eski joniylar bu nomas'ud bo'lgan jonlar,
Hamisha bir-birin kesmish bu ahvoli parishonlar,
Asarbaxsh bo'lmayur insonlarga ruhoni darmonlar,
Asarsiz qolmish mana so'ylagan nuroni farmonlar,
Qani odamda insonlik, qani odamda vijdonlar,
Nadir bir buncha vahshatlar, nadir bir buncha husronlar,
Nechuk bir yarodir bu to'xtamas undan oqqan qonlar?
Bashar olamini bildirmakka bordirki buhronlar.
Boqishlar ko'lkali, yuzlar butun noshod shaklinda,
Bu motamgohni kim ko'rmish sururobod shaklinda.

18

Nechuk ko‘rdingmi tarixni bashar qonlar-la boshlanmish,
Bo‘yla, qonlar-la, afg‘onlar-la, xusroilar-la boshlanmish,
U qon tarixinda noqobil insonlar-la boshlanmish,
Hayoting ilk davri, bo‘yla, isyonlar-la boshlanmish,
Bo‘yla, qon to‘kmak ila hamda tug‘yonlar-la boshlanmish,
Yerning-da o‘z hayoti o‘t-la, vulqonlar-la boshlanmish,
Hayoti ahli arzing ohi afg‘onlar-la boshlanmish,
Boqishlar ko‘lkali, yuzlar butun noshod shaklinda,
Bu motamgohni kim ko‘rmish sururobod shaklinda.

19

Bashar har kunda motamli bashar har kunda giryondir,
Bashar har kunda mahzundir, jahon bir dorilahzondir.
Bashar ahli jahannamdir hayoti chunki nayrondir,
Tili obod bo‘lgan yo‘qdir, ko‘ngillar bori vayrondir,
Azaldan Odamning o‘g‘li bu tufroqda parishondir,
Azaldan g‘am jahoninda bu inson ko‘ngli so‘zondir,
Nadir bu olamni mehnatki, o‘g‘li, qonli maydondir?
Na siymodir bu siymo, bo‘yla, bu siymon insondir.
Boqishlar ko‘lkali, yuzlar butun noshod shaklinda,
Bu motamgohni kim ko‘rmish sururobod shaklinda.

20

Bu tuproqdan bo‘lgan kundan beri avlodi Odam ham,
Egiz qardoshdir Odam o‘g‘li ila yavmi motam ham,
Ko‘zi bir g‘am bulog‘i, ayri ermas chashmadan nam ham,
Azaldan yoridir, ayrilmas undan namli ko‘rkam ham,
Zavolli, baxtsiz inson, hayoting jumla barham ham,
Yarang ko‘p qo‘rquvli, ta’sirsiz qolmoqda marham ham,
Demak “o” harfi zoiddir, otingdir g‘olibo dam ham,
Va yo so‘ng harf ekan sahfi qalam yozmishdir aqdam ham,
Nechun safq-i domadin chiqmayursan dast bir dam ham,

U xun-i-ijtimoiy turmagir, bo'lsang-da, a'lam ham,
Sening haqqingda so'ylanmish eshit bir nass-i-"karam" ham,
Saodat, jannating yo'qmi? Hayotingdir jahannam ham,
Ko'zimda qonli dunyo sahnai-motamdir, alam, g'am ham,
Guzargoh-i-siyoh-i umrda har shaxsni ko'rsam ham:
Boqishlar ko'lkali, yuzlar butun noshod shaklinda,
Bu motamgohni kim ko'rmish sururobod shaklinda?\

21

Go'zal so'z, jonli so'z, ila bo'lmayur, bedor,
Bu chirkinlikdan qo'l uzmas nechun bu qon to'kkan g'addor?
Demak, komil emas baayni bo'larkan-da takomildor,
Bir oz boq o'zingga, inson, nadir umringdagi aqdor?
Na rutba bo'lsang imron-i, sen, ey, xosiyat-i xunxor,
Bu axloqing ki vayrondir, kularmi sendagi anzor?
Bu vahshat bog'i turguncha hayoting doimo yig'lor,
Musibatlar-la to'ligdir tavorixingdagi a'sor,
Hamisha g'amli bo'lmish sendagi anzor ila absor,
Evoh, kechmishlaring, holing buni etmakdadir izhor.
Boqishlar ko'lkali, yuzlar butun noshod shaklinda,
Bu motamgohni kim ko'rmish sururobod shaklinda?

22

Bu inson o'g'liga maqsad nadir g'am intihobidan?
Ochilsa mehr bobi, ko'z yumar, vijdon kitobidan,
Demak, nur ichmagandir asli irfon oftobidan,
Tili to'nmish, harorat olmayur nurning xitobidan,
Shu'lalar ko'p yog'ardi, bo'lmayur bedor xobidan,
Yonar otashlarda anzori, qutulmas hech g'am obidan,
Hayot, bo'yla, yo'g'rilmish musibatlar turobidan,
Parishondir holating tundbod-i inqilobidan,
Bir o'yla sas kelar, motam sasi dahrning rubobidan,
Falokatlar adadsizdir tavorixning hisobidan,
Azaldan ingrayur inson bu dunyoning azobidan...

Boqishlar ko‘lkali, yuzlar butun noshod shaklinda,
Bu motamgohni kim ko‘rmish sururobod shaklinda?

23

Bashar tarixi xuni sarguzashti odamiyatdir,
Bashar tarixi motamdir, bashar tarixi zahmatdir,
Yozilmish qissalar boshdan-oyoq koni musibatdir,
Bizga naql etgani kechmish zamonlar ko‘p falokatdir,
Bugun moziy xayol bo‘lmish, hikoyatlar haqiqatdir,
Bu tuproq qonlidir, vulqondir, joyi adovatdir,
Bu badbaxt arzimiz chindan-da bir maydoni vahshatdir,
Nasib-i ahl-i dunyo darddir, g‘amdir, malomatdir,
Bashar siymosiga har kun ko‘ngan zill-i safolatdir,
Bani odamdan ayrilmas bo‘lgan surat bu suratdir:
Boqishlar ko‘lkali, yuzlar butun noshod shaklinda,
Bu motamgohni kim ko‘rmish sururobod shaklinda?

24

Tavorix-i hayot-i moziya qondir, fig‘ondir xo‘p,
Bu Odam o‘g‘li qotildir, ishi harb ila qondir xo‘p,
Azal kundan beri tuproq parishon bir jahondir xo‘p,
Jahon bir bo‘lsa-da, badbaxti-i, odam javondir xo‘p,
Evoh, avlod-i odam g‘amnishoni, motamnishonidir xo‘p,
Azaldandir ki dunyo bir jahon-i imtihondir ko‘p,
Sitamlar, qahrlar zohir, adolatlar nihondir xo‘p,
Adovat to‘g‘ridir, bordir, muhabbatlar yolg‘ondir xo‘p,
Qadimiy vahshat-i fitriya insonda ayondir xo‘p,
O‘lganlar, o‘ldirganlar tosh emasdir, bori jondir xo‘p,
Yuraklar o‘tlidir, holo, bu ko‘zlar ashkdondir xo‘p,
Boqishlar ko‘lkali, yuzlar butun noshod shaklinda,
Bu motamgohni kim ko‘rmish sururobod shaklinda?

25

Jahon tarixi xun-i mojaro-i ahli-i olamdir,
Mening endi-da har satrim biror shohnomai g‘amdir,

Butun yaproqlari xoki-iy badbaxt-iy odamdir,
Yozilmish qissalar g'amdir, alamdir, motam-u damdir,
Bashar mazlumdir, ammo ki ko'p ortiq-da alamdir,
Azaldandir ki, moziysi xazindir holi barhamdir,
Ko'k ostinda, yer ustinda bashar bir jonli motamdir,
Bu badbaxt odamning vaziyati ko'p g'amli ko'rkamdir.
Boqishlar ko'lkali, yuzlar butun noshod shaklinda,
Bu motamgohni kim ko'rmish sururobod shaklinda?

26

Teran bir ko'z-la boq, tadqiq qil tarix-i advorin,
U tarix bo'yla hoqiydir hayoti-i olam-i torin,
Hikoyat aylayur afsona-i xunun-i a'sorin,
U moziy endi kechmishdir faqat bordirki, osori,
Bashar tarixi qo'lda kechmishning mir'ot-i axbori,
Bizga ko'rsaturda tarixlar moziy-i g'amzori,
Hamisha qonlidir qonlar-la tuproqning ruxsori,
Tamosho qil bu kunda Odam o'g'lining anzorin.
Boqishlar ko'lkali, yuzlar butun noshod shaklinda,
Bu motamgohni kim ko'rmish sururobod shaklinda?

27

Etildi nurdan qayrilma so'z irsol-i insona,
Shu'lali yo'l ochilmish bo'lmadi ansol-i insona,
Qorong'ular ko'rinmish chehra-i-iqbol-i insona,
Qalin shablar chekilmish subh-i-istiqbol-i insona,
Hali siflidir inson, boqmaying shahbol-i insona,
Hali ulvi muhabbat kirmamishdir bol-i insona,
U nafas-i otashindir rahnamo izlol-i insona,
Adolat hukmfarmodir, yoziq ahvol-i insona!
Ko'zim gohi boqar moziyga, gohi hol-i insona:
Boqishlar ko'lkali, yuzlar butun noshod shaklinda,
Bu motamgohni kim ko'rmish sururobod shaklinda?

28

Vahki, tarixning avroqi tamoman xoki-yi-xundir,
Zamonlar kechsa-da hol-i-bashar tarixga madfundir.
Bu yer ko'p eski maqtaldir, u ko'k, ko'p ko'hna gardundir,
Bashar fan-la yetukdir, lekin insoniyati dundir,
Azal kundan bu baxtbaxt Odamning avlodi mahzumdir,
Qisqa bir umr bor, ammo bashar olami afzundir,
Ko'zi har kunda yomg'irli, faqat siymosi so'lg'undir,
Boqishlar ko'lkali, yuzlar butun noshod shaklinda,
Bu motamgohni kim ko'rmish sururobod shaklinda?

29

Qiron-i moziya jiddiy musibatlar-la kechmishdir,
Musibatlar-la, zahmatlar-la kechmishdir,
Yolg'on ermas desam, har kun falokatlar-la kechmishdir,
Bu aqvomning hayoti qonli vahshatlar-la kechmishdir,
Hayot-i-ahl-i-dunyo xo'p jarohatlar-la kechmishdir,
Bashar umri tamomila malolatlar-la kechmishdir,
Kechgan insonlarning holi bu holatlar-la kechmishdir:
Boqishlar ko'lkali, yuzlar butun noshod shaklinda,
Bu motamgohni kim ko'rmish sururobod shaklinda?

30

Tun erdi, qo'shnilar yotmish, faqat men ul kecha bedor,
Olamda yolg'iz edim, yolg'iz bo'lmoq menga qiymatdor,
U tanho shablarga ruhimda xo'p ishq-u muhabbat bor,
U shablardir menga baxsh aylayurlar eng shu'la ashor,
U shablarda pari-i-she'r-u ilhomim ochar ruxsor,
U shablarda tulu' aylar shu yulduzlar kabi ash'or,
U shablarda xayolotim bo'lar bololari sayyor,
U shablardir isola aylayurlar ruhimga anvor,
U shablardir samo-iy-she'riyatdan tug'ar aqmor,
Agar bir bo'yla shabdir, yolg'iz edim yo ilul absor!

Turardi peshgohimda hayotni anglagan osor,
Yozuv shaklinda turmishda hikoyatni qilg'on a'sor.
Buyuk tarix edi qarshimdagi majmua-i-axbor,
Ixota etmish edi har tarafdan baynim afkor —
Va gohi jonlanardi maqbar-i-moziydagi advor,
Ko'rardim nasl-i-moziyni: butun ashxos motamkor,
Boqishlar ko'lkali, yuzlar butun noshod shaklinda,
Bu motamgohni kim ko'rmish sururobod shaklinda?

31

Vahki, ansol-i madfuna o'ngimda jonli turmishdi,
Buyuk bir qismi makruh edi, jismi qonli turmishdi,
Demak, maqtul emish onlar, qizil burhonli turmishdi,
Go'daklar yig'layurdi, ko'zlari bo'ronli turmishdi,
Ayollar yig'layurdi, tillari afg'onli turmishdi,
Boqishlar ko'lkali, yuzlar butun noshod shaklinda,
Bu motamgohni kim ko'rmish sururobod shaklinda?

32

Ko'rardi ko'zlarim qonlar ichinda jonli movtoyi,
Ko'pi ma'lum edi, ya'ni kesilmish dast ila poyi,
Zamon-i harbda g'ayb etish onlar ba'zi a'zoyi,
Bu ma'luling-da xo'p badbaxt ko'rmishdir bu dunyoyi —
Va ko'rmishlar hamisha tuproqning ustunda g'avg'oyi,
Tamosho ayladim onlardagi anzor-u siymoyi:
Boqishlar ko'lkali, yuzlar butun noshod shaklinda,
Bu motamgohni kim ko'rmish sururobod shaklinda?

33

Kiyimlar jumlasi xunin edi andom-i-mavtodo,
Turardi xo'p qizil qonlar butun ko'zlar-la siymoda,
Shu nomas'udlar-da yaralanmishlardi g'avg'oda,
Demak-ki ro'yi-rohat ko'rmamish, onlar-da dunyoda,

Jaroyihdordir inson u kechmishlarda, holoda,
U moziy qonli, hol shundoq... Saodat bormi fardoda,
Va yoxud nasl-i-oti-da yashar aynan bu ma'noda:
Boqishlar ko'lkali, yuzlar butun noshod shaklinda,
Bu motamgohni kim ko'rmish sururobod shaklinda?

34

Xayolim qarshisidan firqa-firqa kechdi moziyun,
Butun ko'zlar, boqishlar, chehralar g'oyatda nomamnun,
Bo'yla bir qism-i-a'zo yaraliydir yuzlari mahzun,
Azaldan bir musibatgohdir bu vodiy-i-purxun,
Bashar umri ko'p oz narsa, lekin dardlar afzun,
Boqishlar ko'lkali, yuzlar butun noshod shaklinda,
Bu motamgohni kim ko'rmish sururobod shaklinda?

35

Bu moziyunga boqdim, barchasin motamda ko'rdim men,
Bu xoliyunga boqdim, yig'layurlar, g'amda ko'rdim men,
Bu otiyunga boqdim o'rtikli olamda ko'rdim men —
Ki, ya'ni onlarni mubham bo'lg'an ko'rmakda ko'rdim men,
Yana ahvolga boqdim, holi-da barhamda ko'rdim men,
Tamassul etdi motam surat-i-odamda ko'rdim men:
Boqishlar ko'lkali, yuzlar butun noshod shaklinda,
Bu motamgohni kim ko'rmish sururobod shaklinda?

36

U moziyun so'ng uy otli bir dunyoya tolmishdir,
Bu holiyun otli, qonli bir g'avg'oya tolmishdir,
Bu otiyun o'shal bir o'rtukli fardoya tolmishdir,
Saodat-da lug'at yaprog'iga bir soya solmishdir,
Bu, ilk odamdan o'z avlodiga bir moya qolmishdir:
Boqishlar ko'lkali, yuzlar butun noshod shaklinda,
Bu motamgohni kim ko'rmish sururobod shaklinda?

37

Bu moziyun so‘nmishdir, faqat g‘avg‘o daraxshondir,
Bu holiyun ko‘p badbaxtdir, holi parishondir,
Bu otiyunda sas yo‘qdir, onlar xo‘p xomushondir,
G‘amning daryosi dunyomizda jo‘shondir, xurushondir,
Bu daryolar qadar g‘am bor, achchiq yoshlar ki burhondir —
Va holo jang-i-otashrang yer ustinda tannondir,
Nasib-i-xasta-i-odam bu olamlarda afg‘ondir,
Bu nomas’ud insonning hayoti doimo qondir,
Uning badbaxtligiga ko‘zlari burhon-i-go‘yondir,
Boqishlar ko‘lkali, yuzlar butun noshod shaklinda,
Bu motamgohni kim ko‘rmish sururobod shaklinda?

38

INTOQI-MOZIY
Xayolan sayr etarkan qalb-i-shabda hol-i-dunyoyi,
Vujud-i-moziyni ko‘rdim, u dahshatli hayuloyi.
Biroz tadqiq qildim undagi motamli siymoyi.
“Menga anglat, — dedim, — ey pir, bu dunyo-yi-adnoyi —
Ki, sen zo‘r pirsan, ko‘p ko‘rding olamlarda g‘avg‘oyi,
Yaqindirki, sanalmas ko‘rganing g‘avg‘olarning soyi,
Albat, ko‘p ko‘rding, mana, ko‘kdagi oydan bo‘lgan oyi,
Faqat hech tinch ko‘rdingmi bu dorulharb zulmoyi?
Kulgan ko‘rdingmi, so‘yla chashmu ro‘y-i-ahl-i-qabroyi!
Nechuk odamdir anglat, bo‘yla, bu abnoy-i- havvoyi,
Biz esak doimo ko‘rdik hayot-i-motamafzoyi:
Boqishlar ko‘lkali, yuzlar butun noshod shaklinda,
Bu motamgohni kim ko‘rmish sururobod shaklinda?

39

Tamassul aylamish moziy faqat etsizdir andomi,
Men undan qo‘rqmadim, tark, etmishman iblis-i-ahvomi,
To‘xtatibman o‘ngimda, so‘rdim undan kechmish ayyomi,
Ko‘p oydin so‘zlar ila aytmish a’sor-i-siyohfomi,

Menga kashf ayladi, yig'lar kabidir, lekin ifhomi,
Dedi: " — Men kechmish a'sormenki,
bo'yla ko'rmishman, homi:
Boqishlar ko'lkali, yuzlar butun noshod shaklinda,
Bu motamgohni kim ko'rmish sururobod shaklinda?

40

MOZIY
Abul-insondan avvaldi bashar hayvon holinda,
Takomil etmamishdi, jumlasi nuqson holinda,
Bahoim ila inson odatan yakson holinda,
Bu odam asrinda xo'p bo'ldilar shayton holinda,
Jahonni ko'rmadim men bir behishtiston holinda,
Zaminni ko'rmadim men jannat-i-huron holinda,
Bu xokni ko'rmadim men ravza-i-rizvon holinda,
Yerni ko'rdim hamisha qon ila alvon holinda,
U Hobil-Qobilni ko'rdim, faqat xasmon holinda,
Ikki qardoshdilar, toshqalbli inson holinda,
Hayot-i-Odamni bir ko'rmadim shodon holinda,
U Havvoni ko'rardim doimo giryon holinda...

41

MOZIYNING SO'ZINI KESARAK DEDIM:
— U Havvo qizlari holi-da purahzon holinda,
Zamin-i-Sharqda badbaxt-u baddavron holinda,
Yasharlar ham sharafsiz, baxtsiz, beshon holinda,
Bu Mashriq olami nisvon uchun zindon holinda...

42

TO'XTADIM. MOZIY DAVOM ETDI:
— U Nuhning vaqti navha, hamda bir to'fon holinda,
Uning-da qavmi botdi, ne'matga kufron holinda.
O'zi bir yaxshi odam, o'g'li-da Kan'on holinda,
U Lutning qavmi botdi, yerlari vayron holinda,

U Ya'qublarni ko'rdim butun amyon holinda,
U Yusuf vaqti kechdi choh ila zindon holinda,
Hasadlar jonli, ochsam bo'ldilar ixvon holinda,
Albat, Ya'qkbni ko'rdim chashmsiz piyron holinda.
Oqargan soqoli-la ko'zlari hijron holinda.
U Muso asri Misrni ko'rmish edim qon holinda,
Go'daklar yo'rgagida bo'ldilar qurbon holinda,
U fir'avinlarni ko'rdim butun gurgon holinda,
Madadras bo'lmadi bir kimsa-da cho'bon holinda,
Yahudiy millati badbaxtu mazlumon holinda. —
Asir ermish tamoman banday-i-farmon holinda.
U Fir'avn, bundoq, eng zolim hukmdoron holinda,
U Misrni ko'rmishmen xo'p qonli bir maydon hodinda.
U Fir'avn zamoni kechibdir tug'yon holinda,
U Fir'avnlar bo'lmish butun Homon holinda,
Albat, ko'rdim u davr-u davra-i-xusron holinda.
Bu Ibrohimning asri otash-i-so'zon holinda,
O'tga otmishdilar bechorani uryon holinda,
Demishdi haq so'zni haq so'ylagan mardon holinda,
Deyurdi xalqqa to'g'ri so'zlarin shaj'on holinda,
Deyurdi: " — Topmaying asnomda ma'budon holinda".
Neron yondirmish edi Rumni bir nayron holinda,
Jamoat yig'layurdi, o'zgasi xandon holinda,
Achchiq tarix ichinda: mahriqul-buldon holinda,
U Suqrot asri: dillar xasta, bedarmon holdinda,
Hakimni tinglagan yo'q, xalq xo'p nodon holinda,
Deyurdi: "To'g'ri yo'l bu!" Xalq gumrohon holinda,
Jamoat olam-i-g'aflatda xo'p piyon holinda,
U Maryam o'g'lining-da asri qabriston holinda,
Tamoman mayyib edi, jonlilar bejon holinda.
Masiho zulm etmish go'yo ki, bir imon holinda,
Uni o'ldirmakka zani etdilar vijdon holinda,
Go'zal bir zotga qarshi chiqdilar idvon holinda,
Janobi-Ahmad asri: halq beurfon holinda,
Jaholat jismlanmishdi abujahlon holinda.
Hamisha qatlu g'orat, odatdan bir shon holinda,

Albat, ko‘rdim u davri davri-xunxoron holinda.
Shu’lali yo‘l-da keldi qudrati-Qur’on holinda,
U Zardusht asri insonlar butun sindon holinda,
Albat, Hind ila Eron bo‘ldi otashdon holinda,
Sitam sohiblari hukm etarda bek, xon holinda,
Butun masnad nishinan zulm etgan shohon holinda,
Bu Eron tuprog‘i joyi-sitamkoron holinda,
Zavolli ahli-Eron jumlasi nolon holinda,
Butun zahmatkash edi tibki hammolon holinda,
Albat, xonlarni andoq mustabid sulton holinda,
Jafoparvarlar, bundoq davlatga arkon holinda,
Aholi yig‘layurdi kimsasiz sibyon holinda —
Va yoxud Sharqda badbaxt bo‘lgan nisvon holinda,
Xulosa, xoki-Eron sahna-yi-afg‘on holinda.
Dedim: — Qani buyur. Tindi. Dedim, — vulqon holinda.
Boqishlar ko‘lkali, yuzlar butun noshod shaklinda,
Bu motamgohni kim ko‘rmish sururobod shaklinda?

43

U Moziy tindi, bir afsus chekdi, bir-da vovaylo,
Dedim: “Nechuk bu afsusing, bu vovaylo, bu vohayfo?”
Dedi: “Chindan-da shoyoni-taassuf so‘zlari bor, yo —
Xalos etmishmi zillat kunlaridan qavmini Muso?
“Tirik mayyiblar”ni, oyo, tiriltmish bo‘ldimi Iso?
Muhabbat ruhi ila etdimi o‘liklarni ehyo?”

44

MEN:
— Muhammad ummati yotmish mozor-i-jahlda holo,
Zulumot, ko‘p zulumotdir, zavolli ummat-i-toho.
Butun otashparaston ruhi do‘nmish bir sir-u mavto,
Bahoullohning afkori chechakli, totli bir ro‘yo,
Xayolga mengzamas, ko‘p o‘tlidir, ko‘p qonlidir dunyo,
Hamisha yig‘lagan ko‘rdim bu Odam o‘g‘lini, zero —

Adovatlar-la kardoshdir, muhabbatlar-la ko'p a'do,
Albat, moziymanmen, ko'rdim butun a'sorin motamzo.

45

MOZIY:
Yodi-bayzayi-Muso ochdimi bir yo'lki ko'p raxshon,
Masihning fikri Odam o'g'liga baxsh etdimi bir jon?
Janobi-Ahmadning payravlari beilm-u nourfon?
Parasti-shikori-norin nuri so'nmish, bari shabgardon.
Bahoilar-da xulyolar yo'linda bo'lmadi poyon.

46

MEN:
— Haqiqat bo'yla maydonda, bashar mahzun,
bashar giryon!
Ziyobaxsh bo'lmadi insonlarga Tavrot ila Qur'on,
Ziyodor etmadi millatlarni Injil ila Iyg'on,
Umumiy bir muhabbat bo'lmayur ki qobili-imkon,
Adovat o'tlarida yonmakda qardosh bo'lgan inson,
Jahon arzi-adovatdir azal kundan beri har on,
Yer usti doimo qonli, bashar qonli, yuraklar qon.

MEN:
— Cho'bonsizdir bu kunda "ray-p-aqnam"ning aqvomi,
Masihning ummati qurmish temirdan do'zaxandomi,
Albat, ijod qilmish olati-qatl ila e'domi,
Muhammad ummati tutmish rahi-Zulmati avhomi,
So'ndi otash-parastoning-da partavgohi-ilhomi,
Baqo qardoshligidan bir asar yo'q, bor faqat nomi,
Butun qolmishdir ovora jahonning puxtasi, xomi,
Tamosho ayla insonning yuzinda zilli-a'lomi.

MOZIY ILA BIR OG'IZDAN:
— Boqishlar ko'lkali, yuzlar butun noshod shaklinda,
Bu motamgohni kim ko'rmish sururobod shaklinda?

ESKI ZAMON SHOIRLARI

Bir puchak pul bo'ldi she'r, ilhomimiz,
Qolmadi bir muxlis-u qoldi kitob.
Kimsa olmasdan uni o'tgay shitob,
Barcha shoir g'irt bekorchi ham xarob,
"Hey, zavollilar, — deya etgum xitob. —
Bir chaqa ilhomimiz ham nomimiz!"

Bo'yni xam ham kissasi bo'sh, ko'ngli qon,
Bir to'da sohibqalam, ne-ne zamon,
She'r sotib olgan muhibni ko'rmamish,
Holingiz ne, deb-da kimsa so'rmamish.
Eski shoir, boq, ketibdir tomimiz,
Bir chaqa ilhomimiz ham nomimiz!

1914-yil

UMID

Men bir quyosh-u yerda yoziq nurli bayotim,
She'rimda porillab turadur chehrayi zotim,
Yo'qdur zarari, kechsa-da faqr ichra hayotim,
Men-kim ekanim bildirajak, balki mamotim,
Ertangi o'lim chog'i bu el yig'layajakdir,
Lek unda ko'zim dasti ajal bog'layajakdir.

Men ham so'layin, toki ochilsin u bahorim,
Men ham so'nayin, shu'lalansin u nahorim,
Ey voh, bu vatan bo'ldi tiriklikda mozorim,
Arbobi zako dushmanidir endi diyorim,
So'nganda zako, ahli vatan yig'layajakdir,
Ko'z injusi-yoshlar yuragin tig'layajakdir.

Eng so‘ng tilagim: maqbarim o‘lsin vatanimda,
Tandir vatanim, qolgusidir jon-da tanimda.
Ruhimki menim qolmayajak bu badanimda,
Qush shaklina kirsin, qanot ochsin chamanimda,
So‘ngaklarim og‘ushi Eram saqlayajakdir,
Ertangi momot dongli otim tug‘lanajakdir.

Baxtim kabi bo‘lsun vatanim, ya’ni siyohnok,
Haykal tilamam! Haykal erur maqbarim — aflok!
Millat kuni tug‘sin! Meni yutsin bu qora xok,
Yolg‘iz tilagim-bo‘lsa elim sohibi idrok,
Idrokli bo‘lub, so‘ngra meni tinglayajakdir,
Har elki aql birla tirik — anglayajakdir!

Ne chora, yasharkan, vatanimdir menga maqbar,
Chunki vatanimdir, bo‘la olmamki mukaddar,
Yurtim-da onamdir, butun avlodi barobar,
Men istayuram, bo‘lsa ular bari munavvar,
Ko‘p ersa qora xalq — bu zarar! Zanglayajakdir!
Bir kun kelajak, yanglishini anglayajakdir.

Yulduzlar amal nuri, hayotimda duraxshon,
Dilbar kabidir, xandayi mag‘rur ila xandon,
Goh-goh ko‘rinur, goh bo‘ladir pardada pinhon,
Bir ishva bilan jon oladir so‘ngra u jonon,
Ul ofati jon bir kuni tom rom bo‘lajakdir,
Dil bulbuli hambazmi gulandom bo‘lajakdir.

BIRINCHI DAVLAT DUMASINING TASHKIL TOPISHI MUNOSABATI ILA SO‘ZLANMISHDIR

Bo‘ldi afrodi millatdan bu kun tashkil bir majlis,
Ne totli mevaparvardir, ko‘ring, bo‘stoni hurriyat.

Talab qilmoqda har bir uzv umumning ehtiyojotin,
Qurilmish poytaxt ichra bu kun devoni hurriyat.

Vujudga kelmog‘i uchun adolat, haq, musavoting
Kerak avvalo bo‘lsin eng kengroq maydoni hurriyat.

Adolat zohir bo‘lmas tenglik bo‘lmasa ofoqqa,
Zuhuri adl uchun lozim huri toboni hurriyat.

Huquq isbotiga lozimdir — bo‘lsin fikrlar ozod
Ki, hosil aylasin vijdonlar imtihoni hurriyat.

Gadoning boydan, boyning gadodan bo‘lmasin farqi,
Hamma avlodi insondir, deyar har oni hurriyat.

Kimi taxti saodatda, kimi qolsa safolatda,
Bunga rozi emasdir, shubhasiz, vijdoni hurriyat.

Bunga qarshi jahon bo‘lsa, chiqsa moliyai ubudiyat,
Emas joyi taajjub, ey bo‘lma hayroni hurriyat.

Kurashmog‘i kerak har kas bu yo‘lda qadri, sha’ni-la,
Etar kasbi matonat-la bunyod dunyoni hurriyat.

Vatan avlodi g‘amparvar, vatan vayronazor bo‘lmish,
Abad xarob bir mulkni etar imron hurriyat.

Bu advori maorifda butun millatdan afsuntar –
Kerak biz millati islom bo‘lsak posboni hurriyat.

Nechun kim, benasibmiz biz huquqi odamiyatdan,
Haqimiz, erkimiz uchun bo‘lsak qurboni hurriyat.

Bu ol asri tamaddundir, asos rukni haqqoniyat:
Musavot, adolat, bir yana unvoni hurriyat.

Yanchildi lashkari bedod, mag‘lub bo‘ldi istibdod,
Bayrog‘-u nusratin tikdi bu kun sultoni hurriyat.

Bashorat, ayyuhal ihvon, tig'i adolatparvar-la –
Etar pokiza shahrin zulmdan hoqoni hurriyat.

Kimi hur-u amir bo'lsin, kimi abd-u asir bo'lsin —
Buni joiz ko'rar demam devoni hurriyat.

Yuksaltirib adolatni, tiklab yana musavotni,
Etar ayvoni zulmni haq ila yakson hurriyat!

Bizga sendan yetar imdod, sensan, ey, rahbari irshod,
Senga har damda vojibdur qilsak shukroni hurriyat.

Bundoq xatarli yo'llarda, ey sen ahrori g'amparvar —
Etding jur'atu g'ayratlar, o'zing — qurboni hurriyat.

Qaqiqiat huri bo'lganlar sa'y etar el foydasiga,
Kechar eng sevgili jondan, berarlar jonni, hurriyat.

BIZ NE HOLDAMIZ?

Ajnabiy qildi har bir ishin tamom,
Bizda esa hanuz eski tos, eski hammom.

Nelar ijod etar arbobi san'at,
San'ati-la qilur tahsili sarvat.

Yengdi san'at-da dunyoni ajnabiy,
Faqat biz qolganmiz mahrum-u sabiy.

Afandim so'ylaydi minbarda har on:
"Bizga lozim emasdir ilmi jahon".

Deydi: — "Uqbo kerak, dunyo fanodir,
Jahon islomga zindoni balodir".

Etdingiz bizlarga dunyoni zindon,
Yiqilsin xonangiz, ey beshuur jon!

To‘sdingiz san’atning yo‘lin hamisha,
Dedingiz — shart emas islomga pesha.

Sanoyi borligidan bexabarsiz,
Haqiqat mevasiz, nursiz sezarsiz.

Daraxt bo‘m-bo‘sh bo‘lsa, u kambahodir,
Kesib o‘tin kabi yoqmoq ravodir.

QALAMGA

Kuyla, ey bulbuli irfon, vatan bog‘inda faryod et,
Qongin avroqi fan birlan, nag‘mai milliya insho et.

Jaholat-la vatan bir layli zulmatnok etar tashkil,
Nur taratgan zaboning-la irfon yo‘lini irshod et.

Qalam ma’rifat shukridir, qalam go‘shi xush istar,
Tilarsan halovat olmoq shu kuyni tingla ham yod et:

Agar oqilsan, bo‘lma hirs-la oshuftai sarvat,
Haq rizosin istar esang, ibodullohga imdod et.

Hamiyat tushkuni bo‘lma, tuhfa et moli ehsoning,
Hojat karamkori tili birla elingni dilshod et.

Ushla zaiflar qo‘lini, ey sarmasti istig‘no!
Dema ahli ginadurman, buzuq davrani obod et.

Agar istarsang oting zebi tarixi jahon bo‘lsin,
Soyador bir daraxt bo‘lgin, meva ber, eng shonli bir ot et.

Xazonga yuz burgan mayin bu bog‘i islomga —
Nazar sol, tarbiyatbaxsh bo‘l, jahlni dildan ozod et.

Agar amaling iqboli vatandir, bo‘sh lof aytma,
Chuqur bu maskanidan millatni yuksakka ijod et.

Madadkor bo‘lma zolimga, yig‘latma aslo mazlumni,
Sazoi rahmat bo‘lmoq istar esang, tarki bedod et.

Xudo Qur’onda “quvmish zolimni”, u la’natga nishon,
Tilarsan mahfirat haqdan, adolatparvar bo‘l, dod et.

Dilni sindirma, uy buzma, aziyat berma maxluqqa,
Yiqilgan xonani tikla, singan ko‘ngilni obod qil.

Tilarsan bilimli bo‘lmoq huquqi odamiyatdan,
Ilm ziyosini bilgin, ilmni nafsga ustod et.

Agar maqsuding esa hissi ruhoniyni kasb etmoq,
Bu pandi hissabaxni qalb ila tezkor bunyod et.

TARONAYI G‘AMPARVARONA

Jahonga kelmoqdan maqsad nedir insonga, bilmasman?
Haqiqiatmi bu hilqat, yo‘qsa bir afsona, bilmasman?

Men idrok etmadim, dunyoga kelmoqdan nedir hikmat,
Yaratmoqdan bizni hikmat nedir subhonga, bilmasman?

Mujassam bir xayolga o‘xshaydi timsoli imkoning,
Nechun shavqni, dilni berdik xayolistonga, bilmasman?

Kitobi koinotning siri hayratbaxshi iymondir,
Bu sirni kashf etmoq uchun yo‘l yo‘q iymonga,
bilmasman?

Bu olamning bor zarrasi mazhari asrori qudratdir,
Buning oldida ojizdir nechun farzona, bilmasman?

Fasohatgoh bu dahr dilin so‘zona bilguncha,
Nechun oshiq bo‘lur dard-u alam vijdonga, bilmasman?

Bu abad zulmgohida faqat bir oti bor adlning,
Bo‘larmi adl ila ma’mur bu vayrona, bilmasman?

Sitamparvarlaring ko‘pdir muining yori olamda,
Nechun rahm aylagan yo‘q holi musulmonga, bilmasman?

Nechun faxr aylagay axrorga zulm etmo-la istibdod?
Ilohi, tobakay bu zulmi g‘addorona, bilmasman?

Jununparvarlarning fikri bo‘ldi o‘tin bu sandonga,
Nechun mayibdir, tordir yo‘li aflotunona, bilmasman?

Bo‘libdir mustabiddan cholg‘ui avrangi istig‘no,
Nechun zillat nasib bo‘lmishdir ahroronga, bilmasman?

Zulmatni yoritgan pokka yo‘qmi diydai idrok,
Nega nuri haqiqiat chimagay maydonga, bilmasman?

Bo‘ldi oroyishi bog‘i saodat jahlparvarlar,
Nechun orif yashar dunyoda badbaxtona, bilmasman?

Necha ming bulbullar fano bog‘inda nolaparvardir,
Nima majbur etar barin, oh-u fig‘onga, bilmasman?

Yurak ol qonga to‘lgandir, Hodiyo, umum g‘amidan,
Bu g‘amni baxsh etgan kimdir dil-u vijdonga, bilmasman?

Ko‘ngil qoni nasibadir bu fano mulkida axrorga.
Ajoyib bir muammomi bu tilsimxona, bilmasman?

Mana, bir olihai husn-u jamol,
Mana, bir malikai fazl-u kamol.

Mana, bir jononi pokiza, halol,
Shamsi raxshandai ofoqi jalol.

Har sag‘ar tuguni qo‘llanma, odob,
Nuqtai maqsadidur doruladab.

Amali, fikri butun kasb-u kamol,
Ne muqaddas amali fikr-u xayol!

Angamish, ilmdur asbobi najot,
Ilmdir boisi xayl-u darajot.

Ushbu ma’sumai farxundi visol
Sa’y etar ki, topsin ehrozi kamol.

Shoshadi maktabga bir nur kabi,
Ketadi jannatga bir hur kabi.

Zohiri zevarga yo‘qdir havasi,
Zevari botinga ko‘pdir havasi.

Ilmdur xulyoi insoniyat,
Ilmdur ziynati islomiyat.

Ilmdir odamga eng shonli sharaf,
Millati johilga bo‘lmasmi xalaf?

Ilmdir saodatmandi hayot,
Sen-da qil ilm-la kamoli sifot.

Ey, bolam! Ey sharafandizi kamol!
Ey malaksiyrat, ey parimisol!

O‘qi, bulbuli navniholi chaman!
Sening ila faxr etar vatan.

Shu ondan tarbiya qil dil-u tilni,
O‘ssin ul bog‘chada irfon guli.

Ne go‘zal so‘zlaydi ul “mazhari ilm”:
Tarbiya berar maorif “dori ilm”:

“Surat ziynatini dema jamol,
Siyrat, botindir asli kamol”.

Jon ziynatidur adab, fazl, kamol,
Odamning zevaridur fikr-u xayol.

Qalb tashnaligi — musallo kabidir,
Fikr bir — obi musaffo kabidir.

Adabsiz bo‘lsa lavhi xayol,
Sarflantirmoq uni amri mahol.

Ruh sayqalidur odobu funun,
Etaylik tasarrufi lavhi junun.

MAORIFGA DOIR

Odob shukufzori shodbaxshi vijdondir,
Odob chechaklariga maktab — bir gulistondir.

Taqdir qiling, ahli vatan, ushbu maqolni,
To kim, bo‘laylik zevari sohibi tole.

O‘yinlar zamoni emas, advori odobdir,
Madaniyat davridir, bo‘laylik kasbga da’voli.

Ruh mehvariga dilbar-u dilparvar irfon,
Ishtiyoq bilan tutaylik husn-u jamolni.

Par-Par yonadi shamsi jahontobi kamolot,
Ko'p aylaylik ki, biz ham zarroti kamolni.

Har millat etar ilm-la taraqqiyi komil,
Shu shevaga sarf etar sarvatni, molni.

Har qavm maorifla bilur o'zin, huquqin,
Albatta, huquq ahli bilur joh-u jalolni.

Asorat zanjirida yashar jaholat ahli,
Mahkumlarning kun kabi oshar zavoli.

Ilm ila namoyon bo'lur shohidi nusrat,
Ilm ila zafarparvar bo'ldi ovropali.

Biz ham tuzalsak silsilai ahli ulamo —
O'rganmoq bilan ilm, hunar, fanni, amalni.

Tashkil etaylik "anjumani ilm-u maorif",
Ta'sis qilaylik "Dorilfunun", "Maktabi oliy"!

Maktab ne demak? Bahri fayziyobi ma'no,
Maktab ne demak? Ma'dani olmos, la'li.

Maktab ne demak? Bir ulvi burchi saodat,
Maktabdir aylagan badri ziyodor hilolni.

Maktabdir bo'lgan masdori asrori taraqqiy,
Maktabdir bo'lgan matlai anvori tole'.

So'ylar sizga Hodiy: o'qingiz, millati islom!
Hamma ham bu yerda aylar xatmi maqolni.

MAKTAB

Maktab ne demak? Xodimi qudsiyati millat,
Maktab ne demak? Boisi ulviyati shavkat,

Maktab ne demak? Jilvagohi nuri haqiqat,
Maktab ne demak? Rahbari irshodi saodat.

Vatan avlodi topsin uchun bizda tole',
Maktablar ochib, kasb etaylik ilm-u kamolni!

* * *

Maktab ne demak? Millat hayotiga jondir,
Maktab ne demak? O'lik qalbga til bergan qondir.

Oriflarga hamkor bu so'z virdi zabondir:
Maktab ila, maktab ila, ey millat, omondir.

Vatan avlodi topsin uchun bizda tole',
Maktablar ochib, kasb etaylik ilm-u kamolni!

* * *

Maktab ne demak? Anjumani ahli safodir,
Maktab ne demak? Fikr oloviga sandon, samodir.

Hikmatlari aqlbaxshdir, fikri saodatlidir,
Og'ushida ilm olganlar onglidir, odoblidir.

Vatan avlodi topsin uchun bizda tole',
Maktablar ochib, kasb etaylik ilm-u kamolni!

* * *

Maktab-la bo'lur takomili oyinai vijdon,
Maktab-la etar kasbi sharaf barcha bu inson,

Maktab-la ko'rar tarbiya har gulshani irfon,
Tezkor aytsak ixvonimizga shu so'zni har on:

Vatan avlodi topsin uchun bizda tole',
Maktablar ochib, kasb etaylik ilm-u kamolni!

MAKTAB QO‘SHIG‘I

Maktab ne demak? Shamsi shabistoni jaholat.
Maktab ne demak? Gulshani irfon, kamolot.

Maktab ne demak? Ummatga bir bobi inoyat,
Aylar qalamim sizlarga haq ila vasiyat:

Odob maktabin bilajakmiz qadrini, millat,
Ko‘rsatarmiz kamoliga yetguncha hamiyat.

Maktab ne demak? Rahbari avlodi vatandir.
Irshodiga mazhar bo‘lgan ahli chamandir.

Maktab duru adabdur, kamolotga eltgandir,
Nomidagi so‘z bizlar uchun zebi dahandir.

Odob maktabin bilajakmiz qadrini, millat,
Ko‘rsatarmiz kamoliga yetguncha hamiyat.

Maktab ne demak? Ruhga, tilga fayz bergan sasdir,
Jon berguvchi javhar, ravshannafasdir.

Oshiqlari odob uyin yangi havas etugan jondir.
Bu so‘z bizga har shom-u sahar zikri lisondir:

Odob maktabin bilajakmiz qadrini, millat,
Ko‘rsatarmiz kamoliga yetguncha hamiyat.

Maktab-la qilar yangi bashar da’fi baloni,
Maktab chiqarar ochiqqa asrori xatoni,

Maktab-la yashar rohati mas’ud ra’iyat,
Aylar qalamim bu so‘zni takror vasiyat:

Odob maktabin bilajakmiz qadrini, millat,
Ko‘rsatarmiz kamoliga yetguncha hamiyat.

Jur'atli uchun ilm-u adab nuri sahardir,
Jahl ila ko'r bo'lganlar uchun ko'zni ochardir,

Insonga sharaf burar faqat ilm-u hunardir.
Ma'rifatsiz odam joni yo'q pushtsiz shajardir.

Odob maktabin bilajakmiz qadrini, millat,
Ko'rsatarmiz kamoliga yetguncha hamiyat.

EL FARYODI

Hurriyat ila millat kasb etar tole,
Hurriyat ila mulkin qiymati oliy.
Ovro'roli hurriyat ila topdi kamolni,
Albatta, asorat-la mahv bo'lar aholi,
Hurriyatu sarbastlik imroni vatandir.

Ozodlik kerak shaxs, so'z, fikrga illo,
Har kimsa etar hurriyat ila zavqqa tavallo,
To kim, inson qo'yar qadamin bamisli dunyo,
Sarbastlik ila olinar mulki ham zero,
Gar qolsa mustamlaka, vatan vayrondir.

Har kim haqqi-huquqiga sohib odam bo'lsin,
Hay'atda adolatli qadamlar qo'yilsin,
Eng foydali qoidalar joriy qilinsin,
Mezoni adolat va musovot qurilsin,
Mezoni adolat, demak, imroni vatandir.

Baxtga bo'ldi ilhaq vatanning obu-havosi,
Hurriyat ila qabul bo'lur orzu-havasi,
Shubhasiz, buzildi uning avvalgi binosi,
Maydonga qo'yilsa yangi Qonuni asosiy,
Asosiy qonun esa darmoni vatandir.

Shavq etsin uchun millati shahroni fununga,
Minglarcha aholi bo'ldi og'ushtai xunga,
Diqqat-la nazar sol, buni teng etma junungа,
Bo'sh lof etgan kaslarga bo'lsin bu namuna,
Bular shahodati ruhi janoni vatandir.

Zulm otashi har yonga sochar tutuni zulmat,
Bechora vatan, senki bo'lding mahshari shariat,
Sahroi baloda kezar ovora raiyat,
Avlodini shundoq qilarmi modari shafqat?
Bu zillatga, bu zahmatga giryon vatandir.

GO'DAKNING TAVSIYASI

Xitob aylar bizga go'dak, der: insonlar, insonlar!
Nega tutdi jahonni nola-yu afg'onlar, insonlar?!

Nechun insoniyat bog'in etarsiz xazon-u yaproq?
Nega lozim jahon bog'inda bu bug'ronlar, insonlar?!

Yongan kim, yondirgan kim, o't bo'lgan kim,
kul bo'lgan kim?
Butun ixvoningiz shundoq otash-u so'zonlar, insonlar!

Ko'ngil lavhidan o'chmish ayon insonlik asari,
Ko'rinmas shafqatning hissi sizda, ey shaytonlar, insonlar!

Qalblarning qulog'iga quyildi "fitna fasodi",
Adolatdan uzoqdir bu abas bo'lg'onlar, insonlar!

Jahon tang, etdingiz yana vijdonni johil tamom,
Nufuz etmas jahonga partavi urfonlar, insonlar!

Nizodan qo'llari qon-la, xijolatdir vatan yuzi,
Sazodir yig'lasa tinmay, ko'z yoshi qonlar, insonlar!

Jahonni titratar oh-u alami qalbi mazlumning,
Sizga ta'sir qilolmasmi alami larzonlar, insonlar?

Bu xitobim nedandir sizlarga baxsh etmas ta'sir?
Hasratlar soldimi yo'qsa dil-u vijdonlar, insonlar?!

Ko'ngillarda bo'ldi nobud har bir hissi shafqatlar,
Asar etmay qo'ydi kasga bu ol qonlar, insonlar!

Nechuk rozi bo'lar qon to'kmoqqa inson zoti?
Bu fe'lga la'nat aytar hatto hayvonlar, insonlar!

Sevarmi xudoyim bu sizning zulm-u nizoni,
Faromush bo'ldimi haqdan kelgan farmonlar, insonlar?!

Haqiqiat ko'zi-la boqing, jahon bir qatlgoh bo'ldi,
Jaholat bayramida kesmoqdasiz qurbonlar, insonlar!

1907

MILLAT TARONASI

Mazlumning umid chirog'i nurlanmasmi,
lov yonmasmi?
Bu qaro baxtimiz jabr-u jafosidan uyalmasmi?
Jahl mozorida yotgan xobi g'aflat uyg'onmasmi?
Maorif g'unchasi ila millat gulshanga do'nmasmi?
Uyaldi hamma tahqirdan, bu millat iymanmasmi?
Ochildi subhi sodiq, uyqudan millat uyg'onmasmi?

Ehromga kirdi begona, bo'ldi mazhari ne'mat,
Hijoz ahli hamon maxmurdir, mast etdi bodai g'aflat,
Bunga qobilmi inson, bo'lmasinmi oshuftai hayrat?
Muqaddas haqlarin talab etar dunyoda har millat,
Huquqin anglabon el ham safolatdan to'lg'onmasmi?
Ochildi subhi sodiq, uyqudan millat uyg'onmasmi?

Millat haqqi himmatparvarlar ehsoni mol aylar,
Hamiyatda vatan tahsiliga molin jamol aylar,
Homiylik bo'lsa vatan avlodi ham kamol aylar,
Tojirning himmati, mardonligi kasbin halol aylar,
Xasislikdan, xijolatdan, jaholatdan uyalmasmi?
Ochildi subhi sodiq, uyqudan millat uyg'onmasmi?

Shar'imiz asosi javdat, hamiyat, sa'i-g'ayratdir,
Ilohim, baxtiyor bo'lsinu kas kim, ahli himmatdir,
Vujudi olami islom uchun faxr-u sharofatdir,
Buyurmish faxri olam ehson ahlin joyi jannatdir,
Hadisi Mustafoga qalb-u vijdonlar inonmasmi?
Ochildi subhi sodiq, uyqudan millat uyg'onmasmi?

Umumning rohatin ta'min aylamoq shoni insondir,
Hayotni xayrga ehson etmoq eng maqbul ehsondir,
Tavobning boisi hurriyati abd-u asrondir,
Tamaddunni kasb aylagan qutular — ahli imkondir,
Hushyor bo'lib, mute bo'lib,
dard-u hasratdan to'lg'onmasmi?
Ochildi subhi sodiq, uyqudan millat uyg'onmasmi?

Olam hamiyatlilari bo'ldilar mudom vosili amal,
Hamiyat ila etmishdir millat ta'mini istiqbol,
Qay yerda himmat bo'lsa, u yerga maftundir iqbol,
Etar himmat-la millat iqtisodi, shoni bezavol,
Havoyi nafsga asir behamiyatlar o'rtanmasmi?
Ochildi subhi sodiq, uyqudan millat uyg'onmasmi?

Ziyonga uchradi sarshamai umrimiz bu ma'voda,
Va "zulli shuyhum" burhondir isoti da'voga,
Toleparvarlar shohpeshadir arsh-u ma'noga,
Bo'lar ittifoq ila inson noil din-u taqvoga,
Taqvosi nifoqqa to'lgan hissiyotdan uyalmasmi?
Ochildi subhi sodiq, uyqudan millat uyg'onmasmi?

Saxovatli etar sarfi ehson na'fi ummatga,
Lozimdirmi sen izzatda yasha, xalqing zillatda,
Tahammul etmas insoniyat, bo'lsa xalq zahmatda,
Shodmon bo'lar vijdon, ko'rsa xalq ommasin rohatda,
Hayo etmasmi nafsin peshlaganlar, bir to'lg'onmasmi?
Ochildi subhi sodiq, uyqudan millat uyg'onmasmi?

Erishdi himmat ila millatlar maqsud-u maqsadga,
Kechirdik umri qimmatdorni biz behuda-behuda,
Biz bo'ldik ahli xusron, hamsafarlar yetdilar sudga,
Bu kun bizlardan istiqroh etar aqvomi mavjudga,
To'larmi nafratga, bilmam, haqoratdan uyalmasmi,
Ochildi subhi sodiq, uyqudan millat uyg'onmasmi?

Hayotning ma'nisi, asli shafqatdir, muhabbatdir.
Jahonga kelmoqdan matlab xalqi Allohga xizmatdir,
Ibodga xizmat etmoqlik muqaddas bir ibodatdir,
Shu aytgan bayti ojizim kalomi hotamiyatdir:
Bo'lib bedor, bilmam, asoratdan o'rtanmasmi?
Ochildi subhi sodiq, uyqudan millat uyg'onmasmi?

7 zulhijja
(22-yanvar)

VATANIM NIDOSI

Basdir, yetar ortiq, tur, o'g'ul, yana yotma!
Nomusni, hayoni, odobni uyquga sotma!
Ey sevikli avlod, qo'zg'ol, Allohni sevsang gar,
Kun chiqdi, hamma turdi, yotgan bitta o'zingsan.

Yo'ldoshlaringga, ko'zingni och, yaxshi boq, o'g'lim,
Ular yetdi istaklariga, sen — uzoq, o'g'lim.
Boshdan qalpog'ing ol, u boshingni yoptirajakdir,
Yo'l ketgan odam ki, yo'l ustida yetajakdir...

MULLA NASRIDDINGA

O‘ylama bizni qobili ulviyat, ey Mulla,
Hali bo‘lmadik loyig‘i hurriyat, ey Mulla,
Xosiyat bo‘ldi millatga abadiyat, ey Mulla,
Mahkumlik bo‘libdir bizga mohiyat, ey Mulla,
Hurriyatga bor bizda buyuk nafrat, ey Mulla.

O‘ylamagin, do‘stim, bizni arbobi hayotmiz,
Zulmat ichida johil-u ashobi mamotmiz,
Shatranjdir olam, shuni bil, biz shohga motmiz,
Yo‘qday yururmiz, vodiyi zillatda benajotmiz,
Biz istamasmiz fayz-u kamolot, ey Mulla!
Yetar bizga vahm, xurofot, ey Mulla!

Biz shabporamiz, istamasmiz nuri hidoyat,
Chirkin ko‘rinar bizlarga hurlik, madaniyat.
O‘ylamaki, millatga yoqar deb so‘zi haqiqiat,
Fikrimizga mos emas hayoti tabiat.
Haq so‘zlaringni dars-u ustun etma, ey Mulla.
Oqil bo‘lin, izhori junun etma, ey Mulla.

Soqolni silab, tingla, ne taqrir etarlar:
Yashirin boda ichib, buni takfir etarlar.
Bar bermadi to endigidek shoxai mubham,
Botil bu xayolotda ki, iksir etarlar.
Bu badbaxt millatdan bo‘l ogoh, ey Mulla,
Esku suvdir, eski hammom, ey-voh, ey Mulla.

Olam bo‘lsa ham taraqqiyi saodat,
Zamonga ergashib qilsa butun kasb-u sharofat,
Bizlarda so‘nmish otashi hissi bashariyat,
Kundan-kunga millat aylaydi moziyni rijoat.
Madomiki, bizga zog‘lar rahbardir, ey Mulla,
Umidimizning mevasi achchiq qalampir, ey Mulla.

Shoyad kelar bo‘lsa yodimiz qudratimizdan,
Hurriyatni imho etarmiz fikri bashardan,

Qashshoqqa rizq, ziyo kelar subhi hunardan,
Bilmam, nega nafrat etarmiz nuri sahardan?
Biz oftob nuriga dushmanmiz, xormiz, ey Mulla,
Tunu-kun uyqu og'ushida tor-u mormiz, ey Mulla.

Nisvon nedir, haqqi musovot nedir yo?
Ayo, ko'rarasanmi yoti-yu olamni ro'yo?
Nashavandmisan, ey kimsa, devonamisan yo?
Ket, aqlingni peshla duodan, suqdan, ey Mulla.
Bechora, la'nati, loyiqi shafqatsan, ey Mulla,
Vallohi, sazovori nasihatsan, ey Mulla.

Nisvoniyatni insonlikka loyiqmi sanarsan?
Nisvonni ham inson deya insonmi sanarsan?
Hayvonni ham inson ila yaksonmi sanarsan?
Nisvon so'zin ayt go'shai nisvonga, ey Mulla,
Bu ishlarni ber to'da nodonga, ey Mulla.

Qul bo'lmoq bo'libdir bizga peshonai ziynat,
Biz istamaymiz o'tlug' musovot-u uxuvvat,
Millat-la barobar tug'ilgan afkori asorat,
Ahrorlikka aylamadik kasb-u layoqat,
Hurriyatni quv lavhai fikratdan, ey Mulla!
Bularga so'zla vodiyi zulmatdan, ey Mulla!

DOD ISTIBDODDAN!

Qoldik qo'lida bir suruv arbobi dahshatning,
Bo'ldik asiri panjai qahr-u musibatning!

Har yoqdan otilmoqdadir jon oluvchi o'qlar,
Yo'qdir oxiri bundoq ofat-u falokatning!..

Nomardlarning qo'lida maydon bo'ldi vatan,
Kayfli idoralardan joyi bormi adolatning?!

Har yerda aylarsar sitam ichra hukmini,
Shunda budir nizomi kitobi davlatning!

Har kas ne bilsa aytsin, evoh... kimsa tinmasin,
Oshkordir o'zgarmog'i sidqning, haqiqatning.

Zulm ila nizoda g'arq bo'ldi shaharlar,
Yoqmoqdadir jahonlarni ohi jamoatning.

Bor bu qirg'in-u zahmatga yo'q sabri qullarning,
Yorab, nedir bu rutba tahammulida hikmatning?!

Qon yig'laydi aholi, ko'ngillar tilka-tilkadir,
Kulmasmi, ey xudoyim, yana ruxsori rahmatning?

Har kimsa o'z foydasini, shaxsiyasini izlar,
Ashobi faqr bo'lmoqqa qurbonidir zillatning.

Minglarcha benavo quruq yerlarda jon berar,
Besh-o'n haromxo'r egasi daryoi ne'matning.

Har kim teng bo'lmog'i kerak huquqda,
Ehsonidir bu arz bizga dasti qudratning.

Mansux qilinsa qoidai adolatpesha,
Joriy etilsa hay'ati sho'rosi ummatning,

Kasbi saodat aylarmiz, g'amdin ozod bo'lib,
Mas'udlikda kun ko'rar afrodi millatning.

Faqat umid etmay, yana harakat qilingiz,
Istiqbol kelar, jo'shsa himmati g'ayratning.

Ittifoq, hamkor bo'lingiz, ey o'rtoqlar,
Birlikda fath bo'lar sizga bobi saodatning.

Nifoq uyqusi soldi bizni safolatga,
Mahkum qildi barchamizni g'arqi zahmatga.

ALVIDO

YOKI ACHCHIQ BIR IQROR

Oh, badmast-u xarobmiz barchamiz bir jomdan,
Ming quyosh chiqsa, uyg‘ontirmas xobi avomdan.
Tinglangiz iqrorimni, yoronlar, dili nokomdan:
Qat’iy umid ayladik biz to‘g‘risi islomdan.

* * *

Oh, yo‘q bir hol amalbaxshi istiqbol bo‘lar!
Yo‘q ikki qardosh shundoq islom uchun iqbol bo‘lar!
Qo‘rqarman ki, bir ixtilof orti nizo, uvol bo‘lar!..
Qat’iy umid ayladik biz to‘g‘risi islomdan.

* * *

Intiboh etsin deya islom faryod etamiz,
Ming navo, ming lavhai dilso‘z inshod etamiz,
O‘ylardikki, ummati islomni ko‘p o‘od etamiz,
Qat’iy umid ayladik biz to‘g‘risi islomdan.

* * *

Chunki ilm-u din-u dahrga iltifoting yo‘q sening,
Yo‘q demakdir, yo‘q demakdir,
yo‘q hayoting, yo‘q sening!
Ayyuhal islom, umidi najoting yo‘q sening,
Qat’iy umid ayladik biz to‘g‘risi islomdan.

* * *

Irfon nuri ila yorit qalbni sabiy,
“Tolibul ilma yalov bis-Chin...”
buyurmishdir Nabiy,
Yarador qildik mazhab-la asosi mazhabni,
Qat’iy umid ayladik biz to‘g‘risi islomdan.

* * *

Boshqa bir vodiyda poyondir Farangiston bu kun,
Ularni tahqiri hayfga, bilmishmiz iymon bu kun!
Bu ketishda ularniki atiyi imron bu kun,
Qat'iy umid ayladik biz to'g'risi islomdan.

* * *

Dushmani anvar bo'lar ul chashm kim, benurdir,
Uyquni sevgan maskanda, albat, quyosh manfurdir,
Ko'zi ko'rmas, quloq bilmas, fikrimiz masturdir,
Qat'iy umid ayladik biz to'g'risi islomdan.

* * *

Toshlarga ta'sir etardi nolai jangohimiz,
Bo'lmadi ta'sirbaxsh bu ahli islom ohimiz,
Nafrat etmish balki bizdan, Hodiyo, Allohimiz,
Qat'iy umid ayladik biz to'g'risi islomdan...

NIMAMIZ BOR?

Na iste'dodi ulviyat, na-da irfonimiz bordir,
Qadrsiz, xayrsiz yuz ming suruv nodonimiz bordir.

Emas inkori qobil, pok baytmiz insoniyatdan,
Juda ozdir bizda inson, juda ko'p hayvonimiz bordir!

Bu iblisona ishlar kim, ko'rursan, qilmas iztirob,
Avom bu kimsalar aytar: "bizning shaytonimiz bordir".

Ne kasb etdik, birodar, ko'rsating, bozori savdoda?
Ko'zni ochib qarsak, ko'p buyuk xusronimiz bordir.

Butun afrodimiz lof urmoqdir insof-u vijdondan,
Faqat, hayhot!.. Na insof-u na-da vijdonimiz bordir.

Maorif ahlini kofir demoqqa hozirmiz, lekin —
Sazoi xanda bu, na kufr-u na iymonimiz bordir.

Yodi gunoh-la bo'ldik, oh, yelka qisib, bo'ldik taslim,
Xatomizni o'lchamoqqa qo'lda na mezonimiz bordir.

Dermiz: maqsudimizdir Ka'bai hulyoi hurriyat,
Hurriyat yo'linda fido na bir qurbonimiz bordir.

Ko'ngild istar ki, ko'ngilli bu yo'lda toshbo'ron bo'lsam,
Bu javlongohi vose'da na bir maydonimiz bordir.

Bo'larmi lol hamma, tushdikmi qabri nisyonga,
Sukut saqlarmizmi mudom, tan ila jonimiz bordir?

Biz u to'tilarmiz kim, shakkaristoni maorifda
Baqoi nom uchun tilda asar, dostonimiz bordir.

1908

KIMDAN KIMGA SHIKOYAT ETAYLIK

Ingraydi qayg'u-g'am ostida vatan, imdod yo'q,
Motam azobiga botmish hamma dil, bir shod yo'q.

Vatan avlodi bo'lmish zalolat ostida giryon,
Bunlarni yoritmoq uchun bir shu'lai irshod yo'q.

Bir to'da bechoralar intiqod tig'iga duchor,
"Muntaqidlar" neligin anglatgan bir manaqqid yo'q.

Mag'dura bu millat uchun har ishda ming imdod bor,
Iroda ahliga nechun, bilmam ki, bir imdod yo'q?!

Irqi millatda fasodga to'ldi qon, ey "hokim!"
Da'vosin etomqqa bir jarroh yo'q, qassob yo'q.

Xastaning tomirin topib, dardini bilmoq kerak,
Yo'qsa faryoding beqadr, mevai faryod yo'q.

Garchi millatda muhaqqaqdir vujudi illating,
Senda tashhisin davo etmoqda iste'dod yo'q.

Ustod kabi faxr ila, ey kibrga boshi botganlar,
Johil ustodsan, irfon uchun biror ustod yo'q!

Mazlum bu millat aro bor qobiliyat javhari,
Hayf, uni porlatguvchi bizlarda iste'dod yo'q.

Ko'rganing ahli qalam istibdod xodimi erur,
Haqqa taslim bo'lmoqqa millatda jur'at, yod yo'q.

Donolar nash'u namo topmish bu sumbulzorda,
Naylarmiz, bu zargohni bichmoqqa bir ijod yo'q.

Tarki oraz etmoqni har shaxs aylar tavsiya,
Tarki oraz aylagan, ey voh, bir avlod yo'q.

VATANPARVARONA TARONA

Vatan istibdod dastidan vayron bo'ldi butkul,
Vatan avlodi g'urbat ichra sargardon bo'ldi butkul,
Vatan yaxshilar uchun bir go'shai zindon bo'ldi butkul,
Vatan gulshanzorlari bir mug'uliston bo'ldi butkul,
Vatan bulbullari sor zer-u par, nolon bo'ldi butkul,
Vatan bir dashti sahroga do'ngan guliston bo'ldi butkul.

* * *

Bo'larkan Mag'rib-u Mashriq tajalligohi hurriyat,
Vasat ahli, ne bo'ldi ki, etar ikrohi hurriyat,
Tajalli aylamsa charxi vasatda mohi hurriyat,
Bular Firavni istibdod uchun Hamun bo'ldi butkul,
Fasod-u mal'uniyatda tolei shayton bo'ldi butkul.

Vatanda rahmdil yo‘q, qotil-u nopoklar ko‘pdir,
Topilmas garchi Gave, oh... kim, Zahhoklar ko‘pdir!
Zakiydir garchi millat, sohibi idroklar ko‘pdir,
Ne hosil, Shayx Fayzullohdek nopoklar ko‘pdir,
Vujud-u qadri makruh, hiylai tug‘yon bo‘ldi butkul,
Xayoli mahvi mulk-u millati Eron bo‘ldi butkul.

* * *

Tamaddundan asar yo‘q, zillat-u vahshat farovondir,
G‘azovot kundan-kun ortar, qahat insof-u vijdondir,
Safo yo‘q, zulm ko‘pdir, istibdod o‘ti so‘zondir,
Bu tazyiqlardan mazlumlar, yaxshilar jigarqondir,
Vatan ahli javo-yu jabrdan nolon bo‘ldi butkul,
Mujassam bir tamomi nolai afg‘on bo‘ldi butkul.

* * *

Uyg‘on ey, marhum bir millat, vaqti sa’i-g‘ayratdir,
Asorat parchalanmish, sa’y eting, fursat g‘animatdir,
Istiqbolni ta’min eting, madom ki, qo‘lda fursatdir,
Agar matlabingiz ihyoi din-u mulki millatdir,
Bgun shoh ila millat misli jism-u jon bo‘ldi butkul,
G‘araz ahli zalil-u noili xusron bo‘ldi butkul.

* * *

Agar davlat rioyat qilmasa, millat bo‘lur foniy,
Harakat qilmasa millat agar, davlat bo‘lur foniy,
Bular gar ittifoq bo‘lsa, g‘am-u zahmat bo‘lur foniy,
Vatan xushbaxt, millat shod, hamma zillat bo‘lur foniy,
Ko‘rursan kim, vatan ma’mur-u obodon bo‘ldi butkul,
Mug‘uliston do‘nib, bir ravzai rizvon bo‘ldi butkul.

Ilohim! Davlati mashro‘tani sen poyidor ayla,
Musovot ila hurriyat asosin ustuvor ayla,
Adolat taxti uzra shohi odil barqaror ayla,
Vatan xoinlarin, albat, xor-u sharmisor ayla,
Nega kim, doimo xoin ishi xusron bo‘ldi butkul,
Jazoda mustahhaqdir, nafrati inson bo‘ldi butkul.

OH, KIMSASIZ VATAN

Ey, otashi jaholatda bo'hron bo'lgan vatan!
O'limning vahshatidan uryon bo'lgan vatan!
Ey, diydasi hasratda giryon bo'lgan vatan!
Ahliga boqqa onida yuragi qon bo'lgan vatan!
Ey, maorif bog'iga bog'bon bo'lgan vatan!

Ey, sahnai fojiaviy, ey, mahshari azo!
Ey, mazhari vaqoe maydoni Karbalo!
Hamma aytar shu jumlani har damda bismilloh:
Zilzilai g'aflat ila parishon bo'lgan vatan!
To'foni zillat ila yanchilg'on bo'lgan vatan!

Har zarrang, ey vatan, menga motamnamodir,
Har bir uying koshonai nolai g'amafzodir,
Ul tutun o'rlar ki, dudi ro'yi samodir,
Kirmish nido shakliga, oh-u navodir.
Ey, subh-u shom odati afg'on bo'lgan vatan!
Ey, mehnat-u safolatda qurbon bo'lgan vatan!

Bo'lmish vayron moziy iqbol-u shavkating,
Qolmish nigun haykali ikrom-u izzating,
Kundan-kunga ziyoda bo'lur holi vahshating,
Vahshatlarga duchor etilmishmi hurriyating?
Vahshat tig'lariga, qatlga maydon bo'lgan vatan!
Fahsh-u o'yin, qimor-u fitnaga makon bo'lgan vatan!

G'arib manzaralaring, har ko'rganda ayondir,
Har manzarang ki, jonni yoqqan bir fig'ondir,
Vayrona o'ylaring senga yig'lar bir lisondir,
Ey, ertasi-saodati vayron bo'lgan vatan!
Yuzi-asosi xok-la yakson bo'lgan vatan!

Ey, tiriklar mozori bo'lgan oshiyon, oh!..
Boshing uzra turibdi bir pardai dilsiyoh,

Mas'ud qoldi bizlarga shohrohi intiboh,
Qolmagin zulmda, ochil, ey subhi inshiroh.
Ey, zulmatning ostida g'alton bo'lgan vatan!
Ey, jannatiy maorifi vayron bo'lgan vatan!

Keldim tasodifan yetishib ixtiyoringga,
To'kdim ko'z yoshimni, g'amimni uzoringga,
Yonmoqda, onajon, yuragim holi zoringgga,
Shunda yig'lab, fotihaxonman mozoringda,
Ey, zebbaxshi go'shai nisvon bo'lgan vatan!
Ey, vuslati rasidai hijron bo'lgan vatan!

Xandon ochilgan gullaring nega bundoq xazindir,
Bulbullaring shikastadir, uzlatnishindir,
Barcha ashobi johil saodatkoringdir,
Arbobi maorif hama sarbarzamindir,
Ey, johil jaholati ila larzon bo'lgan vatan!
Ey, g'unchazori,
bog'chasi xazon bo'lgan vatan!

Keldim quchog'ingga — umidim shafqating,
Begona ko'rindimi senga avlodi g'urbating?
Endi shudirmi bechoraga nazari rag'bating?
Ey, onajon, tugadimi ortiq muhabbating?
Ey, kamolini kutib, nolon bo'lgan vatan!
Ey, jannatiy muhabbati vayron bo'lgan vatan!

Ey, fitratga arzdor bo'lgan ahli ishtiboh,
Siz so'nsangiz so'narsiz, so'nmas nuri intiboh!
Koinot ufqidan tug'ilar shu'lai saboh,
Kul, ey jamoli haq ki, kulsin ruhi nogoh!
Sen ham biroz yig'la, ey vayron bo'lgan vatan!
Ko'nglim misoli holi parishon bo'lgan vatan!

ISTIQBOLIMIZ PORLOQDIR

Ochar firdavsi hurriyat, bir fayzobod bo'lar olam,
Kular subhi haqiqat, adolatobod bo'lar olam,
Sho'roi musovot ila sahni dod bo'lar olam,
Kamandi ishqi insoniyatga rabot bo'lar olam,

Sururobodi hurriyat kelar, dilshod bo'lar olam,
Bu istibdod dastidan qutqarar, ozod bo'lar olam!

Zulm-u qahr o'ti o'chganda, porlaydi nuri hurriyat,
Qochganda istibdod devi, o'ynaydi huri hurriyat,
Ketar g'amlar, kelar damlar, chalinar suri hurriyat,
Jahonni surgoh aylar, dili masruri hurriyat,

Sururobodi hurriyat kelar, dilshod bo'lar olam,
Bu istibdod dastidan qutqarar, ozod bo'lar olam

O'qir, tahsil olar, ta'limi hurriyat qilar inson,
Huquqin-erkin anglar, nafsi taxtinda bo'lar sulton,
Tabassumlar qilar ilm-u ma'orif, jahl bo'lar giryon,
Hayotning ma'nisi, asli orzusi-ro'yob bo'lar shul on.

Sururobodi hurriyat kelar, dilshod bo'lar olam,
Bu istibdod dastidan qutqarar, ozod bo'lar olam

Tajalli aylagan dam olamga husni dioromi,
Ko'rgan nasbi nigoh aylar, bo'lar maftuni andomi.
Etar mansux hayrat-u hayotin, hukmi e'domin.
Bu on sayyoddir, mahkumni ozod aylar dami,

Sururobodi hurriyat kelar, dilshod bo'lar olam,
Bu istibdod dastidan qutqarar, ozod bo'lar olam

Albat, biz ko'rmadik zavqin gulzori bevafoning,
Jahonda termadik izhorini ozoda vijdonning,

Hasrat ila otilgandik qa'riga ummoni nisvonning,
Do'nar bir kun behishtga sahosi maydoni imkonning.

Sururobodi hurriyat kelar, dilshod bo'lar olam,
Bu istibdod dastidan qutqarar, ozod bo'lar olam

Ey, ul vaqtni ko'rgan mas'ud, unutma, bizlarni yod et,
Bu yo'lda hasrat ila jon bergan ahbobni xushnud et,
Mozorim uzra kel, tur, g'amli-g'amli faryod et,
O'qi bu she'rni qabrimda, yana takror bir dod et:

Tur, ey zindoni nisyonda vatan, ozod bo'ldi olam,
Sururobodi hurriyat kelib, dilshod bo'ldi olam!

Biz iymon ahli edik, xalq loyiq ko'rdi kofirga,
Ko'krak kerdik, tayandik tig'i toqatsiz u tahqirga,
Bog'landi poyi hurriyat berganning kishan, zanjirga,
Ko'rsa mustaqillik avlodi bizni shoyon taqdirga.

Sururobodi hurriyat kelar, dilshod bo'lar olam,
Bu istibdod dastidan qutqarar, ozod bo'lar olam

Haqiqat yuzi kulsin deb fidoyi rohi bo'ldik biz,
Aziyat berdi johillar, saodatxohi bo'ldik biz,
Koinot vujudining ruhbaxsh arvohi bo'ldik biz,
Bu layli mazlumni tanvir etgan misbohi bo'ldik biz,

Sururobodi hurriyat kelar, dilshod bo'lar olam,
Bu istibdod dastidan qutqarar, ozod bo'lar olam

Qurur mal'unlar daraxti, bo'lar pokiza manzarlar,
Do'nar bir "bazmi fayziyob"ga bas-butun yerlar,
O'qir bulbul, kular g'uncha,
dilga o'xshar bu mahsharlar,
Jamohirul tuyar unda bu shexrni yer-er o'zbarlar:

Sururobodi hurriyat kelar, dilshod bo'lar olam,
Bu istibdod dastidan qutqarar, ozod bo'lar olam

Qalbning ichidan porlar, etar mohiyatin isbot,
Tabiat jannatinda boshlangan holati maqsurot,
Bu kun mahrum emasdir ularga arbobi mavhumot,
Jahannam ahliga loyiqmidir parvardayi jannat?

Behishtobodi hurriyat kelar, dilshod bo'lar olam,
Bu istibdod dastidan qutqarar, ozod bo'lar olam!

Chiqar sahni tomoshoga u kun raqqosi hurriyat,
Kular, o'ynar, o'qir, olqishlanar har yerda ul ofat,
Tomoshogarlarning ruhin etar majlubi ulviyat,
Tomoshagohi nosudning u kun nomi bo'lar jannat,

Sururobodi hurriyat kelar, dilshod bo'lar olam,
Bu istibdod dastidan qutqarar, ozod bo'lar olam

Hayoting samovotin, ey zakoyi olamorosi,
"Fuyuzot"ing birladir
"Firdavsi ilhomot"ning ihyosi,
Ochar, sen nur bergan sari uning avroqi ra'nosi,
Ochil, ey bobi jannat, to kulsin umid ziyosi,

Sururobodi hurriyat kelar, dilshod bo'lar olam,
Bu istibdod dastidan qutqarar, ozod bo'lar olam

U dam ki, ibtisom aylar amal, xandon bo'lar Hodiy,
Mening zarroti jismim qabrda larzon bo'lar, Hodiy,
Yumilgan ul ko'zim yig'lar, dilim so'zon bo'lar, Hodiy,
Lisonim jismlansa, shunchalar so'zdon bo'lar, Hodiy:

Tur, ey og'ushi nisvonda yotgan, ozod bo'ldi olam,
Sururobodi hurriyat kelar, dilshod bo'di olam!

PARISHONLIK ASH'ORI
YOXUD SO'LGAN CHECHAKLAR

Daryoda kezgan to'lqinu to'fon parishon,
Qa'ridagi sadaf-u durafshon parishon.
Sahroda oqqan qumlar sargardon, parishon.
Falakdagi yulduz-u raxshon parishon,
Gulshanda ochilgan g'unchai xandon parishon,
Gul ishqi ila shoiri davron parishon.
Og'zidan uchgan nag'mai alvon parishon,
Vatan shavqi ila yuragim qon, parishon,
Ul andishadan dilbari vijdon parishon...

* * *

Zarroti lavhimga yog'ar jurmi zakodan,
Boq, boq, shu nurgakim, uchar ro'yi samodan,
Shabanam ki, tushar g'unchalarga chashmi samodan,
Yoshlar ki, tafakkur etar gulzori baqodan,
Sayr ayla tushingda, yel esar bog'i fanodan,
Qushlar ki, qator ketar vaji havodan,
Nolish etarlar yodi sayyodi jafodan,
E'lon aylar bari zulm-u balodan,
Ko'kdan yog'ilar do'l-u boron parishon,
Yerdan ko'kka chiqmoqdadir afg'on parishon.

* * *

Faraz ayla, bir o'rmondasan, ey sohibi iymon,
Bulbulda nag'ma, gulda gina, shamsda tobon,
Bir chetda qah-qah urar qushi xiromon,
Bir dilparvari sof etar ularni larzon,
Gul, bulbul, dil nash'ai hayotla shodon,
To'satdan bir qora bulut bo'ldi namoyon.

Qo'pdi u go'zal manzarada qahrli to'fon,
Kaklik qayda, gul qayda, qayda hazoron?
Bo'ldi demak ortiq u guliston parishon,
Ul qah-qahador sarv-u xuromon parishon.

* * *

Ol ko'zingga bir manzarai fayznamoni,
Sunbullari baxsh etmoqdadir ruhna safoni,
Keldi hosilot payti, halol etmish oyni,
Dehqon bu yil umid etajak ko'proq bug'doyni,
Umid-la kutadi har kecha subhi saboni,
Birda-ikkida taratar ushbu sadoni:
Qo'y, bir gal sotayin yaxshi pullarga bu bug'doyni,
O'g'lim! Qizim! Sizga olay gul-gulli matoni.

Lazzatli amallar-la bu to'fon parishon;
Pul qayg'usida dili dehqon parishon.

* * *

Bu ranjbarning endi budir nuqtai ra'yi:
Sen harakatingni qil, flakni ko'r ki, nechuk say'i!
To'satdan bir qora bulut bosdi havoni,
Momaqaldiroq gursillatmoqda arsh-u samoni,
Shoshqin nazari darak berar ofat-u qazoni,
Badbaxt, bechora ochar qo'lni, etar duoni,
Yolvorib yordamga chorlar u ham Xudoni,
Istar ki, bu duo daf etajakdir baloni,
Hayhot ki, totdi ekin jomi fanoni,

Shunda qo'li qo'ynida, u dehqon parishon,
Gul-gulli mato kelmadi, o'g'lon parishon!

* * *

G'ar kim bajarar erta-kich bir amalni,
Ko'zlar kabi umid ila ayyomi visolni,
Jahd ila etar ba'zisi tahsili kamolni,
Istar shundoq bilsinki sharafandozi savolni,
Ba'zisi tilar, roz qilar vasli jalolni,
Irfondan ortiq bilan ba'zi amalni,
Tarjih etadi ba'zisi anvarga zilolni,

Bir firqa Xudoni anglamas, eyvoh, zavolli,
Ba'zisi kezadi men kabi ummoni xayolni,

Ul kezganim xayoliy ummon parishon,
Ko'nglim kabi ul dilbari vijdon parishon.

LA'NATI MILLAT!

Safolat bizda, zillat bizda, har turli balo bizda,
Ajnabiy taraqqiy qildi, ranji fano bizda.

Sanoat sohasida kasb-u shavkat qildi g'arbliklar,
Boqing biz ahli Sharqqa, oshxo'rlik, kuy, kayf-u safo bizda.

Maorif yo'q, sanoat yo'q, tijorat yo'q, ziroat yo'q,
G'aflat og'ushida qoldik botib, yo'qdir ziyo bizda.

Qilar kundan-kunga kasbi faollik qavmlar, qoldik —
Nodonlik ko'chasinda xor, yo'qdir ixtiro bizda.

Bu ibratgohdan bir ibrat darsin olmasmiz, bilmam —
Haqiqat, yo'qmi iste'dod-u asari zako bizda?!

Tamaddun ilmi obdan ila bo'lganda tajallisoz,
Bu ilmi maqsadbaxsh uchun nechun yo'q iltijo bizda?!

Nega biz qilmadik taqdir qadrin ilmi obdanning,
Ko'r bo'lmish yo'qsa, Hodiy, diydai qiymatnamo bizda?!

Harakat aylar erkan ahli namoyondai olam,
Ming-ming afsus kim, bor eski fikr, eski g'avg'o bizda.

Bu mashhur masaldir: "ko'r qo'liga tutganin qo'ymas",
Biz shunda tutganmiz jahlni, sabab uchun bor "ammo" bizda.

Jaholatparvardirmiz, dushmani anvori ulviyat,
Shuningchun qop-qoramiz, zarra yo'q nuri a'lo bizda.

QALAM NIMA DEYDI?

Eshit, millat, qalamdan bir hikoyat,
Judolikdan qilur ko'p-ko'p shikoyat[1].

O'qir la'nat fitna, g'amga, firoqqa,
Sochar nafrat arbobi nifoqqa.

Tinchlik bag'rida, ey millat, omondir,
Nifoq esa buyuk ofati jondir.

Bo'lsak har bir xayrli ishga yakdil,
Taraqqiyga qilsak sarfi mol-u pul.

Etib g'ayrat ochsak oliy maktabni,
Etsak bu yo'lda g'ayrat-u shitobni.

Mukammal madrasa, shonli vasoil
Qilib ta'sis etsak kasbi fuzoil.

Manfaatbaxsh ashobi tole',
Bo'lur ularga qadri millat oliy.

Mukammal maktablar har kasga molik,
Saodat yo'liga bo'lar u solik.

Bu ish vobastdair har ittihodga,
Emas vobastla moyili inodga.

Bo'lur tavhid ila har mushkul oson,
Bo'lur vahdat-la ravnaq bog'i imkon.

Ochilmishdir sabog'i ilm-u hikmat,
Uyg'on, basdir, yetar xobi jaholat!

[1] Jaloliddin Rumiy satri.

Oching bir ko‘zni, ey zulmatdagi jon!
Magar bir zarra yo‘qmi sizda isyon?

Tug‘ilmish ofitobi subhi vahdat,
Jahonga tarqatar fayz-u hidoyat.

Uyg‘oning! Tobakay bu noz-u tavoze?
Samarbaxsh emasdir ilmi majoziy.

Natija bermas, topganing oqimdir,
Sahih bilma ki, burohoning chiqimdir.

Faqih bo‘lding, qani irshoding, ustod?
Hakim bo‘lding, ne o‘lat etding ijod?

Kimga baxsh aylading bir zarra irfon,
Achchiqlanma, qo‘lingda bormi burhon?

Ne joyda millatni irshod qilding?
Bo‘lib ming parchaga, barbod qilding.

Barining bor qo‘lida bir “atestot”,
Qo‘lidan bularning ming dod-u faryod!

Bular bir baloi ma’naviydir,
Bor amali — nafsin payravidir.

Afandim, bas emasmi xobi g‘aflat?
Ajnabiydan oling bir darsi ibrat.

Eshitmaysizmi siz ohlar sadosin?
Dillarning xushado dodin, nidosin?

Sababi — intihoi ma’rifatdir,
Birlashmoq, millatga ayni maslahatdir.

Kerak kasb aylamoq ilmi laduniy,
Bizga lozim emas ilmi toq diniy.

Kerakdir qo'lda bo'lsin tuxmi dona,
Sochilsin tuxmi dona tuxumdonga.

Badan ilmi ila tahsil et hububot,
Ekingohi cho'ponga so'ngra tuxm ot.

Gar qo'lda bo'lmasa tuxming dona,
Ne sochmoq istarsan ul tuxumdonga?

Tuxumsiz, urug'siz bitmas sanobil,
Visolsiz qabul bo'lmas fazoil.

Ishla, qo'lga ol ashobi vasoil,
Sabab-la shaxs bo'lar amalga noil.

Tanako'hsiz bo'larmi yo tanosil,
Maorifsiz mumkinmidir takomil?

Maktablar bo'lmasa, bo'lmas maorif,
Maorif ko'rmagan kas bo'lmas orif.

Maorifsiz emas mumkin maishat,
Safolat-la yashar ahli jaholat.

Bo'lib yakdil, qilsak bazli hamiyat,
Bu yo'lda ko'rsatsak har turli g'ayrat,

Jahonni titratar tavhidi millat,
Qo'pormasmi tog'ni olganda himmat?

Yasha, ey ittifoqi millatafro'z!
Yerga bot, ey nifoqi xonumonsiz!

Na sunniy- shia bor Qur'onimizda,
Uhuvvat lafzi bor furqonimizda.

Harakat aylasa gar ahli fikrat,
Nurafshon aylar anvari haqiqat.

Bo'lganda oqil ul fikr-u xayolot,
Tug'ilar bulardan ahli kamolot.

Etar tashkil oliy anjumanlar,
Aytar har sohada zikr-u suxanlar.

Ruju qo'ymoq kerak aqli salimga,
Bo'lsak labbaykachi fikr-u hakimga.

Etsak har bir so'zni taslimi vijdon,
Maqsadimiz emasmi shanday ihvon!

Kanorga tashlasak fikri so'qimni,
Etsak ravon rohi mustaqimni.

Omonat nomin bermish aqlga mavlo,
Bunga burhondir "inna g'arazna" illoh.

Agar inson bo'lsang, etma xiyonat,
Go'zal saqla, omonatdir, omonat.

JAHOLATIMDAN SHIKOYATIM

Bormi bundan yuksakka uchmoqqa istedodim?
Qobiliyat istagimga zaxm etdi ustodim.

O'qimoq-chun ne qadar dod-u fig'on aylasam,
Bo'lmadi zarra ta'sirbaxsh bu arz-u dodim.

Toqqa aytsang eshitar, so‘ngra berar aks-sado,
Toshga aylanganlarga aks aylamadi faryodim.

Amal diydorini ko‘rmay, barchasi qabrga ketar —
Tavqdir Shirin o‘limi-la ishqi Farhodim.

Ojizmat tahrir etmoqqa holimni, sabab?
To‘ladir achchiq haqiqatga dili noshodim.

Ey, g‘amdiyda Hodiy! Ayt shu bulbuli zorga:
Goh-goh deb, oxir tushar og‘ushi mozorga.

BU HAM BIR HAQIQAT

Sodiq oshiqlar erurmiz, pinhon emas burhonimiz,
Kizbdan ozoda qolmish, shukr bo‘lsin, jonimiz.

Istarmiz — balqsin haqiqat, fikrimiz ozod bo‘lsin,
Bizcha, maslak bu — bilinsin ilmimiz, irfonimiz!

Kechmi-tezmi, bilmam,
ammo haq aylagay bir kun zuhur,
Shu umid birla ko‘ndi bunga, uxladi vijdonimiz.

SO‘FIY-ZOHIDGA

So‘fiy! Kel, o‘rgan hayoting farzini hayvondan,
Dersan insonman, faqat bebahrasan irfondan.

Mana, hayvon aylaydi ta’min istiqbolini,
Bundoq hayvon mencha afzal tekinxo‘r jig‘ildondan.

Odamizod mukarramdir faqat idrok ila,
Afzal emasmi jonivor aqli yo‘q insondan?

Ey birodar, och ko'zing, qo'rqinchli bir sahrodasan,
Himoya qil ahvolingni bu yo'l to'sgan tuzdondan.

Mushfiq onami deb bilding bu sukut sohiblarin?
Ey qo'zim, shafqat kutilmas bul kasi nodondan.

Ilm-u odobdir bu zikrdan murod,
Temirni sandonga chiylamoq emas.

Qur'on ma'nosini anglamoq kerak,
Bekorga harfini sanamoq emas.

HUBBI VATAN

Yaxshi tafsir etmoqqa avlodi millat holini,
Vijdoning lavhiga tahrir et vatan a'molini.
Ma'rifatparvarlik bo'lsa bu millati mazlumda,
Jaholat qabri ichra qo'ymas millat avlodini...

1910

O'QI, BIL, O'RGAN

Vatan avlodiga

Ey yosh jon, o'rgan: jaholat eng buyuk bir ordir,
Ilmsiz odam jonivordan-da bemiqdordir!

Yuk tortgan hayvon ko'rilmas nafratga loyiq, va lek —
Nafratga loyiq johildir ki, xalqqa zordir!

Har fanolik, har yomonlik ilmsizlikdan kelar,
Anglamasdan yer-u ko'kni, inson butkul bezordir.

Anglamaslar anglaganlar uchun bo'lmish yuk tortar,
Yuk tortarmi, so'zlayin, ul kimsa kim, hushyordir?!

Sen-da ilm taxti uzlar ishla oriflar kabi,
Ilmsizlar yer yuzinda baxtsizdir, xordir!

Ko‘p aytilgandir bu so‘z, takrori ham lazzatlidir:
Ko‘rdir johillar, olimlar elning boshi, hamkordir!

Orif uyqusi go‘zaldir johilning toatidan,
“Navmi olim” ramzini bil, ko‘r ne ma’nodordir.

Hurriyat shohidiga yor bo‘ldi arbobi ilm,
Ilmsizlar, tarbiyatsizlar unga ag‘yordir!

Sharqda botmish maorif, G‘arbda chiqmish funun,
Ma’rifat-la, ilm ila Mag‘ribzamin gulzordir.

Ey yotgan zulmat quchog‘inda,
yetar, tong bo‘ldi, tur!
Olamga bir yaxshi ko‘z solgin, tajallizordir!

Ilm qo‘li-la o‘rtaga chiqdi yerning ostidagi,
Ko‘klarning ham qalbini ochmish ilm... asrordir!

Ilm ko‘ziga ochilmish Koinot ramzlari,
Jahl-la har ne yopiqdir, chashmi jaholat tordir!

Ibrat lavhasi emasmi bu sarosar Koinot?
Ilmlining ko‘zi ochiq, har kas unga oshkordir.

Olimning sarvat-la tujjor emas mohiyati,
Fan ila tortar, olar ul kas ki, tahsilkordir.

Hilqatning bitmas-tuganmas borlig‘idan ahli ilm —
Chekdi, oldi davlatni, boq, endi sarvatdordir.

Qardoshim ishsiz o‘tirma, dahr bir ishxona-ku,
Qul bo‘lar ish ahliga ul kimsa kim, bekordir.

Mana amal, mana iqbol, mana istiqbol senga —
Ahli ilmdir, bizga yuz ko'rsatgan tojdordir!

Ilmning hikmati kirmay, bo'shdir bosh kosamiz,
Boshqa xalqlarning boshi bu fayz ila sardordir.

Zaharlanmish fikrimiz mavhumot zardobi-la,
Ey haqiqat! Porla, porlat Sharqni,
zulmatzordir!

1913

LATIF JINS VAKILALARIGA

Baxti qora millatga o'xshar niqobingiz,
Sharqning muhitimi u qorong'ulik siyohingiz?

Zolimlarning qo'lida jon berar barcha nihoyat,
Adl devoni yo'q ki, so'ralsa hisobingiz.

Tabiatga baxsh bo'lmish bor haqqingiz bu kun —
Zulmatga zabundir, bunga shohid hijobingiz.

Albat, kelar bahor, yog'ar obi inqilob,
Porlar sizning jamoli latofat — mohtobingiz.

Bir kun kelur — chechaklaringiz fayziyob bo'lur.
Hanuz shisha ichida qolmish gulobingiz.

Bo'lguncha siz asiri bu mazlum qafaslarning —
Qabul emas toza huru tobonda hislarning...

YIG‘LAYOTGAN SHE’RLAR

Ustod Akramga

Ey millatning adibi — balog‘at panohi, oh,
Ey fasohat qalami, gulbandi — intiboh!
Ilkingda bor edi nag‘mai toboni — inshiroh,
Qabring qandoq bo‘lsa, jisming tushdi bir saboh.
So‘nding agar-chi, so‘nmayajak nuri fikrating,
Ey, yagona shoiri bechora millatning.

Zulmatli bir muhitda porloq ziyo eding,
Sharq olaminda mash’alador, go‘yo eding.
Mag‘ribda bo‘lmasa-da, Sharqda sen bir daho eding,
Bir shoiri baland eding, olambaho eding.
Endi oppoq kafan-la qora tuproqda,
Yotmoqdasan abadiy bo‘lgan xobgohda...

Oxir qovushding, mana, sevimli Nijodingga,
Akram, yetishdi zaif jisming Fuadinga.
Rohat uxla, chunki erishding murodingga,
O‘lsang-da, ba o‘lim qadri jonli otingga.
Fozil arbobni o‘ldirolmas ajali beomon,
Noming abadiyatdir, ustod, har zamon!

Sen yig‘lading Nijodingga har shom, har sahar,
Ko‘z yoshlaring ki, bo‘ldi biror she’ri shu’lavor.
Ul o‘ye’rlar-la porladi zulmatli fikrlar,
Ey ma’rifat rahnamosi, ey ma’naviy padar!
Ma’naviy avlodlaring ham bu kun azadordir,
Har yashagan qalb — noming uchun bir mozordir.

Haykal tiklarmi nomingga, bilmam ki, millating,
Porloq bir chiroq ila porlagaymi turbating?
Ey shoiri Nijod, jahoniy balog‘ating.
Ajal qo‘li ila tindi tili she’riyatning.
Madomiki, oftob ziyobaxshi haqdir,
So‘nmas nomi Akramning, abadiy barhaqdir.

Bo‘lganda g‘unchalar chaman aro nurafshon —
Ash’oring chechaklari bo‘lmas xazonnishon.
Har doim bahordir bu gulistoni diliston,
Bog‘-u chechaklaring bor, ayo foniy ey bog‘ibon!
Tuproqlar ichra bo‘lsa-da jisming, tuprog‘-u to‘zing,
Shu’ring hayot ichradir, ey shoiri hazin!

Boku, 15-fevral 1916

TILAK BO‘LMAS

Yuksak tilak, hoy tilak,
Oydin tilak “oy” tilak,
Yo‘lchimiz, yo‘l ustiga —
Nurlaringni yoy, tilak.

* * *

Porloq tilak, oy tilak,
Ko‘zlardan-da boy tilak.
So‘ngsiz shu’lalaringdan
Millat olar poy, tilak.

* * *

Sening-la ko‘zlar kular,
Peshona, yuzlar kular.
Qaysi dudoqqa qo‘nsang,
Og‘izda so‘zlar kular.

* * *

Bir kulfatning ichinda,
Sensan bir nurli xanda.
Noming tabassum bo‘lmish,
Xushbaxt bo‘lgan daxanda.

* * *

Xastalarga sihatsak,
Kuchsizlarga quvvatsan.
Dunyo jahannam bo‘lsa,
Sen o‘zing ham jannatsan.

* * *

Tiriklik zahmatlidir,
Juda mashaqqatlidir.
Haqiqiat olamida
Xayolot lazzatlidir.

* * *

Bu og‘ir yuk tutilmas,
Bu qayg‘udan qutulmas.
So‘ngsiz, ey porloq tilak,
Zulumotdan o‘tilmas.

* * *

Yo‘l ko‘rsatgan, oy tilak,
Najotning o‘zi sensan.
Yashamoqni sevdirgan —
So‘zimning tuzi sensan.

* * *

Tiriklik qorayganda,
Uning kunduzi sensan.
Biz yig‘larmiz hamisha,
Kuldirgan bizni sensan.

* * *

Qorong‘ulikning, mana, —
Yorug‘ yulduzi sensan.
Yerda saodat bo‘lsa,
Shaksiz ki, o‘zi sensan.

* * *

Ma’yus bo‘lma, omondir,
Mahzun bo‘lmoq yomondir.
Qo‘rqoq tilaksiz yashar,
Millatim qahramondir.

14-iyul 1918

VAQTNING SASI VA HAYOTNING SO‘ZI

Ilming, hunaring, ma’rifating bo‘lsa, yugur, kel,
Yo‘qsa, bu hayot olaminda bo‘lma bir ortiqcha yel!

Arbobi kamolning yeridir, bil ki, bu maydon.
Badbaxt yashar tuproqning ustida nodon.

Yerlarga sohib bo‘lajak, quvvatli, amin bo‘l,
Ey kuchsiz bo‘lgan, sen yerga ko‘mil, dafni zamin bo‘l!

Lof ila taraqqiy bo‘lolmas, so‘z-da ham sarvat,
Bilgi-la bo‘lar, bilmog‘i shart sarvat-u quvvat.

Ehrozi marotib bo‘lolmas jahl ila, bir qon,
“Holyastavi” e’lon etadi hazrati “Furqon”.

Nur ila qorong‘ulik bo‘laolmas ki, barobar,
Albat, bo‘ladi ko‘zi ochiq ko‘rlarga rahbar.

Ko‘r bo‘lma, jahon zulmat bo‘lar ki, ko‘rganingda —
Chohni ko‘rolmassan, ey la’nati, yo‘l yurganingda.

Shaksiz, tushajaksak jarlikka, ey ko‘zi illat,
Davoga muhtojsan, ayo zulmda millat.

Tabobatga muhtojsan, inon, ey ko‘zi nursiz,
Umring o‘tadishundoq nazarlar-la zafarsiz.

Albat ki, hayoting o‘tadi butkul bahorsiz,
Ey zulmat ichinda qolgan, ey umri saharsiz!

Shamssan, qamaring ne bo‘lganin bilmayajaksan,
Gullar kuladi, oh ki, sen kulmayajaksan!

Tabrik etmayajaksan shu yorug‘ yuzli nahorni,
Sen ko‘rmayajaksan, bechora, rangi bahorni.

Sen ko'rmayajaksan yerning ustida nedir hur,
Bir yarimnigoh-la etadi dillarni mashhur.

Bir hur ki, jon baxsh etadi murdadillarga,
Nur tobini beradi ul ozurdadillarga.

Sen ko'ra olmassan, yerning ustinda "malak" bor,
Yo'q senda uni ko'rmoq uchun diydadi oshkor.

Istarsan agar ko'rmoqni jannatiy bayotni,
Ko'rlik-la kechirmoq nechun dunyoda hayotni?

Mana, yashamoq haqqiga joizdir shu sanga —
Bir harbi munavvar bilan kir jahl ila jangga.

Dunyo endi irfonli er istaydi bu fursat —
Sen ham yashamoq istar esang, ilmingni ko'rsat!

Boku, 9-noyabr 1919

QAMARGA

Ey samoning qadim, ko'hna qamari,
Olam san'atining munir asari.

Ko'hna bir olamning oshinosisan,
Dunyoning yulduzli ro'shinosisan.

Sarsari bir hayotga sohibsan,
Goh achchiq, goh shirin, juda najibsan.

Yurarsan, ichingda sening afloking.
Agar bo'lsa edi nutqing, idroking,

Jonli tarix bo'larding olam uchun.
Bu jadalgohi arzi motam uchun —

Odamning hilqatin bilarding sen,
Xabar olganda rost so‘ylarding sen.

Ilk odam qandoq tirildi, qamar?
Tiling bo‘lsa, mana, berarding xabar.

Nega qon to‘kdi Odam avlodi?
Qobil emish u qotilning oti.

Ilk qotilda qobiliyati qatl,
Azaliydir, axir, bul niyati qatl.

O‘lmoq, o‘ldirmoq bo‘ldi kori bashar,
Bashar o‘lmoqdadir,
“shikori” — bashar.

Ey bashar sarsarisi, nuri hilol.
Moziy holi, yana bir-da istiqbol,

Kelajaklar-la bor o‘tmishing sening,
Nazaringda tengdir har ishing sening.

Hali ko‘p-ko‘p yashar bor mavjudoting,
Ey yorug‘ yulduzi bul samovotning!

Ey qamar, ey hayotdan ozod,
Seningcha bir surur va faryod.

Xoki motamdami, sururdami,
Senga bir g‘am dami, yo surur dami.

Ruhsiz, tuyg‘usiz hayoting bor,
Beshuurona Koinoting bor.

Sur nahmasi yoki to‘zon na’rasi,
Sening-chun bir rangdir, birdir barchasi.

To‘y-la motam yoningda birdir-bir,
Ey qamar, ey javonliqo, o‘zi pir!

Yuz minglab hayotlar so‘nadi,
Kafanga qo‘shilib, xokka do‘nadi.

So‘najakdir hali go‘zal ko‘zlar,
Ularni adamning zulmati gizlar.

Ko‘p dilafro‘z chehralar so‘nadi,
Abadiy pardalar ila changga do‘nadi.

Sen yana mehvaringda sayyora,
Yana sen sarsàri-yu ovora,

Yana sen kun ichida ro‘yonamo,
Yana porlar kavokib ila samo.

Yana shabtob bo‘lgan shu mohtobing —
Porlatar sahnini yerning, obning.

Nurlaring yerlarga sochilar takror,
Faqat bir porlamas shu ahli mozor.

Boku, 2-may

MUNDARIJA

Kulgi zamiridagi faryod 3

Said Azim Shirvoniy
G‘AZALLAR

Tohir Qahhor tarjimalari

“Kecha ko‘rdim men seni, ...” 20
“Bo‘lmasaydi g‘ami ishqing dili ...” 20
“Na yaxshi oshig‘ ulkim, ...” 21
“Jon na lozimdir, agar ...” 21
“Ne zamon tushsa yo‘ling dilbara, ...” 22
“Ul gul karam etgay menga ...” 23
“Gul g‘unchalik paytida bo‘lgay ...” 23
“Na qadar gar bor esa charxi ...” 24
“Bermagum ko‘nglimni hech bir ...” 25
“So‘rayin, ayt, ne emish, ...” 25
“G‘amza o‘qin ko‘p otarsan bizga, ...” 26
“Chiqur jonimki, bir onga ketur ...” 27
“Bo‘ldi sunbullar xijil zulfi ...” 27
“U ohu ko‘zli, derlarki, bu ...” 28
“Bir nomaki bu, yori dilorom ...” 29
“Bu kelgan kim ekan, yuz ...” 29
“Masholloh, bu go‘zal kim o‘zi, ...” 30
“Ey ko‘ngil, masjid yo‘lin tark et, ...” 30
“Ko‘ngil bo‘libdi firoqingda ...” 31
“Ey xasta ko‘ngil, azmi sari ...” 32
“Angla, dil, bu ishqda ramzi ruhi ...” 32
“Yor aylasa ushshoqi dilafgora ...” 33
“Ag‘yorki, ochiq izhor etar yora ...” 34
“Ber xabar, ey dil, bo‘larmi tunda ...” 34
“Bu g‘urbat yurtda netgaysan, ...” 35
“Bu ko‘ngil vasfin etibdir ro‘yi ...” 36
“Gar bulutdek keldi ul ruxsori mohi ...” 36
“Kimki og‘zin g‘unchayi xandon ...” 37
“Tushdi, taqdirim ekan, menga ...” 37
“Vafo rasmin tutib kel, ey pari, ...” 38

"Sensiz fazoyi jannati ma'voda ..." 39
"Debdilar xalq, bor emish bodayi ..." 39
"Ul lolaki, sho'x, ishva-yu nozi ..." 40
"Ul sanamning, zohido, zulfi ..." 41
"Ey zohidi xudbin, bilamanki, ..." 41
"Harki oshiqning seningdek oyjamoli ..." 42
"Bahor keldi, quvondi el, biroq ..." 43
"Kimning bu bahor fasli ..." 43
"Aylanay joningdan, ey, nozli ..." 44
"Ishq erur olamda etgan shuncha ..." 44
"Bir chang kabi zulfingga qo'narkan, ..." 45
"Qochdi mendan u o'jar, sho'x, ..." 45
"Ko'ngil yuz pora qayg'udan, ..." 46
"Mening yorim kabi shamshodqad-u ..." 47
"Tun yarmida, soqiy, tugadi ..." 47
"Senda, ey gul, buncha husn-u, ..." 48
"Navbahor ayyomidir, men ..." 49
"Bo'ldi ko'm-ko'k bog'-u rog', ..." 49
"Tanlading ul oyni, ayt, mohi ..." 50
"O'girgay yuz ko'ngil jondan, ..." 51
"Tig' tegsa ham yuzingga, bilki, ..." 51
"Olami ishq ichra jononni degan ..." 52
"Qaysi oshiqda seningdek sho'xi ..." 53
"Ey Xizr, ul zulfi zulmat ichra ..." 54
"Fitna solgan kunga bir madaniy ..." 54
"Bu husn-u bu latofat-la, aniqdirki, ..." 55
"Qani u gavhar, o'sha bodayi ..." 56
"Ey sabo, holimni bil etmoq uchun ..." 56
"Keldi bahor, lek kelmadi ul ..." 57
"Bog'i olam ichra menga ..." 57
"Tilagim bir gul-u, na bog'-u, ..." 58
"Bu kun bazminda ham jomi ..." 59
"Gado bo'lmoqligimni yori ..." 59
"Na baxtdir bu, har oshiqning seningdek ..." 60
"Savdolara tushdim, dedim, ..." 60
"Yuzin hadisin aytayin oy bulut, ..." 61

"Ey, malaksiymo, jamoling rashki ..." 62
"Ul qaro ko'z ishq aro mahbub-u ..." 62
"Ey gul, senga ne, mayxo'r-u ..." 63
"Dahrin menga sensiz bu bahori ..." 63
"Farhod men erurman, qara, ..." 64
"Uradi tez yuragim, balki ..." 65
"Dedim, e gul, asir etding meni ..." 65
"Dahan-u la'li labi chashmayi ..." 66
"Anbar sochilur, qoyilayi ..." 66
"Shukr ayla, ko'ngil, suhbati ..." 67
"U iki zulfida ruxsorayi jonon ..." 67
"Na zaxmi g'amzasidir bu, na ..." 68
"Har dam may ichib, ul ..." 69
"Demak holi dili zorim u gulruxsorga ..." 69
"Ko'rsatur masjidni zohid, der, ..." 70
"Ko'ngil ovlar uchun, ey gul, ..." 70
"Mayl agar qatlimga zolim dilbari ..." 71
"Xat keldi yuzi dilbara, ey ..." 72
"Xayol etma, ko'zimdan shu yuzimga ..." 72
"Ahli ishqning, zohido, jismindagi ..." 73
"Ko'rinsa ro'zi mahsharda agar ..." 74
"Yor menga g'azab qilsa, dili ..." 74
"Ul quyosh yuzli nigor ishq ahlining ..." 75
"Bulbulining eski dardin yangi gul, ..." 75
"Qayda qoldi men u oy-la ishrat ..." 76
"Shu odatki go'zallarda hamisha ..." 77
"Bu keksa ko'ngil yangi bir ahli ..." 78
"Qayda ul oyga hamog'ush bo'lganim ..." 78
"Mening ko'nglimni rom etgan ..." 79
"Yodga tushsang, ko'nglim-u, oh, ..." 79
"Ey oy, senga bu ohi damodam ..." 80
"Gahi ko'zing, gahi qoshing, ..." 80
"Yana Sayyid u go'zalni o'ziga ..." 81
"Sencha g'am dafini dildan ul ..." 82
"Mendayin badbaxtga avval ahli ..." 82
"Ne baxt, kimning seningdek ..." 83
"Keldi fikring ko'nglima, yo Rabki, ..." 83

"Eshitirman, yuragimdan o'kirik ..." 84
"Qasdi jon aylar, u fatton ko'zlaring ..." 85
"Ofitobi zarfishon yo bodayi ..." 85
"Ishq ahliki, xoli labi jononni ..." 86
"Har go'zalda, kun kelur, husn-u ..." 87
"Ey gul, senga holi dili shaydoni ..." 87
"Sevgan odam yorni ko'rib, ko'ngli ..." 88
"Yuz sarvi xiromon aro ko'nglim seni ..." 88
"Dudog'in ochsa u gul, har ..." 89
"G'unchaning bag'rin azaldan bu ..." 90
"Dersanki, manga huri-yu g'ilmon ..." 90
"Bu jahonda ishq-muhabbat qadrini ..." 91
"Tuproqda tajallo qiladir xoliqi ..." 91
"Mavjud-u falak, har yaratiq , ..." 92
"Qaro ko'z, to'xta, ayt lutfan, bu noz-u ..." 93
"Mozoriga u bir shisha mayi gulob ..." 94
"Husn aro Yusuf biror jonon bilan ..." 94
"Ko'ring, maydan ne fitna ..." 95
"Bu ko'nglim zavq olar doim ..." 95
"Aylar sharob la'li labingda ..." 96
"Ko'nglim ezilib, siynayi yuz ..." 97
"Ey ko'ngil, la'li labi jononga ..." 97
"Bo'ldi sensiz bu chaman men ko'ngli ..." 98
"Seni, ey gul, vafodor deb yurardim, ..." 98
"Faqr-u fanoni bilmas edim, ..." 99
"Necha mohro'y go'zal Shirvonda ..." 100
"Sochini zulmati davron dedilar, ..." 100
"Tutashdim o'tlara, oldim dili ..." 101
"Shuncha chekdim iztirob, lek ..." 102
"Ism o'zi bir ism erur, ammo ..." 102
"Bir oyni sevib, ko'kka ..." 103
"Toki og'zing sirriga pinhon ..." 104
"Na xushdir, bir zamon bir dilrabo ..." 104
"Bu karvonni, sen, ey sorbon, ..." 105
"Ne uchun hol ahlini solgay baloga ..." 106
"Durdi may bordirki, bizda dardi ..." 106
"Fayzing agar bo'lsa-da xalqqa ..." 107

"Bir zamonlar ul yuzi oy birla ..." 107
"Jon tozalanur la'li durafshonini ..." 108
"Aylading yorimni yor ag'yora, ..." 109
"Shodmanki, ko'ngil bo'ldi u zulf-u ..." 109
"Bo'libdir holi zorimdan u mahvash, ..." 110
"Garchi sarv o'xshar ayolga, lek ..." 110
"Zulfiga bo'lding asir, bilgaymi yoring, ..." 111
"O'z so'ziga bu shahar voizi etsaydi ..." 112
"Yetdi vasli yor ila bayramga ham ..." 113
"Ayriliqda suratim qoldi xolos, ..." 113
"Bu gulshanda sochib xushbo'y ochilsa ..." 114
"Na bugun bog'da nigorim, na mayim ..." 115
"Na yaxshi, bir zamon u shoh ..." 115
"Yo'q iloji, men netay, ko'nglimda ..." 115
"Chiqib, ey moh, ..." 116
"Kim agar etgay meni ul ..." 117
"Kirib hammom aro dildorni ko'rdim, ..." 118
"Yor ila fursat topib, bir damki ..." 118
"Yetkazing shaydoman nigora, ..." 119
"To u oyning xatti xoliga nigoh ..." 119
"Endi yorga hasratim aytib, shu ..." 120
"Ka'bayi ushshoq o'zing, sendan ..." 121
"Har zamonkim, halqayi zulfi kajing ..." 121
"Shunchalar hijron tuni sen ..." 122
"To sahar shomi firog'ing kavkabistondir ..." 122
"Qaro soching emish yuzinga bir ..." 123
"G'azalni sayratib, sadoyi bir ..." 124
"Kun kelsa, fido jonimi jonona etardim, ..." 124
"Naylaram gulzorniki, sen ..." 125
"Zamoni ehtirosimdir, bu kun ..." 126
"Agarchi sensiz erur ahli ..." 126
"Ey gul, senga avvalda xaridor ..." 127
"Yana may sun, yana bir yangi ..." 127
"Bog' ichra kelib, yorni u ag'yor ..." 128
"Qoshiga aylaram nazar, fikri hilola ..." 129
"Laylini sevib, ishqida g'avg'olara ..." 129
"Vaslinda edim, zahmati hijronni ..." 130

“To o‘zimga yor ko‘yinda gizli ...” 131
“Ey ko‘ngil, sarvi sumanda sen eding, ...” 132
“Sen tufayli ne zamonki, yuz malomat ...” 132
“G‘ami hijron tuzog‘inda asir-u ...” 133
“Qo‘liga olsa qayda sho‘xi guluzor ...” 134
“Lablaring aylab havas, jonimga jon ...” 134
“O‘zimda bo‘lsa ixtiyor, jahonga men ...” 135
“Azaldan may ichib, mayxonayi ...” 136
“Bu kecha bir oy bila avji Surayyoda ...” 137
“Ko‘rdimki, kelur bunga nigorim, ...” 138
“Ey, nuri samovot-u zamin, garchi ...” 138
“Ayon ko‘z birla boqqanga nihonsan, ...” 139
“Qani bir kaski, yetirsa menga jonon ...” 140
“Chidamay hijra, ko‘ngil, ...” 141
“Netayin, majlis aro bo‘lsa-da ag‘yor ...” 141
“Voizni nechun so‘ylatar, ey maychi, ...” 142
“Yetar, ey dil, havasi zulfi girehgir etding, ...” 142
“Qatl etay deb ko‘kragimga otdi yuz ...” 143
“Yo Rab, biravi arzimi jononga yetursin, ...” 144
“Ko‘zim sendan bo‘lak jononga gar boqsa, ...” 144
“Gar tanamdan jon olishga kelsa ...” 145
“O‘sha kun kelsin-u majlisga u dilbar kelsin, ...” 145
“Kimki istar, o‘zni sarvar, shohi ayyom ...” 146
“G‘azab qilganda jonon gah, gahi bir nozi ham ...” 147
“Jam ekan, ruxsoringa zulfing parishon aylading, ...” 147
“Istarsan umr, ey dili shaydo, farah o‘lsun! ...” 148
“Ey hamdami xush so‘z, menga ...” 149
“Sevin, ming bor shukr qil, dil, xabar keldi ...” 149
“Dilbasta bo‘lmasaydim agar ul zulfi yora, ...” 150
“Ko‘ray deb bir yuzing, yuz dard-u g‘amga ...” 150
“Tun oqshom bir makonda bir nigori soda ...” 151
“Zolim o‘sha oy zulfi-da iymon olar endi, ...” 152
“Bir qaro sochlik go‘zalga, eh, giriftor ...” 152
“Ey ko‘ngil, shukr et, kelur ul oy bizim ...” 153
“Yuz-u xattingmi shifo bu dili yuz pora ...” 153
“Men o‘ylar edimki, menga sen yor ...” 154
“Bir-da ko‘rsam ko‘z ochib gar ul guli ...” 154

"Ey labi jonbaxsh suyuklim, bitta jononim ..." 155
"Bir dam manga boq, ey ko'zi xumor, ..." 156
"Sham o'zi ravshan o'lur yongani parvona ..." 156
"Keldi farmon mushafi ruxsori ma'nosi ..." 157
"Bulbulni yuzing ochding-u shaydo ..." 158
"Ko'rib yuzin nurini ko'yi yora keldim men, ..." 158
"Ey, la'li labing shirayi shakkar kabi ..." 159
"Men o'ldim, boshga ul dildor kelsin, ..." 159
"Istagim — ko'rmoq seni hech kimga ..." 160
"Baski, berar jafolari har dam safo menga, ..." 161
"Mayxona taraf, soqi, ayoq bos, ..." 162
"Ey, ko'zing ayni xudo, "nuni qalam" ..." 163
"Voiz, dema aqlingni yo'qotar shu ..." 163
"Menga mehmon edi ul sarvi xiromon ..." 164
"Aytdim, ey sarvi ravon gul misli ..." 165
"Men dedim dilbarga, kel, jabr-u jafodan ..." 165
"Ey bodi sabo, ko'yi habibga guzar ..." 166
"Bu shahar zulmatidan dilbari mohpora ..." 167
"Na bo'lur bazmima ul guluzor bir-da ..." 167
"Jafo-ku kori deya ul nigori, qo'yma, ..." 168
"Hech ketolmasman yonindan, u demish, ..." 168
"Kimki bir mayxonani bu dahr aro ..." 169
"Noz birla yuzindan..." 169
"To tushdi dillara g'aming-u ishq hikoyati," 170
"Xush ul zamonki, qopingda gadoligim ..." 171
"Sensiz, ey ruhi ravon, tanda tovonim ..." 172
"Bo'lmasaydi menda, yo Rab, bu muhabbat, ..." 172
"Yana bir noma bilan esladi u yor meni, ..." 173
"Rahm etmadi ahvolima yorim, shumi ..." 173
"Oh, o'shal kunlarki, bazmimda nigorim ..." 174
"Past falak ajratdi oxir guluzorimdan meni, ..." 174
"Bir agar kirsa u zohid o'sha mayxona sari, ..." 175
"Mening hambazmim o'tgan kun o'shal sho'xi ..." 175
"Bu kun, ey do'st, chaqirib yurma u sahroga ..." 176
"Qochdi husning jilvasindan u quyosh-u ..." 177
"Esib epkin, yechar bir-bir qabosin ne-ne ..." 177

"Bu jahonning oxiri ermas fanodan ..." 178
"Ey, sen yuzi samoning xurshid-u nuri ..." 179
"El degaylar, rosa uch yuz yilki Odam ..." 179
"Agar bo'lsaydi u gulda Yusufning ..." 180
"Ko'zimga qismat o'ldi tun xoling ..." 181
"Yonimda hech yomonlab, ayblamang ..." 181
"Ko'rsa yosh to'kkay ko'zim, ey, sen ..." 182
"Bu ko'ngilni ovlamoqqa ovchi ul ko'z, ..." 183
"Yuz ochib, zulmatni yor zulfi dutodan ..." 183
"Bo'lsaydi shu bazm aro, yo Rab, ..." 184
"Gul emasdir chorlagan sahni gulistona ..." 184
"Bilmamki, bu na fitnayi davri qamar ..." 185
"E, ko'ngil, u gul uchun nola-yu zor ..." 186
"Har oshig'i dilso'xta o'zin maylida ..." 186
"Qani men ko'rgan o'shal dilbari zebo, ..." 187
"Tirikman to, o'shal mayxonadan uzmam ..." 188
"Qo'y, qarorimni olib, xor, beqaror ..." 189
"Meni tark aylagan avval o'shal buti chaman ..." 189
"Xol-u xating bo'lmish dili vayrona ..." 190
"Lablaring o'pdim, ko'ngil bo'ldi mayi ..." 190
"Dil oshiq o'lib zulfiga, savdolara ..." 191
"Bog'ni tashlab bu sahar ul guli ra'no ..." 192
"Ey, ravzayi behishti jamoling nishonasi, ..." 192
"Yor husniga xat keldi, ko'paydi savodi, ..." 193
"Derdimki, ko'ngil zer-u zabar o'lmasin, ..." 193
"Ziloliy lablaring "aynan tusammo ..." 194
"Bir-da bazmimda mening u buti ..." 195
"Ey, do'st, Safo! Etding mudom sen ..." 195
"Ko'rmadi sendek bir oyni charxi ..." 196
"Bu ko'ngilki, bo'lsa gar u mahliqodan ..." 197
"Alminnatu lilloh, g'ama g'amxor ..." 197
"Bu fitna bila etdingiz tag'in fasona ..." 198
"Bo'lay qurbon u ko'zlarga, ko'ribdir ..." 198
"Ruxsori garchi chohda jozib bir ..." 199
"Oshiftaligim zulfi siyoh tori ..." 200
"Netarsan endi, bulbul, bunda ..." 200

"O'zim ketsam-da ul ko'yda dili ..." 201
"G'ayr ila yorim kezur, ko'rdimki, bir ..." 202
"Gar vasli bo'lmasa, kerak emas bahori, ..." 202
"Intizorlik haddan oshdi, guluzorim ..." 203
"Ishq ahli erur har biri bir jona xaridor, ..." 204
"O'ldirar, ko'nglim, sog'inching — u go'zal ..." 204
"Naylayin gulshannikim, ul guli axmar ..." 205
"Netar qon yig'lasang, ey ko'z, o'shal..." 206

Mirzo Aliakbar Sobir

XO'P-XO'PNOMA

Karim Bahriyev tarjimalari

Millat qancha tor-mor bo'lsin, ne ishim bor?! 208
Ul kunki, senga xoliq etar lutf bir avlod 209
Bilmam ne ko'ribdur bizning o'g'lon o'qimoqdan?! 211
Mohi kan'oning botar, ey piri kan'on, g'am yema! 214
Qarilikdan shikoyat 214
Boku qashshoqlariga 215
Jahd ayla, sen andoq nazari xalqda pok bo'l 217
Etdi bu falak har kimga bir tavri yomonliq 218
Qo'zg'olma, omondir, bolam, g'aflatdan uyg'onma! 220
Tahsili ilm 221
Ota nasihati 223
Oh aylaganim nash'ayi kalyon uchundir 224
"Hayot"ning "qo'p-qo'p"iga javob 226
Xonimchalarga oid 227
Javoblar javobi 230
Boku pahlavonlariga 231
Otganimiz tosh edi da'vo kuni 232
Ko'pni ko'rgan kampirning qizlarga nasihati 233
Bolalarga 236
Men bilmas edim, baxtda bu nekbaxt bo'larmish 238
Har ne bersang, ber, mabodo berma bir dirham zakot 240
Shundoq bilardim ki, yana subh bo'ldi 241
Ne bo'lur shirinmazoq etsa bul halvoyi hurriyat 241
Ey azizim, xalafim... 242

Siradan bir telba shayton aytar: insonlar, insonlar! 246
Amalimiz, afkorimiz mahvi Vatandir 247
Sarhisob 248
Yig'lama 249
Voy, voy! Ne yomon mushkulga tushdi ishim, Alloh! 250
Pinhonimiz, oshkorimiz afsonayi zandir 252
Ha, de ko'ray, ne bo'ldi, bas, ey bolam, iddaolaring? 253
Faqir, o'zingni sen ham bir inson bilasanmi?! 256
Noahl bo'lganga matlabni anglatib bo'larmi?! 258
Boq, taajjub, ne og'ir uyquda o'g'lon, o'likday! 260
Asilona tarona 261
Layli-Majnun 262
Mazlumlik etib, yo'l berma faryodga, ekinchi! 265
Al minnatu lilloh ki, "Dabiistan" ham yopildi! 267
Muallimlar 268
Vaqti ki, bo'lur bir uyda motam 270
Faxriya 271
Qo'rqaman 274
Ba'zi yerlarda tasodif kelarlar oshga, ota 275
Muallimlar syezdi 276
Choptirma oting, kirma bu maydonga, ey mulla! 278
Ikki savolga bir javob 280
So'ldimi gulzoring, ey foiqi no'mon pisar 282
Ey on ki, ulumi madaniydan xabaring bor 283
Savol-javob 284
Bemarhamat a'yonlaringga shukur, xudoyo! 285
Maktub 286
Tuhmat etar gazetchilar, — mahshari nosi boshqacha!.. 287
Tosh qalbli insonlarni naylarding, ilohim?! 288
Fisinjon 289
Bizga ne?! 290
Magarki, hamyoni zulmat 291
Shirvon 292
Bir cho'ntakda achchiq nosim, bir cho'ntakda oq manat 293
Shikoyat 294
Usmonlilar, aldanmangiz, Allohni sevarsiz! 295

Men shohi shon-u shavkatman, eron menikidir 297
Istiqbolimiz bir lofdir 298
Navqiron 299
Yashamoq istar esak, tom avom bo'lmoq kerak! 300
Odamni odam aylagan poradir 302
Millat qo'shig'i 302
G'ilay 304
Oltmish yillik umrim bo'ldi senda barbod, Ardabil! 305
Eyvoh ki, xosiyati millat yo'q bo'ldi! 307
Yo'qol eshikdan, yig'lama zor-zor, tilanchi! 309
Va'z etganing ishondi, sen ammo ishonmading! 310
O'qitmayman, qo'l torting! 311
Qoch, ot bosdi! 313
Ko'rganda inson bir arbobi sarvat yuzini 315
Tindirar asr bizni — tinmagaymiz 315
Ahli eronda, boq o'g'lon, yana himmat ko'rinur! 316
Bizni aldama, xojam, har so'zingda! 317
Orif yugurar ki, millat ozod bo'lsin 317
Tun yotib, Mir Hoshimni tushda ko'rdim, so'yladim 317
...Deydi 318
Qaysi olchoq bir qo'lning yozgani xatdir u ki 318
Yo'ldoshim, uyqudamisan? 318
Boshqa millatdin huquqin olmoq uchun har zamon 318
Kech o'qirkan bir maktab mudirining maktubini 319
Bir dasta gul 319
Alhazar, qo'yma boqsa aksimga zohid ki, uning 320
Orif kimdir? — deya so'rdim, dedilar bul zamonada 320
Der edik bir zamonlar biz kamoli faxr-u himmat-la 320
Yoshsan, qashshoqlikdan shikoyat qilma 320
Na'ra tortib, shod bo'ling, eronlilar! 321
Qurbon bayrami 321
Zohidlarga 322
Savol 323
Javob 324
La'nat senga, ey johil, nega bedod etarsan! 324
G'ofil yashamoqdan afzaldir o'lmoq 324

Millatning holi parishon shundoq 324
Ovro'poda Mamdalining ishqbozligi 326
Tush 328
Eyjon! 329
El aytar nomimni ming la'nat ila 330
Azroilning iste'fosi 330
Yig'lagan har kishi g'ayratsiz bo'lur 331
Ko'p aytma —sarvat-u somonliman, ey falon! 334
To'rt tilli aytishuv 334
Butun Ovro'poda kamyob ekan, ammo Bokuda 335
Ey pullilarning safosi, Navro'z! 335
Bayram tuhfasi 336
Shundoq bir tarjima kim, Shekspir ruhi zirqirar... 336
Ashhadu billohi aliyul aziym 336
Alhamdulilloh ki, bu kun baxtga yor bo'ldi boshimiz 337
Satirik parchalar 338
Tutdim ro'zani ramazonda 338
Bobom — shia, o'zim — sunniy, "Durak"man 338
Tangri har yerda pulni bir yuragi saxtga berar 338
Xumsiy sharobni sayyidga berib, soqiy dedi 339
She'r bir gavhari yakdonayi qiymatlidir 339
Sen piri jahondirsen, ey, sayyidi sarkor... 340
Sobiri shaydo ki, ... 340
Tarki shahri Shirvon ayladi 340
Musulmon va armani vatandoshlarimizga 340
So'z 342
Millat nolasi 343
Hasrat 344
O'xshatma 345
Tarbiya 345
Dunyo bir muddat bo'ldi manzilimiz 346
Onalar bezagi 346
Onalar bezagi 2 347
Notiqqa xitob 348
Havas 349
Kim Xudo ne'mati shukrin tark etur 350

Nola arbobi kamol aylagay tahsin menga kim 350
Istayman o'lmoqni men, lek qochar mendan ajal 351
Azobi g'amlar dastidan yuragim Shishgan edi 351
Kunim yomon o'tdi shahri shirvonda 352
Qo'yma, kelsa, soqiyo, zohidni mayxonaga 352
Har sariq mo'yingda ming oshiqi noloning bor 353
Ko'changni xunobayi chashmim-la namnok aylarman 354
Istasang, ko'nglim kabi zulfing parishon bo'lmasin 355
Ey dil, omondir, sirringni begona bilmasin! 355
Maktab qo'shig'i 356
Maktabga targ'ib 357
Ilmga targ'ib 359
Bola va muz 360
Bahor kunlari 360
Maktab bolalariga tuhfa 361
Maktab shogirdlariga tuhfa 362
Tabib ila xasta 363
Keksa bog'bon 364
Chumoli 364
Bola va pul 365
Iskandar va faqir 367
Kumush egasi va sel 368
Mullo Nasriddin va o'g'ri 368
O'rgimchak va ipak qurti 369
Qimmat olib, arzon sotgan tojir 370
Yolg'onchi cho'pon 371
Sharhlar 373

Muhammad Hodiy

SHE'RLAR

Abdurahmon Vodiliy va Rauf Parfi tarjimalari
Hayot sadolari 398
Karim Bahriyev tarjimalari:
Birinchi davlat dumasining tashkil topishi munosabati ila so'zlanmishdir 418
Biz ne holdamiz? 420
Qalamga 421

Taronayi g'amparvarona 422
Qizlar bog'chasi 424
Maorifga doir 425
Maktab 427
Maktab qo'shig'i 428
El faryodi 429
Go'dakning tavsiyasi 430
Millat taronasi 431
Vatanim nidosi 433
Mulla Nasriddinga 434
Dod istibdoddan! 435
Alvido. Yoki achchiq bir iqror 437
Nimamiz bor? 438
Kimdan kimga shikoyat etaylik 439
Vatanparvarona tarona 440
Oh, kimsasiz Vatan 442
Istiqbolimiz porloqdir 444
Parishonlik ash'ori yoxud so'lgan chechaklar 447
La'nati millat! 449
Qalam nima deydi? 450
Jaholatimdan shikoyatim 453
Bu ham bir haqiqat 454
So'fiy-zohidga 454
Hubbi Vatan 455
O'qi, bil, o'rgan 455
Latif jins vakilalariga 457
Yig'layotgan she'rlar 458
Tilak bo'lmas 459
Vaqtning sasi va hayotning so'zi 461
Qamarga 462

TURKIY ADABIYOT DURDONALARI

SAID AZIM SHIRVONIY
MIRZO ALIAKBAR SOBIR
MUHAMMAD HODIY

61-jild

Adabiy-badiiy nashr

Muharrir *Sunnat Xo'jaahmedov*
Badiiy muharrir *Shuhrat Mirfayozov*
Dizayner *Bobur Tuxtarov*
Texnik muharrir *Yelena Tolochko*
Kichik muharrir *Zilola Mahkamova*
Musahhih *Iroda Umarova*
Sahifalovchilar: *Shahlo Buriyeva, Islom Azamatov*

Tasdiqnoma raqami № 4642. 22.07.2020-y.
Bosishga 18-oktabr 2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x90 $^{1}/_{16}$.
Ofset qog'ozi. "PT Astra Serif" garniturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 30,0. Nashriyot-hisob tabog'i 22,37.
Adadi 1 185 nusxa. Shartnoma № 128-1/22. Buyurtma raqami № 22-344

Original maket O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining "O'zbekiston" nashriyotida tayyorlandi.
100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.
Telefon: (71) 244-34-38, (71) 244-24-91.

"O'zbekiston" NMIU MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: 100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

S 21 Said Azim Shirvoniy, Muhammad Hodiy, Sobir Aliakbar [Matn]: nazm / to'plovchi va nashrga tayyorlovchi Karim Bahriyev. – Toshkent: "O'zbekiston nashriyoti", 2022. – 480 b.
ISBN 978-9943-8725-9-2

UO'K 821.512.162-1
KBK 84(5Ozar)-5